

Аримин

Пуна

Пиза

ика

Oral Ernazarov

Алания

РИМ

Остия

Анкона


АДРИАТИЧЕСКОЕ МОРЕ

Корфиний

Сардиния

РИМ НУКУКИ

тирическое море



O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Oral Ernazarov

RIM HUQUQI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lif vazirligi o'quv – uslubiy kengashining qarori
bilan huquqshunoslik institutlari va fakultetlari
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

"Namangan" nashriyoti
2005'

Mas'ul muharrir:
Omonboy Oqyulov – yuridik fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:
Yo'lidoshali Pahimov – yuridik fanlari doktori, NamDU rektori.
Mirzaahmad Jiyanova – yuridik fanlari nomzodi, dotsent, HamDU huquqshunoslik fakulteti dekani.

Huquqshunoslik fanlari nomzodi Oral Ernazarovning "Rim huquqi" darsligida qadimgi Rim davlatida vujudga kelgan, fundamental huquq sohasi, huquq resepti, jahon madaniyatining bebaho huquqiy xazinasi bo'lgan Rim huquqining (Rum xususiy huquqining) paydo bo'lishi, rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar yig'indisi o'rganiladi.

269482 / 3



НГ $\frac{497 - 952,14 - 1124950}{498 - 9,0 - (10) - 05}$ 2005

© O. Ernazarov, «Namangan» nashriyoti



Nam DU fuqarolik huquqi va protsessi kafedrasining mudiri, yuridik fanlari nomzodi, dotsent Oral Ernazarov 1943-yil Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Jom qishlog'ida tug'ilgan.

U ToshDU yuridik fakultetini bitirgan. Prezident Devoni va Vazirlar Mahkamasida yuridik masalalar bo'yicha faoliyat yuritgan. Konstitutsiyaviy sud raisining o'rinnbosari bo'lib ishlagan.

Oral Ernazarovning 60 dan ziyod ilmiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop maqolalari e'lon qilingan. Shuningdek, u "Rim fuqarolik huquqi" o'quv qo'lmasining hammuallifidir.

SO'Z BOSHI

Namangan Davlat universiteti huquqshunoslik fakulteti «Konstitutsiyavii huquq» kafedrasi tomonidan taqdim etilayotgan «Rim huquqi» o'quv darsligi XX asr muqaddam Rim quldorchilik davlatining mahsuli bo'lgan, barcha mavjud bo'lgan huquqlarning reseptini belgilab, jahon tarixining bir elementi hamda huquqiy madaniyati yodgorligi sifatida o'z o'rnnini qoldirgan, burjuaziya fuqarolik va savdo huquqlarining vujudga kelishi uchun asos bo'lgan jahon madaniyatining buyuk ma'nnaviy huquqiy xazinalaridan biri - Rim huquqi haqidadir.

Bu fan o'quv rejalarini asosida «Rim huquqi», «Rim fuqarolik huquqi asoslarini» yoki «Rim xususiy huquqi» deb atalsa-da, uning mazmun va mohiyati o'zgarib qolmaydi, chunki qadimgi Rim quldorchilik davlatining birdan-bir huquqi fuqarolik xuquqi hisoblangan, hatto dastlabki paytlarda jinoiy jazo bilan bog'liq harakatlar ham fuqarolik huquqiy munosabatlari asosida tartibga solingen.

«Rim xususiy huquqi» deb atalishiga sabab, bu fuqarolik huquqi tomonidan xususiy munosabatlari, ya'niy natural daraxatlar, asosan «muqaddas mulk» hisoblangan xususiy mulkka asoslanganligi hamda bu munosabatlari ko'proq xususiy shaxslar ya'ni jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar bilan bog'liq bo'lgan holda mavjud bo'lganligidan kelib chiqqan.

Rim huquqi insoniyat tarixida huquq rivojining eng yuqori darajasini aks ettirib, hukuqiy madaniyat elementlaridan biri, ya'ni Rim yurisprudensiyasini tashkil etgan.

O'tmishdagi voqeа-hodisalar va huquqiy asarlarni o'rganish, ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish O'zbekistonda insonparvar, huquqiy-demokratik, fuqarolik jamiyatini kurishda, ayniqsa qonunlarni ishlab chiqishda, ularni turmushga tatbiq etishda o'z samarasini berishi turgan gap.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi... Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir»...

Rim huquqini o'rganish har bir malakali yurist uchun eng dastlabki zaruriyatlardan biridir.

Ushbu o'quv darsligi talabalarga Rim huquqining kelib chiqishi, uning predmeti, manbalari, shaxslar, oilaviy huquqiy munosabatlari, mulk huquqi, meros huquqi, majburiyatlar va shartnomalarning alohida turlari bilan tanishishga yaqindan yordam beradi.

Ushbu darslik o'zbek tilida binnchi marotaba chop etilayotganligi bois muallif kamchilik va nuqsonlarga oid fikr, mulohazalarini bildirgan barcha o'quvchilarga oldindan o'z minnatdorchiligini izxor qiladi. Bildirilgan fikr, mulohazalar kelajakda darslikning yanada mukammalashuviga ko'maklashadi, deb umid qiladi.

M.X.Jivanov,
NamDU huquqshunoslik fakulteti dekanı,
yuridik fanlari nomzodi, dosent.

I BO'LIM. Rim fuqarolik huquqi asoslari fani predmeti

- 1-§. Rim fuqarolik huquqi predmeti.
- 2-§. Rim huquqining ekspluatasiyaga asoslangan davlatlar huquqi rivojlanishidagi roli.
- 3-§. Rim fuqarolik huquqi asoslarini o'rganishning O'zbekiston yuristlari uchun ahamiyati.

1-§. Rim fuqarolik huquqi predmeti¹

Rim huquqi insoniyat tarixida huquqlar resepti sifatida asosiy o'rindan birini egallab, jahonda o'zining aniq, teran va beba ho fikr-mulohazalari, huquq ijodkorligining manbai sifatida, huquqiy madaniyatning eng yuqori cho'qqisiga intilgan holda, huquqiy yodgorlik xazinasi, merosi sifatida tan olinib, fuqarolik huquqining poydevorini tashkil etgan.

Rim quidorlik tuzumining dastlabki patriarchal, arxaik tizimiga asoslanib, o'zining kichkinagini xo'jaligini, milliy manfaatini ifodalaydigan jamoa asosida jahon hududiga sezilmaydigan, payqab olinishi murakkab bo'lgan davlat sifatida vujudga kelgan.

Lekin kichkinagini civitas Roma - Rim davlati doimiy ravishda rivojlanib, taraqqiy etib, o'ziga yaqin bo'lgan hududlarni qo'shib olib, mustahkam Italiya davlatini vujudga keltirdi va O'rta yer dengizigacha bo'lgan masofaga cho'zilgan, o'sha vaqtgagi butun madaniy jahonni egal-lagan davlatga aylandi. Ya'ni Rim - jahon sinonimi deb tan olindi...

Ayniqsa, Rim davlati fuqarolik huquqiy munosabatlarni rivojlan-tirishda, quidorlik jamiyatining huquqiy ta'limatlari va qonunchiligini ish-lab chiqishda o'z o'rni bilan nihoyatda beqiyosdir.

Rim davlati vujudga kelishidan avval jahon siyosiy sahnasida O'rta yer dengizi havzalarida Misr, Gresiya, Karfagen, Finikiya davlatlarida xalqaro savdo munosabatlari keng darajada olib borilar edi. Bu munosabatlars esa o'z navbatida Rim davlatini ham o'ziga tortgan. Lekin o'sha paytdagi Rimning milliy odat, an'analarga asoslangan arxaik huquqi bu munosabatlarga javob bera olmas edi. Rim davlati esa butun jahonga ta'sir eta oladigan, xalq chaqiriqlariga javob bera oladigan universal huquqning vujudga kelishini kutardi.

U mavjud xalqaro munosabatlarga ham aniqlik, teranlik va mustah-kamlik bag'ishladi hamda shundan buyon antik davlatlarning umumiyl hu-quqiga aylandi.

¹ Рим хуқуқи деганда, Рим фуқаролик хуқуқи асослари, Рим фуқаролик хуқуқи ва Рим ҳусусий хуқуқи тушунилсин. (Изоҳ бизнеки- О.Э.).

Rim fuqarolik xususiy huquqi asoslari Rim davlatining fuqarolik bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlarni o'rganibgina qolmay, balki alohida shaxslarning, fuqarolarning mulkiy munosabatlari, mulk bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy xarakterdagи hamda umuman mulk bilan bog'liq bo'lma-gan «bosha shaxslarga o'tkazib va berib bo'lmaydigan» shaxsiy va oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi fandir.

Qadimgi Rim jamiyatida fundamental huquq sohasi sifatida dastlab fuqarolik huquqi vujudga kelgan. Dastlab barcha sodir etilgan harakat, munosabatlар, odat normalari, an'analar, ajodolar marosimlari, din orqali tartibga solingan edi. Keyinchalik bu normalalar jamiyat rivoji natijasida asta-sekin yozma ravishdagi munosabatlarga o'ta boshlagan.

Shu asosda vujudga kelgan yozma ravishdagi munosabatlар dastlab fuqarolik huquqiy munosabatlarni keltirib chiqardi. Ularning harakat doirasi nihoyatda keng bo'lgan. Barcha harakatlar, hatto jinoyat elementlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlар ham, dastlab fuqarolik huquqiy normalari bilan tartibga solinib, fuqarolik huquqining rivojlanishi uchun mustaqil asos va zamin tayyorlagan.

Bundan ikki ming yil ilgari quldorlik tuzumi asosida qadimgi Rim jamiyatida buyuk Rim fuqarolik huquqi vujudga kelgan bo'lib, u ikki qis-miga, ya'ni ommaviy (publichnoye) va xususiy (chastnoye) huquqlarga bo'lingan. Bu huquq milodiy I-III asrlar, prinsipiati, Rim sinfiy huquqiy davri III va VI asrlar o'tasidagi mutlaq monarxiya davrining mulkiy, shaxsiy nomulkiy xarakterga ega bo'lgan munosabatlarni hamda oilaviy huquqiy munosabatlarni o'rganadi.

Mashhur qadimgi Rim tarixchisi Tit Liviy (miloddan avvalgi 59 - milodning 17 yy.) Rimdagи mavjud bo'lgan odat normalaridan kelib chiqqan yozma qonun XII Jadval qonunlarini «ommaviy va xususiy huquqning ham manbasidir», deb haqqoniy ta'riflaydi.

XII Jadval qonunlari miloddan avvalgi 451-450 yillarda vujudga kelgan va barcha mavjud og'zaki odat normalarini yozma holatga keltirib, mujassamlashtirib qonunga aylantirgan. Ana shu qonun Rim fuqarolik huquqi rivojida eng birinchi asoslardan biri bo'lgan.

Rim davlatida ommaviy (ius publicum) huquq deganda, davlat manfaatlari, erki, huquqiy holatini himoya qiladigan, statusi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardan tashkil topgan munosabatlар tushunilgan.

Rim davlatining mashhur yuristlaridan biri Ulpian ommaviy va xususiy huquqning bir - biridan farqini belgilashda o'z tushunchasini quydigicha ifodalaydi:

«Ommaviy huquq - bu davlatning huquqiy holati (statusi) bilan belgilanadigan, xususiy huquq esa - alohida shaxslarning manfaati, foydasi bilan bog'liq harakatlardan tashkil topgan...».

Bu ta'rifdan ko'rinish turibdiki, ommaviy huquq haqiqatdan ham davlat manfaatini ko'zlovchi, uni himoya qiluvchi huquqiy normalardan iboratdir. Rim fuqarolik huquqida ius (yus) so'zi turlichayani «huquq», «huquqdorlik», «vakolat», «huquq normalari» kabi tushunchalarda, mazmunda ishlatib kelingan.

Ommaviy huquqda esa, «huquq normalari» sifatida qo'llanilib, u davlatni idora etish, davlat organlari tizimi, ularning vakolati, kompetensiylari, mansabdar shaxslar tushunchasi, muassasalar, davlat irodasini, erkini amalgalashiruvchi hujjatlar va barcha fuqarolar uchun majburiy va bajarishti shart bo'lgan hamda shaxslarning kelishish asosida o'zgartirilishi mumkin bo'lмаган huquqiy normalar yig'indisiga tushunilgan.

Shuning uchun, ommaviy huquq davlat statusi bilan bog'liq bo'lganligidan kelib chiqib, xususiy huquq esa alohida fuqarolarning erki, irodasi va manfaati bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishligini e'tiborga olib, biz Rim davlatining xususiy huquqi (ius civili) ni o'rganamiz.

Xususiy huquq prinsipiat davrida qisman bo'lsa-da alohida shaxslarning erki, irodasi, manfaatini ko'zlar ekan, u eng avvalo, huquq sub'yektlariga ixtiyorilik, mustaqillik, xohish-irodasini e'tiborga olish, fuqaroning o'z huquqini himoya qilishligi, qilmaslikni o'zi hal etishligini, da'vo qilish yoki rad etish, merosni qabul qilish, yoki undan voz kechish kabi va boshqa munosabatlarga kirishni o'z ixtiyori, erki asosida amalgalashirgan.

Rim davlatida xususan fuqarolik huquqida ius civili (fuqarolik huquqi) keng qamrovli tushunchalardan iborat bo'lgan.

Ius civili deganda, ba'zan pretorlar huquqiga qarama qarshi qo'yilgan, ko'pchilik holatlarda esa shu davlatdagagi barcha huquqiy normalarning yig'indisi yoki davlat qonuni deb ham tushunilgan, hatto iqtisodda hukmron bo'lgan sinf o'z erki, manfaatini amalgalashirishda bu tushunchalardan o'z maqsadlari yo'lida foydalangan.

Lotin tilida fuqarolik civilis (sivilis) degan tushunchani bergen, lekin ius civili qadimgi Rim quzdorlik davlatida asosan fuqarolik huquqini anglatgan bo'lsa ham, lekin hozirgi zamon fuqarolik huquqida to'liq bu tushunchani anglatmaydi. Rim quzdorchilik davlatida ius civili asosida birinchidan, qadimgi Rim davlatining milliy huquqi tushunilib, ular faqat kviritlarga qo'llanilgan. Shuning uchun ba'zan uni «kviritlar huquqi» deb ham atashadi. Xuddi shu holatda bu huquq, ya'ni kviritlar huquqi sifatida xaiqlar huquqi ius gentium (yus gensium)ga qarama qarshi qo'yiladi.

Chunki, xalqlar huquqi butun Rim davlatidagi istiqomat qilib turgan barcha insonlarga qo'llanilgan.

Xalqlar huquqi - peregrinlar va Rim fuqarolari hamda boshqa fuqarolarga, fuqaroligi bo'rnagan shaxslarga ham qo'llanilganligi uchun uni fuqarolik huquqining ma'lum bir turi deb tan olingan.

Ushbu munosabatlardan kelib chiqib, Rimda uchta huquqiy tizim vujudga kelgan, ya'nii sivil huquqlari, xalqlar huquqlari va pretorlar huquqlari hamda hozirgi zamon tushunchasiga va talablariga asosan bu uchala tizimning yig'indisi ius rrivatum (yus privatum), ya'nii xususiy huquqni keltirib chiqargan.

Rim xususiy huquqining asosiy maqsadi, quzdorlar erki, manfaatini ko'zlab, qullarning ob'yekt ekanligini va ular mehnatidan foylalanish uchun qonunlarni istagancha talqin etish, mulkdorlarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lgan. Lekin Rimda yashab turgan barcha fuqarolar ham ozod bo'lib, Rim fuqarosi sifatida tan olingan. Rim jamoasiga kiritilmagan shaxslarning barchasi dushman sifatida ko'rilgan va ularga «hostis» (xostis - dushman degan ma'noda) qarashgan.

Haqiqatdan ham, Rim fuqarolik huquqi yaxshilik, ezhulik, adolat va qonuniylik tamoyillariga asoslanar ekan, ular uchun quzdorlar, qullar va shu hududda yashab turgan barcha insonlar hamda aholi teng huquqga va burchga ega bo'lganlar. Bunga misol qilib, imperator Yustinian Digestida «To'g'ri yashamoq, boshqa odamga zarar keltirmaslik, har kimiga o'ziga tegishli bo'lgan narsani bermoq» degan mazmundan shu narsa kelib chiqadiki, Rim huquqining asosini yaxshilik, adolat va qonuniylik tashkil etgan. Lekin birovning mehnatiga asoslangan har bir jamiyat o'zining iqtisodda hukmron bo'lgan sinflarning erkini, manfaatini ko'zlaydi va bu manfaatlarni qonunlar asosida mustahkamlaydi va Rim davlati ham bundan mustasno bo'limgan.

Rim fuqarolik xususiy huquqi asosan mulk huquqi, boshqa shaxslarning mulkiga bo'lgan huquqlarni, ashyoga bo'lgan huquq, shartnomalar va majburiyatlar haqidagi ta'limotlarni, oilaviy- huquqiy va meros (vorislik) huquqiy munosabatlarini o'rganadi.

Bulardan tashqari, fuqarolik xususiy huquqlarini himoya qilish institutini, ya'nii da'volar haqidagi ta'limotlarni o'rganadi.

2-§. Rim huquqining ekspluatasiyaga asoslangan davlatlar huquqining rivojlanishidagi roli

Qadimgi Rim huquqi insoniyat huquqi tarixida noyob o'rinni egal laydi. U antik jamiyatda va umuman butun qadimgi va o'sha davrga nis-

bat: n eng yuqori darajada rivojlangan huquqni aks ettiради. Qachonlardir, Rim huquqini «yozma aql» deb ataganlar.

Rim huquqi avvalo juda xilma-xil ijtimoiy munosabatlar va hodis-alarni g'oyat darajada keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

U juda katta bilim va yuksak hayotiy tajribalar asosida o'sha davrning mashhur olimlari, yuristlari tomonidan yaratilgan.

Haqiqatdan ham, Rimda birinchi bo'lib cheklanmagan xususiy mulkchilik huquqi, eng mukammal huquq shakli ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan. Bu huquq tovar ishlab chiqaruvchilar jamiyatining birinchi jahonshumul huquqi bo'lib hisoblanadi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar jamiyatining birinchi jahonshumul huquqini oddiy tovar egalari o'rtaсидаги muhim huquqiy munosabatlarning hammasi (xaridor va sotuvchi, kreditor va qarzdor, shartnoma, majburiyat va hokazo) tafsili bilan va juda aniq qilib ishlab chiqilgan. Rim huquqini fuqarolik huquqini o'rganishda asos qilib olmoq ham mumkin.

«Bu huquqiy tizimning mukammalligi dunyoga chuqur huquqiy tahlil etish va nafis yuridik texnik namunalarini beruvchi yurisprudensi-yada ham o'z ifodasini topgan». Rim fuqarolik xususiy huquqidida xususiy mulk egalarining mulkni egallah, foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq munosabatlari hamda ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilishning xilma-xil usullarini mohirona va ustalik bilan ishlab chiqilgan. Shakan milliyligi bilan ajralib turuvchi Rim huquqi o'z zamirida juda boy huquqiy madaniyatni vujudga keltirib, u sivilizasiya taraqqiyotining keyingi bosqichlarida insoniyatning muqaddas umumiyligi bo'lib qolgan.

Rimda birinchi bo'lib yuksak obro', izzat-ikromga ega bo'lgan yuristlar jahonda huquqshunoslik (yoki huquq) reseptlarini ishlab chiqdilar, ya'ni barcha huquqlar vujudga kelishi, ularning takomillashib borishini hamda kelajakda barcha huquq sohalarining rivojlanishini belgilab bergenlar.

Yuristlar bularni oldindan ko'ra bilganlar, shu sababli qadimgi Rim huquqshunoslari «huquq ijodkorlari» deb atashgan. Bu yuristlarning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'lganki, ular qonunlarni har tomonlama talqin qilganlarida ham, huquqlarning kafolatlarini ta'minlashga asosiy e'tiborni qaratganlar.

Miloddan avvalgi III asr o'rtalarigacha, dastlab kvirit (fuqarolik) huquqi tanho hukmron huquqiy tizim bo'lib kelgan. U o'zining muqaddas xarakteri, ko'p darajada an'anaviyligi, qadimgi Rim huquqi (kvirit - fuqarolik) odat normalari va marosimlarining bog'liqligi bilan ajralib turgan. Bu xususiyatlar, ayniqsa XII Jadval qonunlarida ham o'z ifodasini topganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Kviritlar Rimning tub fuqarolari bo'lib hisoblanib, urug'doshlik tizimidan kelib chiqqan hamda natural xo'jalik,

ya'ni oddiy dehqonchilik davlati, jamoa shartnomalari belgilarini o'zida etirgan.

Bu huquq o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlarida faqat Rim fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan va Rim fuqarosiga barcha imtiyozlarni yaratib bergenligi bilan ajralib turgan. Dastlab, kviritilar huquqi Rim fuqarolariga ko'p vakolatlar, xususan respublika siyosiy hayotida ishtirok etish, davlat fondidan yer uchastkasi ajratib olishlik kabi imkoniyatlarni bergen edi. Bunday huquqlarga ega bo'lmagan plebeylar butun il's respublika davrida patrisiyalar bilan huquqlarini tenglashtirish uchun kurash olib bergenla. Natijada fuqarolik huquqida ko'zda tusilgan barcha imtiyozlarda plebeylar ham foydalanadiigan bo'lganlar.

Kvirit (fuqarolik) huquqi ilk sinfiy jamiyatning oddiy natural munosabatlarni o'zida aks etirgan. U uzoq vaqt kohinlar-pontifiklar tizimiyati bilan bog'liq bo'lgan edi.

Rim huquqining taraqqiyotida va uning shakllanishida kohinlar mohim o'rinni egallaganlar. Ayniqsa, ular ichida pontifiklar ajralib turgan. Pontifiklar ma'lum bir davr mobaynida sud ishlari bo'yicha yuridik faoliyat bilan bog'liq munosabatlarni tartibga sclib turganlar.

Ijtimoiy munosabatlarning yanada takomillashuvi natijasida, Rim huquqida asta-sekin dunyoviy asoslar kuchayib borsada, lekin o'zida ko'pgina dabdabalikni va marosimiylikni hamda dastlabki odat nor nalarini saqlab qolgan. Shu bilan birga e talabchanligi bilan, hatto shafqatsizligi, aniq ta'kidlanganligi bilan ajralib turgan. Arxaik Rim fuqarolik huququ o'ziga xos xususiyati mulkiy munosabatlarni, birinchi navbatda xususiy mulk huquqini aniq tartibga solganligi bilan ajralib turgan. Xususiy mulk huquqi mulk egasining o'z ashyosi ustidan to'la hukmronlikni ko'rsatgan. Lekin fuqarolik jamoasi yarlarni va boshqa xo'jalik huquqi uchun muhim va oilaviy xarakterga ega bo'lgan mulklarni tasarruf etish oliy nazorat qilish huquqini uzoq vaqtgacha o'zida saqlab qolgan.

Kvirit (fuqarolik) huquqida tantanali sud odatlariiga yoki sud prosessi o'tkazish tartiblariga qat'iy amal qilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bois, bu davrda shakl mazmundan, sud jarayoni esa, moddiy huquqdan ustun turgan. Rasmiyatchilik ilk sinfiy jamiyatda hayotning patriarchal tizimining saqlanib qolishi va qaytadan tikanishi uchun yordam beradigan mustahkam huquqiy tartibotni ushlab turish shartlaridan biri bo'lgan edi. Lekin u ob'yektiv jihatdan faqat xususiy mulkchilik munosabatlarining rivojlanishini to'xtatibgina qolmay balki, ijtimoiy va siyosiy hayotning demokratik shakllarini ham to'xtatib qo'ygan.

Rim quldarlik davlatining fuqarolik huquqi o'zining ijtimoiy mohiyatiga ko'ra konservativ xarakterga ega bo'lgan bo'lsa ham, ammo tashqi savdo huquqiy munosabatlarning yanada takomillashishi, o'sishi natijasida

quldorchilik tizimining ehtiyojlari bilan qarama-qarshilikka uchray bosh-lagan va bu munosabatlarda chet el fuqarolariga yoki Rim jamoasi fu-qaroligiga ega bo'lмаган shaxslarga ham biroz huquqlar berilgan, ya'ni xalqlar huquqlari (ius gentium- yus gensium)ni keltirib chiqqarganlar. Shunday qilib, biroz chegaralangan holda bo'lsa ham, ozod bo'lgan shax-slар va boshqa fuqarolar o'tasida tenglik vujudga kelgan. Bu tenglikni miloddan avvalgi 212 yilda imperator Karakalli o'zining farmoni bilan mustahkamlagan.

Rim davlatining asosiy huquqlaridan biri bo'lgan Rim fuqarolik hu-quqi asoslari o'zining individual xarakteri, ya'ni xususiy mulk huquqi institutining chegaralanmaganligi bilan, iqtisodda hukmron bo'lgan sinflarga - quldorlarga, savdogar boylarga keng huquq va imkoniyatlarni yaratishligi bilan ajralib turgan.

Üning o'ziga xos xususiyatlardan yana biri - shartnoma institutining keng asosda qo'llanilishidir. Shartnomalarning yangi shakllarini ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiq etish, shartnoma shartlarini real va lozim da-rajada bajarishlikni ta'minlash, ayniqsa shartnoma sub'yektlarining teng huquqliligin e'tirof etish, shartnomani bajarmagan shaxsga, ya'ni qarzdorga eng og'ir bo'lgan mulkiy javobgarlikni qo'llash asosida kelib chiqqan.

Rim fuqarolik huquqi, ayniqsa individualizm (hatto o'zi tomonidan o'rnatilgan bo'lib), («ota hukmronligi» institutiga ham o'xshab ketadigan) tamoyili nihoyatda mustahkam, o'z huquqlarini va harakat doiralarini mustaqil belgilaydigan, o'z mulkiga, oila mulkiga, jamoasi mulkiga oila boshlig'ining hukmronligini ta'minlash, faqat o'zi tomonidan mulknı egal-lash va undan foydalanishni belgilash, hatto tasarruf etishning ham o'zi bilan yoki mulk huquqining mutloq egasi bilan bog'liq bo'lib, o'z hukmronligi va o'zining manfaati orqali amalga oshiriladi.

Individuallik, hatto - uy boshqaruvchiligidagi, mulk egaligida, quldor ekanligida va boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarda va harakat-larda ham yaqqol ko'zga ko'ringan.

Rim huquqi munosabatlarda ayniqsa, so'zlarni, tushunchalarni o'z joyida va maqsadga muvofiq ishlata bilishlik, huquqning aniqlilik darajasi va amaliyot bilan bog'liqligi, bulardan tashqari barcha vujudga kelgan mu-nosabatlarning iqtisodda hukmron bo'lgan sinfning erki, irodasini va man-faatini ko'zlashligi bilan boshqa huquqiy sohalardan farq qilgan.

Qadimgi Rim fuqarolik huquqi hozirgi (Angliya va Amerika qonun-laridan tashqari) barcha burjua mamlakatlari huquqlaridan, qonunlaridan o'zining quyidagi xususiyatlari bilan farq qilgan:

a) Rim huquqida huquq ijodkorligi eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Pretorlar o'z ediktleri orqali yangi qonunlarni, huquqiy normalarni vujudga

keltirgan. Rim huquqshunoslari har bir masalani (kazusni) hal qilayotgan davrda aniq (aniq predmetli bo'lgan) bir fikrga kelib, huquqiy normalarni qabul qilganlar, ya'ni ularda «xalqning tirik ovozi» jaranglab turgan. To'g'ri, burjua davlatlariда ham kodekslar, konstitusiyalar, novellalar yoki shunga o'xshash qonun to'plainlari mavjud bo'lgan, ammo ularning ko'pchiligi aniq (konkret) bo'lgan sud ishlarini yoki boshqa huquqiy munosabatlarni ko'rib chiqish asosida vujudga kelmaganlar;

b) Burjua davlatlarida, MDH davlatlarida, Sharq mamlakatlarida ham har bir sohalar bo'yicha konkret qonunlar, asoslar, kodekslar, ulojeniyalar(tuzuklar) va boshqa qonunlar tusiga ega bo'lgan hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, ammo ular abstrakt normalar asosida vujudga kelgan. Rim yuristlari tomonidan qabul qilingan qonunlar va normativ hujjatlar amaliyotga yaqinroq asosda bog'liqligi bilan hamda Rim yuristlari fikr, mulohazalari pretorlarning zaruriy qarorlari asosida mustahkamlanib yanada yuqori mavqega ega bo'lgan. Yuristlarning o'zлari ham pretor tomonidan qabul qilingan ediktarning mazmunini, tuzilishini, qonunlar talablariga mos holda keltirishlik uchun yordam bergenlar va ular obro'sining doimo o'sib borishini ta'minlaganlar;

v) Qadimgi Rim fuqarolik huquqi asoslarida konservativizm tamoyili mavjud bo'lsa ham, ammo uniнg tez orada ilg'or, yetuk munosabatlarni, ijobjiy harakatlarni tezda qabul qilishligi va eski normalar, bugungi vujudga kelgan munosabatlarga to'liq javob bera olmay qolsa, yuristlar eski qonunlarni yo'qqa chiqarmasdan, uning o'rniغا yangi normalarni o'yaganlar, ba'zan pretorlar orqali o'z ediktlariga o'zgartirish kiritish yoki qonunlarni, odat normalarining mohiyatiga ta'sir etmasdan, o'zлari qonunlarni to'ldiruvchi, unga qo'shimcha kirituvchi yoki o'zgartiruvchi fikrlarni, jumlalarni, takliflarni kiritib, hukmron bo'lgan sinfnинг manfaatini amalga oshirishlikni ta'minlab bergenlar.

Xuddi shunday qilib, sivil mulki qatorida bonitorlar yoki pretorlar mulki, fuqarolik asosida meros qoldirish, vorislik munosabatlarni hal etish bilan birgalikda meros huquqiy munosabatlarni tartibga solishda pretor tizimi ham yordamga keldi.

Rim fuqarolik huquqi - xususiy huquq sifatida doimo izchil asosda, eski normalarning o'rniغا yangi qonun qoidalarni kiritib, amaliyot bilan uzviy bog'langan «xalqning tirik ovozi»ni e'tiborga olib rivojlangan huquq tizimi sanalib jahon tarixining huquqiy elementi sifatida o'z o'rniغا egadir.

Yuqorida qayd qilinganidek, Rim huquqi - qadimgi quidorlik jamiyatining dastlab yagona rivojlangan huquq tizimi bo'lib e'tirof etilgan.

Rim huquqi quidorlik tuzumining iqtisodiy asosini mustahkamlashda, qullarning yoki boshqa shaxslatning mehnatidan foydalinishda, yirik xususiy mulklarning vujudga kelishida va tovar pul muñosabatlarni

ing rivojlanishida muhim rolni o'ynagan bo'lsa ham, ayniqsa uning huquq resepsiysi sifatidagi funksiyasi hozirgi vaqtga qadar davom etib kelmoqda. Rim fuqarolik xususiy huquqining huquq resepsiysi shundan iborat bo'lgan-ki, quldorchilik hamda feudalizm ijtimoiy - iqtisodiy formasiyasining vujudga kelishligida, feodal va burjua huquqiy munosabatlarning rivojlanishida asosiy manba bo'lib hisoblangan. Bu huquq resepsiyasini qo'llashlikda jahon mamlakatlari quyidagi asoslardan kelib chiqqan va chiqmoqda, ya'ni Rim xususiy huquqining huquqning rivojlanishdagi roli ikki holat bilan izohlanishligi:

1. Rimliklar birinchi bo'lib, cheklanmagan xususiy mulkchilik huquqini ishlab chiqqanlar va rivojlantirganlar;
2. Bu huquqda shartnoma masalalari atroflicha ishlab chiqilib, turli xil shartnomalar (oldi-sotdi, qarz, zayom va boshqa) munosabatlarning barchasi tartibga solingan.

Rim xususiy huquqi odatlar, an'analar, qonunlar, senatorlarning qarorlari, senatus-konsultlar, magistrlarning ediktleri, farmoyishlari, farmonlari, imperatorlarning konstitusiyalari, Rimning ko'zga ko'rинган yuristlarining asarlari, yangitdan ijod etgan normalari va qoidalari asosida vujudga kelganligini e'tirof etganlar.

Dastlab, Rim fuqarolarining huquqiy holati Rim xalqining ya'ni kviritlarning an'analar, dini, urf-odat normalari bilan chambarchas bog'liqligi, hatto kviritlarga berilgan imtiyozlardan kelib chiqqan holda aniqlangan, shuningdek, plebeylarning o'ziga xos bo'lgan odat normalari, turmush an'analar, qoidalarinining mavjudligini va xalqlar huquqlarining vujudga kelishini ham e'tiborga olib Rim huquqining resepsiyasidan foydalaniganlar.

Haqiqatdan ham, XII asrlardan boshlab, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va boshqa mamlakatlar o'zining savdo-sotiq, sanoat va boshqa sohalarining yanada rivojlanishi natijasida o'zaro hamkorlikni, shartnomaviy munosabatlarni ko'proq amalga oshirish imkoniyati zaruriyatga aylandi. Bu esa yangi huquqiy ustqurmaga asoslanishlikni talab etar edi.

Ko'pchilik davlatlarning munosabatlari davlatlararo huquqiy munosabatlarni talab etib, ilgarigi odat huquqiy normalari chegarasidan chiqishlikni, aynan bu odat normalari ijtimoiy rivojlanish uchun to'siq bo'lib qolganligi, ulardan chiqib, yangi huquqiy normalarga asoslanishni taqozo etdi va bu huquqiy normalar - Rim xususiy huquqi timsolida tashkil topdi.

Rim xususiy huquqi Rim davlatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yanada takomillashgan davrida o'zining milliyligi, hududiyligi, hamda odat normalaridan holi bo'lganligidan va barcha xalqlar o'rtasidagi ho'jalik huquqiy munosabatlarni tartibga sola olishligi bilan farq qilib, bir necha

davlatlar o'rtaida qo'llana olishligi mumkin bo'lgan davlatlararo yoki davlatlar uchun «umumiyluq» asosida tan olina boshlandi.

Rim davlatining xususiy huquqi Rim davlatining yemirilishi oqibatida bir necha yuz yillar o'tgandan so'ng, feodal va burjuaziya huquqiy munosabatlarning, ayniqsa Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari huquq sohalarining vujudga kelishligi uchun ham poydevor bo'lib hizmat qildi.

Darhaqiqat, bu davlatlarning huquqini rivojlantirishda asosan Rim xususiy huquqining resepsiyasi kuchli bo'ldi. Ayniqsa, huquq resepsiyasi Germaniya huquqida to'liq o'z ifodasini topdi, ya'ni Germaniya «Muqaddas Rim imperiyasi» degan nomni o'ziga o'tkazib oldi. XVII-XIX asrlarda Angliya, Fransiya va boshqa ko'pgina g'arbiy mamlakatlarda ko'p sonli qonunlar qabul qilindi. Bulardan eng muhimmi va eng mukammal qonunlar deb XIX asr boshlarida Napoleon davrida Fransiyada qabul qilingan fuqarolik va jinoyat kodekslarini tilga olsak bo'ladi va ularda Rim huquqining ta'siri katta edi...

Napoleon Bonapart esa davlatga kelishdan oldin, Rim imperiyasida qo'llanilgan konsul, birinchi konsul mansablariga erishishlikni orzu-havas qilgan. Boshqa davlatlarda senatning tashkil topishi, imperator titulining ko'p davlatlarda qo'llanishligi Rim quidorchilik davlatining xususiy huquqi tomonidan erishilgan yutuqlarning boshqa mamlakatlar tomonidan qabul qilib olinishining ifodasi edi.

Albatta, feodal va burjua huquqlari rivojlanishida, Rim xususiy huquqiga asoslanishida ba'zi bir to'siqlarga uchrab, huquqiy normalarni yangi vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarga moslashtirib olishlik bilan amalgalashirildi. Bu davrda Rim huquqini nazariy asosda ishslash bilan birgalikda uni zamon talabiga moslashtirish, hayot tajribasi asosida uning resepsiyasini qabul qilish, modifikasiyani amalgalashirish, zamonaviy fuqarolik oborotini huquqiy tartibga solishlik uchun harakatchan huquqqa aylantirish vazifasi kun tartibida turardi. Shunday harakatlardan biri sifatida Germaniyada XVI-XVII asrlarda Pandektlar huquqi va sistemasi vujudga keldi. Rim huquqining ba'zi normalarini biroz bo'lsa-da, mazmunan buzgan holda «Zamonaviy Rim huquqini» (modernus Pandectarum - modernus Pandektarum) vujudga keltirdi. Rim huquqining manbalariga qayta sharhlar, rasmiy bo'lmagan qayta ishslashlar amalgalashirila boshlandi...

Rim xususiy huquqi butun jahonda universitetlar, institutlarda «Rim huquqi tarixi», «Rim xususiy huquqi», «Rim fuqarolik huquqi» degan nomlar bilan o'qitilyapti. Hatto birlashgan Germaniyada Pandektlar tizimi bilan Gay Institusiyalari alohida fan sifatida o'qitildi. Afrika, Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika davlatlarida, Xitoy Xalq Respublikasida, Kuba

Sosialistik Respublikasida va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida universitetlar o'quv rejalariga «Rim xususiy huquqi»ni kiritganlar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari Rim xususiy huquqi fuqarolik va savdo huquqiy sohalari qonunlarini ishlab chiqishlikda, ularni takomillashtirishda normativ asos sifatida ishlatib kelinmoqda.

Sharqiy Amerika mamlakatlarda esa, Rim xususiy huquqi o'zining fuqarolik, savdo va boshqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda o'zining asosiy manbalari bilan qoshimcha manba sifatida qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, yangi vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlari, ishlab chiqarish munosabatlari yangi huquqiy normalarga asoslanishni taqozo etdi va XVII - XIX asrlardagi burjua fuqarolik huquqining rivojlanishiga Rim xususiy huquqi ham nazariy, ham amaliy huquqiy asos bo'ldi.

3-§. Rim fuqarolik huquqi asoslarini o'r ganishning O'zbekiston yuristlari uchun ahamiyati

«O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. ... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi... inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir» deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» deb nomlangan asarida...

Haqiqatdan ham, tarix fan sifatida jamiyat taraqqiyotining ob'yektiy qonunlari haqidagi bilimlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan, ularni tu-shunish, jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini ko'ra bilishiga imkoniyat yaratadi.

XX asr muqaddam vujudga kelgan, Rim quldarlik davlatining fuqarolik xususiy huquqi tarixini o'r ganish O'zbekiston yuristlari uchun dol-zarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi insonparvar, mustaqil, suveren, huquqiy davlat sifatida fuqarolik jamiyatini qurar ekan, u o'zining iqtisodiy - siyosiy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlari orqali jahondagi barcha davlatlar bilan shartnomalar tuzish, ularni bajarishlik munosabatlarini olib bormoqda va barcha davlatlar tomonidan de-yure sifatida tan olingan.

O'zbekiston yuristlari jahon madaniyatining huquqiy yodgorligi sifatida o'z o'rnini qoldirgan Rim huquqini o'r ganmasdan, uning ildizlariga yetmasdan, burjua huquqini to'liq anglab olishlik nihoyatda murakkab ekanligini juda yaxshi tushunib yetadi. 1804 yilgi Napoleon Fuqarolik Kodeksidan boshlab, 1900 yilgi Germaniya Fuqarolik tuzuklari majmuasi (ulojeniyelari)va boshqa Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlarining fuqarolik va savdo kodekslari Rim fuqarolik xususiy huquqining normalariga asoslanib qabul qilingan, chunki ularning eng asosiy maqsadi, xususiy

mulkni, «muqaddaslashtirish»dir. Shu bilan birga iqtisodda hukmron bo'lgan sinf vakillarining erki, irodasi va manfaatlarini qonun darajasiga ko'tarib, uni mustashkarilashdan iboratdir.

Rim huquqshunoslari xususiy mulk asosiga ega bo'lgan eng muqaddam mal huquq shaklini ishlab chiqqanlar va uni jamiyatning birinchi jahonshumul huquqi asosida c'tirof etg'anlar.

Rim huquqshunoslari sivilistik fuqarolik huquqiga o'z bo'lgan tushunchalarini, ya'nii shaxstar tushunchasi, fuqarolik huquqiy va munosabati, layoqati, da'vo muddatları, ashylari, mulk huquqi, boshqa shaxslarning mulkiga bo'lgan huquq, uning turlari va elementlari, mulkka bo'lgan egalik tushunchasi, foydalanish va tasarruf etishlik, shartnomalar, majburiyat huquqi, oila-nikoh munosabatlari, vorislik va boshqa fuqarolik huquqida qo'llaniladigan ko'pchilik terminlarni, so'zlarni ishlab chiqqanlar va bu ifodalarning barchasi, O'zbekiston Fuqarolik huquqida va boshqa huquqiy sohalarda kuchli ijtimoiy siyosatni qo'llashlikdan, ya'nii kam ta'minlangan shaxslarning moddiy huquqlarini va shaxsiy huquqlarini himoya qilishlikdan kelib chiqib, to'liq qo'llanilib kelinmoqda.

Rim huquqining yuqori darajada ishlab chiqilganligi, hamda uning o'z mohiyatini to'liq saqlab qolganligi, shundan dalolat beradi-ki, XX asr muqaddam ishlab chiqilgan majburiyat tushunchasi ya'nii «majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir yoki bir necha shaxslar boshqa shaxs (yoki bir necha shaxslar) foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki ushbu harakatlarni amalga oshirishdan o'zini saqlashga majburdir», degan tushuncha hali ham o'zgargani yoki unga muhim bo'lgan birorta o'zgartirishlar, qo'shimchalar yoki to'ldirishlar kiritilgani yo'q...

Albatta, bu tushunchalar XX asr muqaddam vujudga kelgan va ba'zi birlari o'z mohiyatini yo'qotgan bo'lisligi mumkin, lekin ko'pchilik tushunchalar Fuqarolik huquqida to'liq asosda qo'llanilib kelinmoqda.

Ayniqsa, Rim yuristlarini «huquq ijodkorlari» deb atashganlar. Ular har bir vujudga kelgan voqelikni harakatdagagi bo'lgan qonunlar asosida hal qilar ekan, uning kelajagini ham o'ylaganlar, natijada yangi-yangi tafakkurlarni vujudga keltirib, qonunlarni o'ylab chiqarganlar.

Burjua huquqi Rim huquqining sharbati bilan sug'orilgan. Rim huquqini bilmasdan turib, burjua huquqining mohiyatini, mazmunini tushunib yetish ancha murakkab.

O'zbekiston yuristlarining barcha jahon davlatlari bilan yuridik munosabatlarda qatnashishligi, ularning huquqlarini bilihlikni taqozo etadi. Buning uchun, burjua huquqi asl manbasini o'rganishda, Rim xususiy huquqini o'rganishlik talab etiladi.

Rim huquqini «yuridik terminlar laboratoriysi» deb ham ataganilar. Bu terminlarni, ya'ni yuridik texnikani o'rganish, yuristlar tomonidan qonunlarni qabul qilishlikda, ularni takomillashtirishda, puxta va lo'nda asosda, juda aniq va tushunarli bo'lgan so'zlarni ishlatishda ham katta yordam berishligi mumkin.

Bulardan tashqari, Rim huquqi har bir qonunni yoki normativ hujjatlarni qabul qilishda har tomonlama fikrashib, yuridik tafakkurning kuchli ta'siri ostida vujudga kelgan normalardan iboratdir. Uni o'rganish yuristlar tomonidan yuridik tafakkurlash qobiliyatining kuchayishiga olib kelib, qisqa va aynan halqqa tushunarli qonunlarni, qarorlarni va boshqa hujjatlarni qabul qilishlik uchun nazariy imkoniyat yaratishi mumkin.

I bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Rim fuqarolik xuquqining tushunchasi, predmeti va turlarga bo'linishini qanday tushunish mumkin?
2. Ius civile, ius privatum, ius gentium tushunchalarining farqlari va o'zaro bog'liqligi nimalardan iborat?
3. Rim xususiy xuquqining huquqni rivojlantirishdagi rolini izohlab bering?
4. Rim fuqarolik huquqi asoslarini o'rganish O'zbekiston yuristlari uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Rim xususiy huquqining boshqalarning mehnatiga asoslangan davlatlar huquqining rivojlanishidagi rolini isbotlab bering?
6. Rim xususiy huquqining davrlarga bo'linishi nimalar bilan bog'liq ?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq»NMK, 1998 yil.
2. Pereterskiy I.S., Krasnokutskiy V.A., Fleyshis YE.A., Rozental I.S., Noviskiy I.B. Rimskoye chastnoye pravo. M., 1948.
3. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix institutov i yuridicheskix fakultetov. Pod redaksiyey I.B.Noviskogo i I.S.Pereter-skogo. M., 1948.
4. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956, 1960, 1972 gg. izd.
5. Dronnikov V.K. Rimskoye privatnoye pravo. Izd-vo, Kiyevskogo universiteta. Kiyev., 1961.
6. Ioffe O.S., Musin V.A. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. Uchebnoye posobiye dlya studentov. L., 1974.
7. Galanza P.P. Gosudarstvo i pravo Drevnogo Rima. MGU, 1963.

8. Kosarev A.I. Rimskoye pravo. M., 1986.
9. Podoprigora A.A. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. Kiyev, 1990.
10. Omelchenko O.A. Osnovo' Rimskogo prava. M., 1994.
11. Chernilovskiy Z.M. Rimskoye chastnoye pravo: Elementarno'y kurs.- M.: Novo'y yurist, 1997.
12. Pereterskiy I.S. Digesto' Yustiniana. M., 1956, 1984.
13. Saidov A.X. Sravnitelnoye pravovedeniye: Uchebnoye posobiye. Otv. red.: V.A. Tumanov-T.: «Adolat», 1999.
14. Muhamedov H. Horijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. Toshkent, «Adolat», 1999.
15. Urazayev SH.Z. Rimskoye pravo. Uchebnoye posobiye.-T.: Akademiya MVD Respublikи Uzbekistan, 2000.
16. Ernazarov O.E., Topildiyev V.R. Rim fuqarolik huquqi. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2001.

II BO'LIM. Rim fuqarolik huquqining manbalari

- 1-§. Rim huquqi manbalarining tushunchasi va turlarga bo'linishi.
- 2-§. Odat normalari va qonunlar.
- 3-§. Magistratlar ediktleri.
- 4-§. Yuristlar faoliyati.
- 5-§. Rim huquqlarini kodifikasiyalash (bir tizimga keltirish).

1 -§. Rim huquqi manbalarining tushunchasi va turlarga bo'linishi

Rim quzdorlik jamiyatida vujudga kelgan Rim huquqi Rim yuristlari tomonidan qoldirilgan darsliklar, institusiyalar asosida o'rganilib kelinadi.

Darsliklar ichida eng mashhur ommabop institusiya bu Gay Institusiyyasidir. Ikkinci asrda faoliyat ko'satgan Gayning Institusiyyasi 3 qismdan iborat bo'lib, u «Shaxslar haqidagi ta'limotlar», «Huquq sub'yektlari haqida», «Ashyolar haqidagi ta'limotlar, ashylolarga bo'lgan huquq, maburiyatlar haqida» hamda «Da'veolar haqida»gi ta'limotlarga bo'lingan.

Mana shu ta'limotlar, mavjud bo'lgan odat huquqlarini va qonunlarining kelib chiqishligini, Magistratlar Ediktalarining Rim huquqini rivojlantirish va takomillashtirishdagi roli, yuristlar faoliyatlarining hatto qonunlarga tenglashtirilganligi va VI asr o'rtalarigacha barcha mavjud bo'lgan me'yoriy hujjatlarni bir tartibga keltirish (turkumlash) kodifikasiya qilishlik zaruriyati vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Rim huquqining manbalarini o'rganmasdan, undagi mavjud bo'lgan institusiyalarni o'rganish va o'zlashtirish nihoyatda murakkabdir, hamda institusiyalarning mazmuni ko'pincha manbalardan olingan va ularga asoslangan.

Qadimgi Rim tarixchisi Tit Liviy yuqorida ta'kidlaganimizdek, XII Jadv'al qonunlarini «ommaviy va xususiy huquqning umumiyligi manbasidir» deb ta'riflagan edi. Bu yerda «manba» so'zi tomir bilan bog'liq holda ishlatalib, Rim huquqini «katta daraxt» deb hisoblab, «uning tomiri, o'zagi shu daraxtni hosil qilgan yoki shundan o'sishi boshlangan» degan ma'no asosida, ya'ni manba asosida qarashgan.

Yuridik adabiyotlarda manba so'zi yoki uni ifodalash har xil asosda qo'llanilib kelinmoqda.

Ularni huquqiy normalar mazmunining manbalar, ularning ifodalanishi hamda huquqiy normalarning vujudga kelishligining usullari va huquqni bilishlik manbai asosida tushunilgan. Albatta, huquqiy normalar mazmunining asosiy manbaini shu jamiyatning iqtisodiy munosabatlari tashkil etadi.

Yuridik adabiyotlarda «huquq manbaları» so'zi boshqacha ma'nolarda ham ishlataladi, ya'ni qaysi yo'llar bilan bu normalar vujudga keladi, degan tushunchalar ham mavjud.

Huquqiy normalar - bu iqtisodiy hukmon bo'lgan sinfning erki, irodasi va manfaatini qonun darajasiga ko'tarib mustahkamlaydi hamda shu jamiyatning iqtisodi bu qonunlarni belgilab beradi.

Rim huquqining manbalarini aniqlashda fan, adabiyot, san'at asarlari vaholanki, ular huquqiy yodgorliklar bo'lib hisoblanmasa ham, lekin Rim yozuvchilari, komediantlari, san'atkorlari, tarixchilari yozgan asarlarida, qoldirgan yodgorliklarida Rim davlatining o'ziga xos bo'lgan manbaları ham ko'satilgan.

Ular o'z asarlarida Rim davlatining rivojlanish bosqichlarining manbaları, bir - biridan farqlari va huquqning rivojlanishiga ta'sirini adabiy asosda yoritib bergenlar.

Mashhur tarixchilardan Tit Liviy, Tasit, boshqa sohalar vakillari Svettoniy, Avl Gellyi, Ammian Marsellin, Rim grammatiklari Varron, Fest, Valeriy, Prob va boshqalar kabi zamonasining eng ilg'or vakillari o'z asarlar orqali Rim davlati huquqining manbalarini ochib berishlikda katta rol o'ynagan.

Manbalarni aniqlashda shu narsalarga, ya'ni yuristlar, oratorlar, yozuvchilar, komediantlar, romanistlar tomonidan qoldirilgan asarlar (ius)ga ham katta e'tiborni qaratganlar.

Yangi eramizdan ilgarigi birinchi asrda yashab ijod etgan mashhur orator yurist Mark Siseron asarlarida ya'ni «Davlat haqida», «Qonunlar haqida», «Majburiyatlar to'g'risida», «Tabiiy tarix», «Oratorlik haqida» degan asarlarida juda ko'p huquqqa taalluqli bo'lgan manbalarni keltiradi.

Ayniqsa, XIX asrga kelib, Rim imperiyasi davrida mozoratlarga qo'yilgan toshlarda, daraxt va terilarda, idish-tovoqlarda va qurilgan inshootlarda, o'z portretlari, tarixiy hodisalar, odat normalari, qullarning o'z xo'jayinlariga qilib turgan iltifotlari, buyuk insonlar rasmlari va boshqa bezaklar, yozuvlar orqali ham manbalarni boyitganlar hamda bu hujjatlar manbalar sifatida nashriyotlardan chiqarilgan.

Misr davlati tomonidan topilgan papiruslar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda yer bilan bog'liq bo'lgan mulk, yer, mehnat, hunarmandchilik jamoalariga taalluqli bo'lgan munosabatlar ifodalangan. Yunon va Rim huquqining qo'shilishida yoki birlashishida shartnomaviy huquqiy munosabatlarning keng qo'llanilganligi va bu munosabatlarning barcha huquq sohalariga taalluqliligining hamda shunga asosan tarix fanining manbashunoslik sohasini vujudga keltirishligi va hozirgi zamon tarixchilari tomonidan papirologiya fanini o'rganishliklari Rim huquqining manbalarini yanada boyitgan.

Rim fuqarolik huquqi asoslarining manbalarini yurist Gay o'z Institusiysida quyidagi turlarga bo'lgan:

Qonunlar, senatuskonsultlar, imperatorlar konstitu-siyalari, magistratlar ediktleri, yuristlarning yozma javoblari (yoki yuristlar faoliyat) kabi qismlarga bo'lingan. Lekin qadimgi Rim quldorlik jamiyatining eng birinchi manbalari odat normalari yoki odat huquqlari bo'lib hisoblangan.

Qadimgi Rim jamoasining eng asosiy manbalaridan biri bu odat normalari, turmush qoidalari, an'analari hisoblanib, dastlabki paytda ular to'liq diniy munosabatlardan bilan bog'liq bo'lgan.

Yustinian Institusiyasida ko'satsilganidek, Rim huquqida manbalar og'zaki yoki yozma shakllarda mavjud bo'lgan.

Og'zaki shakllardagi manbalarga odat normalari kiritilgan bo'lib, ular qonunlar, ya'ni yozma shakldagi qoidalarning zaruriyati talab qilinmagan vaqtida amalda bo'lgan va majburiy xarakterga ega bo'lgan og'zaki qoidalarni bo'lib hisoblangan.

2-§. Odat normalari va qonunlar

Dastlabki odat normalari ota-bobolar tomonidan o'rnatilgan normalar bo'lib, mores maiorum (mores mayorum) deb atalgan. Ya'ni bu normalar yozma ravishdagi qonun va huquqlar bo'limgan holda vujudga kelib, o'z obro'yidagi asosida fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, hatto vijdon erkinligi bilan bog'liq bo'lgan normalardan tashkil topgan.

Odat normalarining ikkinchi qismi usus (uzus) deb atalib, u yashash faoliyatida, amaliyot asosida vujudga kelgan normalar bo'lib, bu qoidalarga rioya qilishlik ham majburiy bo'lgan.

Rim huquqining asosiy negizi - umumlotinlar huquqi yoki odatlari bo'lib hisoblangan. Chunki, Rim davlati lotinlarning jamoasi bo'lib, nomen latinum (nomen latinum) deb atalgan.

Bu odat normalari birinchi bo'lib, yozma ravishda XII Jadval qonunlarida o'z ifodasini topdi. Bunga asos bo'lib ota hukmronligi instituti, er-xotin o'tasidagi munosabatlarning tartibga solinishi, vasiylilik va homiylilik tayinlash munosabatlarining vujudga kelishi va boshqa harakatlar hisoblanadi.

Rim davlatida qonunchilik faoliyatining davlat qo'liga o'tishi munosabati bilan, odat normalari o'z mohiyatini yo'qota boshladidi ya'ni qonunchilik faoliyatining davlat qo'liga o'tishi, odat normalari, kviritlar va sivil huquqlarning eskirgan, zamon talabiga javob bera olmay qolgan qismlarining kuchini yo'qotishi oqibatida, ularning funksiyalarini bajarishni yozma normalar o'z zimmasiga oldi.

Mashhur yurist Yulian fikricha, odat normalari prinsipiavt davrida «huquqning tirik manbai» hisoblangan, odat normalarining amalda ekanligining belgisi - uning uzoq vaqt mobaynida qo'llanishligi va xalq tomonidan jumlilik, rozi bo'lishlik asosida qo'llab-quvvatlanishligidir.

Jamiyat rivojlanishining yanada takomillashishi natijasida, odat normalari o'rniga yozma ravishdagi imperator qonunlari, magistratlar tomonidan qabul qilingan ediktlar, xalq majlislari qarorlari, oldindan qabul qilinishi lozim bo'lgan qaror yoki qonun loyihalarini tayyorlab, keyin xalq ovoziga qo'yila boshlandi. Xalq qonunni qabul qilishda ovoz berib, «men eski qonun uchun, men yangi qonun uchun ovoz beraman» degan javobni bergen. Qonun loyihalari va ularning mazmuni xalq qo'lidan o'tar edi. Respublikachilar davrida esa qonunlar xalq majlislari orqali o'tib, ularni leges (leges) deb ataganlar.

Prinsipiat davrida qonunlar senat tomonidan qabul qilinib, senatuskonsult deb atalgan, ular o'z mohiyati bilan prinsepslarning farmoyishlaridan iborat bo'lgan. Imperatorlar davriga kelib, imperator farmoyishlari qonun deb tan olinna boshlandi. Qonunlar oddiy qonunlarga va general qonunlarga bo'lingan.

Yangi eramizning birinchi asri oxirlariga kelib esa, xalq majlislarining qonunlarni qabul qilishi to'grisidagi vakolatlari qonuniy asosda yo'qotilmagan bo'lsa ham, amalda xalq majlislari qonunlar qabul qilishligni to'xtatib qo'ydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, miloddan avvalgi 451-450 yillar atrofida qabul qilingan birinchi Rim davlatining yozma qonunlari, ya'ni odat normalarining yozma ravishda yig'ilgan majmuasi XII Jadval qonunlaridir.

XII Jadval qonunlari (leges XII tabularum)

Rim quldorchilik davlatining rivojlanishida, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy hayotida XII Jadval qonunlarining o'rni mislsizdir, hatto bu qonundan Yustinian kodifikasiyasi orqali yollanma mehnatga asoslangan barcha davlatlar o'z qonunlarini qabul qilishlikda manba va poydevor sifatida foydalangan.

Albatta, bu qonunning kelib chiqishi plebeylar va patrisiyalar o'rtasida tinimsiz olib borilgan kurashga bog'liq. Bu qonun o'z ichiga Rim davlatining vujudga kelishligidan, ya'ni eramizdan oldingi asrlardagi harakatda bo'lgan odat normalari, an'analarli, diniy marosimlari, ota-bobolardan qolgan odat (mores maiorum) va amaliyot asosida vujudga kelgan (usus) turmush qoidalarini va boshqa jamiyat uchun kerakli bo'lgan munosabatlarni o'z tarkibiga olgan. Ana shu normalar asosida XII Jadval qonunlarini tuzish uchun 10 ta patrisiyidan (desemvir) iborat dastlabki komissiya tuzilgan. Bu komissiya a'zolarining saviyasi yuksak darajada bo'lmasigan. Dastlab bu komissiya 10 ta jadvaldan iborat qonunlar tayyorlaganlar, lekin uning matni Rim davlatida yashab turgan plebeylarning noroziligiga sabab bo'lgan.

Piebeylar o'zları ham boshqalar kabi teng huquqlarga ega bo'lishlik uchun timmay kurash olib borishgan va bu kurash huquq doirasida ham o'z Nodasini topgan. Rim davlatida istiqomat qiluvchi patrisiyarning magistratları va qohinlari hatto plebeylarning erkini, manfaatini e'tiborga olmasdan yozilmagan odat normalarini o'z manfaatlarını ko'zlagan holda sharhlab yuborganlar.

Plebeylar noroziliklaridan so'ng, o'tkir nizolar natijasida patrisiyalar dan ham, plebeylardan ham beshtadan a'zo tarkibida yangi komissiya tuzilgan va dastlabki ular tomonidan ishlab chiqilgan matn qayta ko'rib chiqilgan va yana ikkita jadval bilan to'ldirilgan. Shunday qilib, XII Jadval qonunlari vujudga kelgan. Albatta, XII Jadval qonunlari patrisiyalar va plebeylar uchun umumiy bo'lgan huquqni vujudga keltirgan. Uning faqat Rim fuqarolari uchun mo'ljallangan yagona kvirit yoki sivil huquqi bo'lib qolganligi shubhasiz. XII Jadval qonunlarining qabul qilinishi plebeylarning patrisiy qohinlarining yuqori tabaqasiga qarshi kurashi bilan ifodalangan. XII Jadval qonunlarining qabul qilinishi o'zlarida yozilmagan odatlarni va qonunlarni saqlash va sharhlash, sud da'volarining shakllarini ishlab chiqish huquqini saqlab qolgan va va bu huquqni suistemol qilib turgan pontifiklarning ilgarigi mavqelarining zaiflanishini tezlashtirgan.

Garchi XII Jadval qonunlarida qasamlardan foydalananish va boshqa diniy marosimlarga oid harakatlarni qilish ko'zda tutilgan bo'lsada, huquq endi diniy me'yordan ajratilgan va dunyoviy xarakter kasb etgan edi. XII Jadval qonunlari 12 ta mis lavhaga yozilib, Rim siyosiy hayotining markazi - forumlar o'tkaziladigan joyga hamma ko'rish uchun osib qo'yilgan edi.

Bu qonunlarni bilish hamma uchun majburiy bo'lgan, demak uni qabul qilinishi bilan Rim fuqarolarini dunyoviy huquqiy tarbiyalash zaruriyat tug'ilgan. Hatto, Siseron davrida Rim davlatida istiqomat qilgan bolalar XII Jadval qonunlarini yod olishga kirishganlar. XII Jadval qonunlarining asl nusxasi saqlanib qolimagan. Uning mazmuni XVI-XVII asrlarda ancha qiyinchilik bilan Rim mualliflarining asarlaridagi parchalar asosida qayta tiklangan.

Darhaqiqat, XII Jadval qonunlari Rim davlatida mavjud bo'lgan odat normalarini toplash va unga ishlov berish ifodasıdir. Ularga Janubiy Italiya polislарining yunon huquqi ma'lum darajada ta'sir etgan. Biroq, unga odat huquqi me'yordan chekinuvchi alohida yangi qoidalar ham kiritilgan edi. Masalan, jarimalarning qo'llanish tizimi qadimgi tallion tamoyillaridan voz kechishlik bilan bog'liq bo'lgan. XII Jadval qonunlari hali Rim jamiyati huquqiy texnikasining nisbatan past darajada rivojlanganligini aks ettirgan edi. Ular qisqacha buyruq tizimidagi fikrlar, tushunchalar, ba'zan esa ta'qiqlar ko'rinishida bayon etilgan. Ularning ba'zilari o'zlarida diniy marosimlarga oid izlarni saqlab qolgan edi. XII Jadval

qonunlari qator kamchiliklarga ega bo'lishligiga qaramay, Rim arxaik davrining tub ehtiyojlarini aniq aks ettira olgan.

XII Jadval qonun'ari bo'yicha xalq majlisining har qanday qarortari qonun kuchiga ega bo'lishi lozimligi, keyinchalik esa harbiy xarakterga ega bo'lib, senturiyalar majlisini (yuzliklar majlisini) keltirib chiqarishligi bilan mustahkam lanilgan. Senturiyalar bo'yicha xalq yig'inining qarori, shu vaqtga qadar qonuviy kuchga ega bo'lib borgan xalq yig'ini qarorlarining kuchini yo'qotgan yoki uni ikkinchi o'ringa tushirib qo'ygan.

Rim quidorchilik davlati davrida shuningdek, senat qarorlari, ayrim hollarda magistratlar ediktleri ham huquqiy kuchga ega bo'lgan. Masalan, desemvirlar favqulodda komissiyasining qarori bilan XII Jadval qonunlari qabul qilingan.

Rim fuqarolik huquqida qonunlarni sharhlash, shuningdek sud ko'mediantlarini va da'vo talablarini tuzishliklarida IV asrga qadar pontifiklarning imtiyozli huquqlari saqlanib qolgan. Pontifiklar esa, sud ishlariga nisbatan o'z ustunliklarini shu davrgacha har tomonlama himoya qilib kelganlar. Huquqning diniy niqoblardan batamom, xalos bo'lishiga, qohinlar mavqeiga putur yetishiغا va dunyoviy yurisprudensiyaning boshlanishiga, xususan miloddan avvalgi 302 yilda kotib K.Flaviy tomonidan pontifiklar arxivlaridagi o'ta maxfiy ravishda saqlanib qolgan sud taqvimi, da'volar va da'volar haqidagi formulalar va yozuvlar nusxalari, huquqiy me'yorlar va odat normalarining sharhlari o'g'irlanib, oshkor qilinishi yordam bergan. Uning harakatlaridan ruhilangan Rim xalqi uni 304 yilda edilga saylaydil. Sinfiy davrdagi huquq manbalarining eng asosiysi, XII Jadval qonunlari bo'lib hisoblanadi, hatto u ilgariroq qabul qilingan bo'lsada, rasman harakat qilishda davom etgan.

XII Jadval qonunlarining harakat doirasi VI asrga kelib, Vizantiya imperatori Yustinianning qonunchilik islohotlari davomida bekor qilingan. Rimliklarning o'z huquqiy an'analariga chuqrur hurmat bilan qarashi, ayniqsa XII Jadval qonunlariga bo'lgan izzat ikromi, ularni bu tarixiy yodgorlikdan ochiqdan-ochiq voz kechishlariga yo'l qo'yongan. Sinfiy davrda huquq manbalari sifatida XII Jadval qonunlariga, ayniqsa, undagi oilaviy munosabatlarga, ya'nii oila va nikoh hamda ota hukmronligi institutiga alohida e'tiborni qaratgan.

Nikoh arning xotin ustidan to'liq hukmronligini o'rnatgan (lekin xotin kishi 3 kun mobaynida o'z uyidan chiqib ketib, boshqa joylarda yashab kelsa, bunday paytda arning xotingga bo'lgan egalik huquqi vaqtincha bo'lsa ham uzilishi nazarda tutilgan).

Er va xotin, o'zları alohida mustaqil ravishda er yoki xotinning ota-onasining uyidan chiqib ketmagan bo'lsa, ayniqsa arning ota-onasi uyida yashasalar, bunday paytda uy egasi yoki oila boshlig'iga er va xotin to'liq bo'ysunar edi. Uy egasi ularni egallash, foydalanish, tasarruf etish huquqlariga ega bo'lgan.

Ota hukmronligi yoki oila boshqaruvchisi shunday huquqlarga ega bo'lganki, hatto o'z xotinini tuzilgan shartnomalarni bajarish evaziga boshqa shaxslarga ma'lum muddatga ijara berib yuborishi mumkin bo'lgan.

Ayniqsa, nikoh munosabatlari katta etibor berilgan. Eng avvalo yigit va qizning ota-onalari roziliqi olingan, keyin esa nikohga kiruvchilar roziliqi olingan va marosimlar o'tkazilgan. Nikoh yoshi qizlar uchun 12 yosh va yigitlar uchun 14 yosh qilib belgilangan.

Nikohga kirishishlik bo'yicha ham chegaralanishlar mavjud bo'lgan. Masalan, xalqlar huquqi bo'yicha faqat ozod bo'lgan fuqarolargina nikoh shartnomasini tuzishi mumkin bo'lgan.

Bunday huquqqa qullar, peregrinlar, lotinlar ega bo'limganlar. Ayniqsa, plebeylar erkin va shaxsan ozod bo'salar ham ularning mulkiy, shaxsiy va boshqa huquqlari cheklanilgan edi. Hatto ular jamoa a'zolari bilan nikohga kirisha olmaganlar va jamoa ishini boshqarishda qatnashmagانلار، qisqacha qilib aytganda, ko'pchilik fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'lganlar.

Bu cheklashlari XII Jadval qonunlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, XII Jadval qonunlarida ko'rsatilishicha, o'lim jazosi kam jinoyatlar uchun qo'llanilsada, lekin bu haqda ko'pgina moddalarda eslab o'tilgan. Jinoyatlarning harakteriga qarab o'lim jazosi turlicha shakllarda qo'llanilgan. Bular, boshini kesish, suvga cho'ktirish, qo'l-oyoqlarini butga mixlab tashlash. Tarpiya qoyasidan pastga tashlab yuborish va hokazolardir. Asta sekin o'lim jazosi kam qo'llanilib borilgan.

Rim fuqarolari uchun fuqarolikni yo'qotish, fuqarolikdan mahrum qilish jazo turi, eng og'ir jazolardan biri bo'lib, ona yurtdan haydar yuborish jazosi, olov va suvdan mahrum etish kabi jazolar qo'llanilgan. Qonunda tan jazolaridan qamchi bilan urish, jarima va mol-mulkni musodara qilish, fuqarolik holatini cheklash va diniy la'natlash choralar ko'rsatilgan. Hatto, Rim davlatida «oko za oko, zub za zub» - qonga qon, jonga jon degan (uning to'liq ma'nosini anglatmasa ham, shu tushunchani qo'lladik - O.E.) degan prinsip qo'llanildi. XII Jadval qonunlariga binoan, kvirit huquqi bo'yicha xususiy huquqbuzarliklarga turlicha shaxsiy ozor yetkazish, og'ir tan jarohati yetkazish, shuningdek o'g'irlik qilishlar kiritilgan.

XII Jadval qonunlarining o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'lganki, aybdor bo'lmasa ham delikt (majburiyatni buzish) faktini sodir etishning o'zi javobgarlikka tortishlik uchun kifoya bo'lgan.

Ayniqsa, qadimgi Rim jamiyatida fuqarolik huquqiy javobgarligi institutlarining asta-sekinlik bilan jinoiy javobgarliklarni keltirib chiqaruvchi institutlarga qarab o'tishligiga imkoniyat yaratilib berila boshlandi. Ushbu qonunga binoan, boshqa shaxslarning daraxtini kesish yoki imoratlari uzaq yetkazish yoki uy oldida to'plangan bug'doy g'aramlarini ehtiyoitsizlik orqasida e'qib yuborish, og'ir aybli qilmishlar hisoblanib, ular natijasida

jarimalar to'lash va birovga zarar yetkazish ko'rinishidagi majburiyatlar ke-lib chiqqan. XII Jadval qonunlarida ommaviy deliktlar (huquqbuzarliklar), ya'ni Rim xalqi nomidan jazolanadigan jinoyatlar ham ma'lum bo'lgan va bunday jinoyatlar uchun jarimalar xususiy shaxslar foydasiga emas, balki davlat foydasiga undirilgan.

Eng qadimgi davrlardayoq, Rimda mulkka uzoq vaqt egalik qilib turish natijasida ham mulkka ega bo'lib olish mumkin bo'lgan. Lekin bu qonun o'g'irlangan ashylarga nisbatan muddat bo'yicha mulk huquqini o'ziga o'tkazib olishni ta'qiqlagan. Ashylarni, mulklarni egallab olish muddati bir yil, yoki konkret ashylolar uchun ikki yil o'rnatalgan.

Shunday qilib, XII Jadval qonunlari qator kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, Rim arxaik davrining tub ehtiyojlarini qondira olgan huquqiy manba sifatida ko'p asrlar mobaynida amalda va harakatda bo'lgan.

Biroq Rim davlatining iqtisodiy, siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar, kundalik hayotiy tajribalar, XII Jadval qonunlarining va umuman kvirit huquqining eskirib qolgan normalaridan amalda voz kechishlikni talab qilgan.

Takomillashib borayotgan ijtimoiy munosabatlarni hisobga olish imkonini beradigan va bunday sharoitlarga moslashuvchan huquq ijodkorligi shakllarini tashkil etish zaruriyat vujudga kelgan.

3-§. Magistratlar ediktlari

Rim huquqi tarixining yangi bosqichida uning ancha muhim manbai sifatida pretorlar tomonidan qabul qilingan Ediktlar hisoblanadi. Bu Ediktlar Pretorlarning o'zi uchun ham majburiy bo'lgan, bir yillik qonun deb ham atalgan (Siseron).

Bu ediktlar asosida sivil huquqi bilan bir qatorda ikkita yangi va mutlaqo mustaqil huquqiy tizim «pretor huquqi» «ius rectorium» (yus preatorium) va «xalqlar huquqi» «ius gentium» (yus gensium) huquqlari o'sib chiqqan.

Pretorlar ediktlarining gurkiranab o'sgan payti ularning qonun ijodkorligi faolligi asosida, yangi eramizdan ilgarigi 250-80 yillarga to'g'ri keladi.

Yustinian kodifikasiyasining mualliflaridan biri VI asrda ijod qilgan Vizantiya yuristi Dorofey pretorlar huquqlari va sivil huquqlarining birlashishini quyidagicha ta'riflaydi:

«Insonlarga taalluqli bo'lgan, odat normalariga yangiliklar kiritilishi ligi oqibatida, vaqtlar o'tishi davomida, ikkala huquq o'zaro kelishishi natijasida yangi bir huquqni vujudga keltirdi». Xuddi shunday asosda, Rim sinfiy jamiyatining huquqi vujudga kelib, ilgarigi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan huquqlar yagona huquq sifatida qo'shilib ketdilar va mazkur ikkala

tizimning vujudga kelishligi pretorlarning huquq ijodkorlik faoliyatlarining natijasidir.

Ikki huquqchilik tizimini sivil huquqlari - Rim davlatining qonunchilik hokimiysi tomonidan ob'yeaktiv ma'noda qabul qilingan huquqiy normalari yig'indisi deb hisoblab, bu normalarning fuqarolar, magistrler hamda barcha shaxslar uchun mutloq majburiy bo'lgan normalardan iborat ekanligini e'tirof etganlar.

Magistratlar ediktari kabi pretorlar tomonidan qabul qilingan huquqiy normalar, bir yillik kuchga ega bo'lgan hamda o'zлari uchun nisbiy majburiy bo'lgan qoidalarni vujudga keltirgan.

Pretoriar qonunlarni yoki huquqlarni to'g'ridan to'g'ri o'zлari kashf qila olmaganlar.

Sub'yeaktiv ma'noda sivil huquqlari deb - ashyolarga yoki shaxslarga bo'lgan hukmronlikka tushunilib, uni amalga oshirishda hech qanday organga yoki pretorga murojaat qilish talab etilmagan, ya'ni hokimiyat «veto» huquqini qo'llamasdan, unga barcha imkoniyatlarni yaratib bergen bo'lishi lozim edi.

Pretorlar huquqini amalga oshirishda esa, albatta pretor huquqlarni himoya qilaman yoki interdiktni qo'llayman degan va'da berib, va'dani bajarishilik majburiyatini o'z zimmasiga olgan.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinish turbdiki, haqiqatdan ham sivil huquqlari mustaqil huquq asosida Rimliklarga katta-katta imkoniyatlarni yaratib bergen. Ammo, pretorlarning «tirik ovozi» shaxslarning manfaatlarni himoya qilish nuqtai nazaridan yangi-yangi huquqiy normalarni vujudga keltirishda muhim o'rinn egallagan.

Shunday qilib, sivil huquqlari pretorlar huquqlari bilan o'zaro hamkorlikda bo'lib, bu qoidalarni bir-birini to'ldirgan, o'zgartirgan va yangi qonunlarning vujudga kelishligi uchun asos bo'lgan.

Mashhur yuristlardan biri Marsian pretorlar huquqlari to'g'risida shunday degan edi: «Haqiqatdan ham, pretorlar huquqi «xalqning tirik ovozidir», chunki ular o'z ediktari orqali yangi yangi qonunlarni keltirib chiqarib, xalqning talablariga to'liq javob bera oladigan samarali huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi».

Rim Magistratlari oliy ommaviy va harbiy hokimiyatga ega bo'lib, o'z faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida, barcha shaxslar uchun tartib qoidalarni ishlab chiqqanlar. Shunday qilib Rimda huquq manbalarining murakkab (aslida uch qismdan iborat bo'lgan) tizimi vujudga kelgan.

Imperiya o'rnatilishi bilan Rimning siyosiy tizimida pretorlarning mavqeい ham asta sekin o'zgarib borgan. Pretorlar ediktalar chiqarishi huquqini rasman saqlab qolganlar, lekin ularning faol «huquq ijodkorligi» o'sib borayotgan bir paytda imperator yakka hokimligining qarama-qarshiligidagi duch kelgan.

Shu sababli, mitoduning I asrlaridayoq, pretorlar o'z o'tmishdoshlariniing ediktlarini to'liq nusxa qilib olishni qoida qilib olganlar va xohlasalar qisman o'zgartirishlar kiritganlar. Shu tariqa ediktlar mazmuni o'zgarishsiz bo'lib qolgan va ularning yangi huquq normalarini keltirib chiqarish funksiyalari o'z kuchini doimiy ravishda yo'qotib borgan.

Shu munosabat bilan imperator Adrian pretorlar huquqini kodifikasiya qilishga ahd qilgan va bu ishni taniqli yurist Salviya Yulianga topshirgan (eramizning 125 va 138 yillari).

Oxirgi tuzilgan edikt (Julian edikti sifatida mashhur) rasman senatus-konsult deb tasdiqlangan va «abadiy edikt» degan nom olgan.

U keyingi magistratlarning hammasi uchun majburiy bo'lib qolgan.

Ammo jamiyat va davlat hamda huquqning yuqori darajada takomilashishi natijasida, keyinchalik pretorlar edikti o'z mohiyatini yo'qotib borib, hatto yangi vujudga kelgan pretorlar uchun manba bo'lib hisoblanmaydigan bo'ldi.

Senatus-konsultlar Rim davlatining dastlabki rivojlanish bosqichida huquqiy kuchga ega emas edi. Imperatorlar davriga kelib ularning ahamiyati ancha o'sgan. Eramizning I asri birinchi yarmida senatus-konsultlar odatda sanksiyaga ega emas edi, lekin pretor edikti sharofati bilan ular majburiy kuchga ega bo'lganlar.

Imperator Adrian senatga qonun chiqarish hokimiyatini yana qaytarib bergan va senatus-konsultlar qonun sifatida chiqa boshlagan, ularning huquq manbai sifatidagi roli o'sgan, chunki ular prinseps nomidan tuzilib, ko'pincha ularning nomi bilan atalgan.

Imperatorlarning mustaqil qonun chiqarish hokimiyati asta-sekin mustahkamlangan va kengaygan. Dastlab, imperatorlarnig qonunlari (konstitusiyalari) xalq majlislari tomonidan hokimiyat vakilligi natijasi sifatida ko'rildigan va bunga ko'ra Rim xalqi o'zining qonun chiqarish vakolatini imperatorlarga o'tkazgan.

Shu vaqtidan boshlab, imperatorlarning qonunlari huquqning eng muhim manbaiga aylangan. Imperatorlarning qonunlari magistratlarning ko'pgina hujjatlaridan farq qilib, Rim davlatining butun hududida harakatda bo'lgan, shahar yoki alohida provinsiyalar doirasida cheklanib qolmagan.

Imperatorlik hokimiyati hujjatlari (konstitusiyalari) quyidagilardan iborat asosiy ko'rinishlarga ega bo'lgan:

1. Ediktlar - imperium hokimiyatiga asoslangan. Magistrat ediktlaridan o'zining barcha fuqarolar uchun majburiy bo'lganligi nuqtai nazaridan farq qilishligi bilan ajralib turgan. Shuning uchun, faqat mazkur imperator hayotlik chog'ida yuridik jihatdan majburiy bo'lgan umumiyl qoidalarni o'rnatganlar. Biroq eramizning II asridan boshlab, ediktlarga imperatorlarning vorislari tomonidan amal qilishlik ham majburiy hisoblanilgan.

2. Reskriptlar - imperatorning huquqiy masalalari bo'yicha konsultasiyalar so'rigan alohida shaxslarga yoki magistratiarga bergan javoblari yoki maslahatlari.

3. Dekretilar - imperator tomonidan sud ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlar. Ular asosida mustaqil imperatorlik yurisprudensiyasi tashkil topgan.

4. Mandatlar - provinsiyalarning hokimlariga yo'llangan instruksiyalar (yo'l yo'riqlar, qo'llanmalar). Ularning ichida ba'zi hollarda peregriniarga va boshqa fuqarolarga nisbatan qo'llaniladigan fuqarolik va jinoyat huquqi me'yordari ham mavjud bo'lgan.

Imperatorlarning konstitusiyalari dastlab, faqat ommaviy tartibdagi davlat tuzilishi, uning organlarini tashkil etish, jinoyatlarni hal etish kabi masalalarni hal qilish bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik esa ular huquqiy tartiliga :ishning hamma sohalarini tobora ko'proq qamrab olgan. Imperatorlik davrida, ishlab chiqarilgan ko'pgina huquqiy hujjatlarning iertlicha shakllari, oqibatda o'rta asrlar monarxiyasining qonunchilik rivojlaniшtexnikasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

4-§. Yuristlar faoliyati

Milodning I-III asrlarida (miloddan oldingi 17 yildan melodyi 235 yillarini o'z ichiga oladi) sififiy (prinsipiат) davrda Rim huquqi rivojlanishining juda muhim va o'ziga xos manbai - yuristlarning faoliyati bo'lib idi. Rim yuristlari, qadimgi Rimning butun huquqiy tizimini izchil va yaxlit rivojlanishining ta'minlanishiga katta hissa qo'shganlar. Rim yurisprudensiyasi plebeylar pontifikasi Tiberiy Korunkaniyadan boshlangan. U buindi bo'lib, huquqiy masalalar bo'yicha konsultasiyalar bera boshlagan. Uning bergen huquqiy maslahatlari, sof dunyoviy xarakter kasb etib, birinchi marta ommaviy va ochiq xarakterga ega bo'lgan.

Sififiy davrning eng mashhur yuristlaridan biri aristokratlar oilasidan eriqqan Labeondir. U huquqlar bo'yicha novator va Prokulyanlar huquq maktabining asoschisidir.

Sabinyan huquq maktabining asoschilarini Kapiton va Sabin fuqarolik huquqining birinchi sharhlovchilarini sifatida tanilgan.

Sabinyan huquq maktabining o'qituvchisi mashhur Gay Institusiyanining muallifi Gay, II-III asr yuristlari Emiliy Papinian, Pavel va Ulpiyanlar huquq ijodkorlari bo'lib yetishib chiqqanlar.

Huquq maktablarining o'qituvchilarini Sabin, Yulian, Prokul va Sel-solar mashhur, yuridik fanlarni rivojlantiruvchi, aholini huquqiy madaniyat bilan tanishtiruvchi olimlardan, ziyolilardan hisoblanilgan. Ayniqsa, La-Beon respublikachilar tarafdoi bo'lib, u o'z maktabiga hamda huquq sohasiga ko'п yangiliklari kiritdi, u o'zining so'nmas iqtidoriga va fanlarga, ilunga bo'lган ishonchi bilan Kapitonidan ajralib turadi.

Sivil huquqlarining yuqori darajada rivojlanishi imperator Avgust davri bilan chambarchas bog'liqdir. Imperator Avgust tomonidan kiritilgan ko'p o'zgartirishlar qonun tusiga ega bo'la boshlab, ayniqsa shaxslar huquqlariga, oila va meros huquqiga va shartnomalar javobgarligi bo'yicha qat'iy bo'lgan normalarni kiritib, bu huquqni milliy huquq darajasiga ko'targan. Shu davrda ayniqsa, fuqarolik huquqiga beqiyos bo'lgan o'zgartirishlar, to'ldirishlar kiritilgan.

Imperator Avgust yuristlar bilan munosabatlarini yaxshilab, ularni davlat ishlariga, pretoriyalar prefektlariga ko'proq jalb qilgan va ba'zi yuristlarni shahar boshlig'i mansablariga o'tkazgan.

Mashhur yuristlardan biri Sabin didaktik asar - "Ius civili" (fuqarolik huquqi) nomli 3 kitobdan iborat bo'lgan asarni yaratdi. Bu asar quyidagi qismlardan iborat bo'lgan:

1. Meros huquqi haqida;
2. Shaxslar huquqi;
3. Majburiyat huquqi va ashyoviy huquqlar to'g'risida.

Har biri, mavzusiga taalluqli bo'lgan ko'pgina savollar va javoblar bilan to'ldirilgan.

II asrning mashhur yuristlardan biri Florentin yaratgan institusiya 12 ta kitobdan iborat edi.

Ayniqsa, diqqatga sazovor bo'lgan yuristlardan Selsanining Digestlari va ularning sharhlari 39 ta kitobdan iborat bo'lgan, shuningdek, eng kuchli va mashhur yuristlardan yana biri Yulianning Digestlari esa 90 ta kitobdan iborat bo'lgan.

Bu asarlardan, Rim sinfiy davrining mashhur yuristlari Gay, Pavel, Ulpian, Papinianlar hamda Yustinian kodifikasiyasini amalga oshirgan barcha yuristlar foydalanganlar.

Yurist Marsella tomonidan 31, Ssevola tomonidan 40 ta kitob hajmida Digestlar yaratilgan.

Jahon yurisprudensiyasida o'z o'rnnini qoldirgan eng mashhur bo'lgan yurist, «ulug'» yurist Papinian ikkita asar yaratgan: birinchisi 37 ta kitobdan, ikkinchisi «Resronsa» deb atalib, 19 ta kitobdan iborat bo'lgan, bu asarlardan Yustinian kodifikasiyasida to'liq foydalaniilgan.

Ulpian o'quvchisi bo'lgan Modestin ham «Resronsa» degan asar yaratib, u ham 19 ta kitobdan iborat bo'lgan.

Respublika davrining yuristlari, sud amaliyotida o'zlarining katta ta'sir doirasiga ega bo'lgan va ular sud jarayoni masalalari bo'yicha mutaxassis bo'lganlar. Huquqiy javoblarni aniq ifodalab, yuridik hujjatlarni sharhlaganlar va shartnomalar loyihamarini tuzganlar, qator hollarda sud jarayonining o'zida tomonlardan biriga yordam ko'rsatib ishtirot etganlar. Respublika davrining yuristlari, odatda aristokratlar doirasidan - senator zodagonlardan shuningdek, suvoriylardan ham chiqqan. Ularning ichida

eng mashhurlari Eliya Peta Kata, Mark Maniliy, Alfen Var, Kvint Musiy Ssevola, Publiy Musiy Ssevola, Serviy Sulpisiy, Ruf va boshqalar bo'lgan.

Qadimgi Rim quldorchilik davlatida, yurisprudensiya o'zining ta-raqqiyot darajasining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda xususiy mulkka bo'lgan huquq qat'iy himoya qilinib, Rim huquqi nihoyatda ravnaq topdi.

Bu davrlarning yuristlari, huquqiy nazariyaning va amaliyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shundan kelib chiqib, II asrni «oltin asr» deb ataganlar. Chunki, II asrda mashhur va yetuk yuristlar o'z faoliyatlar bilan jahon tarixida muhim yuridik xazinalar va yodgorliklarni yaratganlar, bu xazinalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bu vaqtida yuristlar sivil va pretor huquqining sharhlarini yoritishga, shuningdek sivil va pretor huquqini sintez qilishga urinib, turli huquqiy masalalar bo'yicha asarlar, digestlar yozishdi va bu faoliyatlar bilan katta shuhrat qozonishdi.

Digestlarni yozishda yuqorida ko'rsatilgan mashhur yuristlarning yoki boshqa mualliflarning ancha qadimiylaridan («Savollar», «Javoblar» va boshqalar) parchalardan (ko'chirmalardan) foydalanilgan, shu bilan birga, huquqiy materiallarni qat'iyaniq tartibda joylashtirilgan (digesta - «tizinga solingan» degan mazmunni anglatishi bejiz emas). Rim yuristlarning asarlari ichida Rim huquqini o'quv maqsadlarida tizimli bayon qiluvchi institusiylar muhim o'rinni egallagan. Ayniqsa, 143 yilgi Gay Institusiyalari juda mashhur bo'lgan. Ularda keng huquqiy materiallarning to'liq, lo'nda va mantiqan izchil joylashtirilgan bayoni berilgan. Gay Institusiyalari asosan fuqarolik huquqiy munosabatlarni hal qilishga bag'ishlangan. Gay Institusiysi boshqa Rim yuristlarning institusiyalardan ancha to'lava aniq bayon qilinganligi bilan farq qiladi. Ularda fuqarolik huquqining izchil va mantiqiy bo'linishi berilib, uni shunday deb ta'riflagan: «biz foydalanimadigan barcha huquq yo shaxslarga, yoki ashyolarga, yohud da'volarga taalluqli». Garchi ko'p olimlar Gay tomonidan foydalanimilgan tizimni orginal deb hisoblamasada ham, u huquqni tushunishda olg'a tashlangan muhim qadam bo'lgan. Bu yerda ilk bor moddiy huquq jarayondan, individual (alohida) huquqlar ularni himoya qilish vositalardan ajratilgan.

Yurist Gay mashhur huquq o'qituvchilaridan va iqtidorli yozuvchilardan, o'zining Institusiysi bilan jahonga tanilgan. Rim, Konstantinopol, Beyrut universitetlarida uning mashhur Institusiysi asosida darslar o'tilgan, o'zining ziyrak qobiliyati bilan ajralib turgan yuristlardan biri bo'lib hisoblangan.

Yurisprudensianing eng yuqori rivojlanish cho'qqisiga yetishishda yurist Gayning mislsiz xizmati borligini, uning yorqin ovozlari har tomonidan jaranglab eshitilishi, asarlarini xalq sevib o'qishini Rimliklar tan ol-

ganlar. Gay haqida uning, tug'ilganligi, familiyasi, qaysi provinsiyada faoliyat ko'satganligi noma'lum.

Rimda imperatorlik boshqaruvining o'rnatilishi bilan yuristlarning amaliy faoliyati - huquqiy maslahatlar berishi faollashgan. «Javoblar» deb nomlangan bu konsultasiyalar (maslahatlar) sudyalarga katta ta'sir o'tkazgan. Sudyalar ko'pincha obro'li yuristlarning fikrlariga rioya qilar edilar. Imperator Avgust rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan (ius respondent) javoblar berishni faqat ma'lum darajadagi yuristlarga ruxsat etib, ularning faoliyatini bir muncha yagona shaklga keltirishga harakat qilgan. Shundan asarları va fikrlari ilgarigidek huquq manbai sifatida ko'rildigani sinifi yuristlarning soni qisqargan. 426 yilgi «O'sitirovanii yuristov» degan qonunga binoan faqat beshta yurist Papinian, Pavel, Ulpian, Gay va Modestinning asarları ko'proq yoki yugoriroq yuridik kuchga ega ekanligi tan olingen. Ba'zi huquqiy masalalarini hal qilishda ovozlar teng bo'lib qolsa, unda mashhur yurist Papiniannining fikri ko'proq e'tiborga olingen. Imperator Avgust davrida senatga ko'proq chinovnik yuristlar a'zo qilingan bo'lib, ular senat a'zolari sifatida yuqori maoşlar bilan ta'minlanib, ularning faoliyati davlat xizmatlari bilan tenglashtirilgan.

Eng mas'uliyatlari bo'lgan mansablariga yuriştlar qo'yilar ekan, ular imperator nomidanligiga o'xshash sud prosesslarida qarorlar qabul qilganlar, bu qarorlar yozma ravishda berilib, yuristlarning o'z tamg'aleri bilan tasdiqlanib, imperator devonxonasida saqlanuvchi jurnallarga yozib qo'yilgan.

Mashhur yurist Ulpian tomonidan bir nechta qonunlarga, odat normaliga va shu jamiyatdagi mavjud bo'lgan qoidalarga sharhlar yaratilgan. Uning yordamchisi Yuliy Pavel esa Rim davlatining oldingi o'tgan yuristlarining asarlariga o'zining tanqidiy qarashlarini yaratdi.

Mashhur yurist Ulpian voyaga yetmagan imperator Aleksandr Sever davrida peretoriya perefekti mansabiga erishib, chinovnik, zodagonlar guruhiga o'tkazildi.

Sudyalar masala yuzasidan yuristlarning umumiy fikrini aniqlashlari lozim bo'lgan. Agar yuristlarning o'tasida turlicha fikr mavjud bo'lsa, ko'pchilikning fikriga qaralgan, agar ovozlar teng bo'lsa Papiniannining fikri hal qiluvchi deb tan olingen. Agar buriday holda Papinian fikr bildirmasa, suda mustaqil harakat qilishi mumkin bo'lgan.

5-§. Rim huquqlarini kodifikasiyalash (bir tizinga keltirish)

Rim huquqining sobiq harakatchanligining yo'qotilishi, sivil va pretorlar huquqi o'tasidagi chegaralarni olib tashlanishi (chunki bunday bo'lishi yagona imperatorlik qonunchiligidagi o'z mazmunini yo'qotgan edi) kodifikasiya ishlarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yuzaga

chiqari. Ayniqsa, Rim imperiyasining sharqiy qismida (Vizantiyada) huquqni urkumlashtirish bo'yicha qizg'in ishlar qilingan. Bu yerda III asr oxirida Rim huquqining xususiy to'plamlari - Grigorian kodeksi va Germogenian kodeksi tuzilgan. Ular o'z ichiga 196 yildan 365 yilgacha chiqarilgan imperatorlar konstitu-siyalarining asl matnlarini kiritganlar. 438 yilda esa imperatorlar konstitusiyalarining birinchi rasmiy kodifikasiyasini amalga oshirilgan (Feodosiya kodeksi). Feodosiya to'plamining o'ziga xos xususiyati shundan 4borat ediki, u faqat harakatdagi imperatorlik qonunchiligini o'z ichiga olgan va kodifikasiya ishlarining ancha yuqori darajasi bo'lgan.

Yustinian kodifikasiysi

Yangi eramizning IV asri oxirlariga kelib, qadimgi Rim davlatida chuqur o'zgarishlar yuz berdi, ya'ni shu vaqtga qadar bo'lgan tizimning inqirozi munosabati bilan Rim huquqining jonlanishi vujudga kelib, kodifikasiya masalasi kun tartibiga qo'yildi. O'zgarishlar yuz bersada, lekin uning asosiy institutlari mazmunini, mohiyatini o'zgartirmadi. Amalda ilgarigi ko'rinishda saqlanib qoldi. Bu vaqtida huquq manbalarida bir munsha o'zgarishlar bo'lgan. Ularning ichida muhimi imperator qonunlari ahamiyatining tobora ortib borganligidir. Imperatorlar to'la hokimiyyatchiligining o'rnatalishi munosabati bilan yangi yuristlar avlodlarining maslahatlar, ya'ni konsultasiyalar berish huquqlari zaiflashib vujudga kelgan yangi huquqiy me'yorlarni ta'riflab berish (sharhlash) imkoniyatlari kamayib borgan. Yuridik asarlari va fikrlari ilgarigidek huquq manbai sifatida ko'rildigan sinfiy yuristlarining soni tobora qisqarib borgan. Yuqorida qayd qilinganidek, faqat buyuk yuristlarning, ya'ni Papinian, Pavel, Ulpian, Gay va Modestinning asarlari va bergen maslahatlari yuridik kuchga ega ekanligi tan olingan.

Rim huquqi o'zining dastlabki harakatchanligini yo'qotishi, sivil va pretörlar huquqlari o'rtasidagi chegaralarning olib tashlanishi kodifikasiya ishlarini amalga oshirishlik uchun qulay sharoitlarni yaratib berdi.

Ayniqsa, Rim huquqining qamrovli kodifikasiysi G'arbiy Rim imperiyasi qulaganidan so'ng, Vizantiya imperatori Yustinianning buyrug'i bilan 528-534 yillarda o'tkazilgan. Kodifikasiya ishlariga rahbarlikni taniqli yurist, professor Tribonian amalga oshirgan. Rim huquqining qator yirik to'plamlarini tuzish komissiya ishlarining natijasi bo'lgan. Biroq, bu to'plamlar interpolasiyaga - ancha kechki namunalarning, jumladan yunon va sharq huquqi me'yorlarining kiritilishiga uchragan. Huquq tarixining ancha kechki bosqichida, ya'ni ilk o'rta asrlarda bu to'plamlar Yustinianning yagona qonunlar to'plami - Corpus iuris civilis (korpus yuris sivilis) sifatida maydonga chiqqan.

Imperatorning bevosita rahbarligidagi keng kodifikasiya ishlari Yustinian kodeksini tuzishdan boshlangan. 528 yil 13 fevralda 10 ta oliy mansabdar shaxslar va huquqshunoslar tarkibida komissiya tuzilib, unga kodeksi tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Komissiya a'zolari tarkibida professor Tribonian va Konstantinopol huquq mактабining professori Teofil lar bo'lib ular rahbarlik qilganlar va ish faoliyatida o'zlarining faolligi bilan ajralib turgan. Komissiyaga ilgari qabul qilingan va chiqarilgan xususiy va rasmiy to'plamlardan, xususan, Grigorian va Germogenian hamda Feodosiya kodekslaridan foydalaniб, imperatorlik konstitusiyalarini bir butun qilib to'plash, ulardag'i mayfuq qarama qarshiliklarni bartaraf etish, eskirib qolgan qonunlarni chiqarib tashlash vakolatlari berilgan.

Yustinian kodeksining биринчи тahriri niroyatda hayratlanarli darajada tezlik bilan tuzilgan va 529 yilning 7 apreliда nashr etilgan. Lekin bu nashr bizgacha yetib kelmagan.

Kodeks tuzishdagi shoshma-shoшharliklar undagi birqancha kamchiliklarga, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan me'yorlarning, eskirgan qoidalarining saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bular ayniqsa, Yustinian kodifikasiyasining boshqa qismlari tuzilayotganda ma'lum bo'lib qolgan. Yustinian qonunchiligidagi, ayniqsa «Ellikta qafor» to'plamining va 200 dan ortiq eski qabul qilingan qonunlarni o'zgartirish to'grisidagi qonunlar qabul qilinishi, yangi kiritilgan bir qator tartib qoidalar (fuqarolik huquqi va xalqlar huquqlari o'rtasidagi, kvirit mulki va bonitor mulki o'rtasidagi farqlarning bekor qilinishi va boshqalar) Yustinian kodeksining yangi tahririni ishlab chiqishni taqozo etган.

Imperator Yustinian - dehqон oиласидан chiqqan, aqlii, yetuk sarkarda bo'lib, o'z oldiga qonunlarni bir tizimga keltirishni maqsad qilib qo'yar ekan, o'zining qo'l ostida faoliyat ko'rsatgan chinovniklarning ham barchasini qonunga bo'ysunishligini, intizomli bo'lishligini ta'minlash, sullarda ish ko'rishlikda, qarorlar chiqarishiда qat'iy tartib o'rnatish va o'z imperiyasining huquqiy asoslarga tayaniб ish ko'rishligini ta'minlashni amalga oshirishni ko'zlagan edi.

Yuridik adabiyotlarni va qonunlarni kodifikasiya qilishlik uchun yana professor Tribonian, Teofil va Beýrut huquq mактабining professorlari Doroфeylar, Anatoliylar va 11 ta advokat tarkibida 530 yili 15 dekabrda 17 a'zodan iborat kodifikasiyanı amalga oshiruvchi komissiya tuzildi. Komissiyaga 17 kishidan tashqari istagan yuristlarni, olimlarni va ishlab turgan yurist mutaxassislarni, amaliyotchilarni jaib etish huquqi berildi. Hech qanday to'sqinliklarga e'tibor bermasdan, o'z faoliyatlariningizi amalga oshiring, degan ko'rgazmalar berildi.

Imperator Yustinian komissiya oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydi:

1. Rim va Vizantiya fuqarolik huquqini, ya'ni institusiyalarini bir to'plamga keltirish;

2. Imperatorlar konstitusiyalarini, ya'ni 117 yildan Andrian imperatorlik qilgan davrdan boshlab to o'sha kungacha bo'lgan huquqiy normalarni, qoidalarni va boshqa hujjatlarni bir tizimga keltirish;
3. Shu kunga qadar bo'lgan Rim yuristlari tomonidan yozilgan va qoldirilgan Digestlarni, ya'ni yuridik fikrlarni, asarlarni bir to'plamga keltirish.

Kodifikasiya ishlarni tez va puxta asosda amaiga oshirishlik uchun tuzilgau koniissiyeye uch qismiga bo'lib yuborildi.

2) Fuqarolik (sivil) huquqlariga taalluqli bo'lgan Rim yuristlarining asarlarini yig'ish. Bu kichik komissiyaga rahbar etib Sabin tayinlandi;

3) Pretorlar huquqlariga taalluqli bo'lgan ediktlnarni yig'ish kichik komissiyasi;

4) Papinian asarlarini yig'ish va bu kichik komissiyalar o'rgangan qonunlarni, yuristlar asarlarini bir tizimga keltiruvchi komissiyalardan iborat edi.

530 yilga kelib yangitdan yangi komissiya tuzilib uning oldiga sinfiy yuristlarning asarlarini (ius)ni kodifikasiya qilish vazifasi yuklatildi.

533 yilga kelib esa, Rim davlati sinfiy davridagi yuristlarining asarlarini olingan ko'chirmalardan Digestlar yoki Pandektlar tuzildi va ular yangilanib turmushga tadbiq etila boshlandi.

Digestlarni yaratishda miloddan avvalgi I asrdan eramizning IV asri gacha yashab ijod etgan mashhur Rim huquqshunoslarining 3 yil davomida 2 mingdan ko'proq asarlar o'rganib chiqilgan va ularning asarlarida, olingan 300000 dan ortiq matnlarni o'z ichiga qamrab olgan, 150 mingga yaqin misrali noyob huquqiy yodgorlik hisoblangan Digestlar va Pandektlarda Ulpian, Pavel, Papinian, Gay, Yulian, Pompaniy, Modestin va boshqa mashhur bo'lgan yuristlar asarlaridan boshqalarga qaraganda ko'proq foydalаниlib, parchalar keltirilgan. Jami bo'lib 39 ta atoqli va mashhur bo'lgan yuristlarning asarları Digestlar yoki Pandektlarda o'z ifodasini topgan.

Digestlar va Pandektlarning Ulpian matnlari 1/3, Pavel asarlari 1/6, Papinian asarlari 1/8 qismini tashkil etgan.

Digestlarda foydalilanilgan asarlarning mualliflaridan biri Musiy Ssevoli miloddan ilgarigi ikkinchi asrda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, boshqa yuristlar esa uchinchi asrda yashab, o'z asarlarini, fikr va mulohazalarini qoldirganlar. BUNDAN ko'rinish turibdiki, Digestlarni tuzishlik va bir to'plamga keltirishlik nihoyatda katta davrni va keng qamrovli bosqichni o'z ichiga olgan.

Digestlar 50 ta kitobdan, titullar va paragraflardan iborat bo'lgan. Digestlar davri nihoyatda keng bo'lsada, lekin eskirib, zamor talablariga javob bermagan huquq normalarini kompilyatorlar chiqarib tashlagarlar va ularni yangi nomlar bijan o'zgartirgan bo'lsa-da, bu Qonun o'zida Rim davlatining sinfiy huquqini va sinfiy davrgacha bo'lgan ilk huquqiy me'yori-

larni to'liq saqlab, XII asrdan to shu bugunga qadar Yevropa va boshqa kontinentda joylashgan davlatlarning huquqiy madaniyatini yanada yusaltirish uchun mislisiz ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Digestlarga kiritilgan barcha qoidalar, normalar qonun kuchiga ega bo'lган.

Digestlar lotin tilida yozilgan, lekin ko'p iboralar, ba'zan esa butun-butun parchalar olinib, ular yunoncha berilgan. Yustinian Digestlarga qonun kuchini berib, ularni sharhlashni, shuningdek, eski qonunlarga va huquqshunoslarning asarlariga havola qilishni ta'qiqlagan. Chunki, sharh-lash kodeks moddalariga boshqacha ma'nio beradi, mohiyatini o'zgartirib yuboradi, degan fikrga borgan.

Hatto, 1804 yildagi «Napoleon Fransiya Fuqarolik Kodeksi»ga sharhlar ishlab chiqilgandan keyin, buni Napoleon bilib qolib, «Mening Kodeksim yo'q bo'ldi, yo'qoldi» degan ma'noda afsus qilgan. Yustinian kodifikasiyasining o'ziga xos qismi hisoblangan Institusiylar - yoshligida qonunlarni sevadigan imperatorga qaratilgan huquqning sodda darsligi bo'lgan.

Yustinian Institusiylarining asosiga Gay asarlari, shuningdek Florentin, Marsian, Ulpian va Pavel Institusiylari qo'yilgan edi. Yustinian Institusiylari Digestlarga qaraganda kamroq bo'sada, o'zida postklassik (Kichik Rim, Vizantiya) huquq belgilarini aks ettirgan edi.

553 yili 16 dekabrda Digestlar to'liq asosda ishlab chiqildi va Yustinian Digestlari yoki Pandektlari deb e'lon qilindi va qonun tusini oldi. O'sha kundan boshlab eski manbalardan foydalanishlar hamda yangi qonun normalariga sharhlar berish ta'qiqlandi, agar qonunlar bo'yicha tushumovchiliklar kelib chiqqan bo'lsa, imperator Yustinianning o'ziga uchrashlik lozimligi kabi qoidalar o'rinni oldi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Digestlar 50 ta kitobdan iborat bo'lib asosiy qismlarini (hatto ko'pchiligin) fuqarolik huquqiy munosabatlari egallagan.

Birinchi kitob huquq tarixiga, manbalar tushunchasiga, davlat muassasalarining vazifasi tuzilishiga va vakolatiga qaratilgan bo'lsa ham, ammolarning bu huquqiy munosabatlarda sub'yekt sifatida qatnashishligi uchun asos bo'lgan huquq va muomala layoqatiga ko'proq e'tiborni qaratgan.

Ikkinci va to'rtinchi kitoblarida, ya'ni qonun to'plamlarida sud prosessi (jarayoni) va uni amalga oshirish hamda da'volar haqidagi ta'limotlarning qo'llanishi yoritilgan.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, birinchi va ikkinchi kitoblar Beyrut maktabining professori Doroseyga taalluqlidir. Uchinchi va to'rtinchi kitob shu komissiyaning faol a'zosi Konstantinopol huquq maktabining professori Teofelga taalluqlidir.

Qirqqa yaqin kitoblar esa Rim hususiy huquqiga to'liq bag'ishlangan.

Digestlarda mulkiy munosabatlarga, ayniqsa, vorislik munosabatlariga katta o'rın ajratilgan va oltita yirik-yirik to'plamlardan iborat bo'lgan. Ayniqsa, Rim davlatining asosiy shartnomalaridan biri bo'lgan olish-sotish shartnomasiga uni amalga oshirish, shartnomalar qaralib, hattotin fuqarolik huquqiy munosabatlarini vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi asos sifatida qaralib, hattotin fuqarolik huquqining boshqa huquqiy sohalaridan o'zingning niyoyatda oddiy primitiv asosda ishlab chiqilganligini va barcha munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshirilishligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Rim quldorchilik davlatida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan biri garov ekanligini e'tirof etib, unga katta bir to'plamni ajratganlar.

Rim huquqida oila kichkina bir davlat sifatida, jamiyatning asosi hamda harakatlantiruvchi sub'yekti deb qaralgan. Yakka nikohlik, o'zaro sofdillik, lekin ota hukmronligi institutining mutloq xarakterga ega ekanligini e'tirof etib unga, ya'ni oilaviy huquqiy munosabatlarga uchta to'plamni ajratib, uni huquqiy tartibga solinishini eng yuqori cho'qqiga chiqarganlar. Xuddi shu oilaviy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lган vasiylik va homiylik hamda ularni tartibga solishlik bo'yicha 2 ta to'plam ajratilgan.

Jahon yuristlari tomonidan tan olingan va e'tirof etilib kelinayotgan Rim huquqshunoslari tomonidan yuridik xazina sifatida qoldirilgan va Digestlarning beshdan bir qismini o'z ichiga qamrab olgan meros huquqlari, vasiyatnoma, qonun bo'yicha vorislik, meros olishdan voz kechish, umuman Rim quldorchilik davlatining iqtisodda hukmron bo'lgan sinflarining ko'proq erki, manfaati va irodasini ko'zlaydigan meros huquqiy munosabatlariga bag'ishlangan.

Rim huquqining asosiy institutlaridan biri qullik instituti, undan ozod bo'lish holatlari usullari va tartiblariga ham alohida bitta qonunlar to'plami qaratilgan.

Qadimgi Rim huquqida shartnomalarining turlari xilma-xil bo'lgan. Ayniqsa, ular konsensual, verbal, litteral, progibitor va boshqa xil shartnomalarga bo'linib ketgan. Ulardan ayniqsa verbal shartnomalari ko'p ishlatalilgan. Ana shularni e'tiborga olib, verbal shartnomalari to'g'risida ikkita katta-katta qonunlar to'plami ajratilgan.

Imperator Yustinian qonunlarni va tartibni niyoyatda hurmat qilgan yuristlardan hisoblanishi bilan birga, u Digestlarga kiritilgan ikkita to'plamni «eng qo'rqinchli» deb atab, jinoyat va jazoga bag'ishlanganligini ta'kidlagan.

Eng oxirgi to'plamlardan biri, harbiy masalalar, appelyasiya masalalariha hamda oxirgi to'plamda esa titullar mohiyati, manfaati, ularni tartibga solish hamda qo'llaniladigan ba'zi tushunchalar haqida va umuman kodifikasiya va huquq haqida tasavur va taassurotlardan iboratdir.

Ishlab chiqilgan Digestlarni kompilyatorlar tomonidan tekshirib chiqish vaqtida imperator Yustinian yana professor Tribonian rahbarligida, Teofel va Dorofeylarga, Gay Institusiyasining eskirib qolganligini e'tiborga olib, yangi institusiya ishlab chiqishni buyuradi.

Institusiyalarni ishlab chiqish maqsadi asosan huquqiy sohalar bo'yicha qonunlarning harakatdaligini va keraklisini aniqlash, qonunlar bo'yicha hamma fanlarni ajratib olishlik, ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish masalalarini hal qilishlik va aniqlik kiritish lozim edi.

Bu institusiyani ishlab chiqishlikda yana asosan Gay Institusiyasidan foydalanildi va II asrda yashab ijod etgan Gay «VI asr Gayi» yoki «o'zimizning Gayimiz» deb ataldi.

Yangi ishlab chiqilgan, ya'nı 533 yil 21 noyabrdagi Institusiya Gay Institusiyasiga o'xshamasa ham, lekin harakatdagi qonunchilik, yangi huquqiy normalarga asoslangan holda ishlab chiqilib, kirish qismidan, shaxslar, ashyolar va ashyoviy huquqlarga, meros huquqlari va majburiyat huquqlariga bo'linib, 4 qismdan iborat bo'lgan va 4-qismning oxiri ommaviy huquqqa bag'ishlangan.

Digestlarni va yangi Institusiyani ishlab chiqish mobaynida ham bir nechta konstitusiyalar, qonunlar qabul qilindi, bir necha yuzlab hamda bir nechta yangi yuristlarning ya'nı Digest va Institusiyada ko'rsatilmagan yuristlarning asarlarini tahlil qilishlik nuqtai nazaridan kelib chiqib, ushbu yangiliklarni Yustinian kodifikasiyasiga kiritish lozim edi. Yuqorida-gilardan kelib chiqib Imperator Yustinian yangi Kodeks ishlab chiqilishi yoki yangi tahrirda qabul qilish vazifasini qo'yib, yana professor Tribonian rahbarligida besh kishidan iborat komissiya tuzildi.

Bu komissiya Kodeksni yangi tahrir asosida vujudga keltirib 534 yil 16 noyabrdagi tuzatilgan nashrini e'lon qildi. Bu Kodeks 12 ta kitobdan iborat bo'lib, ular titullarga bo'lingan va titullar asosida imperatorlar tomonidan qabul qilingan konstitusiyalar xronologik tartibda joylashtirilgan edi. Bu Kodeks 534 yil 29 dekabrda kuchga kiritildi. Bulardan tashqari imperator Yustinian tomonidan 535-565 yillarda qabul qilingan konstitusiyalar ham keng miqyosdagi qo'shimchalar kiritishlikni taqozo etardi. Bu o'zgarishlar Novellalar deb atalib, ko'pchiligi davlat qurilishi, cherkov munosabatlari, meros huquqi, oilaviy huquqiy munosabatlarini tartibga solishlikka qaratilgan edi.

Qadimgi Rim davlatining imperatori Yustinian o'z kodifikasiyasi bilan Rim huquqining o'tgan tarixini, huquqiy madaniyatini bir joyga to'plovchi yakun bo'lib, uning ko'p asrlardan beri rivojlanishiga o'ziga xos tarzda chegara qo'ydi.

Shunday qilib, 534 yilning oxiriga kelib, Yustinian kodifikasiyasi to'liq asosda o'z mohiyati va mazmuniga ega bo'ldi hamda uni «Fuqarolik qonunlari to'plami» deb atadilar.

Yangi eramizning XII asriga kelib, u to'liq asosda «Corrus iuris civilis» deb ataldi va shu kunga qadar «Fuqarolik qonunlari to'plamlari» deb tan olinadi.

Bu to'plam quyidagi qismlardan iborat bo'lgan:

1. Institutiones - 4 ta kitobdan iborat;
2. Digesta (Pandectae) - 50 ta kitob, 7 qism, 432 ta titul va 9123 fragmentlardan iborat;
3. Codex - 12 ta kitobdan iborat bo'lib, imperator Andriandan boshlab imperator Yustinianga qadar bo'lgan imperatorlar farmonlarining to'plami;
4. Novellae (leges) 168 novellalar (yangi qonunlar), Yustinian kodeksining ikkinchi marta qaytadan ishlab chiqilgan va yangi tahrirdan keyin qabul qilingan qonunlar;

Corpus iuris civilis (Fuqarolik qonunlari to'plami)ning qadimgi qo'lyozmlari:

- a) Turin Institusiyasi (darsliklari) IX asr;
- b) VI-VII asrlardagi Florentiya Digestlari va Vulgata (XI asr);
- v) VIII asrdagi Veron kodekslaridan iborat.

II bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Rim xususiy huquqida manbalar tushunchasi va turlari nimalardan iborat?
2. Odat normalari va qonunlarning manba ekanligi hamda mores maiorum, lex, Lex generalis tushunchalarining bir-biridan farqlarini asoslab ber-ning?
3. Rim davlati ommaviy va xususiy huquqlarining birinchi asosiy manbaini qanday qonunlar tashkil etgan?
4. Corpus iuris civilis ning vujudga kelishi va jahon davlatlari huquqiy tizimlarida tutgan o'rni va mohiyati nimalardan iborat? (Germaniya, Fransiya, Angliya, AQSH davlatlari huquqiy tizimi misolida).
5. Yustinian Kodifikasiyasi va unda Gay Institusiyasining tutgan o'rni haqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix institutov i yuridicheskix fakultetov. Pod redaksiyey I. B. Noviskogo i I. S. Peret-erskogo. M., 1948.
2. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956, 1960, 1972 gg. izd.
3. Omelchenko O.A. Osnovo' rimskogo prava. M., 1994.

4. Chernilovskiy, Z.M. Rimskoye chastnoye pravo: Elementarno'y kurs.- M.; Novo'y yurist, 1997.
5. Urazayev SH.Z. Rimskoye pravo. Uchebnoye posobiye.-T.: Akademiya MVD Respublikи Uzbekistan, 2000.
6. Muhamedov H. Horijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. Toshkent, «Adolat», 1999.
7. Ernazarov O.E.,Topildiyev V.R. Rim fuqarolik huquqi.Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2001.
8. Gai 1.2. (V sbornike dokumentov po vseobhey istorii gosudarstva i prava. Sostavitel prof. K.YE.Livansev). Izd-vo LGU, 1977.
9. Pokrovskiy I.A. Iстория rimskogo prava. - Vstup. statya, perevodo' s lat. nauchn.red. i komment. A.D.Rudokvasa. - SPB.: Izdatelsko-Torgovo'y dom, «Letniy Sad», Jurnal «Neva», 1999.

III BO'LIM. Huquqni himoya qilish shakllari

- 1-§. Huquqni himoya qilish va o'zini-o'zi himoya qilish tu shunchasi.
- 2-§. Huquqning davlat tomonidan himoya qilinishi.
- 3-§. Legisaksion prosessi (jarayoni).
- 4-§. Formulyar prosessi (jarayoni).
- 5-§. Ekstraordinar prosessi (jarayoni).
- 6-§. Interdikt ishlarini olib borish.
- 7-§. Huquqni himoya qilish va amalga oshirishda vaqt ning ta'siri.
- 8-§. Da've muddati tushunchasi va turlarga bo'linishi.

1-§. Huquqni himoya qilish va o'zini-o'zi himoya qilish tu shunchasi

Qadimgi Rim davlatining huquqiy normalari boshqa shaxslar tomonidan buzilgan huquqlarni tiklashlikka, ya'ni huquqi buzilishdan oldingi bo'lgan dastlabki holatiga qaytarishga katta e'tiborni qaratgan.

Rim xalqi boshqa xalqlar kabi buzilgan huquqlarining davlat orqanlari orqali, ayniqsa davlat sudining vujudga kelishiga qadar, huquqiy buzilishlardan o'z-o'zini himoya qilishlik instituti orqali himoya qilganlar. Ular o'z huquqlarining buzilganligini bilishgandan so'ng eng avvalo, huquqiy munosabat ishtirokchisi o'z kuchi, ilmi, aqliga suyangan holda hamda boshqa xususiyatlaridan foydalanib, o'zini-o'zi himoya qilishlikka kirishgan. Agar uning bir o'zi tomonidan buzilgan huquqni tiklay olmasa, yoki uning qaytadan sodir etilishini to'xtata olmasa hamda sodir etilishi holatlarini yo'qqa chiqarish munosabatlarini ta'minlay olmasa, bunday holatda o'zining oila a'zolarini ham ko'makka chaqirgan.

Jamiyat taraqqiyoti yuqori bosqichga qadam qo'yishi bilan o'zini-o'zi himoya qilishlik instituti, ya'ni individual asosdagi yovvoyilik, varvarlik usulidagi kurashlar, qarshilik ko'rsatishlar o'z mohiyatini yo'qotib bordi. Uning o'rniqa qat'iy intizomiylilikni talab qilgan rivojlangan Rim huquqi asosida o'zini-o'zi himoya qilish instituti vujudga kelgan. Bu institut asosidagi harakat faqat manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan o'z foydalariga favqulodda holatlardagina qo'llanilishi lozim bo'lgan. Harakatlar o'zini-o'zi tomonidan himoya qilish birdaniga tortib olingen mulknii egasiga qaytarilishidek, tez orada bajariladigan munosabatlardan iborat deb anglangan, lekin bu yerda o'zini-o'zi himoya qilishlik va buzilgan huquqni dastlabki buzilmagan holatiga keltirilishlikka ko'proq tushunilgan. Bu munosabatlar buzilgan huquqni tiklash, uning boshqa sodir etilmasligini ta'minlash va

sodir etilgan holatlarni yo'qqa chiqarish, sodir etilishi mumkin bo'lgan harakatlarning oldini olishlik hamda qarshi turishlik masalalaridan iborat bo'lgan.

O'zini-o'zi boshqarish instituti deganda jismoniy kuchiga yoki ma'nnaviy aqliga tayangan holda huquqbuzarlikni to'xtatishga tushunilgan.

O'zini-o'zi himoya qilishning majburlab, kuch ishlatalish orqali ifoda etilishi ruxsatsiz noqonuniy asosda harakatlarning vujudga kelishligi nati-jasida paydo bo'lgan.

Huquq buzilgan taqdirda uni tiklash uchun kuch ishlatalish, o'zboshimchalik asosida buzilgan huquqni tiklash Rim davlatida asosan 389-yillardan boshlab man etilgan.

Qarzdor kreditordan qochmoqchi bo'lsa, kreditor uni orqasidan quvib kuch bilan qarzini to'lashga majbur qilgan, hatto to'lamagan taqdirda, qarzdorga ilgarigi qo'llanilgan javobgarlikni qo'llash lozim bo'lgan. Agar zudlik bilan tegishli chora ko'rilmasa, oqibatida ma'lum zarar yetkaziladi-gan bo'lsa yoki o'zboshimchalikning bu ko'rinishi ko'p noqulay bo'lgan holatlarni keltirib chiqarardi.

Ayniqsa, imperator Mark Avreliy qonunlariga asosan «kreditor o'zining huquqiy talabini qondirish uchun qarzdorning mulkini tortib olishni, ya'ni o'zining buzilgan huquqini o'zboshimchalik asosida tiklashni afzal ko'rgan bo'lsa, u mulkni qayta talab qilib olish huquqini to'liq asosida yo'qotgan». Kreditor, eng avvalo, qarzdor tomonidan to'lanishi yoki qaytarilishi lozim bo'lgan mulkni, ashyoni aniqlab sudga murojaat qilishi lozim bo'lgan. Demak, o'zboshimchalik asosida boshqa shaxslarning mulkini egallab olishlikka yoki talab qilib olish huquqiga yo'l qu'yilmagan.

Shunday qilib, huquqni himoya qilish o'zini-o'zi himoya qilish instituti orqali davlat va uning organlari tomonidan himoya qilish munosabat-lariga aylandi.

2-§. Huquqning davlat tomonidan himoya qilinishi

Huquqni himoya qilishlik sud magistratlari tomonidan amalga oshirilardi. Sud magistratlari nizoni ko'rib chiqishlik uchun tayyorlab, ya'ni buzilgan huquqni sud orqali himoya qilishlikni aniqlab, ishni mazmunan ko'rib chiqishlik uchun sudyalarini tayinlash kabi tashkiliy masalalarni hal qilish magistr yurisdiksiyasiga kiritilardi.

Bulardan tashqari, oliv mansablarga ega bo'lgan magistrarlarga, konsullar va pretorlarga fuqarolar, shaxslar o'rtasidagi xususiy ishlarni ko'rib chiqish uchun suidlarni tashkil qilish vakolati berilgan.

Rim davlatida ko'rildigan ishlarning taalluqliligi masalasiga ham katta e'tiborni qaratib, asosiy va ko'proq ishlar Rim shahrining magistratlari tomonidan, ba'zi holatlarda esa fuqarolarning fuqaroligi bo'lgan joyda va istiqomat qilgan joylarida ko'riliishi mumkin edi.

Rim xususiy huquqida huquqni ikki turi ommaviy va xususiy huquq mavjud bo'lganligi kabi ko'rildigan ishlar ham ikkiga bo'lingan:

1. Davlat manfaatlari buzilishi bilan bog'liq ishlarni ko'rish;
2. Alovida shaxslarning manfaatlari bilan bog'liq, ya'ni huquqni buzhishlik asosida vujudga kelgan ishlarga bo'lingan.

Qadimgi davrda Rimda shaxslar, ya'ni fuqarolar o'rtasidagi nizolar xususiy tartibda taraflar tomonidan tayinlangan hakamlar sudlari tomonidan ko'rib chiqilgan.

Respublikanlar va prinsipiat davriga kelib, fuqarolik jarayoni bosqichlari ikkiga bo'lingan. Birinchi bosqich «in iure» (in yure) va ikkinchi bosqich esa «in iudicio» (in yudikio) deb atalgan.

Birinchi bosqichda magistrat buzilgan huquqni sud orqali himoya qilishligini yoki mumkin emasligini aniqlaydi. Sudyani tayinlaydi, ushbu ishni mazmunan ko'rish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy ishlarni amalga oshiradi.

Ikkinchi bosqichda sudya nizoni mazmunan ko'rib chiqadi va qaror qabul qiladi hamda bu bosqichda dalillarga baho beriladi va ish mazmunan hal qilinadi.

Respublika davrining boshlarida «in iure» (in yure) bosqichidagi ishlarni konsullar, keyinchalik rinlar o'rtasidagi ishlarni kollegial tartibda ko'rvuchi rekuperator sudi paydo bo'lgan.

3-§. Legisaksion prosessi (jarayoni)

Qadimgi Rim jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri legisaksion jarayoni - rer legis actiones (per legis aksiones)ning hayotga tadbiq etilishidir va bu eng ko'p qo'llanilgan universal xarakterga ega bo'lgan sud jarayoni bo'lib hisoblangan.

Legisaksion prosessi qadimgi fuqarolik prosesslaridan biri bo'lib, bu prosess 2 bosqich in iure (in yure) va in iudicio (in yudikio) dan iborat bo'lган.

Birinchi bosqichda huquqi buzilgan shaxs sudda ish qo'zg'atish haqida magistratga arz qiladi. Shikoyat qilgan shaxsnинг arizasi asosida uning davosini sudda ko'rilishi mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Legisaksion jarayonida arizachilarining talablarini ko'rib chiqishlikning turli shakllari bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topgan:

1. Prosessda ishtirok etuvchi da'vogar va javobgarlarni aniqlash;
2. Sudya tayinlashni talab qilish;
3. Ma'lum pul miqdori va narsalarni talab qilish, garovga qo'yish yoki magistratga topshirib qo'yishlik.

Birinchi bosqichda taraflar magistratga kelib, o'zlari bilan nizoli ashyni olib kelishgan.

Da'vogar nizoli ashyo ustiga tayoqcha yoki boshqa biror narsa qo'yib, shu ashyo(mulk) o'ziga tegishli ekanligini aytgan, javobgar uning gapini ma'qullasa, da'vo tan olingen deb hisoblangan bo'lib, ish mazmunan ko'rish bosqichiga o'tmagan va nizoli ashyo da'vogarga berilgan.

Javobgar da'voni tan olmagan taqdirda, nizoga magistrat aralashgan. Magistrat aralashgandan keyin da'vogardan nima sababdan u nizoli ashyonи o'ziniki deb, hisoblashini so'raydi. Javobgar kviritlar huquqi bo'yicha ashyo unga qonuniy tegishli deb hisoblasa, da'vogar javobgardan biror narsani yoki nizoli ashyonи predmetini garovga qo'yishini taklif qiladi, bu javobgarning haqligini isbotlash uchun talab qilingan. Javobgardan keyin da'vogar ham garovga pul qo'ygan. Garov miqdori nizoli ashyoning qiyamatiga bog'liq bo'lgan. Shundan keyin taraflar magistrat ishtirokida o'zlariga sudya tayinlaganlar. Shu bilan birinchi bosqich tugagan.

Ikkinci bosqich 30 kundan keyin tayinlangan. Agarda taraflardan birortasi kelmasa, nizoni kelgan taraf foydasiga hal qilingan. Taraflar nizoni mazmunan aytgandan so'ng, sudya dalillarga baho berib o'z qarorini qabul qilgan. Qaror og'zaki qabul qilingan va qaror ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas edi. Yutib chiqqan taraf garov pulini qaytarib olgan, yutqazgan tarafning puli qaytarilib berilmagan, u davlat xazinasi foydasiga o'tkazilgan.

Bu prosessda asosan da'vogar javobgarni da'vo qilinayotgan nizo va uning predmeti bilan tanishtirgan. Pretor tomonidan tayyorlanilishi, lozim bo'lgan formulalar uchun asos yaratilishi, ayniqsa da'veoning ob'yekti, uning jinsiy belgilarni ko'rsatish va boshqa dalillarning keltirilishligi lozim bo'lgan.

Da'vogar o'z da'vosini amalga oshirishlik uchun pretordan da'vo formulalarini berishlikni talab etgan va bu formulalar pretor tomonidan berilgan.

Javobgar esa kelib da'vo bilan tanishishlik, da'vogar bilan birga kelishlik, pretor tomonidan tuzilgan formulalarni ko'rib chiqish, sudyani tanlash va nizoni tasdiqlash kabi harakatlarni amalga oshirishligi lozim edi.

Agar da'vodagi zarar pul miqdori asosida qat'iy belgilangan bo'lsa, javobgar uni to'lash yoki ishni sudda ko'rmaslik imkoniyatlarini vujudga keltirish yo'llarini o'yashi lozim bo'lgan. Agar magistrat tomonidan aniqlangan yoki da'vo arizasi orqali aniqlangan summa ma'lum bo'lsa, uni to'lal qoplash uchun javobgarga murojaat etilardi, vaholanki javobgar uni o'z roziligi asosida qoplasa, bu nizo sud prosessida ko'rilmasdan qoldirlardi va nizo hal qilingan deb hisoblanilardi.

Pretor da'vo predmetini va summasini aniqlab yozma ravishda da'vogarga berib, da'vogar esa javobgarga olgan formulalarning nusxasini o'qib eshitirardi. Javobgar bu formulani eshitib, hech narsa demasa, u o'z-

ini sud jarayoniga yoki ishni sudda ko'rib chiqishlik uchun topshirgan deb hisoblanilardi.

Gay Institusiyasida ko'rsatilganidek, sud tomonidan ishni mazmunan ko'rib chiqishlik uchun muddat belgilangandan keyin, ular uchinchi kuni sudyaga kelishlari lozim bo'lgan.

Sud jarayoni ochiq, erkinlik va og'zaki asosda davom etib, dalillarni baholash munosabatlari orqali amalga oshirilgan. Dalillar bo'lib, guvohlar ko'rsatmalar, voqeja joyini ko'zdan kechirish, hujjatlar va qasamyod qabul qilinishligi (yoki qasamyodlar) hisoblangan.

Da'vogardan o'z da'vosini asoslash va dalillar taqdim etish majburiyatlarini, javobgardan esa o'zining e'tirozini asoslaydigan faktlar bo'lishligi va uiarni taqdim etishligi talab etilgan.

Sudya jarayon yuzasidan hamkasblari, mashhur yuristlar bilan maslahat qilishlik huquqiga ega bo'lgan, ammo hal qiluv qarorini, verdikni chiqarishda o'zi mustaqil javobgar bo'lib hisoblangan.

Pretor o'z qarorlarining ijrosi uchun ham mas'ul bo'lib, sud qarorining aynan Rim shahrida yoki boshqa javobgarning turar-joyida bajarilganligini majburiy bo'lgan normalar bilan berkitib qo'yishi mumkin edi.

Qadimgi Rim davlatida sud tomonidan qabul qilingan qarorlar qat'iy bo'lib, shikoyatga o'rin qoldirmagan. Ammo sud qarorlaridan norozi bo'lgan taraflar pretorga murojaat qilib, sud qarori asosida kelib chiqqan yuridik oqibatlarni yo'qqa chiqarish va harakatni dastlabki holatiga keltirish yoki qaytadan tiklash kabi iltimosnoma yoki murojaat qilish vakolatlariga ega bo'lgan. Bu esa pretorga katta imkoniyatlarni yaratib, hatto u bu voqelikka huquqiy normalarni qo'llash mumkin emas deb, iqtisodda hukmron bo'lgan sinfning erkini, irodasini va manfaatini ko'zlashga yondashgan.

Rim xususiy huquqida voqelikni dastlabki holatiga keltirish, uni qaytadan tiklashlikka restitusiya deb atalgan. Restitusiyani qo'llash quyidagi hollarda amalga oshirilgan:

1. Vcquelik yoki sodir etilgan harakat natijasida yoki vaqtning o'tkazilib yuborilishligi asosida mulkiy yohud mulkiy xarakterga ega bo'lмаган shaxsiy zararning yetkazilishi natijasida;
2. Restitusiyani talab qilayotgan shaxsning asoslari bo'lsa (ya'ni shartnomani qo'rqtish, aldash yoki yanglishishlik va boshqa usullarda tuzilganligini isbotlasa);
3. Iltimoslar o'z vaqtida (kechiktirmasdan) qilingan bo'lsa.

Yuqoridagi ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan holda, pretor tomonidan ular asosli deb topilsa, sodir etilgan harakat bo'yicha yuridik oqibatlar to'xtatiladi va dastlabki holatiga hamma harakat qaytariladi yoki qaytadan tiklaniladi.

Rim fuqarolik jarayonida dastlabki vaqtarda vakillik instituti qo'llanilmagan. Lekin alohida hollarda ya'ni «ozodlik uchun», «xalq uchun», «vasiylik va homiylik» bilan bog'liq munosabatlarda vakillikka yo'l qo'yil-

gan. Bunda vakilning harakatini vakolat bergen shaxs qo'llab-quvvatlashi lozim bo'lgan. Sudyalar o'z qarorlarini vakilga qaratib, uning ishtirokida qabul qilganlar. Vakil esa sud qarorini vakolat bergen shaxsga tushuntirib, to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash, ashyolarni qaytarish kabi masalalarini amalga oshirgan.

Keyinchalik esa, vakillik voyaga yetmagan shaxslar o'tasidagi munosabatlar, xotin-qizlar bilan bog'liq harakatlar, davlat ishlarini bajarishlik uchun safarga ketgan shaxslarning o'rniga joriy etilgan va ushbu munosabatlarda, shuningdek, kasallik oqibatida o'z huquqlarini himoya qila olmaslik yoki sudda qatnasha olmaslik holatlarida ham vakilning qatnashishiga ruxsat berilgan.

Rim fuqarolik jarayonida prokuratora instituti - ya'nii javobgar nomidan vakillik qilishlik rasmiy ravishda, ba'zan esa norasmiy asosda ham amalga oshirilgan.

Ulardan tashqari vakil qilib olinmasdan, taraflarga yoki jarayon ishtirokchilariga og'zaki ravishda yuridik yordam beruvchi - advocati, advokatlar ham qatnashgan.

4-§. Formulyar prosessi (jarayoni)

Eramizdan avvalgi II asrning o'ttalariga kelib legisaksiyon jarayoni o'rniga formulyar - rer formulas (per formulas) jarayoni kirib kelgan, chunki pretor huquqi yanada rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayonda pretor eng asosiy o'rinni egallagan. Ushbu jarayonni boshlanishiga da'vegarning javobgar ustidan o'z arizasini yozma ravishda berishligi sabab bo'lgan. Bu «qog'oz» suda uchun shartli belgi yoki «formula» deb atalib, shu jarayondan boshlab formulyar sud prosessi amalga oshirila boshlangan.

Bu vaqtga kelib, ayniqsa birinchi bosqichdag'i ish yuritish (in yure)ning ahamiyati kuchayib, aynan shu yerda nizoning huquqiy mohiyati o'rnatalgan.

Formulyar jarayon ham ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Magistratga javobgarni da'vegar tomonidan chaqirilishi, javobgar esa sababsiz kelmag'an taqdirda, unga jarima solinishi o'ziga xos xususiyatlardan hisoblangan.

Magistratga kelishdan avval, da'vegar o'z da'vesini asosini va talabini yozma ravishda ifodalashi lozim edi. Bu haqda javobgarga xabar qilgan. O'z da'vesini yozishda da'vegarga yuristlar yordam berishgan. Agar javobgar da'veoni tan olsa, da'vegar talabini qanoatlantirilishi huquqini qo'llga kiritgan, mabodo tan olmasa magistrat quyidagilarni amalga oshirgan:

1. Da'vegarning da'vesini tasdiqlagan;
2. Javobgarning e'tirozini formulaga kiritgan;
3. Sudyani tayin qilgan;
4. Ishni ko'rish uchun sudyaga yo'llanma bergen.

Shu bilan sudga ish jo'natilgandan so'ng, birinchi bosqich tugaydi. Yozma formulalarni yuristlar asosan uch qismga bo'lganlar. Intensiya, ekssepsiya va kondemnasiyalardir. Intensiya qismi da'vogarning shikoyatini, aybini aniqlash va talab qilish huquqi hamda da'vo predmeti va huquqiy asosni aniqlashga qaratilgan va bu huquqiy asos sivil huquqi, XII Jadval qonunlari yoki Rim davlatining boshqa qonunlari, pretor va bonitorlar huquqi asosida bo'lishligini aniqlash lozim bo'lgan.

Ikkinci qismi ekssepsiya bo'lib, e'tiroz bildirish, alohida shart qo'yish, shikoyat, biron-bir voqelikning vujudga kelishi yoki shaxsning biror harakatni sodir etganidan keyin, bu nizoning hal qilinishi kabi munosabatlardan tashkil topgan.

Fuqarolik huquqi jarayonining ishtirokchisi bo'lган javobgar nizo predmeti hal qilinayotgan paytda, u bu nizoga e'tiroz bildirishi yoki shikoyat keltirishi, hatto bu nizoni hal qilishlik uchun biror shartni qo'yishligi, ba'zan esa uning tomonidan qilinadigan harakat boshqa shaxslar tomonidan ham qandaydir harakatning bajarilishini talab etardi.

Formulada ko'rsatilishi lozim bo'lган bu harakat albatta dalillarga asoslangan bo'lishi shart edi.

Ekssepsiya deb - da'veni butunlay yo'q qilib yuboradigan, o'chirib tashlaydigan yoki uning bajarilishi muddatini cho'za oladigan munosabatlarga aytilgan.

Uchinchi qismi kondemnasiya - bu xulosa qismi, hisoblanib, hukm chiqarish yoki qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lib, nizoning hal bo'lishligining pretor tomonidan sudyaga berilgan ko'rsatmasidir. Bu qismdan javobgar da'vogarning talabiga rozi bo'lsa, da'vo bahosi aniqlangan bo'lsa, ish prosess davrida ham tugatilishi mumkin bo'lgan.

Bu ish bo'yicha sudning qarori qat'iy bo'lgan va uni ustidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lмаган. Agarda javobgar sudning qarorini bajarmasa yoki o'zini e'tirozini isbotlay olmasa, u ikki barobar qilib pul to'lagan yoki qarzdor qarzni to'laguncha qarnab qo'yilishi ham mumkin bo'lgan. O'z ixtiyori bilan qarzni to'lamasa, majburlab to'latilgan, qarzdorning mulki da'vogarga xatlanib o'tkazilgan.

5-§. Ekstraordinar prosessi (jarayoni)

Eramizning III asri bosqlariga kelib respublikaning demokratik belgilari ni ko'rsatish maqsadida, shuningdek imperator hokimiyyati sudyalarga ishonmay qo'yanligi sababli, huquqbuzuvchilar bilan o'zları yoki o'zlarining amaldorlari orqali (extra ordinem-ekstra ordinem) kurashadigan bo'ldi.

Ekstraordinar jarayonlarni imperator amaldorlari amalga oshirardi. Imperator shaxsan o'zi har qanday ishni o'zi ko'rish yoki o'z amaldorlari dan biriga topshirishi mumkin edi. Ayniqsa, bu jarayonda magistratning

o'rni beqiyos bo'lgan. U ishni boshidan oxirigacha, ya'ni ishni sudga o't-kazmasdan ham hal qilgan.

Javobgarni sudga olib kelishlik davlat organlari orqali amalga oshirilgan. Bunday jarayonlarni imperatorдан tashqari shahar polisiyasi boshlig'i, magistrat, provinsiya hokimi va munisipal magistrati tomonidan amalga oshirilgan. Taraflardan da'vogar sud jarayoniga kelmasa, ish yopilgan yoki aksincha javobgar kelmagan taqdirda uni ishtirokisiz ko'rilegan. Taraflardan faqat javobgargina sudga otvod berish huquqiga ega bo'lgan. Jarayonda ishtirok etuvchi tarafilar va advokatlar qasam ichishgan. Yozma hujjatlar va guvochlarning ko'rsatmalari dalillar yoki isbot bo'lib hisoblangan.

Sud qarorlari mazmunan turlicha bo'lib, pul qiymatini to'lash, ashyon, mulkni qaytarib berish yoki biror-bir harakatni amalga oshirishni yuklagan. Sudya jabrlanuvchi talabini kamaytirishi mumkin edi. Agar sudya ishda noaniqlik bor degan xulosaga kelsa, ishni yuqori instansiyaga berishi mumkin edi.

Sud qarori da'vegarning talabiga ko'ra davlat tashkilotlari tomonidan ijro qilingan. Qaytarilib berilishi lozim bo'lgan mulk bo'lsa, u holda ikki oy mobaynida mulk qaytarilishi lozim edi, aks holda majburiy olib berilgan. Belgilangan qiymatdagi pulni qaytarmasa, javobgarning mulki ro'yxatga olinib, qismlarga bo'lib sotilgan, mol-mulki bo'lmasa javobgar qamab qo'yilgan. Sudning qarori ustidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan, u yozma yoki og'zaki tarzda qaror o'qib eshittirilgandan keyin o'n kun ichida shikoyat yoki ariza keltirilishi tarzida bo'lgan. Shikoyat ishni ko'rib chiqqan sudyaga berilgan va imperatorga yo'llangan va bu ish imperator Kengashida ko'rib chiqilgan, uning xulosasi qat'iy bo'lib hisoblangan.

6-§. Interdikt (ta'qiqlash, man etiladigan) ishlarni olib borish

Qadimgi Rim xususiy huquqining o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'lganki, sud ishlarini ko'rishlikda bir nechta jarayonlar bo'lsa ham, ularga qo'shimcha sifatida yoki Rim davlati amaldorlarining huquqlarini, manfaatlarini mustahkamlash nuqtai nazaridan, Rim quzdorchilik jamiyatida odat asosidagi xususiy da'vo tartibida ishni ko'rib chiqishdan tashqari interdikt asosida ham ishlar, nizolar hal qilinganligini ko'ramiz.

Oldingi odat bo'lib qolgan da'vo arizasiga asosan ko'rildigan ishlardan farqli o'laroq, bunda sud magistrati mutloq oliv hokimiyatni amalga oshiruvchi va barcha fuqarolarga majburiy bo'lgan buyruq va me'yoriy hujjatlarni chiqaruvchi, uni qabul qiluvchi oliv mansabdor shaxs ekanligi bilan farq qilgan. Interdiktlar pretorlar tomonidan buyruq xarakteriga ega bo'lgan qadimdan qabul qilinib kelgingan hujjatlardir. Shuning uchun inter-

diktilar, shartsiz va bajarilishi qat'iy bo'lgan, garovga olish va jarimali ja-zolarni qo'llash bilan boshqa harakatlardan, jarayonlardan ajralib turgan.

Interdiktlarning vujudga kelishligi davlatni idora etish organlari tomonidan tartibga solinaqdigan ma'muriy munosabatlarning sud ishlariga aylanib ketishligi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Interdiktlarning asosiy maqsadi - huquqi buzilgan shaxslarning huquqlarini buzilmasdan oldin bo'lgan dastlabki holatiga majburiy ravishda tiklashdir. Ashyo egasining manfaatlarini himoya qilish mulk egasining huquqlarini himoya qilish uchun xizmat qiluvchi da'volar yordami bilan emas, balki pretorlik interdiktlari bilan amalgalashdir. Ular mulk huquqi egaligining buzilishligini, yoki boshqa tajovuzlarning amalga oshirishligining oldini olishni samarali yo'li sifatida huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarining huquqlarini tez orada himoya qilishlik usulidir.

Interdiktlar oddiy va ikki tomonlama, ma'lum harakatlarni ta'qiqlovchi yoki ularni qaytadan tashkil etuvchi, biror shaxsni, hujjatni ko'rsatishlikni talab etuvchi turlarga bo'lingan.

Interdiktning mohiyati shundan iborat bo'lganki, huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi qarshi tomon hatto nizolar haqida bahslashmasdan ham pretor yoki magistrat interdiktiga so'zsiz bo'yusungan.

Rim quzdorlik davlatining sinfiy davrida interdiktlarning mohiyati shundan iborat bo'lganki, kelib chiqadigan nizolarni sudsiz, tez orada ma'muriy asosda ko'rib chiqishlik va himoya qilishlik uchun, ayniqsa, quzdorlarning manfaatlarini himoya qilishlik uchun eng qulay va oddiy shakldagi harakatlardan biri bo'lib qolgan. Albatta, ular da'volarga o'xshash yuridik holatlarni keltirib chiqarmagan bo'lsa ham, o'zining soddaligi, os-onligi, qo'llanishining qulayligi bilan ajralib turgan, chunki u ashyo egasining o'z ashysiga egalik qilish titulini isbotlashning murakkab tartibiga murojaat qilish zaruriyatidan ozod qilgan.

7-§. Huquqni himoya qilish va amalgam oshirishda vaqtning ta'siri

Huquqni himoya qilishlik va uni amalgalashda vaqtning (davrning) ahamiyati shundan iboratki, u faktik holatlarni keltirib chiqaradi, faktlarni huquqqa (talab qilish huquqiga) aylantiradi, huquqni vujudga keltiradi, o'zgartiradi, bekor qiladi hamda shaxslarga huquq beradi, ba'zilaridan esa huquqni olib qo'yadi yoki huquqning harakatini to'xtatadi.

Qadimgi Rim davlati huquqida vaqt mulkka bo'lgan egalik huquqini vujudga keltirishda asosiy ahamiyat kasb etgan. Mulk huquqining egasi, sub'yekti bo'lislilik uchun 25 yil vaqt o'tishi talab qilingan. Imoratlar sotilgan vaqtida olti oy davomida uning kamchiliklari, deffektlari ko'rinish qolsa, olish-sotish shartnomasi bekor qilingan yoki uy-joyini qimmat bahoga sot-

gan bo'lsa, ikki yil davomida bahosini yana qaytadan ko'rib chiqishlik mumkin bo'lgan.

Rim huquqida eslay olmaydigan, eslashlik qiyn bo'lgan, lekin ehti-moldan holi bo'limgan vaqt (davr) muddatlari ham qo'llanilgan. Masalan, O'sarboy tomonidan qurilgan ko'prikk bo'lsa kerak. Bunda ko'prikk bo'lgan mulk egaligi to'la o'rnatilmagan bo'lsa ham, ehtimol qilinib, unga mulk hu-quqining egaligiga o'xshash huquqiy holat berilgan va qonunlar asosida himoya qilinib, buzilib ketishligiga yo'l qo'yilmagan. Vaqlarni hisoblash kalendor vaqt, yillar, voyaga yetganlikni tan oluvchi muddatlar, tug'ilgan kunlar kabi vaqlar, davrlar bilan belgilangan.

Shuningdek, vaqt kunlar, yarim kechalar, yilning oxirgi kuni, bahnoring kelishi, diniy bayramlar kuni kabilar asosida hisobga olingan.

Vaqtning tamom bo'lishi - shartnomalardagi ko'rsatilgan shartlarning bajarilishligini talab etgan. Shartnomalarining o'z vaqtida bajarilmashi keltirilgan zararlarni undirish uchun asos bo'lib hisoblangan.

8-§. Da'vo muddati tushunchasi va turlarga bo'linishi

Da'vo muddati deb, Rim xususiy huquqida buzilgan huquqni tiklashlik uchun ajratilgan vaqt mobayniga aytilgan.

Rim huquqshunoslari har bir shaxsning huquqi noqonuniy harakatlar natijasida buzilar ekan, ular o'zining tasarruf doiralarida da'vo qilish huquqiga ega bo'lganligini, ammo da'veni joriy etish va qo'llash mulk egaligi bilan bog'liq ekanligini e'tirof etganlar. Ular da'vo qilishlik chegarasini istaganicha cho'zaverishi mumkin edi. Ammo davlat da'vo qilishlik chegarasining harakatda bo'lishligi va da'vo muddatining qo'llanishligining tarafdori edi.

Qadimgi Rim huquqida, ayniqsa sinfiy davrda da'veni qo'llashlikda qonuniy muddatlarni qo'llash tushunchasi mavjud bo'lib, uning muddati V asrga kelib, Yustinian tomonidan 30 yil qilib belgilangan.

Qonuniy muddatning tugashi da'vo qilishlikni, da'voga bo'lgan huquqni tugatardi, ammo qarzdor tomonidan qarzni o'z bo'yning olib iqror bo'lsa, uning uchun qo'llaniladigan da'vo muddati to'xtatilib, yangitdan da'vo qilish muddati boshlanardi.

Da'vo muddatini joriy etishda huquqning buzilgan davrini aniqlash lozim, chunki u da'vo muddatining o'tishi bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, olish-sotish shartnomasi bo'yicha sotib olingan mulk, haq to'langandan keyin sotib oluvchiga o'tishligi lozim edi, ammo sotuvchi sotib oluvchiga mulkni yetkazib bermaydi. Demak, da'vo qilish muddati shu huquqning buzilganligini bilgan paytdan boshlanadi.

Qarz bergan va qarz oluvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada olingan qarzning qaytarilishi muddati ko'rsatiladi, mabodo shu muddatda qay-

tarmasa, da'vo qilish muddati ushbu kundan boshlab amalga oshiriladi, ya'ni qarzni qaytarib oluvchidan talab qilish huquqi vujndga keladi.

Ayniqsa, majburiyat huquqiy munosabatlarida ba'zan biron-bir harakatni sodir etishlikni to'xtatib turishlik to'grisida kelishilgan bo'lisligi ham mumkin bo'lgan. Bunday paytda harakatni amalga oshirgan paytdan da'vo muddati boshlanadi.

Da'vo muddati o'tishining to'xtalishi hâm mumkin bo'lgan. Bu holatlar ko'pincha majburiyatlarni bajarishlik uchun tabiiy to'siqlar, hodisalar, yoki merosxo'r bo'lgan munosabatda mulkni hisoblab chiqish davri bilan bog'liqligi va boshqa hodisalar da'vo muddati o'tishini to'xtatib, u harakatlar olib tashlangandan keyin, da'vo muddati yana qaytadan tiklanilardi.

III bo'lim uchun nazorat savollari

1. Rim xususiy huquqida da'vo tushunchasi qachon paydo bo'lgan va uning qo'llanishi qanday munosabatlardan bilan bog'liq?
2. Rivo xususiy huquqida vakillik instituti qaysi paytdan vujudga keldi va uning mohiyati nimalardan iborat?
3. Xususiy nizolar tushunchasini aniqlang va ular qanday shaxslar tomonidan qo'llanilgan?
4. Xuquqning himoya qilinish turlari haqida hamda Pretorlar tomonidan kimlarning huquqlarini himoya qilishlikka muhim e'tibor qaratilgan?
5. Interdiktlar tushunchasi va ularni kimlar qo'llashi mumkin bo'lgan?
6. Ashyoviy-huquqiy asosda himoya qilish usullari qaysi holatlarda va qaysi shaxslarga qo'llanilgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix institutov i yuridicheskix fakultetov. Pod redaksiyey I. B. Noviskogo i I. S. Peretetskogo. M., 1948.
2. Noviskiy I.B. Osnovo' rîmskogo grajdanskogo prava. M., 1956, 1960, 1972 gg. izd.
3. Omelchenko O.A. Osnovo' rîmskogo prava. M., 1994.
4. Kosarev A.I. Rimskoye pravo. M., 1986.
5. Urazayev SH.Z. Rimskoye pravo. Uchebnoye posobiye.-T.: Akademiya MVD Respublikи Uzbekistan, 2000.
6. Ernazarov O.E., Topildiyev V.R. Rim fuqarolik huquqi. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2001.
7. Digesto' Yustiniana. M., 1956, 1984.

IV BO'LIM. Rim fuqarolik huquqida shaxslar

- 1-§. Shaxslar tushunchasi.
- 2-§. Rim fuqarolarining huquqiy holati.
- 3-§. Lotinlar va peregrinlarning huquqiy holati.
- 4-§. Qullarning huquqiy holati.
- 5-§. Ozodlikka qo'yib (chiqarib) yuborilgan shaxslarning huquqiy holati.
- 6-§. Kolonlarning huquqiy holati.
- 7-§. Yuridik shaxslar tushunchasi.

1-§. Shaxslar tushurchasi

Rim fuqarolik huquqida va hozirgi zamон huquqiy sohalarida ham huquqiy munosabatlarni amalga oshiruvchi, ularni amaliyotga tadbiq etuvchilar - sub'yeqtlar, ya'ni shaxslardir.

Shaxslar huquqiy munosabatlarning sub'yeqtлari sifatida ikki qismga bo'lingan, jismoniy shaxs va yuridik shaxslar.

Qadimgi Rim jamiyatida jismoniy shaxslar asosiy huquq sub'yeqtлari bo'lib hisoblanib, ular ommaviy va xususiy huquq asosida berilgan manfaatlarini amalga oshiruvchi individlardan iboratdir.

Rim fuqarolik huquqida jismoniy shaxslarni keng ma'noda tushunishga katta e'tibor qaratilgan. Unga asosan, jismoniy shaxs deb, - har qanday individning qonunlar tomonidan berilgan huquq bo'yicha o'z daxlsizligini, yashash huquqini, ya'ni sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, ularda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini amalga oshira oladigan va uni kafolatlaydigan huquq va burchlarga ega bo'lgan shaxslar tushunilgan.

Rim xususiy huquqida qatnashuvchi shaxs sub'yekt bo'lisligli uchun, uning mulkka egalik huquqi bo'lisligli, shartnomaviy munosabatlarga kirisha olishligi, o'ziga huquq va burchlarni vujudga keltira olishligiga tushunilgan.

Yuridik shaxslar deganda - jismoniy shaxslarning o'zaro birlashib, ularga o'z huquqlarini, vakolatlarini berish asosida tuzilgan birlashmalar, korporasiyalar, diniy ittifoqlar, hunarmandlarning kasaba uyushmlari, non yopuvchi tashkilotlar, sudnalarning yig'indisi boshqaruvi kabi tashkiliy birliklar yoki ko'pchilik insonlar, odamlar, ya'ni jismoniy shaxslar o'rtafiga amalga oshiriladigan munosabatlarning sub'yeqtlariga tushunilgan.

Jismoniy shaxslar barcha huquqiy munosabatlarning sub'yeqtлari bo'lishi uchun, ular eng avvalo huquq layoqati carut (kaput)ga ega bo'lisliliklari lozim. Huquqiy layoqat har bir insonning (fuqaroning) tug'ilishi bi-

ham vujudga kelgan va uning o'limi bilan tugagan. Huquqiy layoqat insonning huquq va burchlariga ega bo'lish layoqatidir. Huquqiy layoqatdan tashqari har bir jismoniy shaxs muomala layoqatiga, ya'nii fuqaro o'z harakati asosida o'zi uchun huquq va burchlarni vujudga keltira olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Qadimgi Rim xususiy huquqining o'ziga xos xususiyatlardan biri, farzand tug'ilmasdan oldin ham, ya'nii onaning homilalik davrida, otasi va-fot etgan taqdirda, u otasidan qolgan merosdan o'z hissasini, ulushini olish huquqiga ega bo'lgan. Hatto tug'ilмаган farzandning otasi ozod bo'lgan Rim fuqarosi hisoblangan bo'lsa, onasi esa qul bo'lgan taqdirda ham, tug'ilishi lozim bo'lgan farzand «ozod inson», ya'nii Rim davlatining fuqarosi si-fatida tan olingan.

Jismoniy shaxslar barcha huquqiy munosabatlarning birinchi va markaziy ishtirokchisi sifatida qatnashib, o'z harakatlarini amalga oshirar ekan, o'zlar uchun huquq va burchlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Qadimgi Rim davlatida hamma insonlar ham bir me'yordagi huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega bo'limganlar. Jamiyat ijtimoiy munosabatlarning hamda ishlab chiqarish munosabatlarning yanada taraqqiy etishi natijasida, ayniqsa savdo munosabatlarning kuchayishi, Rim davlati hududidan tashqariga chiqish zarurati Rim davlatida yashab turgan va to'liq huquq va muomala layoqatiga ega bo'limgan shaxslarning ham bu munosabatlarda qatnashishini talab etardi va natijada asta sekinlik bilan ular ham ma'lum layoqatlarga erishib, barcha fuqarolar kabi teng huquqlarga ega bo'la boshladи.

Shuni qayd qilish kerakki, Rim davlatining qu'dorchilik xarakteri, ekspluatasiyaga asoslanganligi, arzon bo'lgan mehnatning mavjudligidan Rim davlati o'zida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning huquq layoqatini tenglashtirish tarafdoi bo'lgan emas.

Rim davlatining iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi, respublikanlar davridan monarxiyaga o'tish, prinsipiat va dominiat davrlarida yangi ekspluatasiya qilish shakllarining vujudga kelishligi, qullar institutining saqlab qolinishligi, ba'zi bir guruhlarning huquqlarini kengaytirdi, ba'zan esa ba'zi birlarining huquqlarini chegaralab, umrbod yer bilan bog'liq qilib, feodal munosabatlarni keltirib chiqarishlikka ham sabab bo'ldi.

Rim davlati fuqarolik huquqining hamda siyosiy, oilaviy, iqtisodiy, mulkiy munosabatlarning to'liq huquq layoqatiga ega bo'lgan sub'yekti bo'lishlik uchun shaxs eng avvalo uchta talabga javob berishligi lozim edi:

1. Ozodlik holatlari - Status libertatis (status libertatis), ozod bo'lgan shaxslar bo'lishligi lozim edi. Ya'nii qul bo'lmasligi;
2. Fuqarolik holatlari - Status civitatis (status kivitatis), chet el fuqarolari bo'lmasdan Rim davlatining fuqaroligiga ega bo'lishlik;

3. Oilaviy holati - Status familias (status familias), oila boshlig'i, boshqaruvchisiga qaram - ratria rotestas (patria potestas) bo'lma-gan shaxslar bo'lishlik lozim edi.

Rim xususiy huquqining sub'yekti yoki to'liq huquq layoqatiga ega bo'lishlik uchun esa ikki elementning vujudga kelishligi taqozo etilgan:

a) Rim huquqi bo'yicha nikohga kirishishlik va oila qurish huquqiga ega bo'lishlik;

b) Barcha mulkiy munosabatlarning sub'yekti va shartnomaviy munosabatlarga kirisha olishlik huquqlariga ega bo'lishlik majburiy edi.

Rim huquqi to'liq huquqiy layoqatga ega bo'lgan insonlar qatoriga ozod bo'lgan, ozod bo'lib tug'ilgan shaxslarni kiritgan. qullar huquqiy munosabatlarning sub'yekti sifatida tan olinmasdan, balki ularni ob'yekt sifatida, ya'ni «gapiruvchi quroq» sifatida e'tirof etganlar. Qullarning huquqiy holati ashyolar huquqiy holati bilan tenglashtirilgan. Hatto, Rim yuristlari «qulchilik bu qadimgi Rim davlatining yoki quldorchilik tuzimini boshdan kechirgan barcha davlatlarga taalluqli bo'lgan institutdir» - deb, ta'riflaganlar.

Albatta, Rim davlatida ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi, rivojlanishi, ayniqsa savdo munosabatlarini kengayishi qullar huquqlarining, ya'ni ularning huquq layoqati o'zgarishiga olib kelgan.

Rim fuqarolari va chet el fuqarolari hamda Rim davlatida ozod bo'lgan shaxslarning hammasi ham to'liq huquq layoqatiga ega bo'lavermagan. Chunonchi, ba'zi ozod bo'lgan shaxslar hech qanday huquq layoqatiga ega bo'lмаганлар.

Ozod bo'lgan fuqarolarning ham Rim davlatining siyosiy, oilaviy va mulkiy munosabatlarida to'liq qatnashishligi uchun Rim davlatida yashab turgan, uning fuqaroligiga ega bo'lgan, cives romani quirites (sives romani kvirites) huquqiga erishgan shaxslar maqomiga ega bo'lishlik talab etilgan.

Chet davlatlardan kelib qolgan ozod bo'lgan fuqarolar siyosiy, oilaviy yoki mulkiy munosabatlarda qatnasha olmagan, balki ularni hostis (xostis-dushman) deb hisoblaganlar.

Ammo ular pretorlik munosabatlari orqali o'ziga patron ya'ni xo'jayin izlab topib, unga mijoz (kliyent) sifatida rasmiylashtirilib, patronidan huquqiy yordam, bitimlar tuzishlikda va o'zlarining huquqlarini sudda himoya qilishlikda katta yordam olib, xo'jayini ya'ni patroni orqali huquqiy munosabatlarga kirishganlar. Bunda patron chet el fuqarosining vakili sifatida emas, balki uning manfaatini himoya qiluvchi va o'z nomidan harakat qiluvchi shaxs bo'lib tanilgan.

Rim davlatida yashovchi lotinlar siyosiy huquqlardan mahrum qilin-gan bo'lsada, ularning fuqarolik huquqi normalaridan foydalanishiga to'liq ruxsat etilgan, hamda sud ishlari, huquqlarini himoya qilishlik ham xuddi Rim fuqarolaridek amalga oshirilar edi. Ayniqsa, 212 yildagi imperator Karakalli tomonidan imperiyada yashab turgan barcha fuqarolarga Rim

davlatining fuqaroligi berilishi va shu fuqarolarning barcha munosabatda rimliklar kabi teng huquq va burchlarga ega ekanligining e'lon qilinishi totinlarning huquqlarini yanada kengaytiradi.

Rim davlatida xalqaro savdo munosabatlарининг янада ривожланиси натижасида ва fuqarolik-huquqiy munosabatlарининг takomillashuvi Rim fuqarosi bo'limgan hamda lotinlarga taalluqli bo'limgan (lotin bo'limgan) fuqarolarning ham asta-sekinlik bilan huquqlarini kengaytirib peregrinlar bilan teng bo'lgan huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'z navbatida, peregrinlar siyosiy huquqlardan hamda «Rim nikohi»ga kirish huquqlaridan mahrum bo'lsa-da, ular o'ziga xos bo'lgan oilaviy hamda mulkiy munosabatlarga kirishishligi bilan Rim fuqarosining huquqiy layoqatiga qaraganda, bir munkha chegaralangan huquq layoqatiga ega bo'lganlar.

Imperator Yustinian qonunlari xalqaro savdo munosabatlарининг gurkirab o'sishligi asosida tovar egalarining millati va boshqa xususiyatlаридан qat'iy nazar, mulkdorlar sinflariga yaqin bo'lganligini e'tiborga olib, ularни ham Rim fuqarolari deb tanib, teng huquq va burchlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratib berdi.

Fuqarolarning to'liq huquq layoqatiga ega bo'lishligiga oilaviy holatining ham katta ta'siri bo'lgan. Rimda to'liq huquq layoqatiga ega bo'l-gan oila deb - oila a'zolarining «ota hukmronligi» institutiga bo'ysunmaydigan, mustaqil hayoti, faoliyatini amalga oshiruvchi ittifoqiga aytilgan. Ota hukmronligi institutida yashovchi barcha shaxslar uy boshqaruvchisiga, ya'ni otaga bo'ysungan va shartnomaviy munosabatlarga kirishganda o'zları uchun huquq va majburiyatlar vujudga keltirmasdan ota uchun vujudga keltirgan, lekin ota majburiyatlarni bajarishdan xalos bo'l-gan.

Biroq shartnomaviy munosabatlarning kengayishi ota hukmronligi ostidagi shaxslarning ham ushbu munosabatlarga kirishishligini taqozo etib, ularni bu munosabatlarda qatnashishligini ta'minlagan, chunki ota hukmronligi ostidagi shaxslarning harbiy urushlar natijasida ma'lum boyliklarga ega bo'lish, fuqarolik huquqiy munosabatlаридан foydalar olish kabi mulkiy huquqlarga ega bo'lganligining o'zi, ularni ma'lum bir huquqlar bilan ta'minlashlikni yuzaga keltirdi. Lekin Yustinian kodifikasiyası - otani ya'ni «ota hukmronligi» barcha munosabatlarda to'liq asosda huquqiy layoqatga ega deb, uni fuqarolik xususiy huquqining sub'yekti deb tan olib, yanada mustahkamladi.

2-§. Rim fuqarolarining huquqiy holati

Qadimgi Rim quldorchilik davlatida Rim fuqaroligiga ega bo'lishlik quyidagi fuqarolik huquqiy holatларидан kelib chiqardi:

Birinchidan, Rim fuqaroligiga ega bo'lgan ota va onadan tug'ilgan farzand Rim fuqarosi deb tanilishi, Rim nikohi asosida tug'ilgan farzand otaning huquqiy holati bilan belgilanishi, nikohda turmagan xotindan tug'ilgan farzand onanining huquqiy holati bilan bog'liq bo'lishligi;

Otasi Rim fuqarosi bo'limgan hamda onasi Rim davlatiga mansub bo'lgan shaxsdan nikohsiz tug'ilgan farzand Rim fuqarosi deb hisoblaningan.

Rim fuqarolik huquqida otasi Rim fuqarosi bo'lgan, ammo onasi homiladorligida otasi vafot etgan hali tug'ilmanan chaqaloq, tug'ilganidan so'ng ozod bo'lgan Rim fuqarosi sifatida e'tirof etilgan.

Nikohda turmasdan homilador bo'lgan, lekin farzandining tug'ilishi davrida Rim fuqarosiga ega bo'lgan onadan tug'ilgan farzand fuqaroligi onanining huquqiy holati bilan belgilangan.

Ikkinchidan, Rim davlatida qulning o'z xo'jayini tomonidan ozod etilishligi;

Uchinchidan, fuqarolikka ega bo'limgan shaxsning Rim fuqarosi tomonidan farzandlikka olinishi;

To'rtinchidan, davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlar, normativ aktlar asosida, hamda provinsiya va jamoalar qarorlari asosida fuqarolar ozod deb e'lon qilinganda, ularga Rim fuqarolik huquqi layoqati yoki huquqiy holati berilganligi asosida.

Rim fuqarolarining Rim xususiy huquqi va oilaviy huquqlariga ega bo'lishligida ularning huquqlari Rim fuqaroligiga ega bo'lganlik asoslariga qarab bir-biridan biroz bo'lsada farq qilgan yoki ba'zilarining qisman fuqarolik huquqlari chegaralangan.

Rim fuqarolari o'zining huquqiy holati nuqtai nazaridan ikki guruhg'a bo'linganlar:

a) ozod bo'lib tug'ilganlarga;

b) qulchilikdan ozod bo'lgan fuqarolarga, ya'ni o'z erki bilan qo'yib yuborilgan libertinlarga (libertini).

Ozod bo'lib tug'ilgan Rim fuqarolari siyosi, oilaviy, mulkiy huquqlarga ega bo'lib, ular Rim doimiy armiyasi safida xizmat qilishlik, xalq majlislarida ovoz berish huquqiga hamda magistratlar bo'lib saylanish huquqlariga ya'ni siyosi huquqlarga ega bo'lganlar.

Xotin-qizlar siyosi huquqlarga ega bo'limganliklari uchun rasmiy ismga ham ega bo'limganlar, ya'ni ularga hayot asosida turmushdan kelib chiqqan holda ism qo'yanlar, ya'ni «Toshpo'lat qizi» yoki «Eminjonning xotini» deb ataganlar.

Lekin Rim fuqarolik huquqida xotin-qizlar mulkiy munosabatlар, ya'ni fuqarolik xususiy huquqi bo'yicha mulkka ega bo'lishlik, shartnomalarni tuzish, majburiyatlarda qatnashish, o'zi uchun huquq va burchlarni keltirib chiqarish, vasiyatnomaga tuzishlikda guvoh sifatida qatnashishlik kabi huquqlarga ega bo'lgan.

Fuqarolarning huquqlari biroz chegaralangan, ya'ni ularning Rim tarkibida xizmat qilishligining mumkin emasligi, senatorlar tarkibiga qo'shilishi yoki kiritilishi ta'qiqlanganligi, xususiy va oila huquqi sohasida, shuningda senatorlar bilan nikoh tuzishlik huquqlari chegaralanishi kabilar.

O'z ixtiyori asosida ozodlikka qo'yib yuborilgan shaxslar, o'zining fuqaroligi xalq jayiniga (patroniga) ishlab berishlik, yordanu ko'rsatishlik, alishter viliga bo'lgan huquq va meros huquqiy munosabatlarda ya'ni fuqarolik hayoti bilan to'liq asosda bog'liq edi (xuddi o'g'il otasiga qanday «mujbur» yoki «barchli» bo'lsa, shu kabi yoki shunga o'xshash, yaqinlik asosi la ko'lligan).

Qadimgi Rim fuqarolik xususiy huquqida Rim fuqaroligini yo'qotish eda, egerit he'llgan munosabatlardan iborat bo'iib, hatto og'ir jazoli jinoyatlarini ham keltirib chiqargan.

Fuqarolikni yo'qotish asoslari quyidagilardan iborat bo'lgan:

a) ozodlikni yo'qotish, ya'ni asirga tushish, dushman tomonidan egalib turish;

b) quolibchilikka, tashqi daviarlarga sotib yuborilish;

v) og'ir jinoyatlarini sodir qilganligi uchun muddatsiz katorgaga oshish; c) qigunga yuborish;

g) fuqaroning o'zi tomonidan ixtiyoriy asosda yer olishlik uchun lotinlar holatiga o'tishi (imperator farmoyishiga asosan Rim davlatining emumlikalarida yashovchi lotinlar uchun yer ajratib berilgan).

3-§. Lotinlar va peregrinlarning huquqiy holati

Lotinlarning huquqiy holati ikki qismga bo'lingan, ya'ni lotinqlar tomonidan qulchilikdan lotinning ozod qilinishi bilan bog'liq belgan huquqiy layoqat va Rim fuqarosi tomonidan alohida shartlar asosida ozod qiliagan lotiniarga bo'lingan.

Lotinlarning huquqiy holatiga ega bo'lishlik asoslari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Tug'ilgan farzand, otasi lotin bo'lsa ota huquqiy holati bilan belgilangan. Nikohsiz onadan tug'ilgan farzand ona huquqi bilan bog'liqligi;
2. Davlat hujjatlari asosida lotinlik huquqiy holatiga taqdim etilgan bo'lsa;
3. Rim fuqaroligidan ixtiyoriy asosda voz kechib, yer olishlik nuqtai nazaridan kelib chiqib, lotinlikka o'tishlik;
4. Davlat qonunlarida ko'rsatilgan asosda lotin-quldor yoki Rim fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan qulchilikdan ozod qilishlik asosida.

Lotinlarning omimaviy huquq va fuqarolik xususiy huquqlari doira-si bo'yp qilarga ega bo'lishi biroz farqlangan.

Ommaviy huquq asosida barcha lotinlarning Rim armiyasi safida xizmat qilishlari ma'n etilgan, ammo ular Rim shahriga kelgan paytda Rim xalq majlislarida ovoz berish huquqlariga ega bo'lgan.

Fuqarolik xususiy huquqida esa, savdo, mulk, shartnomaviy huquqlarga ega bo'lgan, o'zлari uchun huquq va majburiyatlarni keltirib chiqargan va huquq va majburiyatları doirasida javobgarlikni ham o'tagan.

Shuningdek, lotinlar tarkibida liniani (liniani) lotinlari ham bo'lib, ular vasiyatnoma tuzish, qonun bo'yicha meros olish huquqiga ega bo'lma-ganlar, shuningdek, o'limi bilan barcha mulklarining o'z xo'jayiniga to'liq o'tkazilishi asosida huquqlari chegaralangan.

Ammo imperator Yustinian davriga kelib liniani lotinlari degan alo-hida xalqlar guruhi to'liq ravishda lotinlar millatiga qo'shib ketdi.

Bulardan tashqari lotinlar qadimgi lotinlarga va koloniyalarning lotinlariga bo'lingan.

Qadimgi lotinlar mulkiy xuquqlari, sudda so'zlash va nikohga kirishish xuquqlarining kengroq bo'lganligi bilan ajralib turgan.

Koloniyalotinlari esa Rim fuqarolari bilan nikohga kirish huquqiga ega bo'limganlar. Boshqa hollarda esa qadimgi lotinlar bilan teng xu-quqga ega bo'lganlar.

Peregrinlar - Rim davlati tomonidan bosib olingen mustamlakalarning aholisi bo'lib, bular Gresiya, Misr, Galliya (Fransiya), Iberiya (Ispaniya) va boshqa mamlakatlardan kelgan shaxslardir.

Peregrinlarning huquqiy faoliyatini, hatto sud munosabatlarni ham Rim davlati mahalliy organlari vakillari, mansabdor shaxslari, prokonsul-lar, propretorlar, prokuratorlar va legatlar tartibga solgan va boshqargan.

Peregrinlarning huquqiy holati Rim davlati tomonidan ishg'ol qilin-gan, bosib olingen yerlar Rim davlati hududiga kiritilgan bo'lsa-da, lekin ushbu yernarning xalqlarini qullikka tushirmsandan, o'tkazmasdan hamda ularga Rim fuqaroligi berilmasdan qolib ketishligidan kelib chiqqan. Ushbu huquqiy holatga ega bo'lgan xalqlar peregrinlar deb atalgan.

Peregrinlardan tug'ilgan farzand, so'zsiz peregrin deb tan olingen, shu bilan birga otasi peregrin bo'lgan farzandning huquqiy holati ota huquqiy holati bilan belgilangan. Nikohda turmasdan farzand ko'rgan peregrinka onaning bolasi ham peregrin bo'lib hisoblangan.

Respublikanlar davrida sud qarori asosida jinoyat sodir etganligi uchun peregrinlikka o'tkazish, imperiya davrida badarg'a qilinish asosida ham peregrinlik huquqiy holati kelib chiqqan.

Peregrinlar siyosiy huquqlarga ega bo'limgan, ular saylash va saylanish huquqidan mahrum bo'lib, ularga dushman (hostis) deb qaralgan.

Fuqarolik xususiy huquqida peregrinlar va Rim fuqarolari o'rta-sidagi munosabatlarni hal qiladigan huquqiy normalar mavjud bo'limgan. Ayniqsa, savdo munosabatlari chegaralangan. Bularning hammasini va bu

qiyinchiliklerni ba'taraf etish nuqtai nazaridan keyinchalik (ius gentium) va dylar xuchiqi va jidunga keltirildi.

Rim fuqaroligiga ega bo'lishlikning yana o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bular Rim davlati oldida ko'sratgan xizmatlari, mukofotlarga sazovor bo'lganligi uchun Rim davlatining qonunlari asosida fuqarolikka ega bo'lishlik, davlat hujjatlari va qarorlari asosida alohida peregrinlar gurubiga fuqarolikni berish, fiskal maqsadlari (ya'nii merosdan soliq o'sisi) asosida va boshqa usuliarda peregrinlarning Rim fuqaroligiga ega bo'lganliklarida ko'rindi.

4-§. Qullarning huquqiy holati

Rim davlati qadimdan qildorlik davlati bo'lib, qullar institutining mavjudlig'i va bu qullarning egalari har xil shaxslar, shuningdek, davlatga old bo'lgan qullarning ham mavjud bo'lganligini butun Rim tarixi o'zida eks ettirib bergan.

Rim davlatida qullarning huquqiy holati asosan ularning huquqiy munosabatlarni amalga oshiruvchi sub'yektlar sifatida emas, balki shu munosabatlarning ob'yektlari bo'lib hisoblanishidan kelib chiqqan. Qullar achiyo sifatida ko'rilib, ular hech qanday huquqlarga ega emas edi, uning x'jayini esa, qul ustidan istagan harakatlarni amalga oshirishi mumkin edi, ya'nii chegarasiz, mutloq bo'lgan huquqlarni amalga oshiruvchi shaxs bo'lib hisoblangan.

Rim davlatining boshtang'ich davrlarida qullarning ahvoli burmungacha xashiroq bo'lgan. Asirga tushgan shaxsni qul qilib olgan shaxs, keyinchalik e'sha qulning otasi, yoki aka-ukalari yoki bolalari tomonidan o'ziga yoki farzandlarining ham asir qilib olinishligi ehtimolidan kelib chiqqib, qullar bilan bo'lgan munosabatlarni bir muncha yumshoqroq xarakterda olib borgan.

Qulderlar ularni doimiy ravishda o'zi va oilasi bilan aloqador bo'lganliklarini va ulardan ko'proq yordamchi kuch sifatida foydalanish mumkinligini etiborga olganlar.

Rim davlati siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratining yanada kuchayilishi natijasida qullar soni niroyatda ko'paydi. Osiyo, Afrika mamlakatlari dan qullarni sotib olib kelishlik kuchayib qullar instituti mutloq institutga tylantdi. Ochlar mehnatidan foydalananish usullari o'zgardi va kuchaydi.

Qullikning o'matilish usullari ko'pchilik hollarda urushlar oqibatida asir o'shi, chet ei fuqarosini egaliash kabi asoslarda, qul ota va onadan farzano tug'ilishi natijasida, nikohsiz ona qul bo'isa, undan tug'ilgan farzand ham qul bo'lib hisoblanishi oqibatida vujudga kelgan.

Shuningdek, Pretor ediktlariga ko'ra ozod bo'lgan fuqaroning o'zini qullikka muiayyan pulga sotib, keyinchalik shu pul miqdorini qaytarib berish sharti bilan sotib olgan shaxs tomonidan ozonlikka chiqaraman, degan

va'da berilganligi asosida harakat sodir etilganligi ma'lum bo'lsa, u umrbod qullikka aylantirildi.

Imperiya davriga kelib qullikka aylantirishlik tartibi va asoslari yo'qolib uning o'rniغا yangi asoslar qo'llanilgan.

Sud tomonidan belgilangan jazolar asosida, o'lim jazosiga mahkum etilgan shaxslar va ozod bo'lgan xotinning qul bilan doimiy aloqada bo'lishligi ham qulchilikni keltirib chiqqagan.

Qullarning shaxsiy huquqiy holati ularning ashyo hisoblanishidir. Ularning Rim armiyasi safida xizmat qilishligi ma'n etilgan hamda davlat xazinasiga soliq to'lamaganlar, ya'ni ular inson yoki fuqaro sifatida tan olinmagan.

Oilaviy huquqiy holati, oila qura olmagan va qulning xotin kishi bilan aloqasi nikoh deb hisoblanmagan.

Mulkiy munosabatlar bo'yicha qullar individual, umumiyl, ashyoviy ob'yekt, uzufrukt, garov ya'ni majburiyatlarning bajarilishligini ta'minlovchi usul, olish-sotish, qarz, mulk ijarasи shartnomalarining ob'yekti bo'lib hisoblangan. Qullarning o'zlariga taalluqli bo'lgan ashyolari bo'lmanagan. Qullardagi bo'lgan barcha mulklarning egasi qulning xo'jayini deb tanilgan.

Rim quldorchilik jamiyatining rivojlanishi, ayniqsa ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiy etishi, xalqaro savdo munosabatlarining vujudga kelishligi qullarning biroz bo'sada huquqlarining kengayishiga olib keldi. Chunki, qul xo'jayining bir o'zi hamma munosabatlarda qatnashishlik uchun jismoniy imkoniyati yetishmay qoldi.

Quldarlar qullarning aqli borligidan, ongli asosda o'z xo'jayiniga xizmat qilishligini va ularning tadbirdor ekanligidan kelib chiqib, o'z nomidan shartnomali munosabatlarga kirishishlikka vakolatlar berganlar hamda ulardan savdo kemasi kapitanlari, korxonalar rahbarlari sifatida foydalanganlar, shu bilan birga vujudga kelgan huquq va burchlar yuzasidan qulning xo'jayini kreditorlar oldida mas'ul bo'lgan.

Qulning xo'jayini qul o'z oиласида yashaganligini e'tiborga olib, unga yer, chorva mollari, xo'jalik tovarlari, hatto o'z yerini, hovlisini ishlashlik uchun ba'zan (servi vicarii - servi vikarii) boshqa qullarni ham bergen. Qu esa mustaqil asosda o'z xo'jalik faoliyatini amalga oshirgan, ayniqsa o'ziga taalluqli bo'lgan mulklardan ozod holda foydalangan va qisman bo'sada tasarruf etgan. Bundan Pekuliy instituti vujudga kelgan. Pekuliy deb xo'jayinning o'z qullariga mustaqil xo'jalik yuritish uchun berib qo'ygan mulkining bir qismi (yer uchastkasi, hunarmandchilik ustaxonasi, qora mollar va boshqalar)ga aytilgan. Bu mulklarning barchasi qulning xo'jayiniga taalluqli bo'lsa ham, lekin undan ma'lum bir miqdorda qul ham foydalangan.

Qulchilikdan ozod bo'lishlik doimo qul xo'jayinining erki bilan bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, vasiyatnomalarda ko'rsatilgan, qaysi vaqtida, qan-

d.iy holatda yoki qul o'zini-o'zi sotib olishlik uchun qancha summa to'lashligi lozimligi va kimga kabi masalalarni hal qilgan.

Quillarni ozod qilishlikning qadimdan uchta shakli, usuli mavjud bo'lgan.

Birinchidan, meros qoldiruvchi tomonidan vasiyatnomada qaysi vaqt dan boshlab qul ozodlikka chiqishi mumkinligi ko'rsatilgan holatda;

Ikkinchidan, meros qoldiruvchi o'z merosxo'rlariga qachondan, qaysi holatda, qaysi paytdan boshlab, qulni ozod qilishligi to'g'risida vasiyatnomani yoki ko'rgazmani yozib qoldirgan bo'lsa;

Uchinchidan, qulni ozod qilishlik uchun biron-bir shart yoki ozod qilishlikni to'xtatib turuvchi harakatni sodir etishlik bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, mening vorisim Hasanga sen 200 dinor berganindan keyin sen quchilikdan ozod bo'lsan degan, asoslar quchilikdan ozod qiluvchi dalilar bo'lib hisoblanardi.

Respublikanlar davrida qullarni quchilikdan ozod qilishlik uchun qul xo'jayinining guvohlar ishtirokida qulni qo'yib yuborish, ya'nii ozod qilish to'g'risidagi xatni tuzishlik asosida ham amalgga oshirilgan.

Prinsipiat davrida esa qul tomonidan o'z xo'jayinining kim tomonidan o'ldirilganligini aniqlaganligi asosida, hamda 20 yil davomida ozod bo'lib yashab kelgan qul muddat o'tishi bilan quchilikdan ozod qilingan.

Quldorchilik davlatining o'ziga xos xususiyatlardan biri, qullarni ozod qilmaslik tamoyilini amalgga oshirish, ya'nii unga monelik qilish yo'llarini izlab topishlik bilan bog'liq bo'lgan. Yangi eramizning I asriga kelib davlat tomonidan bir nechta qonunlar qabul qilindi va bu qonunlarning maqsadi qullarni ozodlikka chiqarishga qarshi bo'lgan chegaralarni o'rnatish edi.

Bu chegaralardan birinchisi yigirma yoshli xo'jayin tomonidan o'ttiz yoshli qulni ozod qilishlik to'g'risidagi harakatlarni alohida komissiya tekshirib ko'rishligi lozimligi; ikkinchisi, quillardagi norma'qul bo'lgan hislatlarning mavjudligi uni chet elga qul sifatida chiqarib yuborishlik assosi bo'lishi mumkinligi; uchinchidan, agar qullarga belgilari, nomerlar qo'yilgan bo'lsa, hamda ularning o'z xo'jayiniga taalluqliligi ko'rinish turgan bo'lsa; to'rtinchidan, u gladiator bo'lsa; shuningdek, vasiyatnomada ozod qilishlikning chegaralangan usullari ham ko'rsatilishi mumkin edi. Masalan, qulda uchta qulga ega bo'lsa, faqat ikkitasini ozod qilishligi, o'nta qulga ega bo'lsa, uning yarmini ozod qilishligi kabi talablarni vasiyatnomaning o'zida ham ko'rsatilishiga ruxsat berilardi.

5-§. Ozodlikka qo'yib (chiqarib) yuborilgan shaxslarning huquqiy holati

im quldorchilik davlatining sinfiy davrida ozodlikka qo'yib, chiqarib yuborilganlarining huquqiy holatlari kim va qaysi mulkdor tomonidan ruxsat etilganligiga qarab belgilangan.

Kviritlar huquqi bo'yicha faqatgina kvirit mulkining egasi tomonidan biror shaxs ozod etilgan bo'lsa, u Rim fuqaroligiga ega bo'lardi. Keyinchalik pretorlar edikti bilan hamda imperator Yustinian tomonidan bu farqlar yo'qotilib, to'liq asosda Rim davlatining fuqarosi degan huquqiy holat beriladigan bo'ldi.

Ozodlikka qo'yib yuborilganlar va libertinlar huquqiy holati bo'yicha barcha shaxslar bilan teng bo'lib hisoblansada, ammo ozod bo'lib tug'ilgan shaxslar bilan tenglasha olmas edi.

Ayniqsa, ozodlikka qo'yib yuborilgan shaxslarning Rim fuqarolik xususiy huquqiy munosabatlariga kirishishligida cheklanishlar mavjud edi, ya'ni ular ozod bo'lib tug'ilgan shaxslar bilan nikohga kirisha olmas, hatto senatorlar bilan umuman nikohga kirishishlikning ta'qiqlanganligi imperator Yustinian davrigacha saqlanib qolgan.

Bulardan tashqari libertinlar ilgarigi patroniga qaram bo'lgan, uy, xo'jalik ishlarini bajarish, unga hurmat bilan qarashga majbur edi, hatto patronini sudga bera olmaslik kabi chegaralangan huquqlarga ega edi.

Ozodlikka qo'yib yuborilganlar ozodlikka chiqib Rim fuqaroligiga to'liq ega bo'lsa ham, ekspluatasiya xarakteridan kelib chiqib, Rim quldorlarining arzon mehnat bilan bog'liq bo'lgan qulchilikni hech qachon yo'qotishlikni ko'zlamaganligidan patroniga xizmat qilishi majburiy edi, patron o'lganidan keyin uning merosxo'rлari ham bu huquqlardan foydalangan.

6-§. Kolonlarning huquqiy holati

Kolonlar - Rim davlatining imperiya davrida vujudga kelgan shaxslardir. Rim davlatida imperatorlarning konstitusiyalari, yuristlar asarlari, magistratlar ediktleri, umumiy majlis qarorlari Yustinian kodeksi, Digesti, Novellasi va Institusiyasi vujudga kelishligidan oldin ham yuristlar tomonidan kodifikasiya qilinib, Feodosiya kodeksi vujudga keltirilgan va birinchi marotaba bu kodeksda kolonlarning huquqiy holati haqida fikrlar yuritilgan. Lekin kolonlarning paydo bo'lisligli, ularning jamiyatni rivojlantirishdagi ta'siri haqida hech narsa ma'lum emas.

Kolonlar Rim davlati rivojlanishi sinfiy davrida yer ijarachilari deb atalib, yerni ijaraga beruvchi quldorlarga ma'lum haq to'lab turish evaziga, shartnomalar tuzish asosida, ijaraga oluvchilarga (kolonlarga) yerni topshiradi. Kolonlar quldorlardan yerni olib mustaqil harakat qiladi, hatto

ulardan yerni ishlatishlik, urug'lar sotib olishlik maqsadida pul ham qarz oladi. Bu xo'jayinga iqtisodiy tomonidan qaram bo'lib qolishlikni mustahkamlardi.

Kolonlarni yerga bog'lab tashlash maqsadida 322 yilda qabul qilin-gan konstitusiya kolonlar tomonidan yer o'zboshimchalik asosida tashlab ketilgan bo'lsa, ularni o'z yeriga qaytarilishni tikladi hamda yanada mustahkamladi.

Yuqorida ko'rsatilgan qoidalarni mustahkamlash nuqtai nazaridan 357 yilda yana bir qonun qabul qilinib, unga asosan yer kolonlarsiz ya'ni ijara olgan shaxslarsiz sotilishi mumkin emas, deb qat'iy norma qabul qilindi.

Bu qoidalalar orqali barchasi fuqarolik xususiy huquqiy layoqatiga to'liq ega bo'lgan kolonlar yerga bog'lab qo'yildi va arzon mehnat kuchi sifatida shu yerda yashasin va o'z faoliyatini amalga oshirsin, degan tamoyilni Rim qu'dorchilik davlati yanada mustahkamladi.

Kolonat (kolonlik huquqiga ega bo'lish) - asosan ota-onasi kolon bo'lgan shaxslardan tug'ilgan farzandlar, ozod bo'lgan shaxslarning kolon bo'lishi va yer bilan bog'liq bo'lishligini e'tiborga olib o'zaro kelishuvlarni tuzish asosida 30 yil davomida kolonlar yashagan turmush tarzida istiqomat qilgan shaxslar kolonlik huquqiga yoki uning huquqiy holatiga tu-shib qolardilar.

Kolonlar oila qurish huquqiga hamda o'z mulkiga ya'ni yerga ega bo'lganlar, ammo ular yerga umrbod bog'lab qo'yilgan. Kolonlar ham qul-lar kabi o'z xo'jayinidan ozod bo'lish huquqlariga ega bo'lgan. Ammo ular ozod bo'lalar, yeridan mahrum bo'lganlar. Shuning uchun ular ko'proq ozod bo'lishga intilmaganlar. Kolonlikdan ozod bo'lishlik asosan kolon tomonidan ijara olingan yerni sotib olishlik yoki diniy munosabatlarga to'liq o'zini bag'ishlashlik asosida ham yuzaga kelardi.

Kolonlar institutining vujudga kelishi, kolonni yer, mablag' bilan ta'minlash, sug'orish, qayta ishlashga bog'lab qo'yishlik qu'dorchilik jamiyatining rivojlanib va taraqqiy etib borayotganligi va o'zining izmida feodal munosabatlarni vujudga keltirayotganidan va feodal jamiyatiga o'tishlik uchun asos bo'layotganligidan darak berardi.

7-§. Yuridik shaxslar

Qadimgi Rim davlatining va Rim yuristlarining eng katta hissalaridan biri yuridik shaxs tushunchasini, uning fuqarolardan farqini, o'ziga xos bo'lgan belgilarini, maxsus huquq layoqatiga ega ekanliklarini yoritib ber-ganliklaridir. I

Rim davlatining dastlabki rivojlanish davrlarida primitiv, oddiy bo'lgan natural xo'jalik munosabatlarining ko'p qo'llanishligi natijasida yuridik shaxslarning zaruriyatni tug'ilmagani, hatto Rim huquqida «yuridik shaxs»

degan tushuncha ham bo'limgan. Lekin yuridik shaxs tushunchasi bo'l-masa-da, jamoa tashkilotlarining, bir necha fuqarolarning yig'indisi hisoblangan birlashmalarining yoki tashkilotlarning mavjudligi hamda ular o'z faoliyatlarini o'zlariga xos bo'lgan alohida mulklar asosida amalga oshirishligini tan olganlar.

Shundan kelib chiqib, Rim huquqshunoslari huquq sub'yektlarini jismoniy shaxslar va tashkilotlardan tashkil topgan deb e'tirof etganlar.

Qadimgi quldarlik jamiyatining mahsuli bo'lgan Rim fuqarolik huquqi yuridik shaxslar sifatida davlat xazinasini, diniy ittifoqlarni, jamoa munisipal senatini, bir mutaxassislik bo'yicha bo'lgan birlashmalarini, korporasiyalar, teatrlar, non yopuvchi tashkilotlarni, hunarmandchilik uyushmalarini, dafn marosimini amalga oshiruvchi tashkilotlar, korxonalarini tu-shunganlar.

Yangi eramizning II asrida - «oltin asr»da ijod qilgan mashhur yurist Gayning ta'kidlashicha, hatto XII Jadval qonunlariga binoan diniy birlashmalarga o'z ustav va nizomlarini ishlab chiqishlikka ruxsat berilgan, hamda bu ustav va nizomlar harakatdagi qonunlarga zid kelmagan bo'lishligi ko'satilgan.

Ayniqsa, Rim davlatining boshlang'ich davrida juda ko'p korporasiyalar yuridik shaxs sifatida harakatda bo'lgan. Masalan, magistratlar huzuridagi xizmat ko'rsatuvchi korporasiyalar, o'zaro yordam beruvchi har xil tashkilotlar, dafn etish korporasiyalari, tadbirkorlar birlashmali, qurilish ishlarini olib boruvchi korporasiyalar mavjud bo'lib, ularning barchasi yuridik shaxs huquqiga ega bo'lganlar.

Yuridik shaxslar vujudga kelishligi uchun o'z huquqiy belgilariiga ega bo'lishligi lozim bo'lgan. Uning birinchi huquqiy belgisi tashkiliy birlikga ega bo'lishligidir.

Albatta, yuridik shaxs o'z statusiga ega bo'lib va o'zining alohida mulkiga asoslanib, barcha tashkilotlar, fuqarolar va Rim davlati hamda horijiy davlatlar bilan ham shartnomalar tuzganlar, o'zlarini uchun huquq va burchlarni vujudga keltirganlar hamda majburiyatlarini, mulkiy javobgarligini o'tash imkoniyatiga ega bo'lganligidan kelib chiqib, lozim darajada ba-jarganlar.

Rim quldarlik davlati rivojlanishining imperiya davrida birinchi qonuniy asosda yuridik shaxs munisipial (hududiy mahalliy hokimiyat)dan tashkil topgan birlik bo'lib, u shahar jamoasiga kiritilgan bo'lsa-da, o'z mahalliy joylarida o'zini-o'zi boshqarish organlari hisoblanib mustaqil asosda iqtisodiy, siyosiy va huquqiy munosabatlarga yuridik shaxs huquqiga ega bo'lib kirishganlar. Ulardan keyin xuddi shunday vakolat xususiy korporasiyalarga berilgan.

Demak, har bir yuridik shaxs o'z nomidan barcha huquqiy munosabatlarga kirishi, o'zi uchun huquq va burchlarni yoki mulkiy va nomulkiy huquqlarni vujudga keltirgan.

Ayniqsa, har bir shaxs sudda, arbitrajda va boshqa muassasa, tashkilot, korxonalarda o'z ustav, nizomiga asosan harakatni amalga oshirib, o'zlariga taalluqli bo'lgan majburiyatlarni o'taganlar.

Har bir tashkilot yuridik shaxs huquqi asosida mustaqillikka ega bo'lib, boshqa tashkilot, korxonalar, korporasiyalar, ittifoq, birlashmalar va jismoniy shaxslar, Rim davlati hamda horijiy davlatlar bilan munosabatlarga kirishan ekan, ular o'z nomidan harakat qilganlar, o'zları uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltirganlar, sud, magistrat yoki boshqa organlarga da'vo talabini joriy etishligi mumkin bo'lgan, hamda o'z mulklari bilan javob berganlar.

Rim yuristlari dastlab, jismoniy shaxslarning yig'indisini «universitas» deb ataganlar, hamda ularni birinchi va keng tarqalgan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan muassasalar deb e'tirof etganlar.

Rim fuqarolik xususiy huquqida, ayniqsa yuridik shaxslarning huquqiy holati dcimo o'zgarib borgan. Yuridik shaxslar xususiy huquq orqali berilgan vakolatlar, kompetensiyalar asosida o'z huquqlarini amalga oshirganlar hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan.

Rim huquqida korporasiyalar yuridik shaxs sifatida keng faoliyat olib borgan. Korporasiyalarning huquqiy holatiga uning tarkibiga kirgan tashkilotlardan birining chiqib ketishligi ta'sir qilmagan, hatto mahalliy hokimiyat va senat uchun ham ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan, chunki korporasiya yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatini davom ettiravergan.

Rim xususiy huquqi korporasiyalarga, yuridik shaxslarga taalluqli bo'lgan va hozirgi zamon yuridik shaxslari uchun qo'llanib kelayotgan normalardagi huquqlarga o'xshash huquqlar berib, ularga o'z faoliyatida alohida va mustaqil yuridik shaxs sifatida harakat qilib, o'zining alohida mulki asosida javobgarlikni amalga oshiradi hamda korporasiya o'z a'zolarining majburiyatlari uchun mas'ul emas, shuningdek a'zolar ham korporasiya majburiyatlari uchun javobgar emas, degan tamoyillarni qo'llagan.

Ammo Rim huquqshunoslarining fuqarolik huquqi vakillik institutini to'la tushunib yetmaganlilari natijasida ko'pchilik yuridik shaxslarning faoliyatlari chegaralanib qolgan.

Rim davlatining keyingi rivojlanish davrlariga kelib korporasiyalarni tashkil etish senat bilan bog'liq bo'lib qoldi va senat tomonidan tasdiqlangan dangina qonuniy asosda yuridik shaxs huquqiga ega bo'lish mumkin edi.

IV bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Rim xususiy huquqida shaxslar tushunchasi va turlarga bo'linishi hamda ularning vakolatlari nimalardan iborat?
2. Rim xususiy huquqida fuqarolarning huquq va muomala layoqati va yuridik shaxslar tushunchalari o'ttasida qanday farqlar mavjud?
3. Qullar huquqiy munosabatlarning nima uchun ob'yekti bo'lib hisoblangan va ularni lotin tilida qanday ta'riflaganlar?
4. Lotin va peregrinlar o'z huquqiy holatlari bo'yicha quldorlardan qanday farq qilgan?
5. Status libertatis, Status Civetatia, Status familiae tushunchalari va bir-biridan farqini asoslang?
6. Yuridik shaxslar tushunchasi. Yuridik shaxslar haqida Rim yuristlarining izoxlari nimalardan iborat bo'lgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956, 1960, 1972 gg. izd.
2. Omelchenko O.A. Osnovo' rimskogo prava. M., 1994.
3. Pokrovskiy I.A. Istoriya rimskogo prava. - Vstupit. statya, perevodo' s lat., nauchn. red. i komment. A.D.Rudokvasa. - SPB.: Izdatelsko-Torgovo'y dom, «Letniy Sad», Jurnal «Neva», 1999.
4. Ioffe O.S., Musin V.A. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. Uchebnoye posobiye dlya studentov. L., 1974.
5. Bartoshek M. Rimskoye pravo: (Ponyatiya, termino', opredeleniya): Per s cheshsk.-M.: Yurid. literatura, M., 1989.
6. Urazayev SH.Z. Rimskoye pravo. Uchebnoye posobiye.-T.: Akademiya MVD Respublikи Uzbekistan, 2000.
7. Ernazarov O.E., Topildiyev V.R. Rim fuqarolik huquqi. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2001.
8. Ernazarov O., Jiyanov M., Umarov J. Rim fuqarolik huquqi asoslari. (O'quv qo'llanma va dastur). Farg'on'a, 2001.
9. Nersesjans V.S. Pravoponimaniye rimskix yuristov. Sovetskoye gosudarstvo i pravo, 1980, № 2.

V BO'LIM. Oilaviy huquqiy munosabatlar

- 1-§. Rim oilasi tushunchasi, (familia-familia) agnatlar va kognatlar qarindoshchiligi.
- 2-§. Nikoh tushunchasi (nurtiae-nuptiaye).
- 3-§. Er va xotinlar o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar.
- 4-§. Ota hukmronligi instituti.
- 5-§. Vasiylik va homiylik (Tutela ba cura - tutela ba kura).

1-§. Rim oilasi tushunchasi (familia), agnatlar va kognatlar qarindoshchiligi

Qadimgi Rim jamiyatida oila davlat yacheysidan iborat bo'lgan hamda uy xo'jaligining boshqaruvchisi, ota-oni, aka-uka, opa-singillar, qullar, vasiylik yoki homiylikda bo'lgan shaxslarning jamoasi bo'lib hisoblangan.

Yangi eramizning II asri mashhur yuristi Gay, Rim oilasi shunday tipik xususiyatga egaki, (boshqa hech qanday xalqlar tomonidan barpo qilinganga o'xshamaydigan) «Rim xalqining erishgan buyuk yutug'idir», deb ta'riflagan edi.

Rim davlatining oilasi oila boshlig'i (raterfamilias)ning chegaralannagan, dastlabki davrda esa mutlaq huquqlarga, hokimiyatga (manus)ga ega bo'lganligi asosida, ya'ni o'z bolalari, nevaralar, chevaralari, xotini ustidan va uydagi (xo'jalikdagi) bo'lgan shaxslarning barchasi ustidan amalga oshiruvchi hukmronligiga tushunilgan. Bularning hammasi «o'zimnik» (sui) deb ta'riflab, oilaning otasi o'zini «o'zimga o'zim xo'jayinman» (sui iuris) va «barcha huquqlarga egaman, deb e'tirof etgan.

Rim oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri oila dastlab agnat usulida vujudga kelgan, ya'ni ular qon-qarindoshlik munosabatlari asosida emas, balki bo'yunish va hukmronlik, boshqaruv munosabatlarini birinchi o'ringa qo'yib tuzilgan oilalardan iborat bo'lgan.

Agnatlar oilasi deb, oila boshlig'inining o'z oilasidagi bolalari, xotini, xo'jaligi, qullar va ularning oilalari hamda shu oila xo'jaligida yashovchi barcha shaxslar ustidan to'la hukmronligiga hamda jamoasiga tushunilgan.

Oila boshlig'inining qizi tur mushga chiqib boshqa oilaga o'tgan bo'lsa, agar tur mush o'rtoq'i ota hukmronligi ostida bo'lsa, u ham shu ota hukmronligi boshqaruviga o'tardi va agnatlar oilasiga tushardi. O'zinining aka-ukalari va ota-onalari uning uchun faqat qavm-qarindoshlik, bayram murosabatlarida ko'rishish, hol-ahvol so'rashish bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni ota-onalari uchun «begona» edi.

Qadimgi Rim jamiyatida oila boshlig'ining huquqlari chegaralanma-gan edi. U o'zining oila a'zolarini sotish, qarzni to'lashlik uchun ularni qarz olgan shaxsga, qarzini to'lash uchun ishlab berish, xizmat ko'rsatish, hatto xotinini (xotini o'zining qizi qanday vakolatlarga ega bo'lsa, shunday vakolatlarga ega bo'lgan) oila majburiyatini bajarish nuqtai nazaridan kelib chiqib, ma'lum bir muddatga boshqa shaxsga xizmat ko'rsatish uchun berib yuborish huquqiga ega edi. U o'z bolalarini o'ldirish, voyaga yetgan o'g'lini uch martagacha, qizini hamda kichik ukalarini, naveralarini bir marta sotib yuborish huquqlariga ega bo'lgan.

O'g'illari yoki oilada yashovchi boshqa shaxslar tomonidan shartnomalar tuzilgan bo'lsa, bu shartnomalardan kelib chiqadigan foydalar otaga va zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda esa, ota uning uchun javobgarlikni bo'yninga olmagan.

Ota yoki uy boshqaruvchisi hukmronligi ostidagi shaxslarning huquqiy holati ota yoki oila boshlig'ining o'limi yoki oila boshlig'ining erki roziliги asosida ularga ozodlik berish munosabatlari asosida o'zgargan. Oila boshlig'ining o'limi ota hukmronligi institutining barham topishiga olib kelgan.

Rim davlatidagi vujudga kelgan oilalar dastlab ibtidoiy jamoa tuzu-mining xususiyatlarini o'zida ifodalab, jamoa xarakteriga va urug'chilik tizimi bilan bog'liq bo'lgan.

Rim jamiyatining rivojlanishi natijasida, ishlab chiqarish munosabatlaring taraqqiy etishi, ota hukmronligi ostida bo'lgan shaxslarning xususiy huquqlarini tan olish zaruriyatlari kelib chiqsa boshladi, natijada ota hukmronligi instituti dastlabki hokimiyat bilan bog'liq bo'lgan mohiyatini yo'qota boshlaydi va agnatlar oilasining or'niga qon-qarindoshlik bilan bog'liq bo'lgan kognatlar urug'lari yoki oilasi vujudga keladi.

2-§. Nikoh tushunchasi

Rim jamiyatida nikoh orqaligina oila vujudga kelgan.

Mashhur yurist Modestin nikohga tushuncha berar ekan, uni quyida-gicha ta'riflaydi: «Nikoh er va xotin o'rta-sidagi xudo va insoniyat huquqlariga asoslanib butun umr bo'yicha tuziladigan, hamda o'ziga oid mu-nosabatlarni muddatsiz amalga oshiradigan ittifoqdir».

Albatta, Modestin fikrlarini cum manu (oilada erving ustunligi tan olinadigan) asosda tuzilgan nikohlarga taalluqliroq, deb aytishimiz mumkin, lekin ota hukmronligi instituti er-xotinning tengligini hech qachon e'tirof etmagan, chunki turmushga chiqqan xotin doimo oila boshqaruvchisi homiyligiga o'tgan.

Rim huquqi o'zining rivojlanish tarixida ikki xil nikohni tan olgan, ya'ni qonuniy nikohni va nikohning konkubinat (noqonuniy) usulini.

Qonuniy nikoh deganda ius conubii (qonuniy nikohga kirish huquqi) asosida vujudga kelgan va tug'ilgan farzandlar Rim davlatining fuqarosi bo'lib hisoblanadigan va otasining o'z bolalariga bo'lgan hukmronligini, hokimiyatini ta'minlab bera oladigan munosabatlarga tushunilgan.

Konkubinat usuliga, ya'ni qonuniy nikohga kirish huquqiga ega bo'l-magan shaxslar tomonidan, lekin qonun tomonidan ruxsat etilgan doimiy ravishdagi birga yashash faoliyatiga tushunilgan.

Konkubinat bu haqiqiy nikoh bo'lmasa ham, ba'zi bir huquqlar asosida, ulardan tug'ilgan farzandlar ota hukmronligiga, hokimiyatiga taal-luqli bo'lмаган holda o'z munosabatlarini amalga oshirganlar.

Respublikanlar davrida Rim oilasining monagamiya xarakteriga ega ekanligini bilsalar ham, erkaklar uchun xotinlardan tashqari yana bir xotin bilan konkubinat usulida yashashga ijozat berildi. Lekin eri bor xotin kishi konkubinat usulida boshqa shaxs bilan yashashligi ma'lum bo'lib qolsa, er kishi o'z xotinini o'ldirish huquqiga ega bo'lgan.

Rim huquqida konkubinat usulidagi birga yashash faoliyatiga yo'l qo'yilganligi sababi birinchidan, ba'zan qullar, peregrinlar va boshqa kam-bag'al bo'lgan shaxslar nikohga kirisha olmaganlar, chunki ularning nikoh tuzishlari uchun mablag'i, uy-joyi ham bo'lмаган.

Ikkinci sababi, Rim davlati o'z hududlarini kengaytirish va hukmronligini kuchaytirish nuqtai nazaridan juda ko'p urushlar olib bor-ganligi natijasida erkaklar ko'plab qirilib ketgan. Ularning o'rnnini to'ldirish uchun konkubinat usuliga yo'l qo'yilgan.

Rim davlatida oila qurish masalasida qonunlar qabul qilingan, ayniqsa yangi eramizning 1 asrida ikkita qonun qabul qilinib, ularda erkaklar 25 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar 20 yoshdan 50 yoshgacha turmush qurishlari yoki erkaklar uylanishlari shart qilib qo'yilgan edi. Nikohda bo'lмаган shaxslarning mulkiy huquqlari chegaralangan, ya'ni bu qonunlarga binoan ular vasiyatnomasi asosida meros olish huquqidan mah-rum qilingan. Faqtgina agar meros qoldiruvchi shaxs farzandlarga ega bo'lmasa, qoldirilgan merosning yarmini olishligi mumkin edi.

Hatto er kishiga bir bola, xotin kishiga uch boladan to'g'ri kelmasa, ozodlikka chiqqan, qo'yib yuborilgan xotinlar to'rt bolaga ega bo'lmasa, ular «farzandlari yo'q bolasizlar» deb atalgan.

Konkubinat usulida yashovchilarining jamiyat huquqiy normalari yoki odad normalari, yashash qoidalari orqali huquqlari chegaralangan. Shuning uchun oilaning asosini nikoh tashkil etgan.

Imperator Yustinian davriga qadar nikoh shakllari ikki xil shaklda amalga oshirilgan:

Cum manu mariti - oilada erving hukmronligini ta'minlan-ganligi asosidagi;

Sine manu mariti - ozod bo'lgan nikoh sifatida ya'ni xotinning hukmronligini ta'minlash asosidagi nikoh shakllari mavjud bo'lgan.

Cum manu mariti asosida tuzilgan nikohda turmushga chiqqan xotin erining hukmronligiga, qaramligiga o'tgan, agar eri oila boshlig'iga qaram bo'lsa, xotin oila boshqaruvchisi qaramligiga, hokimiyati ostiga o'tgan.

Sine manu (sine manu) - xuddi konkubinat, ya'ni nikohdan o'tmasdan yashash huquqiga o'xshasa ham, lekin xotin kishi Rim oilasini vujudga keltingan hamda bolalariga ega bo'lib ularni tarbiyalash maqsadi borligi bilan farq qilgan.

Nikohga kirishish uchun shartlar qo'yilgan va bular quyidagilardan iboratdir:

1. Nikohga kiruvchi shaxslarning umumiyligi roziligi bo'lishi lozim edi. Agar ular uy boshqaruvchisi hokimiyati ostida yashab kelayotgan bo'lilar, uy boshqaruvchisining ham roziligi olingan bo'lishi hamda u rozi bo'l'magan taqdirda uning ustidan magistratga arz qilib, uning rozilik berishi uchun majbur qilish lozimligi;
2. Nikoh yoshiga yetishlik. Qizlar uchun 12 yosh, o'g'il bolalar uchun 14 yosh balog'at yoshi hisoblangan. Jinsiy balog'atga yetishlik deganda, bola tug'ish qabiliyatini hamda umr bo'yи birga yashayman, bizlarning tuzgan bu ittifoqimiz - nikoh muqaddas narsa degan ma'nolarni hech qachon hayolidan chiqarmagan holda unirni davom ettirishga tushunilgan;
3. Er yoki' xotindan birining nikohi hali ajratilmagan yoki uzilmagan bo'lsa, ya'ni boshqa shaxs bilan nikoh munosabatlari hali davom etayotgan bo'lsa uni uzishlik;
4. Nikohga kirishuvchi shaxslar qonuniy asosda nikohga kirish huquqiga ega bo'lishlari shartlarining mavjudligi talab etilgan.

Rim davlatida imperator Yustinian boshqaruv davriga qadar chet el fuqarolari bilan Rim fuqarolari nikohga kirisha olmaganlar. Chunki chet el fuqarolari qonuniy asosda nikohga kirish huquqiga ega bo'l'maganlar. Hatto ularni nikohdan o'tkazmaslik masalasiga siyosiy nuqtai nazardan yondashib, chet el fuqarolarini Rim oilasiga aralshtirmslik hamda Rim davlati fuqaroligini bermaslikni ko'zlab ish yuritganlar.

Qadimgi Rim tarixida nikohga kirishish marosimlarining har xil turлari qo'llanilgan.

Ularning birinchi turi kelin-kuyovga maxsus tayyorlangan nonni (yoki shirinlikni) birga yeishlik. Qolgan qismini esa Yupiterga sadaqa tariqasida olib kelish tartibida o'tkazilib, to'yda jreslar va boshqa shaxslar bilan bir qatorda 10 ta guvohlar ham qatnashganlar.

Ikkinchchi turi plebeylar marosimi, ya'ni tarozibon va simob tayoqchasi bilan bog'liq bo'lib, unda er-xotining ota-onasi hamda 5 ta guvohlar qatnashib ilgaridan or'natilgan so'zlarni va luqmalarini takrorlashi majburiy edi.

Kuyov turmushga echiqayotgan kelindan «Men uchun haqiqiy xotin, ya'ni materfamilias bo'lishga qodirmisan» deb so'ragan. Bo'lajak xotin esa

«Sen qayerdasan, Gay, o'sha joydan meni ham topasan», degan ifodalarni qaytargan hamda kuyov qizning otasiga misdan qilingan quymani qalin deb topshirar edi. Bu marosimlar sinfiy davrlarning oxirigacha saqlanib keldi.

Uchinchidan, hech qanday marosimlarsiz, XII Jadval qonunlarida ko'rsatilganidek, xotin kishi o'z taqdirini er kishi bilan bog'lashni razm qilgan ekan, ular nikohdan o'tadilar va er hokimiyati ostida to'liq qolib ketmaslikni e'tiborga olib, u bir yilda uch kecha va uch kunduz boshqa joyda yashab kelishligi lozim bo'lgan va natijada er hukmronligining mustahkamlilagini bo'shashtirgan yoki bir yillik xotinga egalik qilish huquqi uzilgan.

Bu marosimlardan yoki amalga oshirilayotgan harakatlardan ko'riniib turibdiki, hamma holatlarda nikoh munosabatlarini o'rnatishga qaratilmasdan, er kishiga (manus) hokimiyat yoki «musht» berishlikni, ya'nii xotin kishi ustidan erving hukmronligini o'rnatish maqsadidan kelib chiqqan.

Imperator Kanuley qonunlariga (445 yillar) asosan patrisiy va pleybeylar o'tasida, Rim fuqarolari bilan aktrisalar, fohishalar hamda qo'sh machilar nikoh tuzishlariga ruxsat berilmagan, ya'nii nikoh tuzish ma'n etilgan.

Rim davlatida nikohning tugatilishi asoslari, er-xotindan birining va fot etishi bilan, er yoki xotindan birining ozodlik holatlarini yo'qotilishi asosida yoki sud tomonidan og'ir jazoga tortilishi, jismoni va ruhiy tomonidan «aqli noraso» deb, topilgan bo'lsa va ajralishlik munosabatlarining ro'yobga chiqishi bilan nikoh tugatilgan deb hisoblangan.

Rim davlatining sinfiy davrida nikohdan ajratish erkin bo'lib, er va xotinning birqalikdagi roziligi, o'z hoxishlariga binoan ajratiladi. Undan tashqari bir tarafning o'z istagi bilan ham ajratilgan.

Mutloq monarxiya davriga kelib nikohdan ajratish ancha murakkablikka ega bo'ldi. Imperator Yustinian tomonidan qabul qilingan qonunlarga asosan, ikki tarafning roziligi asosida tuzilgan nikohdan ajratish ma'n etildi. Lekin bir tomonlama erkni izhor qilish natijasida nikohdan ajralishga qat'iy sabablar, ya'nii er va xotinning bir-biriga xoinligi, bevafoligi, er yoki xotinning hayotiga suiqasd uyuşhtirish yoki og'ir ayb bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni amalga oshirgan bo'lsalar, katta jarimani to'lab nikohdan ajralishga rozilik berilgan.

Nikohdan ajralish usullaridan yana biri, er va xotin tomonidan ayb harakatlari bo'lмаган тақдирда ham, birining jinsiy aloqaga layoqatsizligi hamda diniy vakillar bilan butunlay monastirga o'tish ixtiyorini bergen bo'lsa, bunday holatlarda ham nikohdan ajralish mumkin edi.

Gay Institusiyada ko'rsatilganidek, nikohdan hech qachon er va xotinning jahli chiqqan paytida ajratilishi mumkin emas. O'z eridan ajragan xotin beva «xafachilik» yilini o'tkazib yangi erga chiqishligi mumkin bo'lgan, lekin ahloq, odob normalari talab etilgan hamda oldindi eridan homi-

lador bo'lgan bo'lsa, 6 oy ichida farzand ko'rishligi lozim bo'lgan va bu munosabatlar xotin kishining sofdir ya'ni boshqa shaxslar bilan aloqada bo'lмаганligini ko'satgan hamda u 18 oydan keyin nikohga chiqsa oлган. Eri o'lgan bo'lsa ikki yil o'tgandan keyin nikohga chiqishi mumkin bo'lgan. Yangi erga chiqqan xotin bolalarining manfaatini o'ylagan holda yangi oilaga oldingi eridan qolgan mulklarini o'tkazmaslik, bermaslik lozim bo'lgan.

3-§. Er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlar

Qadimgi Rim davlatidagi vujudga kelgan shaxsiy va mulkiy munosabatlar, huquq va majburiyatlar cum manu va sine manu asosida tuzilgan nikoh munosabatlaridan kelib chiqib bir biridan ancha farq qilgan.

Cum manu asosida tuzilgan nikoh huquqiy munosabatlarida xotin kishi o'z bolalari bilan filias loco (filias loko)ga binoan er kishining hokimiyyati, ya'ni qo'l ostiga o'tardi. Butun hokimiyyat erga berilgan edi. Rim davlatining dastlabki davrlarida arning hokimiyyati cheksiz, xuddi mutloq monarxiyadagidek bo'lgan, lekin xo'jalik hayotining rivojlanishi va madaniy turmushning takomillashishi natijasida er hukmronligi, uning hokimiyyati ancha chegaralanib, xotinini o'ldirish yoki uni ijara berib yuborish kabi huquqlari to'la yo'qola boshladи.

Sine manu asosida tuzilgan nikoh munosabatlarida xotin kishi o'zing haqiqiy otasi hukmronligida qolib, oldingi oilasiga mansub bo'lib, mustaqil asosda o'zining huquqiy holatini saqlab qolgan. Lekin xotin kishi boshqa oilaga tushgandan keyin baribir eri ustunlik, imtiyozli holatlarga ega bo'lgan huquqlarini o'zida saqlab qolgan.

Turmushga chiqqan xotin kishining mavqeい erining mavqeい, uning jamiyatda tutgan o'rni bilan bog'liq bo'lgan (masalan: erining familiyasiga o'tgan, pretor bo'lsa pretor xotini, zodagon bo'lsa zodagonlar oilasi kelini) hamda arning doimiy yashab turgan joyi xotinning ham yashash joyi hisoblangan.

Er kishi da'vo tartibida xotinini egallab oлган har qanday kishidan tabab qilib olish huquqiga ega ekanligi, er va xotinning bir-biriga hurmat bilan qarashligi lozim edi. Faqatgina er va xotinning bir biriga bevafolik yoki xoinlik qilishi, kimning aybi bilan bo'lganligiga qarab ajralish amalga oshirilgan. Aybdor bo'lgan tomon uyidan olib kelgan mulklarini va birgalikda yashash davomida orttirgan mulklarini aysbsiz tomonga qoldirishi shart bo'lgan, ayniqsa xotin kishi o'z eriga xoinlik qilgan taqdirda juda og'ir kechardi.

Rim davlatida sum manu asosida tuzilgan nikohda barcha xotin tomonidan olib kelingan mulklar arning ixtiyoriga o'tkazilardi va nikohdan olingan mulklari bilan to'liq asosda qo'shilib ketardi.

Xotin tomonidan olib kelingan mulk hatto er-xotin ajralib ketgandan so'ng ham xotinga qaytarilmasdi, aksincha u erining vafot etganligi munosabati bilan meros tartibi asosida o'zining hissasini yoki o'ziga tegishli ulushini olardi xolos.

Sine manu nikohida esa er-xotinlar alohida bo'lib, hatto oddiygina asosda mulkni boshqarish ham xotinning roziligiga binoan amalga oshirilib, er-xotinlar o'ttasidagi munosabat topshiriq berish shartnomasi orqali turmushga tadbiq etilardi.

Nikoh munosabatlari asosida xotin o'z uyidan olib kelgan asholarini, uy boshqaruvchisi va boshqa shaxslar tomonidan berilgan «hadya qilingan mulklar», «to'y sovg'asi»ni er-xotinning oilaviy hayotdagi moddiy qiyinchiliklarni yengillashtirish maqsadida ishlatardi.

Respublikanlar ilk davrida sum manu asosida tuzilgan nikohlarda «to'y sovg'asi» ga huquqiy holat o'rnatilmagan bo'lib, u xotin tomonidan olib kelingan mulklar qatorida, ya'nii arning mulki tarkibiga kiritilgan.

Sine manu nikohi asosida esa xotinning mulklari va boshqa shaxslar tomonidan xotiniga berilgan mulklarga boshqacha huquqiy rejim o'rnatilib, agar nikohdan ajralish yoki arning vafoti bilan bog'liq munosabat kelib chiqsa, barcha olingan «to'y sovg'alari» og'zaki kelishish asosida er tomonidan qaytarib berishlik asosida amalga oshirilgan.

Agar asossiz nikohdan ajralishga xotin sabab bo'lga bo'lsa, pretor tomonidan da'vo qo'zg'atilib, mulkning ma'lum bir qismi erda qoldirilgan va bunga asos qilib xotin kishining aybi, ya'nii nikohdan ajralish sababi ko'rsatilgan.

Rim davlati rivojlanish tarixining I-III asrlari mobaynida «to'y sovg'alari» alohida huquqiy tartibga solingan, ya'nii nikoh davomida er barcha mulklarning egasi bo'lib hisoblangan. Mulkni tasarruf qilishni ham u to'liq amalga oshirgan.

Lekin xotinlarning manfaatlarini hisobga olgan holda imperator Avgust tomonidan qonunlar qabul qilinib, xotin kishining roziligi bo'limgan taqdirda unga taalluqli bo'lga yerni tasarruf qilish huquqi ta'qilangan.

Hatto «to'y sovg'alari»ni qaytarib olish uchun xotin-qizlar da'vo arizasini bergenlar va bu ariza «to'y sovg'asini qaytarib olish to'g'risida» deb atalgan. Er to'y sovg'asidan bolalarini o'ylagan holda (chunki ko'pincha bolalar ota qaramog'ida qolardi) ma'lum bir qismini olardi hamda harajat qiltingan summalarini jarima asosidagidek ushlab qolardi.

Imperatorlik davrida to'y sovg'asini olgan er, o'z xotinining hisobiga (o'z oilasiga) hadya sifatida ma'lum sovg'alarmi mulk yoki ashylolarni berardi. Dastlabki paytda bu sovg'alar berish marosimi nikohga qadar amalga oshirilgan bo'lsa, (chunki er-xotin bir-biriga bior-bir mulkni hadya qilishi mumkin emas edi) keyinchalik nikoh tuzish ustida hadya etishga ruxsat etiladi; lekin baribir bu mulklar arning mulki hisobiga o'tkazilardi, ammov arning aybi bilan nikoh buzilganda, bu mulk xotiniga to'liq o'tkazilardi.

4-§. Ota hukmronligi instituti

Rim quldarlik jamiyatining eng buyuk yutuqlaridan biri bu ota hukmronligi institutining vujudga kelishidir.

«Oltin asr»da faoliyat ko'rsatgan mashhur Rim yuristi Gay bu institutni quyidagicha ta'riflagan:

«Ota hukmronligi instituti Rim fuqarolarining qat'iy belgilangan milliy institutidir - yana shunday shaxslarning bo'lishi amri maholki, o'z bolalaring ustidan shunday hukmronlikka, hokimiyatga ega bo'lgan Rim fuqarolaridek»□. Haqiqatan ham, Rim davlati ota hukmronligi institutini ni-hoyatda mustahkamlab, unga mutloq huquqlar berib, Rim huquqini rivojlantirishga o'zining mislsiz xizmati bilan jahon davlatlariga o'rnatko'lgan.

Bu huquqda mustaqil shaxs bo'lib (persona sui iuris) faqat ota hisoblangan. Ota barcha huquqlarga ega bo'lgan va «o'ziga o'zi xo'jayin» sifatida e'tirof etilgan, uning o'g'il-qizlari esa «yot-begona bo'lgan shaxslarning huquqi» (persons alieni iuris) persona aliyni yurisga ega bo'l-ganlar.

Ota hukmronligi ostida voyaga yetgan o'g'il, yuqori mansablarga (senator bo'lishdan tashqari) erishsa-da, ozodlik va fuqarolik holatiga ega bo'lganidan qat'iy nazar, oilada o'zining oilasi, bolalari bor bo'lsa-da, baribir ota hukmronligiga bo'yungan. Ota hukmronligi faqat bir odamda, ya'ni otada bo'lgan, otaning xotiniga o'z farzandlari bo'yusunmagan.

Ota hukmronligi instituti uch xil asosda vujudga kelgan:

1. Nikoh asosida tug'ilgan farzandlarning haqiqiy o'z otasi bo'lishlik. Bu qoidani 1804 yilgi Napoleon Fuqarolik kodeksi o'ziga asosiy qoida sifatida qabul qilib olgan.
2. Nikohsiz tug'ilgan farzandni qonuniy asosda rasmiylashtirib o'zing farzandi deb hisoblash asosida.
3. Farzandlikka olish asosida.

Shuningdek, konkubinat asosida nikohsiz tug'ilgan farzandlarga nisbatan ham ota-onalar tomonidan qonuniy asosda tug'ilgan farzand deb tan olinishi oqibatida farzandlarning huquqiy holati o'zgaradi va ota hukmronligi instituti o'rnatiladi.

Ota hukmronligi instituti nikohsiz tug'ilgan farzand ota-onalarining nikohga kirishishlari bilan qonuniy rasmiylashtirish deb tan olgan va farzand shu kundan boshlab Rim fuqarosi huquqiga to'liq ega bo'lgan.

Ota hukmronligining vujudga kelishligi, farzandning huquqiy holatini rasmiylashtirilishi yoki qonunlashtirilishi imperator tomonidan qabul qilinadigan reskriptlar asosida ham amalga oshirilgan. Ba'zi hollarda nikohsiz tug'ilgan farzandning munisipial senatning a'zosi bo'lishligi, qizining esa senat a'zosiga turmushga chiqishligi sababli ularning huquqiy holati o'zgargan va qonunlashtirilgan.

Farzandlikka olish huquqiga ota hukmronligi ostida bo'lмаган шахслар ега бо'либ, улarning ham imperator reskriptlari asosida ish yuritishlari majburiy bo'lgan. Ota hukmronligi ostida bo'lgan shaxslarni farzandlikka olishlik uchun yangi ota-onalarini farzandlikka olinayotgan shaxs huzurida uning ilgarigi ota-onalarini chaqirgan holda kelishib olishi zarur bo'lgan va bu holat sud bayonnomasiga kiritilgan.

Farzandlikka olishning o'ziga xos shartlari ham bo'lgan. Bu shartlarga quyidagilar kiritilgan:

1. Farzandlikka olish uchun asosan er kishilarga va istisno tariqasida xotin-qizlarga ham ruxsat berilgan, ammo xotin-qizlar farzandlikka olishga qadar farzandlari bo'lgan va ularni yo'qotib qo'ygan bo'lishlari lozim deb ko'satilgan.
2. Farzandlikka oluvchi shaxsning ota hukmronligiga mansub bo'lmasligi, barcha huquqlarga hamda «o'ziga o'zi xo'jayin» bo'lgan shaxs bo'lishligi talab etilgan.
3. Farzandlikka oluvchi shaxs farzandlikka olinayotgan shaxsdan 18 yosh katta bo'lishligi lozim bo'lgan.

Rim jamiyatining tarixida ota-onalar va bolalarning shaxsiy huquq va majburiyatlarini xilma xil bo'lgan. Qadimgi Rimda otaning huquqi o'z bolalariiga nisbatan chegaralanmagan bo'lib, «hayot va o'lim» huquqini ham hal qilgan. Farzandlarini sotish huquqiga ega bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan bu qat'iylik asta sekinlik bilan zaiflashib, o'z farzandlariga uy jazosini qo'llashga olib keldi va ota, ona, farzandlar bir birlarini o'zaro hurmat qilishlari, aliment bilan ta'minlashlari va boshqa munosabatlari mayinlasha boshladи.

Ota hukmronligi ostidagi farzandlar mulkiy munosabatlarda shartnomalar tuzish huquqlariga ega bo'lganlar, ammo shartnomalardan kelib chiqadigan barcha huquq va burchilar otaga taalluqlidir. Ota hukmronligi ostidagi voyaga yetgan shaxslar shartnoma tuzishi oqibatida yoki biron bir huquqbazarlik asosida yohud boshqa shaxslarga zarar yetkazish munosabatlari kelib chiqqan bo'lsa, xuddi qullarning da'vosiga o'xshash da'vo asosida oila boshlig'iga da'vo joriy etilardi. Oila boshlig'i da'veoni qabul qilishi va keltirilgan zararlarni to'lashi yoki zarar yetkazgan shaxsni zararni qoplashni talab etayotgan shaxsga topshirishi mumkin edi. Agar zarar yetkazgan shaxs boshqa uy boshqaruvchisiga o'tib ketgan bo'lsa, qilingan ayb ham shu shaxs bilan bog'liq bo'lib, boshqa ya'ni o'tib ketgan oila boshlig'iga da'veoni qaratardi, ya'ni javobgarlik doimo ayb qilgan shaxsning qayerda yashashi bilan bog'liq bo'lgan.

Rim davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning, ayniqa ishlab chiqarish va ho'jalik munosabatlarining rivojlanishi natijasida ota hukmronligi ostidagi shaxslardan foydalanmaslik oila boshlig'i uchun samara bermay qoldi.

Ayniqsa, hukmronlik ostidagi shaxslar bilan boshqa shartnomalar sub'yeqtisi shartnomaviy huquqiy munosabatlarga kirishmay qo'ydi va uy egasi o'zining qullaridan, voyaga yetgan farzandlaridan maqsadga muvofiq foydalana olmasdi. Yuqorida ko'satilgan holatlar uy boshqaruvchisini o'zining qo'l ostidagi qullariga, voyaga yetgan shaxslariga ma'lum vakolatlar berishni taqozo etardi. Natijada qullar va voyaga yetgan shaxslarning mulkiy layoqatlari kengaydi va ko'proq, keng ma'noda muomala layoqatiga ega bo'ldilar.

Qadimgi Rim jamiyatida qullarga qo'llaniladigan pekuliylar munosabatlari, ya'ni qullarga yer, yer uchastkasi, mollar, xo'kizlar, ba'zi hollarda esa qullarni berish munosabatlarini kengaytirishning zarurati kelib chiqdi. Pekuliyl institutining mohiyati shundan iborat ediki, qul o'z tomorqasida jonjahdi bilan ishlab o'z bolalari, xotinining ham mehnatlarini qo'llab, samara olishga harakat qilgan va o'z oilasi yoki o'z mulki asosida, hatto bu mulknинг egasi quldar yoki oila boshlig'i hisoblansa ham mustaqil harakatni amalga oshirgan, mulkdan foydalangan va uni boshqarish yoki yashirin asosda kam bo'lsa ham tasarruf etgan.

Rim huquqi munosabatlarini yanada shakllanishi va rivojlanishi natijasida ilgarigi pekuliyliga qaraganda mustaqil bo'lgan yangi pekuliylar, ya'ni harbiy pekuliyliga vujudga keldi. Bu pekuliyliga ilgarigiga qaraganda mulkiy huquq layoqatini kengaytirgan holda va haqiqiy fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub'yehti bo'lism uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bera olgan. Harbiy xizmat davrida sotib olgan mulklari, maoshi, harbiy xizmat yoki urushlar natijasida qo'lga kiritgan mol-mulklar va harbiy xizmatni o'tayotgan paytda berilgan sovg'alar, hadyalar harbiy pekuliyning mulki bo'lib hisoblansa ham, lekin harbiy pekuliylar o'g'li shaxsning o'zi ota hukmronligi ostidagi mulk bo'lib hisoblangan.

Ota hukmronligi ostidagi harbiy pekuliylar o'lim oldidan vasiyatnomasi qoldirmagan bo'lsa, barcha mulklar, ashyolar oddiy pekuliyliga o'xshab ota hokimiyatiga, ya'ni uning mulkiga o'tkazildi.

Rim jamiyatining mutloq monarxiya davriga kelib harbiy pekuliyliga ona tomonidan biror mulk yoki meros hadya tariqasida qoldirilgan bo'lsa, uning o'ziga bu mulk tegishli bo'lardi. Ota bu yerda mulkni umrbod boshqarish va foydalaniш huquqiga ega bo'lib, hukmronlik ostida bo'lgan shaxs bilan teng asosda foydalaniшi mumkin bo'lgan.

Ayniqsa, bu qoida imperator Yustinian tomonidan yanada mustahkamlandi. Rim huquqida ota hukmronligi quyidagi asoslar bo'yicha tugatilishi mumkin edi.

1. Oila boshlig'inining ya'ni otaning vafot etishi bilan;
2. Voyaga yetgan, lekin ota hukmronligidan ozod bo'limagan shaxsning vafot etishi bilan;
3. Uy boshqaruvchisining yoki unga qaram bo'lgan shaxslarning ozodlik va fuqarolik holatlarini yo'qotishlari asosida;

4. Uy boshqaruvchisining qaramog'idagi shaxslarga yordam bermasligi asosida uy boshqaruvchisi lavozimidan ozod qilinishi natijasida;
5. Uy boshqaruvchisi qaramog'idagi shaxsning faxriy unvonlarga ega bo'lishi va boshqa ba'zi hollarda ota hukmronligi o'z kuchini yo'qotgan.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, ota hukmronligi qaramog'ida bo'lgan shaxsga emansipasiya usulini qo'llash orqali ham ota hukmronligi tugatilgan, bu otaning o'z roziligi va qaram bo'lgan shaxsning roziligi asosida qo'llanilgan.

Imperator Yustinian davriga kelib emansipasiya quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshirilgan:

1. Sud bayonnomasida yozilishi lozim bo'lgan imperator reskriptiga binoan;
2. Uy boshqaruvchisining o'zining arizasiga muvofiq asosda, bu holatda ham sud bayonnomasiga yozilishi majburiy bo'lgan;
3. Uy boshqaruvchisining ruxsati bilan ancha yillar davomida faktik holat asosida biror shaxsning ozodlik berganga o'xshab yurishligi natijasida emansipasiya qo'llanilgan.

5-§. Vasiylik va homiylik (tutele va cura)

Rim davlatida o'ziga o'zi xo'jayin (sui iuris), ya'ni ozod bo'lgan Rim fuqarolari hamda shu davlat hududida istiqomat qilib turgan shaxslar o'zining kasalligi yoki boshqa holatlari bilan bog'liq bo'lgan hollarda, o'zining fuqarolik huquq layoqatlarini amalga oshiruvchi shaxslarning yordam berishiga majbur bo'lganlar. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun voyaga yetmagan shaxslarga, yengil tabiatli xotinlarga esa eri o'layotgan paytda xotiniga kim vasiy bo'lishini ayтиб ketgan holda vasiy tayinlangan.

Vasiyning vakolati o'ziga o'zi xo'jayin bo'lgan shaxsning kasalligi yoki boshqa holatlari tufayli, o'z mulkini qo'riqlay olmasligi, boshqarish yoki uni tasarruf eta olmasligi, uning jismoniy yoki ma'naviy tomonidan qilayotgan harakatlarini qonuniy asosda amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Ota hukmronligi institutining yaxshi ishlamaganligi, o'z qo'l ostidagi shaxslarning huquqlarini himoya qila olmasligi ham vasiylik va homiylikni keltirib chiqargan.

Vasiylik Gay Institusiyaga va XII Jadval qonunlariga asosan xotinlar ustidan 25 yoshgacha, hatto vasiyatnomada «to turmushga chiqmaguncha» degan so'z va muddat bo'lsa, turmushga chiqqunicha ayniqsa xotinlarga, pul va ashyolarga o'ch bo'lganligidan, ularning tabiatli yengilroq ekanligidan kelib chiqib vasiylik tayinlangan.

Vasiylik ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslarga ham tayinlangan. Vasiylik ko'pincha u magistr tomonidan tayinlangan, ammo va-

siy o'zining kasalligi, yoshi, davlat xizmati yoki harbiy xizmatlarini vaj qilib o'z vakolatidan soqit bo'lishi mumkin edi.

Vasiy faqat o'z vasiyligida bo'lgan shaxsnинг manfaatini ko'zlab harakatlarni amalga oshirishi lozim bo'lgan. O'zining manfaati uchun biror bir harakat qilsa yoki vasiylikda bo'lgan shaxsnинг mulkini, uyini yoki biror ashyonini sotib, vasiyligida bo'lgan shaxsga zarar yetkazadigan bo'lsa, da've asosida yetkazilgan zarar to'liq vasiydan to'latib olingan.

Vasiyning burchi vasiyligida bo'lgan shaxs tomonidan tuzilgan shartnomaga va majburiyatlarni tasdiqlash, shartnomaga tuzishlik uchun niaslahatlar berish yoki oldindan kelishib olish masalalarini ham hal qilishdan iboradir.

Imperator Septimin Sever (195 yil) davriga kelib vasiyning o'z vasiyligida bo'lgan shaxsnинг qishloqdagи yerlarini yoki shahardagi yerlarini sotishi yoki garovga qo'yishi to'liq asosda ma'n etildi. Ulardan tashqari vasiy va uning homiyligida bo'lgan shaxslar o'rtaida nikoh tuzilishlariga ham yo'l qo'yilmagan.

Rim davlati huquqi tarixida vasiylikdan tashqari homiylik ham mavjud bo'lgan.

Homiy - voyaga yetgan shaxslar tomonidan o'z mulkini boshqara olmayotgan, aqli noraso, jismoniy tomondan kamchiligi bor shaxslar yoki qilgan harakatlarini to'liq tushunib yeta olmaydigan shaxslarga tayinlanigan.

Shuningdek, homiy ko'pincha vasiy tomonidan o'z vakolatini bajara olmaganligi yoki vasiyatnomada ko'rsatilgan shartlarni, vazifalarni intizomsiz, yomon yoki noqulay asosda bajarganligi natijasida vasiyning o'rniغا tayinlanib qo'yilgan.

V bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Rim oilasi tushunchasi va ular qanday turlarga (oilalarga) bo'lingan?
2. Nikoh tushunchasi va mashhur yurist Modestin uni qanday ta'riflagan?
3. Er va xotinlar o'rtaida shaxsiy va mulkiy munosabatlar deganda qanday vakolatlarni tushunasiz?
4. Rim xususiy huquqida vasiylik va homiylik qanday asosda amalga oshirilgan?
5. Emansipasiya nima? Imperator Yustinian davrida emansipasiya qaysi asoslarda amalga oshirilgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956, 1960, 1972 gg. izd.
2. Galanza P.P. Gosudarstvo i pravo Drevnego Rima. MGU, 1963.

3. Mixail N. Andreyev. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya Vuzov. Pod red. chlena-korrespondenta Rossiyskoy Akademii Nauk V.S.Nersesyan. INFRA M-Norma, M., 1977.
4. Pereterskiy I.S. Digesto' Yustiniana. M.,1956, 1984.
5. Institusii Gaya. (V sbornike dokumentov po vseobchey istorii gosudarstva i prava. Sostavitel prof. Livansev). Izdatelstvo Leningradskogo universiteta. L.,1977.
6. Urazayev SH.Z. Rimskoye pravo. Uchebnoye posobiye.-T.: Akademiya MVD Respubliki Uzbekistan, 2000.
7. Ernazarov O., Topildiyev V.R. Rim fuqarolik huquqi. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2001.

VI BO'LIM.

1-bob. Ashyoviy huquqlar haqida umumiy ta'limotlar

- 1-§. Ashyolar tushunchasi va turlarga bo'linishi.
- 2-§. Ashyolarga bo'lgan huquq turlari.
- 3-§. Egallash (possessio-possessio) tushunchasi va turlarga bo'linishi.
- 4-§. Egalik qilish va uning tugatilishi. Egallashni himoya qilish.
- 5-§. Mulk huquqi tushunchasi va turlarga bo'linishi.
- 6-§. Xususiy mulk huquqi tushunchasi va mazmuni.
- 7-§. Umumiy mulk huquqi.
- 8-§. Sharhnomalar bo'yicha mulk huquqining vujudga kelishligi.
- 9-§. Mulk huquqini himoya qilish.

1-§. Ashyolar tushunchasi va turlarga bo'linishi

Rim fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan birini va uning predmetining eng asosiy qismini tashkil etadigan munosabatlar - bu ashayoviy huquqiy munosabatlardir.

Ashyoviy huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqining asosiy ob'yektlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Qadimgi Rim tarixida, ayniqsa uning sinfiy davrida ashayolar tushunchasi keng ma'noda ishlataligani. Rim yuristlari, ashayolar - bu tashqi dunyoning moddiy munosabatlaridan iboratdir hamda o'z ichiga yuridik munosabatlarni va huquqni ham qamrab oladi, deb ta'riflaganlar.

Ashyoviy-huquqiy munosabatlar erk, xohish, iroda bilan bog'liq bo'lgan, shaxslar yoki guruhlar o'rtaсидagi ashayolarning kimadir taalluqligini belgilaydigan va mustahkamlaydigan, o'zgartiradigan holatlar haqidagi umumiy ta'limotdan iborat bo'lib, shaxslarning ashayolar ustidan hukmronligini va boshqarishligini ta'minlovchi munosabatlardir.

Ashyolarning turlariga ko'chmas mulklar va ko'chirilishi mumkin bo'lgan, bo'linadigan va bo'linmaydigan, iste'mol qilinadigan va qilinmaydigan, jinsiy alomatlarga ega bo'lgan ashayolar va individual ashayolar, oddiy va murakkab ashayolar, asosiy va mansub ashayolar, fuqarolik munosabatlaridan chiqarilgan va chiqarilmagan va boshqa ashayolar kiritilgan.

Umuman olganda, Rim tarixchilari va huquqshunoslari ashayolarni ikki qismga bo'lgan:

1. Xudo, Oolloh huquqi (tabiiy huquq) tomonidan yaratilgan ashayolar;

2. Xudo, Ollohnning yerdagi vakili bo'lgan insonlar huquqi tomonidan vujudga keltirilgan ashyolar.

Oolloh huquqi (tabiiy huquq) tomonidan yaratilgan ashyolar - faqat Ollohnning o'ziga ma'lum, nihoyatda kuchli va yuqori bo'lgan, shaxslar unga bo'y sunishi asosida fuqarolik munosabatlardan chiqarilgan va huquqiy sohalari bilan tartibga solinmaydigan sakral huquqlarga aytilan.

Shu bilan birga Rimliklar qadimdan ashyolarni yana ikki qismga ya'nii sakral va diniy ashyolarga bo'lganlar.

Sakral ashyolarga xudo, Oolloh huquqi (tabiiy huquq) tomonidan berilgan ashyolar kiritilib, ular ommaviy qarorlar ya'nii Oolloh tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida vujudga kelgan, diniy ashyolarga esa xususiy huquq bilan belgilangan yoki insonning shaxsiy qarori bilan vujudga keladigan munosabatlardan kiritilgan.

Masalan, insonning dafn etilishi va bu joyning muqaddas joyga aylanishi, insonning erki bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi tushunilgan.

Inson huquqlari bilan bog'liq munosabatlardan yoki ashyolar huquqiy sohalari, ya'nii Rim davlatining ommaviy huquqi va xususiy huquqlari bilan tartibga solingan.

Rim huquqida shunday ashyolar bo'lganki, ularning sub'yekti Rim xalqi bo'lib hisoblangan (rorulus romanus) hamda ular ommaviy huquq bilan tartibga solingan va ular quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Rim jamiyatni a'zolarining barchasi tomonidan umumiylasosda foydalananligan ashyolar, ya'nii daryolar, portlar, yo'llar, teatrlar, stadion va boshqa ommaviy xarakterga ega bo'lgan ashyolar;

2. Davlatga oid bo'lgan maxsus foydalananligan ashyolar, davlat xazinasi, harbiy ob'yektlar, quroq aslahalar va boshqa ashyolardan iborat bo'lib, ular maxsus huquqiy rejim qo'llanishini taqozo etadi hamda fuqaro tomonidan foydalananligi chegaralangan huquq ob'yektlaridan iboratdir;

3. Davlatga xos bo'lgan savdo munosabatlarining ob'yektlari, masalan davlatning yer fondidan tashkil topgan.

Rim huquqida ashyolarni bo'linadigan va bo'linmaydigan turlarga bo'lganlar.

Bo'linmaydigan ashyolar tub mohiyati, xo'jalik maqsadini yo'qotmaydigan, uni qismlarga bo'lganda ham, o'z jinsini, bahosini yo'qotmaydigan, qismlarga bo'lingan ashyolarning o'zi ham alohida o'z qiymatini yo'qotmaydigan, lekin kichik-kichik qismlardan iborat bo'lgan tovarlardan, ammo fuqarolik muc'malasida to'liq asosda qatnashadigan munosabatlar dan tashkil topadi.

Masalan, qand, sariyog', asal, non, go'sht, mayiz, yong'oq va boshqalar.

Umumiy mulk huquqi bilan bog'liq munosabatlar umumiy ashyolar yig'indisidan tashkil topib, ularda huquqga bo'lgan hissa va ob'yektga bo'lgan hissalar mavjud bo'lgan. Ular o'z navbatida real va ideal hissalarga bo'lingan.

Bu munosabatlar asl ko'rinishida moddiy munosabatlarga o'xshamasi ligi ham mumkin, lekin o'sha huquqlarning asosini moddiy ashyolar tashkil etadi.

Ideal hissalar deb, ashyoga qo'shilgan mol-mulk boshqa mulklar bilan aralashib, o'zining jismini ob'yekt sifatida yo'qotishi yoki boshqa ob'yektlarga o'tkazishi mumkin. Ana shu ashyoga bo'lgan huquq ichida qaysi shaxs tomonidan qo'shilgan ashyo bo'lsa, uning qiymati, bahosi yotadi va hissalarga bo'linadi.

Mulk bo'lingan paytda qo'shgan hissasiga qarab ashyoga bo'lgan huquqning ma'lum bir qismini oladi va uni ulushlarga ajratib, 1/2, 1/3, 1/4 qismlariga qarab o'z mulkini shu ashyoga qo'shgan shaxs mulkinining qiymatini yoki shu qiymatga asosan mulkdan hissa ajratib oladi.

Ideal hissalar asosida vujudga kelgan ob'yekt umumiy mulk huquqi asosida bo'lsa, ularning bo'linish va bo'linmasligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ya'ni barpo qilingan ob'yekt natura asosida bo'linishi, yoki bu ashyo umumiy mulk huquqi sub'yektlarining biriga o'tkazilgan bo'lsa, qolganlari esa pul tovonlari (yoki qo'shgan haqini) oladi.

Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar ulardan foydalaniş maqsadiga qarab farqlanadi. Iste'mol qilinadigan ashyolar iste'mol qilingandan keyin o'z jinsini, jismini, urug'in yo'qotadi. Bular oziq-ovqat mahsulotlaridir.

Iste'mol qilinmaydigan ashyolar - ulardan foydalangan vaqtida o'z bahosini, mohiyatini yo'qotmaydigan yoki umuman yo'q bo'lib ketmaydigan ashyolardir. Masalan, qimmatbaho toshlar, équt va zumradlar, brilliantlar, oltin taqinchoqlar va boshqa qimmatbaho ashyolar kiritiladi.

Jinsiy belgilari va xususiy alomatlari, ya'ni individual xususiyatlari bilan farq qiladigan ashyolarni ko'pchilik Rim yuristlari almashtiriladigan va almashtirilishi mumkin bo'lmaydigan ashyolarga ham bo'lgan.

Jinsiy belgilari bilan farq qiladigan ashyolar deganda, foydalaniş maqsadiga qarab, jinsiga qarab, soni, o'lchov birligi, og'irligi, baholariga asosan farqlanadigan ashyolar tushunilgan, ya'ni har bir ashyoning huquqiy munosabatda qanday holatda, ya'ni ob'yekt sifatidami yoki jinsiy alomatga ega bo'lgan ashyo sifatidami (ona qo'y yoki qo'chqor) yoki sonining miqdori (100 ta askar), og'irligi (10 tonna) nuqtai nazaridan kelib chiqib inobatga olingen.

Individual yoki xususiy alomatga ega bo'lgan ashyolar - ma'lum shaxslar, ustalar, hunarmandlar tomonidan ishlab chiqiladigan ashyolar, ya'ni individual shaxsning ish faoliyati statusi bilan, hatto obro'yি, mehnatining sifati, mahsulotining jahon andozalari asosida ishlab chiqil-

ganligi bilan, umuman individual shaxsnинг muayyan xususiyati bilan belgilanadigan ashyolardir. Bunday ashyolarning оrniga boshqa ashyolarni ishlatib bo'lmaydi. Masalan, Toshkent aviasion ishlab chiqarish birlashmasi ko'proq Ukrainadagi aviasiya sohasida ishlaydigan zavodlar bilan bog'liq. Agar boshqa zavodlardan mahsulot olinsa, eng yuqori sifatli bo'lgan samolyotlarni ishlab chiqara olmasligi mumkin.

Asosiy ashyolar va mansub bo'lган ashyolar deb - shunday ashyolarga aytildiki, asosiy ashyosiz o'z harakatini amalga oshira olmaydigan hamda uning yuridik holatiga bo'y sunmaydigan ashyolar turkumidan iborat bo'lган.

Mansub ashyolar - asosiy ashyolarning qismi, unga taalluqli yoki uning hosilasidir. Ular yuridik mustaqil harakatlarni amalga oshira olmaydi, ya'ni asosiy ashyoga bo'y sunuvchidir.

Hosilalar, foydalarni hal qilishlikda asosiy ashyoga murojaat qilinadi. Ayniqsa, qonuniy, insofli asosda egallangan mulkni qaytarib olishda, insofli egallovchi tomonidan jabrlanuvchi da'vo qilgunga qadar, olingan foya va daromadlar tasarruf qilingan bo'lsa, uni qaytarib olish mumkin bo'lмаган.

Tabiiy bo'lган ashyolar ham mavjud bo'lib, bu yerda ashyoning maqsadga muvofiq ravishda tayinlanishi buzilmasdan, tabiat orqali hosil, daromadlar olish mumkin. Ya'ni daraxtlardan olingan mevalar, bog'dan olingan hosillar yoki qora mol, qo'y, echki va boshqa hosil beruvchi hayvonlardan olingan ashyolarga tushunilgan. Ularning huquqiy holatlari shu ashyolar, ya'ni daraxtlar, bog'lar, qo'y-qo'zilar, qora mollar kimga tegishli bo'lsa, o'sha shaxsnинг hukmronligida bo'lib, shu shaxs tomonidan belgilangan.

Rim huquqida ayniqsa ashyoviy-huquqiy munosabatlarga kirishayotgan paytda ashyoning huquqiy holati ya'ni fuqarolik oborotidan chiqarilgani yoki chiqarilmaganligini aniqlab olish lozim. Chunki shunday ashyoviy ob'yeqtlar borki, bu ob'yeqtlar yuzasidan fuqarolik huquqiy munosabatlarga yoki aynan fuqarolar o'rtaida sharthnomalar tuzishlikka yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik xususiy huquqiy munosabatlarining ob'yeqtлари xususiy mulk bilan bog'liq ashyolar bo'lib, ko'pchilik holatlarda fuqarolarning o'rtaida o'zaro hamda fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtaсидаги munosabatlar ob'yekti sifatida qo'llaniladi.

Ashyolarning oborotdan chiqarilgan yoki oborotdan chiqarilmaganligiga qarab ham huquqiy rejim qo'llaniladi.

Oborotdan chiqarilgan ashyolarga davlatning o'ziga xos mulklari, shahar mulklari, Rim davlatining hududlari va boshqa mulklar kiritilgan. Bu mulklar yoki ashyolarning boshqa ashyolardan farqi, tabiiy asosda vujudga kelgan hamda maxsus vazifalarni amalga oshiruvchi mulklardan iboratligidir.

Imperator Yustinian Institutiyalarida ham bu ashayolarga katta e'tibor qaratilgan. Sinfiy davrda faoliyat ko'rsatgan yuristlar hatto tabiat tomonidan yaratilgan ashayolarning mavjudligini, ulardan barcha Rim fuqarolari teng asosda foydalanilishi mumkinligini e'tirof etib, bularni quyidagilardan iboratdir, deb hisoblaganlar:

- havo qatlami, oqar suvlar, dengizlar va ularning ichidagi jonivorlar va barcha boshqa boyliklar.

Ommaviy huquq asosida vujudga kelgan ashayolarning egasi butun Rim xalqi hisoblanib, bularga civitas (shaharlar mulki) daryolar, yo'llar, stadionlar, konsert zallari, hammomlar va boshqa ashayolar kiritilgan hamda ulardan butun Rim xalqi foydalangan.

Bulardan tashqari Rim huquqshunoslari e'tiroficha, diniy yoki Olloh, xudo bilan bog'liq bo'lgan ashayolar mavjud bo'lib, ular fuqarolik huquqiy munosabatlarining ob'yekti bo'lib hisoblanmagan. Xudo huquqlari - xramlar, masjidlar, diniy munosabatlarni amalga oshirish uchun ishlataladigan predmetlar, ashayolar, qilxonalar, alohida shaxslarni ya'nini oliy mansabli magistrлarni, davlat rahbarlarini, din boshliqlarini, payg'ambarlarni, hurmat qozongan shaxslarni dafn etadigan joylar ya'nini ular muqaddas deb tanilib, xudoning yerdagi vakillari tomonidan himoya qilingan.

2-§. Ashayolarga bo'lgan huquq turlari

Ashayolarga bo'lgan huquq turlaridan eng birinchisini ashayoga bo'lgan egalik qilishlik huquqi tashkil etgan bo'lib, u xususiy mulkiy munosabat-larning asosini o'zida mujassamlashtirgan.

Rim sinfiy yuristlari egalik qilishlikni ashayolarga bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri hukmronlik qilish, hech kimning yordamisiz mustaqil asosda ularni egallab olishlik, deb tushunishgan (ius in re - yus in re).

Ashayolarga bo'lgan huquq to'g'ridan-to'g'ri o'zida bo'lмаган, boshqa shaxsga taalluqli bo'lgan mulkdan foydalanishda ham ko'ringan, bu bosh-qalarning (shaxslarning) mulkiga bo'lgan huquq deb atalgan. Uni yuristlar iura in re aliena (yura in re aliyena) boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq deb e'tirof etganlar.

Ashayolarga bo'lgan huquq turlari quyidagilarga bo'linadi:

1. Egallah;
2. Mulk huquqi;
3. Boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq.

3-§. Egallah (possessio-possessio) tushunchasi va tur-larga bo'linishi

Qadimgi Rim quldarlik davlatida mulk huquqidan va boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq institutlaridan tashqari egalik qilish tushunchasi ham mavjud bo'lgan.

«Egalik qilish» amaliyotda ko'pincha «mulk» terminlari yoki tushunchasi bilan bir ma'noda qo'llanilsa ham, Rim fuqarolik huquqi va hozirgi zamон fuqarolik huquqida ikkalasini bir ma'noda tushunmaslik lozim. Rim yuristlari egalikni «men mulkka egaman» so'zi orqali, mulkni esa «mening mulkka egalik huquqim bor» degan ta'riflar bilan ajratib olganlar.

Egalik qilish - bu ashyo ustidan faktik holatda hukmronlik qilish demakdir. U mulk huquqining kelib chiqishligi uchun asos bo'lib, bir joyga joylashish, o'troq bo'lib qolish, egasiz bo'lgan ashyon, predmetni yoki o'tloq yaylovn egallab olishlik kabi harakatlarda namoyon bo'lgan.

Rim huquqida «ager rubucus» degan tushuncha bo'lib, «umumiyl joy», hamma uchun teng ravishda foydalanimishi mumkin bo'lgan yer, boshqa shaxslar tomonidan egallanib olinmagan joyga tushunilgan.

Qadimgi rus tarixchilari «Kiye haqida»gi yozma asarlarida Kiyening o'z urug'lari bilan Dnepr daryosining bag'irlarida joylashgan tog'da o'tirib (ko'chib kelib), joylashib qolganligini va Kiyev shahrini vujudga keltirganligini misol qilib, egalik tushunchasini «egasiz joyni o'zlashtirish, o'sha joyda o'tirib qolishlik, o'troq bo'lismilik yoki joylashib olishlik» degan ma'no bilan bog'laydilar.

Egalik qilish institutining vujudga kelishligini mashhur yuristlardan biri yurisprudensiyaning atoqli olimi Labeon (o'tgan eramizning 45 yillari va yangi eramizning 10 yillari) Rim huquqida egalik tushunchasini «o'tirmoq», «joylashib qolmoq», «o'troq hayot kechirmoq» degan so'zlar bilan «egasiz bo'lgan joyni ishg'ol qilmoq yoki egallab olmoq» asosida ta'riflagan.

Demak, egallah - bu ashyon real ravishda egallab olib, uning ustidan hukmronlikni amalga oshirish, degan ma'noni anglatgan.

Qadimgi Rim va unda yashab turgan jamoa uchun doimo yer yetishmasdan, tanqis bo'lib kelgan. Ular doimo o'zlashtirilmagan joylarni egallahsha yoki urushlar natijasida joyga, hududga ega bo'lismaga ko'p intilganlar.

Siseronning ta'kidlashicha, XII Jadval qonunlarida, egasiz bo'lgan joyiarni, hech kim yashamaydigan qir-adirlarni egallab olishlikka da'vat etilib, hatto insofli ravishda yerni, joyni egallab olgan va ikki yil davomida uni egallab turgan shaxs sivil (fuqarolik) huquqiga asosan, ushbu yerga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan. Bu muddatning o'tishi bilan, u shu mulkning egasi, ya'ni mulk huquqining sub'yekti bo'lib tanilgan, hamda uni qonuniy asosda mustahkamlab olgan.

Fuqarolik huquqiga asosan egallah deganda, avvalo ashyonni egalagan shaxs mustaqil shaxs bo'lismili - persona sui iuris (persona sui juris) bo'lisi talab etilardi. Agar u shaxs mulkiy-huquqiy va muomala layoqatiga to'liq ega bo'lsa va uni egallah, hamda faktik hukmronlikni amalga oshirish maqsadini o'z harakatlari bilan tasdiqlasa u egallah interdiktleri himoyasiga va qo'riqlash munosabatlariga ega bo'lgan.

Fuqarolik egallash, eng avvalo o'zi uchun o'zining ismiga, to'liq ishonch asosida, ya'ni mal'k huquqining sub'yekti bo'lislighini e'tirof etishlikni ham o'z ichiga olgan.

Rim huquqshunosari ashylarni egallash va ularni ushlab turishlikning bir-biridan farqini to'liq anglab, ularga nisbatan har xil huquqiy holatlarni (rejimlarni) qo'llaganlar

Rim davlatining fuqarolik huquqiy munosabatlarida egallash tushunchasi ikki qismiga bo'lingan: a) muikni jismoniy (fizik) holatda egallash; b) mulkni ma'nnaviy asosda egallash.

Jismoniy asosda egallash - corpus possessionis (korpus possessoris) va ma'nnaviy asosda egallash - animus possessionis (animus possessoris) deb atalgan.

Jismoniy asosda egallash deb, uni fizik holatda (gavdasini, jismini) yoki faktik holatda egallashlikka aytilgan.

Ma'nnaviy tomondan egallash deganda, ashynoni o'z erki, istagi, xohishi asosida shu mulkka egalik qilishlikka tushunilgan.

Lekin hamma egallashlar ham fuqarolik egallashga o'xshab huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Egallashga o'xshab ketadigan, amino to'liq egallash bo'lмаган harakatlar ham mavjud bo'lib, ular huquqni himoya qilish va qo'rqliash munosabatlarining interdiktlnarni qo'llash kabi xususiyatlarni keltirib chiqara olmaydigan element - ushlab turishlik naturalis possessio (naturalis possessio) deb ataladi. U fuqarolik egaliq qilish elementidan quyidagi bilan farq qiladi.

1. Ashynoni ushlab turishlik - o'ziga o'tkazib, egalik qilib olishlik xohishining yo'qligi, ya'ni xuddi o'zining mulkiga bo'lgan munosabatning vujudga kelmasligi bilan;
2. Rim fuqarolarining shaxslar o'ttasida shartnomalarni, ya'ni topshiriq shartnomasi, depozit mulkni saqlab turishlik (hozirgi fuqarolik huquqida tuzilgan shartnomalarni o'z vaqtida bajarishlik uchun sud yoki notarial idoralariga ma'lum bir summani, puini ushlab turishlik uchun depozit hisobiga qo'yiladi) shartnomasini, ssuda kabi shartnomada ashylarini o'z uyida, omborlarida, seyflarida saqlab turganlar va ular oddiy saqlovchilar yoki ashynoni ushlab turuvchilar bo'lib hisoblanganlar.

Rim davlatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ayniqsa huquqiy munosabatlarning yanada takomillashishi, ilgarigi haqsiz tuziladigan shartnomalar o'rniغا yangi haq ba'avariga tuziladigan, yerni ijaraga olish, uyojylarni ijaraga olish, ko'chirilishi mumkin ob'yektlarni saqlab turish umrbod foydalanish asosida tuziladigan yangi-yangi shartnomalar kelib chiqdi. Hatto ko'pclilik ashylarni ushlab turishlik vakillar o'rqli amalga oshirilgan bo'lsa ham, lekin ularga saqlab, ushlab turgan ashylarning hosil va daromadlaridan mulk egasining roziligi asosida foydalanishga taxsal etilgan.

Haq baravari asosida ashyolarni, mulkni ushlab turishlik instituti vujudga kelganiga qadar, Rim huquqi vakillik institutini bilmagan. Hatto tuzilgan shartnomalarni shartnomada ko'satilgan sub'yeqtning o'zi tomonidan bajarishligi qat'iy ravishda talab etilgan.

Rim huquqida egalik qilish va ushlab turishlikning himoya qilinishida ham bir-biridan farqlari mavjud bo'lgan.

Egalik qiluvchi shaxslar egaligida bo'lган ashyolar boshqa shaxslar tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa, ularning o'zlarini to'g'ridan-to'g'ri noqonuniy asosda ashyolarni egallab olgan shaxslarga da'vo qilganlar va ulardan mulkni, ashyoni qaytarib olganlar.

Ijarachilar (ushlab turuvchilar, saqlab turuvchilar) boshqa shaxslarga ushlab yoki saqlab turgan ashyolari noqonuniy asosda o'tib ketgan bo'lsa, mulkni saqlab turishlik va foydalanishlik uchun bergen bergan mulk egasi orqali qonunsiz mulkni egallab olgan shaxslarga da'vo qilib, buzilgan huquqlarini tiklashga harakat qilganlar.

Rim quzdorchilik jamiyatida egallahash turlari qonuniy egallovchiga yok! qonunga xi洛 asosda egallahashlikka bo'lingan.

Qonuniy asosda egallahashlik deb, mülkdor tomonidan ashyolarni, mulkni egallahash huquqiga to'liq ega (ius possedendi) (yus possedendi) ekanligini anglatadigan munosabatlarga aytilgan.

Qonunga xi洛 asosda egallahashlikda egallovchi shaxs mulkka xuddi o'zining mulki kabi munosabatda bo'ladi lekin u yuridik tomonidan egallahash huquqiga ega bo'lмагanligi sababli, uni qonunga xi洛 asosda egallahash deb baholangan.

Rim huquqida qonunsiz egallahash, shuningdek, qonunsiz insofli va qonunsiz insofsiz egallahashlarga bo'lingan.

Qonunsiz insofli egallahash deb - Rim huquqida shunday munosabatlarga tushuniladiki, egallab olgan shaxs ashyoning, mulkning yoki biron-bir ob'yeqtning kimga taalluqli ekanligini bilmasdan yoki bilishi ham lozim bo'lмаган paytda, u mulkni egallab olishga bo'lган huquqi yo'qligini bilmasdan yoki mulk huquqining egasi bo'lмаган shaxsdan, uni mulk huquqining egasi deb tasavvur qilib sotib olishlik oqibatida biror ashyoni qo'lga kiritish.

Insofli egallovchi mulkning o'g'irlangan ekanligini bilmaydi, u davlat yoki bozor tomonidan o'rnatilgan narx asosida sotib oladi va biron-bir shaxsning mulkiy huquqi buzilayotganligini ham tasavvur qilmasdan ashyoni o'ziga o'tkazib oladi.

Insofsiz egallovchi deganda, mulkning, ashyoning yoki biron-bir ob'yeqtning kimlarga taalluqligini bila turib, ularga g'araz sifatida yoki huquqlarini buzhish asosida, balki bozor narxidan past narxda (o'zaro kelishiladi) sotib olishlik asosida egallab olgan shaxsga tushuniladi. Demak, bu munosabatda insofsiz egallovchi insofsizlik asosida, o'z manfaatini ko'zlab, boshqa shaxslarning erkini, manfaatini, huquqlarini cheklab

harakaatlarni amalga oshiradi. Mulkni egallovchalarini insofli yoki jismoniy egallovchilarga bo'lislilik, ularga qo'llaniladigan huquqiy rejim bilan bog'liqidir, ya'ni insofsiz egallovchidan egallangan mulkni to'liq asosda qaytarib olishlik hamda uning hosil va daromadlarini ham undirib oliblit. uchun qat'iy javobgarlik shakllari o'rnatilsa, insofli egallovchi uchun yenilroq huquqiy rejim qo'llaniladi.

Darhaqiqat, Rim huquqshunoslari egallahlikning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa elementlardan farqlari quyidagilardan iborat deb hisoblaganlar:

1. Egallahning (ya'ni ashyni, mulkni egallahlikka tushiрибди) birdaniga xuddi mulk huquqi egasi kabi o'z merosxo'tkaiga o'tkazilmasligi;
2. Egallah huquqini buzgan shaxsga, ya'ni insofsiz asosda mulkni egallab olgan shaxsning aynan o'ziga da'vo qilinishligi;
3. Egallah huquqi asirdan qaytib kelgan shaxsga xuddi muta huquqidek birdaniga o'tkazilmasligi;
4. Mulk huquqi doimo da'volar orqali himoya qilinishligi, egalik huquqi esa interdiktlar asosida himoya qilinishligi, ya'ni jismonidan huquqni buzgan shaxsga, egallovchini beruvchi qilishligi to'grisida buyruq berilib, sud orqali buzilgan huquqlarini tiklashlikka ketadigan vaqtlarni e'tiborga olib qilingan harakatlardan iboratdir.

4-§. Egalik qilish va uning tugatilishi. Egallahni himoya qilish

Qadimgi Rim yurislari egalik qilishning vujudga kelish asoslu 'ai doimo corpus (korpus) hamda animus (animus) bilan bog'laganlar.

Ular, haqiqatdan ham egallahni konkret shaxsnинг ashygaga bo'igan huquqlarining ya'ni jismoniy egallah erkini xuddi o'z inulkiga bo'lgan munosabatidek qarash asosida, xohish va istakning birga vujudga kelganligiga tushenishgan, hamda ikkala elementning bir tomoni bo'lmasa, u egallahni tashkil etmasligini e'tirof etganlar.

Mulkni jismoniy egallahlik qiyinchilikni tashkil etmagan amma mulkni egallah erkinning ifodalanishini aniqlash murakkab bo'lgan va erkning izhor etilishining kelib chiqish asoclarni causa (asoslar) orqali aniqlash lozim bo'lgan, ayniqsa asoslarning nihoyatda ko'p bo'lganligida kelib chiqib, ularning har birini konkret voqelikka qarab aniqlash lozim bo'lgan.

Egallahning tugatilish asoslari, ashygaga bo'lgan corpus (uni jismoniy egallah)ning yoki animus (egallah to'grisidagi xohish, istak va erkning yo'qotilishi asosida; egallah ob'yekting shaxs hukmronligidagi chiqib ketishligi, ashyoning boshqa shaxslarga o'tib ketishligi, hamda egal-

lash ob'yekti(qul)ning o'limi yoki fuqarolik oborotidan chiqarilishi natijasida ham vujudga kelgan.

Bulardan tashqari Rim huquqida vakillik instituti yordamida homiyalar va vasiylar orqali ham egallash amalga oshirilgan.

Egalik qilish ashyoni egallagan shaxsning vafot etishi bilan tugagan bo'lishi lozim bo'lgan, ammo uning merosxo'ri pretorga murojaat qilib, egallash munosabatining yana davom etishini uzaytirishi mumkin edi.

Egalik qilishning o'tishi ko'pincha odat normalari, an'analar va boshqa usullar orqali, hamda mulkni o'z egaligida uzoq vaqt mobaynida saqlash orqali ham vujudga kelgan. Ya'ni, ushbu usullar orqali egalik qilish boshqa shaxsga o'tib ketishi mumkin edi.

Egalik huquqini himoya qilishlilikning asosiy maqsadi iqtisodda hukmron bo'lgan sinfnинг quidorlar, jreslar, magistratlar, pretorlar, bonitorlar va shunga o'xshash moddiy boyliklarga ega bo'lgan shaxslarning manfaatini qo'riqlashdan iborat bo'lgan.

Egalik huquqini himoya qilish interdiktlar, hokimiyat buyruqlari va pretor ko'sratmalari asosida ham amalga oshirilgan.

Egalik huquqini himoya qilish interdiktleri uch asosda amalga oshirilgan, ya'ni ilgari mavjud bo'lgan egalik huquqini saqlab qolishlik, buzilgan egalik huquqni qaytadan tiklashlik va dastlabki holatda vujudga kelgan egalik huquqini himoya qilishini kuchaytirish, mustahkamlashdan iborat bo'lgan. Bular:

1. Egalik huquqining amalda bo'lgan munosabatlarni qo'riqlashi, ya'ni egallab turgan shaxsni egallovchi deb tanib, boshqa shaxslarning tajovuz qilishiga yo'l qo'ymaslik;
2. Kuch ishlatish yoki bildirmasdan qonunga xi洛 ravishda boshqa shaxs tomonidan egallangan ashyoni, mulkni o'z egallovchisiga qaytarishlik;
3. Birinchi marta yoki dastlabki egallash bilan vujudga kelgan egalik huquqini interdiktlar va boshqa usullarda himoya qilish munosabatlari.

Interdiktarning qo'llanilishi sudsada ishni hal qilganga qaraganda juda qulay va tez asosda huquqlarni himoya qilgan, qo'riqlagan va ularning buzilishligini ma'muriy huquqlar bilan ta'qilagan. Bu yo'l Rim huquqida eng katta samaralarni bergen.

5-§. Mulk huquqi tushunchasi va turlarga bo'linishi

Rim fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan biri mulk huquqidir.

Rim davlatining sinfiy yuristlari, «Rim huquqini xususiy mulk huquqiga asoslangan huquq tizimidir» deb atagan edilar..

Shuni e'tirof etish lozimki, Rimliklar birinchi bo'lib cheklanmagan xususiy mulkchilik huquqini, ya'nı xususiy mulk asosiga ega bo'lgan eng mukammal huquq shaklini ishlab chiqqanlar va rivojlantirganlar.

Rim huquqida mulk huquqi instituti muhim institut hisoblanib, Rim fuqarolik xususiy huquqining rivojlanish bosqichlaridan boshlab, ularga tayangan holda barcha shaxslar o'z munosabatlarni amalga oshirishgan. Hatto barcha mulkiy munosabatlarda, ayniqsa shartnomalni munosabatlarda ya'nı olish-sotish, qarz shartnomalarida, oila, merosxo'rlik va boshqa institutlar faoliyatining mulkiy asoslarini tashkil etadigan huquqiy institut bo'lib tanilgan.

Rim davlatining sinfiy davridagi mulkchilik munosabatlari yerlarni va qullarni idora etishda oliv hukmronlikning ifoda etilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Rim huquqshunoslari quldarlik tuzumining sinfiy davriga qadar, mulkning umumiyligi tushunchasini aniqlay olmaganlar va egalik qilish elementidan ham ajratib ololmaganlar.

Rim davlatining vujudga kelishligi natijasida Rim davlatida istiqomat qilib turgan barcha fuqarolarga umrbod, meros qoldirish asosida foydalarishni ko'zda tutib yer (ikki yuggerdan - hozirgi 8 hektar) berilgan. Ayniqsa, ular Rim davlati harbiy qudratining yanada kuchayishi natijasida boshqa davlatlarning yerlarini ishg'ol (okkupasiya) qilib, qo'lga kiritib katta-katta hududlarga ega bo'lganlar.

Rim davlatini boshqarib turgan quldarlar, magistrlar, jreslar, bonitor va pretorlar yoki iqtisodni o'z qo'liga olgan boylar, bu yerlarning ko'p qismlarini egallab olganlar va qabul qilingan agrar qonunlarga asosan, yerga bo'lgan xususiy mulkchilik huquqi vujudga kelib yanada mustahkamlangan.

Qadimgi Rim davlatining huquqlarida mulkni ifodalaydigan maxsus tushuncha mavjud bo'lмаган. Mulk deganda, iqtisodiy munosabatlarni ko'proq iste'mol qilish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ashyolarga, tabiat boyliklariga tushunilib, eng qadimgi dominium (dominium) «hukmronlik» degan ma'noni anglatib, umumiyligi asosda, barcha vujudga kelgan mulkiy munosabatlarga qo'llanilgan. Rimliklar bu tushunchaga kviritlar so'zini qo'shib «kviritlar mulki» degan ma'noni ifodalashga harakat qilganlar.

Rim huquqiy munosabatlarning yanada takomillashishi natijasida yuristlar eramizning II asrlariga kelib, ayniqsa mashhur yurist Yulian «dominium» tushunchasini «ashyolarga bo'lgan huquq» deb isbotlab berган, lekin ashyolarga bo'lgan mulkiy huquqni proprietas (proprietas) deb ham e'tirof etganlar.

Shu bilan birgalikda, Rim yuristlari mulk huquqining o'ziga xos xususiyatlarini, sifatlarini to'liq aniqlab berdilar.

Ular mulk huquqining o'ziga xos xususiyati va sifati so'zsiz, ashyoga bo'lgan hukmronlikning mutloq amalga oshirilishligi va uni tasarruf etish

huquqiga ega bo'lishlik, ya'ni sotishlik, almashtirish, ijaraga berish, garov sifatida mulkni yo'q qilish va boshqa munosabatlarni amalga oshirishlikni ta'miniash deb tushunganlar, hamda mulk huquqini asosini, tarkibini nimalar tashkil etishligini ham belgilab berganlar.

Rim yuristlari mulk huquqi va uning tarkibiy qismlari quyidagi larda ega bo'lishligini talqin qilganlar:

1. Mulk huquqi - bu ashylolar ustidan to'g'ridan-to'g'ri bevosita hukmronlik qilish va uni tasarruf etishlikdir;
2. Ashyolarning boshqa shaxslarga taalluqligini yo'qotadigan, ashyo haqida nizolar bo'lmasligini ta'minlaydigan, o'ziga xos bo'lgan hukmronlikni amalga oshirishdir;
3. Ashyolarga bo'lgan boshqa munosabatlardan farq qiladigan mutloq huquqiy hukmronlikni ta'minlaydigan munosabat;
4. Ashyolarga bo'lgan chegaralanishlarning, huquqbazarlik-larning tugatilishi bilan tezda hukmronlikni or'nata oladigan, hamda shu hukmronlikka moslasha oladigan harakatlarni amalga oshirishdir;
5. To'liq huquqiy ashyo sifatida, ya'ni hech qanday majburiyatlar bilan bog'liq bo'lмаган, faqat ashyonni mutloq asosda egallab olishlik istagini ifodalaydigan munosabatdir;
6. Ashyo ustidan to'liq va to'g'ridan-to'g'ri hukmronlikni amalga oshirish, uni tasarruf etish, foydalanish va foydalisi xususiyatlarni, hosil, daromadlarini olishlikka bo'lgan huquqlarni amalga oshirish.

Rim huquqining rivojlanishida yerga bo'lgan mulkchilik muhim ahamiyatga ega bo'ldi, chunki, Rim davlatida yer asosan patrisiyalar qo'lida to'olanib, plebeylar esa kam yerga ega bo'lganligi uchun patrisiy va plebeylarning butun kurashining asosiy maqsadi ham yerga bo'lgan mulkchilik bilan bog'liq bo'lgan.

Respublikanlar davrida yerga bo'lgan mulkchilik shakllari, jamoa, davlat mulki va xususiy mulk bo'lib hisoblangan.

Yerga bo'lgan jamoa mulki, xususiy shaxslarning xususiy mulkidan ajratilgan.

Quldorchilik munosabatlarining, ayniqsa savdo munosabatlarining yanada rivojlanishi natijasida Rim fuqarolik huquqining institutlaridan biri xususiy mulk huquqi yanada takomillashib bordi. Rim davlatida istiqomat qiluvchi qullar, davlat tomonidan yoki ota hukmronligi asosida ajratilgan yerlardan o'zlarining mulki, urug'liklari bo'lмагани sababli foydalana olmas edi. Hatto yerkarni yana boy quldlorlarga sotishga majbur bo'lib, proletar huquqiy holatiga, ya'ni mulksiz, yersiz va faqatgina oilasidan farzandlar ko'rish bilan bog'liq boylikka ega bo'lish holatiga tushib qolardi.

Rim shahri atrofidagi yerlar, davlatga qarashli bo'lgan yerlar, qullar va hayvonlar Rim davlatining ko'chmas mulklari bo'lib hisoblangan.

Qadimgi Rim quldorlik davlatida eng birinchi, mahalliy mulklardan biri kviritlar mulki bo'lib hisoblangan. U vaqtla quldorlar, zodagonlar, yuqori tabaqa vakillari mulki qo'shilib ketmagan edi. Bu mulkiy munosabatda qatnashish faqat Rim fuqarolariga taalluqli bo'lib, ular fuqarolik-huquqiy munosabatlarida qatnasha olish huquqiga ega bo'lgan hamda shu munosabatda qatnashuvchi ob'yekeiting o'zi, ya'ni ashyo ham fuqarolik oborotidan chiqarilmagan, yoki oborotda qatnashish imkoniga ega bo'lgan holatda bo'lishligi taqozo etilgan.

Bunday mulklarga res mancipi (res mansipi) asosida qat'iy belgilangan ashyolar kiritilgan, ya'ni Italiya tuprog'i bilan bog'liq bo'lgan barcha yerlar, yer uchastkalari, qishloqdag'i pomestyelar (qishloq yer uchastkalari, hovlilari), shahar yerkari, qu'llar, to'rt oyoqli hayvonlar va boshqa mulklar kiritilgan hamda bu ashyolar qadimdan eng yuqori baholangan.

Yuqorida qayd qilingandek, Rim qadimgi jamiyatida dastlabki mulklardan biri kviritlar, bonitorlar, pretorlar mulki bo'lib hisoblanib, muqaddas mulk sifatida ularga nisbatan yuqori xarakterga ega himoya usuli qo'llanilgan. III asr oxiriga kelib bu mulklar birlashib ketgan.

Rim davlatida yashovchi peregrinlar mulki bo'limgan, ularning o'zlarini ob'yekt sifatida tan olingen. Ular qaysi davlatdan kelib qolgan bo'lsa, o'sha davlatning fuqarosi bo'lib o'z milliy rejimiga bo'ysungan. Ular Rim davlatida mulkka ega bo'lish uchun shartnomalarni tuzish orqali fuqarolik huquqiy munosabatlariga kirishib, huquq va burchlarga ega bo'lganlar.

Qadimgi Rim quldorlik davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy, ayniqsa huquqiy munosabatlarning yanada takomillashishi fuqarolik huquqiy munosabatlarning oldingi holatda turishligi, iqtisodda hukmron bo'lgan sinf uchun hech qanday samarani bermay qolgan. Ayniqsa, peregrinlarning savdo munosabatlarida, oborotda qatnashishi huquqlarini kengaytirish lozimligi natijasida ularning o'zlarini peregrinlar bilan ayniqsa tirik insonlar bilan shartnomalarga kirishishlik uchun bir qancha vakolatlar, ya'ni olish-sotish shartnomasini tuzish, bitimlar tuzishlik va sivil huquqiy munosabatlariga kirishishlik uchun imkoniyatlar yaratib berishlikka majbur bo'lganlar.

Rim quldorlik davlatidagi mulklarning eng yuqorisi, muqaddas mulk - bu Rim davlatining Yevropa va Osiyo davlatlaridan bosib olgan provinsiyalari, yerkari, qimmatbaho boyliklari va qu'llari hisoblangan. Bosib olgan provinsiyalardagi aholiga o'z mulklarining egalari sifatida o'zlarini qoldirib, yerni egallash, foydalanish va uning hosil, daromadlarini olishligiga ruxsat etilgan.

Rim davlati o'zini barcha mulklarning birdan-bir egasi va vakolatli shaxs deb hisoblab, provinsial mulklar bo'yicha mutloq vakolatga ega edi. Ya'ni Rim shahridan chiqarilgan kolonistlarga, veteran, soldatlarga yer ajratib berish huquqiga ega edi.

Provinsial mulkka ega bo'lgan shaxslar (*Ispaniya, Osiyo davlatlari uida*) senatorlar, chavandozlar, ya'ni Rim xalqining yuqori tabaqalari bu yerlarni o'zlashtirib, possessor huquqiga ega bo'lib olardilar, ularni yerni egall-ovchilar deb atashgan, shundan kelib chiqib ularning vakolatlari mulkdor vakolatidan ya'ni mulk huquqining egaligidan hech farq qilmagan.

Provinsial mulkining o'ziga xos xususiyatlari shular ediki, birinchidan, bu mulk uchun soliq to'laganlar. (Italiya yerlarini egallagan shaxslar esa soliqqa tortilmaganlar).

Ikkinchidan, provinsial mulkchilik munosabatlari sivil huquqlari biman boshqarilmasdan peregrinlar huquqlari asosida boshqarilgan.

• 6-§. Xususiy mulk huquqi tushunchasi va mazmuni

Mulk huquqi deb - ashyoga bo'lgan keng ma'nodagi huquqiy vakolat-larga ega bo'lishlikka tushunilgan. Rim huquqshunoslari xususiy mulknii «muqaddas mulk» deb tanigan bo'lsalar ham, lekin uning tushunchasini to'liq yoritib bera olmaganlar.

Xususiy mulkning daxlsizligini hamda uni ta'minlash, va kafolatlash huquqlariga qadimgi Rim davlatida nihoyatda katta e'tibor berilgan.

Bu tamoyil hozirgi yuqori darajada rivojlangan burjua davlatlarida hamda MDH davlatlarining ko'pchiligi qonunlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasining 2-qismiga muvofiq «Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin»¹.

Xususiy mulk daxlsizdir. Rim huquqshunoslarining mulk haqidagi fikr va mulohazalari, ayniqsa, «mulk muqaddas» deb atagan tamoyillari barcha burjua davlatlarida, hatto ijtimoiy kuchli siyosat olib borayotgan davlatlarda, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 164-moddasida «Mulk huquqi muddatsizdir» degan huquqiy norma o'z ifodasini topdi². Mulkka nisbatan musulmon huquqida ham shunday qoida nazarda tutilgan. Unda mulk muqaddas deb e'lon qilinib, uni birov-larning g'ayriqonuniy egallab turishidan talab qilib olish uchun da'vo muddati nazarda tutilmagan.

Rim huquqshunoslari mulk huquqining tushunchasini to'liq yoritib bera olmagan bo'lsalarda, mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan elementlarni to'la ta'riflab bera olganlar.

Ularning fikriga asosan, mulk huquqi mazmunini tashkil etadigan vakolatlari (elementlari) quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. ius utendi - ashyodan foydalanish huquqi, (yus utendi);
2. ius fruendi - ashyoning foydali xususiyatlarini, hosil va daromadlarini olish, (yus pruyendi);

¹ Узбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Адолат, 1999. 36 ва 53-моддасининг 2-қисми.

3. ius abutendi - ashynoni tasarruf qilish huquqi, (yus abutendi) kabi asosiy elementlardan tashkil topgan.

Rim huquqshunoslari bu elementlarga mulk huquqining mazmunini to'liq tushunib yetishlik uchun yana ikkita elementni qo'shishgan.

1. ius possidenti - ashynoni egallash huquqi, (yus possidendi);

2. ius vindicandi - ashynoni qonunsiz egallab turgan shaxsdan mulknaytarib olishlik huquqi, (yus vindikandi).

Rim huquqshunoslari hatto bu 5 element to'liq asosda mulk huquqining mazmunini ochib bermasligi mumkin, chunki mulk huquqining egasi, o'z mulkidan qonunlarga zid bo'limgan holatlardan barchasidan foydalanish huquqlariga egadirlar, deb e'tirof etganlar. Ammo qancha vakolatlarga xususiy mulk sub'yekti ega bo'lmasin, baribir bu huquqning to'liq mazmuni ochilmay qolgan.

Xususiy mulk huquqiga ega bo'lishlik deganda, huquqning vujudga kelishiga sabab bo'lgan faktik holatlarga tushunilib, ularni mulk huquqining vujudga kelishini bildiradigan usullar deb ham aytilgan va ular quyida gildardan iborat bo'lgan:

1. Dastlabki usul asosida, ya'ni mulkka nisbatan egalik huquqi hech kimga qarashli, tegishli bo'limgan mulknayegallash asosida birinchi vujudga kelishligi;

2. Hosila usuli - aniq bo'lgan shaxs tomonidan mulk huquqining boshqa mulk egasiga o'tkazilishi yoki huquqni qabul qilib olish huquqi asosida vujudga keladi. Bu usul ashyo dastlabki egasidan rozilik asosida ikkinchi sub'yektga, ya'ni mulk huquqining yangi sub'yektiga o'tish jarayonidan iborat bo'lgan.

Ayniqsa, Rim huquqida dastlabki usul asosida mulkka egalik qilish maxsus xarakterga ega bo'lgan. Egasiz mulknayegallash, mulknayqo'shilishi yoki aralashib ketishi natijasida, mulkka qaytadan ishlov berish oqibatida, hamda foya va hosillarni yig'ish asosida va mulkka egalik qilish mud-datining o'tib ketganligi natijasida, mulk huquqi kelib chiqsa, dastlabki usul asosida mulkka egalik qilish, deb e'tirof etilgan. Bu usulda huquqni beruvchi shaxs noaniq, hatto yo'q bo'lishi ham mumkin, degan xulosaga borilgan.

Hosila usulida ashyo an'anaviy asosda (traditio), ya'ni ashynoni qo'ldan-qo'lga o'tkazishlik yoki ashynoni berishga, boshqa shaxsga o'tkazishiga katta e'tibor qaratilib, ashynoning sotib oluvchiga o'tkazilishi mulk huquqini keltirib chiqargan. Lekin ashylarni, berishlik yoki o'tkazishlik hamma vaqtida ham mulk huquqining egaligini keltirib chiqarmagan, ba'zi holatlarda esa egallab turish yoki ushlab turishlik munosabatlardan ham iborat bo'lgan.

Mulk huquqining vujudga kelishligi uchun albatta mlukdrda ashyyoga nisbatan mulk huquqining egasiman, degan xohish, istak namoyon bo'lishi lozim bo'lgan.

Rim huquqshunoslari «an'ana»ni (traditio) - hosila usulini mulkka ega bo'lish usuli sifatida ko'p qo'llab, quyidagiga ta'riflaganlar:

An'anaviy usul deganda, bu bir shaxsdan ya'nii mulk egasidan (mulkdordan), ikkinchi shaxsga shartnomalar asosida, haq baravärigä (ba'zan haqsiz) mulk huquqining egaligini o'tkazilishlikka tushunilgan. Albatta, bu munosabatda ashyoga bo'lgan mulk huquqini ikkinchi shaxsga o'z xohish, istagi bilan o'tkazishlikka tushunilgan va unda xohish, istak mulkni o'tkazish uchun asos bo'lib hisoblangan.

Dastlabki usulda ashyoni, mulkni, yerni, tabiat boyliklarini egallab olishlik yoki egasiz mulkni birinchi bo'lib, o'ziga o'tkazib olishlikka katta e'tibor qaratilgan. Masalan, yovvoyi hayvonlarni, baliqlarni yoki mulk egasining roziligi bilan unga keraksiz bo'lgan ashyolarini egallahash boshqa kabi munosabatlardir.

Xususiy mulk huquqi ob'yektlarini egallahashlik chegaralanmagan.

Qadimgi Rim quldorchilik jamiyatida umumiy mulk ham mavjud bo'lgan.

7-§. Umumiy mulk huquqi

Qadimgi Rim huquqida yuristlar umumiy mulk huquqi bir ob'yektga yoki bir ashyoga tegishli bo'lisligi mumkin emas, degan dastlabki tushunchalarga ega bo'lganlar.

Lekin Rim davlatining iqtisodiy-ijtimoiy munosabat-larining rivojlanishi va takomillashuvi natijasida hamda shartnoma amaliyotidan kelib chiqqan holda, ayniqsa o'rtoqlik birlashmalarining va boshqa korporasiylarning shartnomali munosabatlari, umumiy asosda bir necha shaxslarga taalluqli bo'lgan merosning bo'linmasligi tartiblari, har bir shaxsning umumiy mulkdagi hissalarini aniqlash, mulkning kimga taalluqli ekanligini e'tirof etish munosabatlari umumiy mulk huquqi institutining vujudga kelishligini taqozo etgan.

Qadimgi Rim yuristlaridan K.V.Musiy Ssevola bir mulkning, ashyoning bir necha shaxslarga taalluqli bo'lisligini tan olib, har birining ideal hissalarga ega ekanligini isbotlab bergen.

Yurist Selsaning o'g'li Selz fikricha, ikkala shaxsning yoki bir necha shaxslarning bir mulkka nisbatan umumiy mulk huquqi bo'lishi mumkin emas. Hech qanday shaxs bir predmetning ma'lum qismiga mulkdor bo'lishi mumkin bo'lмаган, ammo shu ashyoga, mulkka har bir shaxsning ideal asosda hissasi bo'lishi yoki bo'linmaydigan mulkka nisbatan mulk huquqi bo'lishi mumkin, deb hisoblagan.

Umumiy mulk huquqi deb, Rim fuqarolik huquqida bir ashyoning bir nechta sub'yektlarga birgalikda taalluqli ekanligiga tushunilgan. Umumiy mulk o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan:

1. Foydalanish maqsadiga munosib bo'lishini o'zgartirmaydigan holda taqsimlanishi mumkin bo'lмаган yoki qonun bo'yicha

- taqsimlanishi mumkin bo'lмаган, иккى yoki undan ortiq shaxslarning mulk huquqiga o'tgan mol-mulk birgalikdagi umumiy mulk deb atalgan (ob'ekt sifatida bo'linmaydigan ashayolar kiritilgan).
2. Mulk huquqi egalaridan har birining, ularning tegishli bo'lган umumiy mol-mulkdagi ulushlari aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa, bunday mol-mulkka tegishli huquq ulushli (hissalarga) bo'linadigan umumiy mulk huquqi deb atalgan.

Umumiy mulk huquqi unga ega bo'lган barcha qatnashchilar yoki sub'yeqtlar bilan birgalikda kelishish asosida boshqarilgan. Har bir shaxsning umumiy mulkka qo'shgan hissalarini har xil bo'lган. Qo'shgan hissalariga qarab olinadigan foydalarni taqsimlaganlar va zararlar kelib chiqsa, har bir shaxsning qo'shgan hissasiga qarab, mutanosib asosda zararni qoplaganlar.

Umumiy mulk ikki qismiga, ya'nii ulushga bo'linmaydigan birgalidagi hamda ulushlarga bo'linadigan mulklardan iborat bo'lган.

Umumiy mulk huquqi muayyan mol-mulkka nisbatan bir nechta sub'yeqtarning mavjudligi hamda tegishliligi bilan ifodalangan.

Bu mulkning sub'yeqtleri bir necha shaxslardan iborat bo'lar ekan, ular boshqa sheriklari, ya'nii sub'yeqtlarining roziligidini olmasdan biron-bir harakatni amalga oshira olmas edi. Lekin har bir sub'yeqt, umumiy mulkdagi bo'lган ulushidan kelib chiqib, o'z ulushini qaytarib olishi yoki boshqa shaxslarga o'tkazishi, mulkni bo'lish kabi munosabatlarni amalga oshirishni talab qilish huquqiga egadirlar. Umumiy mulk huquqining qatnashchilarini umumiy mulkdan har biri o'zining qo'shgan ulushiga qarab unga egalik qiladi hamda foydalinish huquqiga egadirlar.

Rim quldorchilik davlatining sinfiy davriga kelib, umumiy mulk huquqi sub'yeqtleri umumiy mulk asosidagi mavjud bo'lган munosabatlarni o'zları qo'shgan hissalarini asosida yoki miqyosida boshqaruvni amalga oshirganlar hamda unga o'zgartirishlar kiritilishi lozim bo'lsa, boshqa sheriklarning ruxsatini olingen holda tartibga solinardi. Bu holda ozchilik ko'pchilikka bo'yusunardi. Shu davrning mashhur yuristi Sabin shunday degan edi: «Umumiy mulk huquqiga oid bo'lган mulk yuzasidan, ashyo bo'yicha taraflarning roziligidisiz hech qanday munosabatlarni amalga oshirish mumkin emas, chunki bu mulkiy huquqning boshqa sub'yeqtleri o'z roziligidini bermasalar, ular ta'qilash prinsipini amalga oshirish huquqiga egadirlar».

8-§. Sharhnomalar bo'yicha mulk huquqining vujudga kelishi

Qadimgi Rim huquqida rimliklar mulk huquqining vujudga kelishini tarixiy belgilariga yondashib, sivil huquqlariga va xalqlar huquqlariga taalluqliligin e'tirof etganlar.

Unga asosiy dalil sifatida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga mulkning hosila asosida o'tishi (ko'pchilik holatlarda shartnomalar orqali) hamda dastlabki, ya'ni egasi bo'limgan, biror-bir shaxsga shaxs tomonidan egal-lanmagan ashyoga nisbatan birinchi marta huquqning yoki egalikning vujudga kelishi ko'satilgan.

Rim huquqida yuqorida yoritilganidek, ashyoga, mol-mulkka ega bo'lish dastlabki va hosila asosida vujudga keladigan usullarga bo'lingan.

Rim imperatorlarining qonunlariga, farmoyishlariga va pretorlarning qarorlariga hamda boshqa huquqiy hujjalarga asosan qonuniy doirada shaxslar tomonidan o'zi uchun yaratilgan, o'z mehnati asosida ishlangan ob'yekt, ashyo, mahsulot o'zlariga nisbatan daslabki egalik huquqini keltirib chiqargan.

Rim fuqarolari o'z mulkiga nisbatan o'ziga bog'liq bo'limgan holda egalik huquqini yo'qotgan bo'lsa yoki o'z ashyolarini, mulkini tashlab yuborgan bo'lsa va o'z ixtiyoridan chiqib ketgan bo'lsa qonuniy asosda egal-lash natijasida mulk huquqi vujudga keladi. Bu vujudga kelgan egalik huquqi boshqa shaxslarning egalik huquqi bilan butunlay bog'liq emas, ana shunday ashyoga, ob'yektlarga, mulkka bo'lgan egalik huquqining vujudga kelishi dastlabki usul asosida mol-mulkka egalik huquqining vujudga kelishi deb tushuniladi.

Dastlabki usuldan tashqari mulkka bo'lgan egalik huquqining vujudga kelishi hosila usulida ham amalga oshirilgan. Mulkka egalik qilish huquqining hosila usuli deganda - mol-mulk, ashyo yoki biror ob'yekt shaxslardan shaxslarga kelishuv, shartnomalar asosida qonun-qoidalarga rioya qilingan holda egalik huquqi birinchi sotuvchidan oluvchiga ixtiyoriy asosda belgilangan narxni to'lash asosida o'tkaziladi. Bunday hollarda mol-mulk o'zining dastlabki sifatini yo'qotmaydi, faqat sub'yektlar o'zgaradi xolos. Ya'ni sotuvchi ushbu ashyoga mol-mulkka nisbatan mulk huquqi egaligini yo'qotadi, sotib oluvchi esa yangi mulk huquqining sub'yekti bo'lib hisoblanadi.

Huquq va burchlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi huquq vorisligi deyiadi. Mulk huquqining vorislik bo'yicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi hosila usuli doirasida amalga oshadi.

Rim huquqi mulk huquqining vujudga kelishini doimo yangi narsalarni yaratish, o'zlashtirilmagan tabiat boyliklariga ega bo'lish kabi munosabatlar bilan ko'proq bog'lagan. Ayniqsa, mulk huquqiga ega bo'lishning eng asosiy va ko'p qo'llaniladigan hamda oddiy usulda amalga oshiriladigan turini, ya'ni shartnomalar tuzish asosida mulk huquqining vujudga kelishiga katta e'tibor qaratilgan.

Mulk huquqini shartnomalar asosida o'tkazish deb, rimliklar «shaxslar o'rtaasida biror-bir ashyoni, mulkni bir-biriga shartnomalar, bitimlar asosida, meros tariqasida, vasiyatnomalar va qonunga binoan merosxo'rlik munosabatlarini qo'llagan holda tirik shaxslar bilan birgalikda qilingan

harakatlar ya'ni o'tkazish, berish, ashynoni topshirish yoki unga ega bo'lish layoqatlari»ga tushunishgan.

Bulardan tashqari, mulk huquqiga ega bo'lismga qonun bilan nazarda tutilgan yuridik faktning vujudga kelishi, mulkka egalik qilish uchun asos mulk huquqini vujudga keltiruvchi muddat, yoki uning o'tib ketganligi va boshqa huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi harakatlar ham asos bo'lgan.

Rim davlatining sinfiy davrida shartnomalarda mulkka egalik qilish huquqining vujudga kelishi uchta usul asosida amalga oshirilgan. Bu usullar mansipasio, inyurechessio va tradisiolarga bo'linib har biri o'zining mazmunlariga, mulkni o'tkazish usullariga ega bo'lgan.

Imperator Yustinian davriga kelib mulkka egalik qilish huquqining usullaridan traditio (an'anaviy) usuli keng tarqalgan. Bu usulning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, mulkni o'tkazuvchi shaxs yoki sotuvchining bo'lishi hamda u o'tkazayotgan yoki sotiladigan ob'yektga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lishi shart bo'lgan, shuningdek, o'ziga o'tkazib olayotgan shaxsnинг yoki sotib oluvchining bo'lishi lozim edi, ya'ni sub'yektlari bo'lishi shart bo'lgan. Agar ulardan biri mulk huquqining egasi bo'lib hisoblanmaydigan taqdirda, bunday harakat mulk huquqining egaligini yangi sub'yekti keltirib chiqarmagan.

Shartnomalar asosida mulk huquqining vujudga kelishi uchun tomonlarning o'zaro erklari bayon qilinishi, ya'ni roziliqi bo'lishi hamda mulknинг mavjud bo'lishi, unga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishini amalga oshiradigan munosa-batlarning yuzaga kelishi shart bo'lган.

Rim davlati huquqida sinfiy davr mobaynida mulk huquqiga ega bo'lism usullaridan biri aytib o'tganimizdek, tradisio hisoblanib, bu usul eng qulay, oddiy va norasmiy xarakterga ega bo'lganligi uchun boshqa usullardan farq qilib, eng asosiy usul bo'lib qolgan.

An'ana usulida mulk huquqi ashynoning faqat adolatli, ya'ni qonuniy asoslarda mavjudligi sharoitida amalga oshirilgan. Mansipasio usuli bu qadimgi usullardan va kviritlar huquqiga taalluqli bo'lib, mulkni, ashynoni beshta guvoh oldida kelishilgan narx asosida torozibon ishtirokida bu jarayon amalga oshirilib, xuddi olish-sotish shartnomasiga o'xshash bo'lgan qoidalar asosida vujudga kelgan.

9-§. Mulk huquqini himoya qilish

Qadimgi Rim quldorchilik davlatida mulk huquqini himoya qilish usullari o'zining kelib chiqish manbalariga qarab, ya'ni odat huquqiari, sivil va pretorlar huquqlari, ularning yo'nalishi va turlariga asoslanib har xil bo'lgan.

Mulk huquqini himoya qilish usullari sinfiy davrda, dominiat davrlarida, Yustinian qonunlariga asosan o'zgarib, har bir davrning qonunqidalariga moslashtirilib borilgan.

Mulk huquqini himoya qilishlikning eng assosiy usuli vindikasion da'vo asosida himoya qilishlik bo'lib hisoblangan.

Vindikasion da'vo eng avvalo, prosessual huquq normalari bo'lib, rei vindicatio (kuchimni ishlatishlik to'g'risida e'lom qilaman - vim dicere - kuch ishlataman) degan qadimgi tarixiy ma'nolarni anglatgan. Rim huquqining yanada takomillashib borishi natijasida prosessual normalar bilan birqalikda moddiy-huquq normalalar ham rivojlanib, o'zgarib, oxiri moddiy-huquqiy normalardan tashkil topgan vindikasion da'voga aylangan va fuqarolik (moddiy huquqda) bu eng assosiy da'vo turlariga kiritilgan.

Vindikasion da'vo - mulk egasining rozigisiz boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy asosda mulkni, ashyni egallab olishlik deb tushunilgan.

Bu da'veoning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Da'vo qilishlik mulk huquqining sub'yektidan (egasidan) - kim tomonidan egallangan bo'lsa, ushlab turuvchi yoki egalik qiluvchi shaxslarga, hatto ularning insofli yoki insofsiz egallovchilar bo'lishidan qat'iy nazar ashyni, mulkni egallagan shaxsga da'vo qaratilar edi;
2. Da'vo ashvoyiy xarakterga ega bo'lib, egallagan shaxsga yoki egalab olaman, degan maqsadni, erkni izhor etgan shaxsga qaratilgan;
3. Da'vogar tomonidan da'vo predmeti, uning ob'yekti ko'chmas va ko'chirilishi mumkin bo'lgan yoki mumkin bo'lmasligini aniq ifodalab, da'vo arizasida ko'rsatilishi lozimligi talab etilgan;
4. Rim davlati sinfiy davrining oxirlaridan boshlab, vindikasion da'vo asosida mulkni «ushlab turuvchi»dan ham talab qilib olishlikning boshlanganligi;
5. Javobgarning da'vo arizasini qanoatlantirishi hamda ko'chirish to'g'risida interdiktning qo'llanishi, agar da'vo ko'char va ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, pretor buyrug'i asosida ashyni topshirish yoki ashyni, mulkni tortib olib qo'yishlik, hamda ob'yektni olib ketishlik munosabatlari;
6. Da'vogarning prosessni yutib chiqqandan keyin, da'vo qilgan paytidan boshlab, bo'lgan mulk yoki ashylarni shu paytning o'zidayoq o'ziga o'tkazib olishligi;
7. Insofsiz egallovchidan mulkdan olingan hosil va daromadlarini ham qaytarib olishlik to'g'risida talab qilinishligi;
8. Javobgarning da'veoni yutqazib qo'ygandan so'ng uning ijrosini kechiktirayotganligi yoki sekinlashtirayot-ganligi uchun jarimalar qo'llash huquqlarining mavjudligini;

9. Mulk huquqi egasining mulkni egallash elementi yoki mulkning to'liq qonunsiz egallovchiga o'tib ketganligi natijasida undan foydalana olmaslik, tasarruf eta olmaslik munosabatlarining chegaralanishi;
10. Rim davlatining sud prosessida, ya'ni formulalarga asoslangan prosessda, hamida petitor da'volariga asosan, javobgarni ashyni qaytarib bermasdan, uning o'niga ma'lum bir ekvivalent yoki pul summasi bilan to'lashlikning ham e'tiborga olinishi va bunda da'vogarning qasamyod qilishi natijasida ashynoning qiymati bahanishligi.

Vindikasion da'voda mulkni, ashyni noqonuniy egallab olgan shaxs, insofli egallovchi bo'lsa, uning javobgarligi biroz yumshatilgan asosda amalga oshirilgan. Undan faqat da'vo talablari joriy etilgan kundan boshlab, insofli egallovchining o'z qo'lida bo'lgan mulki uchun u javobgar bo'lgan.

Insofli egallovchi o'zi tomonidan hazm qilingan mulklar, ashylar bo'yicha javob bermagan. Ammo hosil va daromadlari saqlanib qolgan bo'lsa, (masalan, omborxonada ikki yashik olma saqlanib qolgan bo'lsa, uni insofli egallovchi qaytarishi lozim bo'lgan) o'zini mulk huquqining egasi sifatida ko'rib, keltirilgan zararni his etib, uning oqibatini o'ylab qaytarib berishi lozim bo'lgan.

Insofli egallovchi tomonidan egallagan mulkni yaxshilash uchun harajatlar qilingan bo'lsa, bu harajatlarni mulk egasi qaytarib berishligi lozim edi hamda mulkning holatini, mohiyatini buzmasdan biror ashyo q'shilgan bo'lsa, ushbu ashyni alohida ajratib olib ketishlikka ruxsat berilgan.

Noqonuniy asosda egallangan mulkni noinsof (insofsiz) shaxs bu mulkning kimga taalluqligini bilib, o'zining manfaatini ko'zlab, balki arzon narxda sotib olib, mulkdan, ashydan foydalanadi. Unga da'vo qaratilgan paytda, da'vo predmetining insofsiz egallovchi tomonidan mulk egallangan kundan boshlab, da'vo talablari joriy etilgan kunga qadar, bo'lgan mulkning o'zini, hosil, daromadlarini to'liq asosda to'lattirib olishlik huquqini amalga oshirish, hamda javobgar tomonidan mulkni yaxshilash uchun qilingan sarf-harajatlarni ham qaytarib bermaslik munosabatlari doirasida amalga oshiradi.

Ulardan tashqari, agar ashyni saqlash natijasida undan maqsadga nomuvofiq asosda foydalangan bo'lsa, undan keladigan yoki olinishi mumkin bo'lgan daromadlarni ham yoki mulkka yetkazilgan zararlarni ham to'liq qoplashligi lozim bo'lgan. O'grilarga esa hech qanday sarf harajatlar berilmagan, ulardan aksincha, barcha olingan hosil va daromadlar, hamda mulkdan ehtiyyotkorona, tejamlik asosida foydalanishi lozimligini e'tiborga olib, olinishi lozim bo'lgan ashylarni, mulkni ham qaytarishlik talab qilingan.

Rimdag'i mulk huquqlarini himoya qilishlikda vindikasion da'voda tashqari negator, progibitor va publikanlar da'vo turlari ham mavjud bo'lган.

Negator da'vo (actio negatoria - aksiya negasoriya) - mulk huquqining sub'yekti o'z mulkidan foydalanishni o'z istagi, xohishi va hukmronligi bo'yicha foydalana olish imkoriyatidan mahrum bo'lish yoki uning chegaralanishiga aytildi.

Mulkdor o'z huquqining elementlaridan biri foydalanish elementini to'liq amalga oshira olmaydi.

Negator da'vo bu mulkdorning egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lмаган huququzarliklardan himoya qilish munosabatlari bo'lib, bu da'vo mulk huquqining egasidan, qonunsiz ravishda boshqa shaxs tomonidan mulkdorga tegishli bo'lган mulkidan maqsadga muvofiq foydalanishlikni chegaralab qo'yilishidan kelib chiqqan.

Bunday holatda, mulkdor bu chegaralishlikni bartaraf etish uchun qonunsiz harakat qilib turgan shaxsga da'vo talablarini joriy etgan. Bu yerda mulkdor o'z mulkiga bo'lган va mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan beshta elementni ham saqlab qoladi, ammo foydalanish elementini chegaralaganligi uchun beshinchi elementdan to'liq foydalana olmaydi. Bundan kelib chiqib, u mulk huquqini himoya qilish elementiga asosan, chegaralagan harakatni yo'qotib, uni dastlabki buzilmagan holatiga keltiradi.

Mulk huquqining egasi foydalanish huquqining chegaralanganligi natijasida keltirilgan zararlarni chegaralagan shaxsdan qaytarib, to'lattirib oladi va kelajakda yanada foydalanish elementining chegaralanishiga yo'l qo'ymasligini talab etadi.

Progibitor da'vo negator da'vo bilan birgalikda vujudga kelib, «ta'qiqlash» degan ma'noni bildirib, o'z mulkining mustaqilligini ta'minlashda, o'zining «ta'qiqlash», «ruxsat bermaslik», «man etishlik» huquqlarini, faqat o'zining yoki o'zi tomonidan amalga oshirishligini talab etadigan, boshqa shaxslarning bunga aralashishga yo'l qo'ymasligidan iborat bo'lган huquqiy munosabatlardir.

Publikanlar da'vosи deganda, bu da'vo yangi eramizdan ilgarigi 1 asrda vujudga kelgan bo'lib, mulkning, ashyoning egasi bo'lмаган shaxsdan insofli asosda mulkning boshqa shaxs tomonidan egallanilishligiga tushunilgan. Bu da'veni ba'zan petitor da'volari deb ham atalgan. Bu da'vening asl maqsadi - «huquq haqidagi da'vo»dan iboratdir.

Ular bonitorlar mulkini himoya qilishlikka qaratilgan da'volar bo'lib tanilgan va bu da'vo nihoyatda kam qo'llanilib, o'z mohiyatini asta-sekinlik bilan yo'qotib borgan.

2-bob. Boshqalar (begonalar)ning mulkiga bo'l-gan huquq

(iura in re aliena - yura in re aliyena)

1-§. Boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq tushunchasi va turlarga bo'linishi.

2-§. Servitutlar tushunchasi va turlari.

3-§. Emfitevzis tushunchasi va qo'llanish doirasi.

4-§. Superfisiy tushunchasi.

5-§. Garov huquqlari.

**1-§. Boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq tushunchasi
va
turlarga bo'linishi**

Qadimgi Rim quldorchilik davlatida ashyoviy huquqiy munosabatlar faqat mulk huquqi institutlaridan hamda egallashlikdan tashkil topmasdan, alohida maxsus ashyoviy huquqlardan ya'ni boshqalarning mulkiga bo'lgan huquqlardan ham vujudga kelgan. Bu huquqlarning mulk huquqidan farq qiladigan xususiyatlari, ularning predmeti to'liq asosda ashyo bo'lib hisoblanmasdan, ashyoning ma'lum funksiyalarini boshqarib tartibga solishlikdan iborat bo'lgan. Bu huquqlarni boshqalarning yoki begona shaxslarning mulklaridan yoki ularning ma'lum bir xo'jalik funksiyalaridan foydalanishlik deb, ham e'tirof etilgan.

Rim huquqshunoslari boshqalarning mulkiga bo'lgan huquqlarini, dastlab faqat yer bilan bog'liq bo'lgan servitutlarga qo'llaganlar.

Boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq hayot taqozosi asosida, mulk huquqining sub'yekti istamagan holatida ham, undan foydalanishi uchun noiloj asosda, ruxsat berishlikka tushunilsa-da, bu ko'proq quldorlar manfaatini ko'zlab, mulk huquqidan foydalanishni chegaralashga qaratilgan.

Qadimgi servitutlarga asoslanib, boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq quyidagi turlarga bo'lingan:

1. Servitutar;
2. Emfitevzis;
3. Superfisiy;
4. Garov huquqlaridan iborat bo'lgan.

2-§. Servitutlar tushunchasi va turlari

Servitutlar (iura rraediorum - yura prayediorum) dastlabki paytlarda faqat yerga bo'lgan servitutlarni e'tiborga olgan. Keyinchalik Rim shahrin-

ing gurkirab o'sishi va rivojlanishi natijasida shahar servitutlari, qurilgan uy-joylarga, hovlilarga ham qo'llanilgan.

Yer servitutlari asosan qo'shnilar bilan bog'liq munosabatlardan iborat bo'lib, ular devorlarining (ikki hovlining o'rta devori) bog'liqligi, ular-dan ikkala sub'yeqtning ham o'zaro kelishuvi asosida foydalanishligidan kelib chiqqan.

Qo'shnilar bu munosabatlarni amalga oshirishlik uchun shartnomaga tuzishib, ikkalasining ham manfaatini ko'zlagan holda undan foydalan-ganlar. Servitutlarni amalga oshirayotgan paytda 12 Jadval qonunlarida ko'rsatilganidek, hovlining devorini olayotgan vaqtida qo'shnining uchast-kasidan bir fut (30 sm.) uzoqroqdan devorni qurishlik, uy-joy qurilayotgan bo'lса ikki fut (60 sm.) uzoqroqdan fundament tashlashliklarga katta e'tibor qaratgan. Ayniqsa, qo'shnining hovlisiga, uchastkasiga o'tib ketgan daraxtning shox-novdalari olti futdan (1m. 80 sm.)dan oshgan bo'lса, uni kesishlik lozim bo'lgan. Agar mulk huquqining egasi bunday harakatlarni amalga oshirmsa, qo'shni uni butunlay kesib tashlash huquqiga ega bo'l-gan.

Rim yuristlari servitutlarni yer servitutlariga hamda shaxsiy servitut-larga bo'lib o'rganganlar.

Yer servitutarining o'zi esa qishloq va shahar servitutlariga bo'lin-gan. Bu servitutlar guruhiga yo'l, suvdan foydalanish servitutlari ham kiritilgan. Qishloq servitutlari nihoyatda keng qo'llanilgan hamda ular to'rt qismga bo'lingan:

1. Iter (iter) - yayov (piyoda) asosda, ulovda yoki nosilkalarga solib o'tkazishlik;
2. Actus (aktus) - hayvonlarni haydar o'tishlik (ayniqsa, echkilarni haydar o'tishlikda to'rtala tomonida ham qo'riqlovchilar, tartibga soluvchilar bo'lishi lozim bo'lgan, chunki echkilarni tabiatan sho'x bo'lganligi sababli, qo'shnining eksidan bir tishlay, degan hara-katni albatta amalga oshirishligini tasavvur etib, shunday talablar amalga oshirilgan);
3. Via (viya) - aravalarda hosilni, xashak va boshqa ashyolarni tashib o'tishlik;
4. Aquae ductus (akvaye duktus) - suvlarni o'tkazishlik kabi qismlarge bo'lingan.

Shahar servitutlari esa, qishloq servitutlaridan ancha farq qilardi va bu shaharning o'ziga xos bo'lishligidan kelib chiqardi:

1. Uyning oldiga yoki darvozasi ustuniga soyabon qilish va ayvonlar bilan yopish huquqi;
2. Qo'shnining devoriga ёг'ochlarni qo'yishlik, qo'shnining hududi-dan foydalanishlik (foydalanishlik qo'shni devorining yuzi to-moniga o'tib ketishligi mumkin bo'lmanagan);

3. Qo'shnining o'rta devoridan yoki tayanch ustunlaridan foydalanish, yomg'ir suvlarining qo'shni hovli orqali o'tishligi, qo'shni hovlisidagi jarayonlarni ko'rib o'tirishlik uchun deraza qurmaslik va shunga o'xshash shahar servitutlari kelib chiqqan va servitutlardan foydalanish qo'shnilarining o'zaro kelishuvi yoki tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirildi.

Rim huquqida servitutlar boshqalarning mulk huquqidan foydalanish imkoniyatini yaratuvchi hamda vujudga keltiruvchi, ta'minlab beruvchi va mulk egasi bo'limgan shaxsga xizmat qiluvchi, uning manfaatini amalga oshiruvchi huquq bo'lib, u qonun asosida yoki tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida vujudga keladi.

Qadimgi servitutlar asosan to'rt qismga bo'lingan:

1. Boshqa shaxslarning(qo'shnining) yer uchastkasidan katta yo'lga chiqishlik uchun kesib o'tishlik huquqi;
2. Sug'orish yoki o'tloqlarga mollarni haydab o'tishlik huquqi;
3. Aravalarga yuk ortish asosida, boshqalarning hovlisidan o'tish huquqi;
4. Yer uchastkalarini sug'orishlik uchun ariqni qazib, qo'shni uchastkasidan suvni o'tkazishlik kabi huquqlari mavjud bo'lgan.

Servitutlar legal qonunlar yoki normalar deb ham atalgan. Ular odat normalari asosida interdiktlar yoki da'vo talablarini joriy etishlik asosida himoya qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan da'volardan tashqari pretorlar tomonidan qo'llaniladigan ediktarda ko'rsatilganidek, yer servitutlari ya'ni suv, suv ichirishlik, yo'l hamda shaxsiy servitutlar bilan bog'liq huquqlarni qo'riqlashni egallah interdiktlariga o'xshash holda, pretorning qabul qilgan maxsus interdiktleri orqali amalga oshirildi.

Shaxsiy (predial) - servitutlar deb umr bo'yи boshqalarning mulkidan foydalanishga tushunilgan. Shaxsiy servitutlar uch qismga bo'lingan: uzufrukt, uzus va xabitasiolardir.

Uzufrukt - shaxsiy servitut bo'lib hisoblanib, eng keng miqyosda qo'shnilarining mulkidan foydalanish bilan birgalikda uning bergen hosil va daromadlaridan foydalanishlikka ham tushunilgan.

Uzufrukt asosida qo'shnilarining mulkidan foydalananotgan davr mobaynida, qo'shnining mulki o'z daxlsizligini va xo'jalik maqsadini, mulkidan maqsadga muvofiq foydalanishligini to'liq dastlabki holatidagidek saqlab qolishligi lozim edi.

Uzufrukt asosida foydalanuvchi shaxs o'ziga majburiyatlar olib, foydalanilayotgan mulkka bo'lgan munosabati, unga qarab turishlik, ashyoning doimiy foyda berib turishligini ta'minlab borishlik, o'z mulkiga bo'lgan munosabatidek, bu mulkka ham xuddi shunday qarashlik, tejamkorlik, zarar yetkazishdan himoya qilish va mulk egasi qaytib kelganida, bu

mulkidan foydalanish uchun mulkning, ashyoning o'zi yaroqli va tayyor holda bo'lisligi lozim bo'lgan.

Uzufruktidan tashqari usus asosida yoki usulida foydalanish ham mavjud bo'lgan.

Usus (uzus) usuli - bu ashyo yoki mulkdan kerakligicha (ya'ni o'z iste'moliga kerak bo'lgan qismi e'tiborga olinayapti), chegaralangan asosda foydalanishlikka tushunilgan. Usus usulida foydalanishlikda ashyonи boshqa shaxsga berishlik yoki o'tkazishlik, ularni qismlarga bo'lib tashlashlik yoki ijara ga berishlik, harakatlari man etilib faqat o'zining, oilasining manfaati e'tiborga olinishi lozim bo'lgan.

Habitatio (xabitasio) - butun umr bo'yи ashyan dan, mulkdan, ayniqsa, uy-joy, dala hovlisidan foydalanishlikka tushunilgan. Foydalanish maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozim edi.

Uzufruktlar ko'p qismlarga bo'lingan. Ular asosan foydalanish elementi ichida amalga oshirilgan. Ularda bu mulkni, ashyonи tasarruf qilish vakolati bo'lmagan.

Uzufruktarning tugatilishi, birinchidan, foydalanishning amalga oshirishlikdan voz kechish, rad etishlik asosida;

Ikkinchidan, uzufruktni amalga oshirayotgan shaxsnинг o'limi natijasida, yoki servitut ob'yekti bo'lgan ashyoning, mulkning, hovli-joyning sotilishi yoki asosi y o'lgan joy bilan qo'shilib ketishligi, meros tariqasida boshqa shaxsga o'tishi, hadya etishlik kabi munosabatlarning vujudga kelishligi bilan tugatilgan;

Uchinchidan, shaxsiy servitutlar ashyoning, mulkning yonib ketishligi, nes-nobud bo'lisligi, servitutni amalga oshirayotgan shaxsnинг aqli noraso bo'lib qolishligi yoki jismoniy kamchiliklarga uchrashi asosida ham servitut huquqining kuchi to'xtatilgan.

Bulardan tashqari servitutga berilgan mulkdan, ashyan dan uzoq vaqt davomida foydalanmaslik, ko'char mulklar uchun bir yil, ko'chmas mulklar uchun ikki yil davomida mulkdan foydalanilmasa servitutlar tugatilishi mumkin edi.

Serviturlarni himoya qilishlik munosabatlari xuddi mulk huquqidek, boshqa shaxslar tomonidan qonunsiz ravishda egallab olingan serviturlarni hamda kelajakda egallab olishlik xavfining oldini olishlik maqsadida dastlabki paytlarda, vindikasion servitut da'vosini qo'llaganlar, keyincha likka kelib esa konfessoriya da'vosi kelib chiqib, ushbu da'vo orqali buzilgan huquqlarini tiklaganlar.

Imperator Yustinian davriga kelib, har qanday shaxs tomonidan egal lab olingan mulkni qaytarib olishlik uchun, hatto servitutdan foydalanish huquqi bor-yo'qligidan qat'iy nazar unga konfessoriya da'vosini qo'llaganlar va bu da'vo mulk huquqi egasiga qo'llaniladigan negator da'vosiga yaqinlashtirilgan.

3-§. Emfitevzis tushunchasi

Rim sinfiy huquqi davrida sharqiy Rim imperiyasida qo'llaniigan, uzoq muddatga mo'ljallangan meros ijara yoki umrbod meros tariqasida yerga ijara asosida ega bo'lishlik emfitevzis deb atalgan. Emfitevzis yunon so'zidan olingen bo'lib, Rim davlati tomonidan bosib olingen yerlarni ishlash, qayta ishlash asosida kelib chiqib, yeri kam bo'lgan qullarni, peregrinlarni, lotinlarni va boshqa yer bilan mashg'ul bo'lishni orzu qilgan shaxslarga yer berib, bu yerda umrbod meros tariqasida foydalanishni vujudga keltirishga tushunilgan.

Emfitevzis - uzoq muddatni ko'zlagan, meros tariqasida yerni farzandlarga o'tkazishligi mumkin bo'lgan, doimiy egallash bilan bog'liq xafv-xatardan holi bo'lgan, ijara haqi juda oz bo'lgan miqdorda to'laydigan, eng asosiyi yerga yaxshi qarash, ko'proq hosil olish imkoniyatini vujudga keltiradigan, hatto mulk huquqining egasidek bo'lgan vakolatlarga ega bo'lishlikka yaqinlashib qoladigan munosabatlardan tashkil topadi.

Emfitevzisning muddatli ijara shartnomasidan farqi, har yilgi ijara haqini to'lagandan keyin, bunda katta mustaqillik imkoniyati tug'iladi, ya'ni boshqalarning mulkiiga bo'lgan huqujni uning merosxo'rлari va boshqa avlodlari meros tariqasida ulardan foydalanib, avloddan-avlodga o'tkazardilar.

Emfitevzisga ega bo'lgan shaxslar yerni garovga, kafolatga qo'yishligi, yoki bu huquqni boshqa shaxsga vaqtinchalik o'tkazib turish huquqiga ham ega bo'lgan. Bu munosabatlarni ko'pincha mulk huquqining egalari amalgaga oshirganlar. Ana shundan kelib chiqib, Rim yuristlari emfitevzisga ega bo'lgan shaxslarni mulk huquqining egasi deb ham hisoblaganlar.

Ularning huquqlari pretorlar tomonidan himoya qilinib, har qanday shaxs huquqini buzgan bo'lsa, o'sha shaxsga qarshi da'vo qo'zg'atilgan va hatto mulk huquqining egasiga ham shunday huquqlar qo'llanilgan.

Emfitevzisning servitut huquqlaridan farqi emfitevzis yerni uzoq muddatga va merosxo'rлarga o'tkazish huquqiga ega bo'lgan holda tuzgan ijara shartnomasi, bunga yerni ishlash, qayta ishlash, yer uchastkasini o'zinining xohish istagiga qarab o'zgartirish, hatto mulk huquqining egasi tomonidan amalgaga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlarni ham mulk huquqining egasidek o'zini tutib bu munosabatlarni amalgaga oshirgan.

4-§. Superfisiy tushunchasi

Qadimgi Rim huquqida superfisiy va emfitevzislar doimo yer huquqi bilan bog'liq bo'lgan.

Superfisiy deganda «yer bilan bog'liq qurilishlarni amalgaga oshirishlik» deb tushuniladi, ko'proq bozor bo'ladijan yoki ishbilarmonlar yig'iladijan yoki forumlar o'tkaziladijan joylarga yaqin bo'lgan joylarning

ijaroza olinishligi bilan bog'liq. Bu yerlar va qurilishlar *ko'pincha mahalliy* hokimiyatga taalluqli bo'lib, ularga kichik-kichik savdo do'konlari, maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar, kombinatsiar, ustaxonalarni qurish nati-jasida superfisiy bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'sha joylarni egallab ol-ganlar.

Ana shunday asosda uzoq muddatli qurilish bilan bog'liq bo'lgan ijara shartnomalari vujudga kelgan. Ularning ijara qiymati bir yilda bir marta to'langan va bu summani to'lagandan so'ng, superfisiylar yangi hu-quqlarga ega bo'lib, bu mulk, ashyolarni meros tariqasida o'tkazish huquqi bilan yanada kengaytirilgan.

Superfisiyning servitutdan farqi, yerga qurilishlar barpo etish huquqiga ega bo'lganligi, bu huquqni boshqa shaxslarga o'tkaza olish huquqiga hamda umrbod bu huquqlardan foydalaniib meros tariqasida qoldirish huquqiga ega bo'lishlik hisoblangan.

Superfisiyning buzilgan huquqlarini tiklashlik va himoya qilish pre-tor tomonidan interdiktlar va da'volarni qo'llash asosida amalga oshirilgan.

5-§. Garov huquqlari

Boshqalarning mulkiga bo'lgan huquqning turlaridan biri - garov huquqidir.

Garov huquqi qadimgi Rim huquqida eng ko'p qo'llanilgan, turli xil shartnomalar bo'yicha vujudga keladigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi usullardan biri bo'lib hisoblangan.

Garov bilan tartibga solinadigan munosabatlар asosan ko'chmas mulklarga va ko'chirilishi mumkin bo'lgan mulklarga, hamda ba'zi hollarda ob'yeqtga nisbatan mulkiy huquqlar yoki talablardan iborat bo'lgan.

Ko'chmas mulklar bilan bilan bog'liq bo'lgan garov huquqiga ipoteka deb atalgan. Eng avvalo, har qanday huquqlar garov predmeti bo'lib hisoblanmagan. Uning predmeti bo'lishligi uchun albatta shartnomada yoki qonunlarda ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Qadimgi Rim huquqshunoslari mulk huquqining sub'yekti (egasi) bo'lмаган, lekin ushbu mulkka nisbatan qandaydir ashyoviy huquqga ega bo'lgan shaxslar mulk huquqi egasining (sub'yekti) roziligidini olmasdan, mulknini garovga qo'yishligini qat'iy man qilganlar. Hatto, mulk egasining roziligidisiz, garovga qo'yilgan ob'yeqt, boshqa shaxslarning mulkiga taalluqli bo'lsa, shu haqda tuzilgan bitim nohaqiqiy hisoblangan.

Rim huquqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, mulk huquqining egasi tomonidan, majburiyatni bajarishlikni ta'minlash nuqtai nazaridan garovga qo'yilgan mulk, mulk egaligi boshqa shaxsga o'tgan holatda ham, garov huquqining predmeti sifatida qolaveradi. Ana shu xususiyati garovga qo'yilgan ashyoni, mulknini mutloq huquqiy himoyaga ega ekanligini bildirgan.

Rim quldorchilik davlatida garovning dastlabki usuli bitimlar deb atalgan. Qarzdor mansipasiya orqali o'z qarzini to'lashlik uchun boshqa shaxsga, mulk huquqi egaligiga, ma'lum talablarni qo'ygan holda «ya'ni majburiyatning bajarilishi ta'minlanilgandan so'ng, garovga qo'yilgan mulk qarzdorga qaytarilishi lozim» degan asosda bitimlarni tuzardi.

Bu qo'yilgan talab qadimgi Rim davlatida faqat ma'naviy xarakterga ega bo'lib, ya'ni mulknini qaytarib berishlik asosida ishonchni sinab ko'rishlik bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik esa, majburiyat bajarilgandan so'ng qarzdor kreditorga garov narsasini qaytarishlik to'g'risida da'vo talablarini joriy etadigan huquqlar kelib chiqqan.

Bitimlardan tashqari garovning usuli sifatida rignus - pignus (qo'l bilan garov narsasini qo'yish yoki «qo'lida ushlab turishlik») degan tushuncha vujudga kelib, bunda garov predmeti garovga oluvchiga faqat egallash, foydalanimish va foydali xususiyatlardan bahramand bo'lishlik uchun topshiriladi, lekin mulk huquqi o'z egaligida qoldiriladi, hamda majburiyatning bajarilishi bilan darrov mulk o'z egasiga tezda qaytariladi.

Rim davlatining sinfiy davriga kelib garovning usuli sifatida ipoteka vujudga keldi. Ipoteka usuli greklar va Misr davlatlarining huquqi ta'sirida rivojlanib, takomillashib, garov predmeti garovga qo'yuvchi shaxsda qoldirilib, unga agar majburiyat bajarilmagan taqdirda, garov narsasini talab qilib olib, uni sotish va garov bilan ta'minlanishi lozim bo'lgan summani kreditor olishligi lozim bo'lgan.

Ipoteka usuli ko'chmas mulkka qo'llanilgan. Rim huquqi ipoteka (ko'chirilishi mumkin bo'lмаган об'ектлар) deb belgilangan garov mulki to'g'risida imperativ normalarni qo'llagan, ya'ni «ipoteka hech qachon garovga oluvchiga topshirilmaydi» degan qoidani mustahkamlagan. Lekin ularni asrash, qo'riqlash va ta'minlashni qanday usullar asosida amalga oshirishlik uchun ma'lum shartnomalar tuzilgan.

Ko'chmas mulklarni ipoteka qilish, ularni ta'minlash va ijaraga berilgan qismlarni joylashgan yer uchastkasini ipoteka qilish bir vaqtning o'zida bitta asosiy shartnomaga bo'yicha amalga oshirilgan.

Ayniqsa, yer uchastkasini ipotekaga qo'yish chog'ida garov huquqi, agar shartnomada boshqacha shart nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchining ushbu uchastkada bo'lgan yoki qurilayotgan binolari va inshootlariga joriy qilinmaydi. Shartnomada bunday shart qo'yilmagan bo'lsa, undiruv garovga qo'yilgan yer uchastkasiga qaratilgan taqdirda, garovga qo'yuvchi yer uchastkasidan, uning bino yoki inshootdan o'z o'rniда foydalanimish uchun zarur bo'lgan qismidan cheklangan tarzda foydalanimish (servitut) huquqini saqlab qoladi.

Yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari qonunning o'zida ham garov huquqlari ko'rsatilib, boshqa usullarga qaraganda, u ustunroq, afzalroq imtiyozli xarakterga ega bo'lgan.

Mutloq monarxiya davrida imperator tomonidan rescript qabul qilinib, unda uchta ishonchli guvohning qatnashishi natijasida tuzilgan, yozma ravishdagi ipoteka boshqa usullarda tuzilgan garov bilan ta'minlash huqqlaridan ustun turgan. Bu ipoteka qonunlar asosida qabul qilingan munosabat bo'lib hisoblangan.

Garovning bekor bo'lishi asosan, garovga qo'yilgan ashyoning yoki predmetning nobud bo'lganida, garovga qo'yilgan huquqning bekor bo'lisligi natijasida, hamda garovga qo'yilgan mulkinning mulk huquqini egall-ovchi shaxsga o'tishligi (bitta shaxsga taalluqli bo'lisligi) natijasida, hamda garov bilan ta'minlangan majburiyatining bajarilishi natijasida yuzaga kelgan.

VI Bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Rim xususiy huquqida ashyolar tushunchasi va ular qanday turlarga bo'lingan?
2. Ashyolarga bo'lgan huquq turlari necha qismga bo'lingan, boshqalarning mulkiga bo'lgan huquq ashyoviy huquqiy institut tizimiga kiritilganmi?
3. Egallah, mulkni ushlab turishlik va mulk huquqining sub'yekti degan tushunchalarни aniqlang va bir-biridan qanday farqlari mavjud?
4. Mulkni(ashyon) egallah, foydalanish va uni tasarruf etish elementlari yig'indisi nimani tashkil etadi va Rim huquqida yana qanday elementlar mavjud bo'lgan?
5. Rim yuristlari xususiy mulkni nima uchun «muqaddas mulk» deb tu-shunganlar?
6. Xususiy mulk huquqidan umumiy mulk huquqi qanday belgilari bilan farq qiladi?
7. Mulkka egalik qilishning vujudga kelish asoslari qanday turlarga bo'lingan?
8. Mulk huquqini himoya qilish tushunchasi va turlarining to'liq tasnifini izohlang.
9. Servitutlar, superfisiy, emfitevzis, ipoteka va garovlar qaysi ashyoviy-huquqiy institutga taalluqli?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix institutov i yuridicheskix fakultetov. Pod redaktsiyey I. B. Noviskogo i . I.S. Peretetskogo. M. ,1948.
2. Pereterskiy I.S., Krasnokutskiy V.A., Fleyshis YE.A., Rozental.I.S., Noviskiy I. B. Rimskoye chastnoye pravo. M., 1948.

3. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956. 1960, 1972 gg. izd.
4. Ioffe O.S., Musin V.A. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. Uchebnoye posobiye dlya studentov. L., 1974.
5. Omelchenko O.A. Osnovo' rimskogo prava. M., 1994.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 2001.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. - T.: Adolat, 1996.
8. Grajdanskiy Kodeks Rossiyskoy Federasii. Polniy tekst (chast pervaya i chast vtoraya) - M.: Izd-vо «GNOM-PRESS», 1977.
9. Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismiga umumiyy tavsif va sharhlari. (Ma'sul muharrirlar: Mir-Akbar Rahmonqulov, Ismoil Anortoyev); 1 jild. - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1997.
10. Mattei U, Suxanov YE.A. Osnovno'e polojeniya prava sobstvennosti. - M.: Yurist, 1999.
11. Urazayev SH.Z. Rimskoye pravo:uchebnoye posobiye. - T.: Akademiya MVD Respublikи Uzbekistan, 2000.
12. O.E.Ernazarov, V.R.Topildiyev. Rim fuqarolik huquqi. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2001.

VII BO'LIM. Majburiyatlar va shartnomalar to'g'risidagi umumiy ta'limatlar

- 1-§. Majburiyatlar tushunchasi.**
- 2-§. Majburiyatlarning turlarga bo'linishi.**
- 3-§. Majburiyat munosabatlarining vujudga kelish asoslari.**
- 4-§. Majburiyat predmeti.**
- 5-§. Majburiyatlarning vujudga kelishidagi yuridik faktlar va paktlar tushunchasi.**
- 6-§. Majburiyatlarni bajarish joyi tushunchasi va uning ahamiyati.**
- 7-§. Majburiyatlarni bajarish muddati va uni kechiktirish hiatlari.**

1 - §. Majburiyatlar tushunchasi - obligatio (obligasio)

Qadimgi Rim qoldorchilik huquqida majburiyatlar huquqi instituti markaziy institut bo'lib hisoblanishi, eng ko'p tuziladigan shartnomalarni tartibga solishi bilan eng asosiy o'rinnlardan birini egallagan. Rim huquqida quldorchilik davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bosqichida, ayniqsa fuqarolik-huquqiy munosabatlarining yanada takomillashib borishi natijasida majburiyat tushunchasining to'liq ma'nosi vujudga keldi.

Rim yuristlari tomonidan ishlab chiqilgan Institusiyalar va Digestlarda «majburiyat» deganda, kreditor va qarzdar o'tasidagi huquqiy aloqalar tushunilib, bunga asosan bir shaxs qarzdar ikkinchi shaxs kreditor foydasiga muayyan harakatlarni qilish, biror ekyivalentni berish yoki undan foydalanish imkoniyatini yaratib berish tushunilgan. Dastlab XII Jadval qonunlarida ta'kidlangan «huquqiy aloqalar» tushunchasi keyinchalik «jismoniy aloqalar» iborasi bilan ham boyitilgan.

Rim huquqshunoslar majburiyat tushunchasini aniqlashda, majburiyat bu shaxslar o'tasidagi huquqiy aloqalardan iboratdir, deb tan olib, bunga asosan davlatimiz qonunlariga binoan, biror bir harakatlarni bajarishimiz majburiyidir, degan tushunchadan ham kelib chiqqanlar.

O'zining asarlari, qoldirgan huquqiy merozi bilan mashhur yurist sisfatida jahonga iz qoldirgan yurist Pavel majburiyatning mohiyatini quydagicha ta'riflaydi: «Majburiyatning mohiyati biror bir ashyoni (predmetni) jismoniy narsaga yoki servitutlarga aylantirish bilan bog'liq emas, balki shu munosabat asosida boshqa shaxsni huquqiy asosda bog'lab, u bizga biror bir narsani (predmetni) berishi, harakat qilishi, taqdim etishi, imkoniyat yaratib berishidir». Bu ifodani quydagiicha yoritish mumkin

bo'lgan, ya'ni «biror bir narsani berish» deganda mulkni, ashynoni yoki majburiyatda ko'rsatilgan predmetni (ob'yektni) majburiyat sub'yeqtiga o't-kazishga tushunilgan va bu qoida majburiy bo'lib hisoblangan. Ikkinchи harakati «qilish» deb tushunilib, bu «qilish» so'zining ma'nosi «ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, ekvivalentni olib kelib berish yoki pullarni to'lash» kabi munosabatlarni qamrab olgan. Uchinchi harakati «imkoniyat yaratib berish» yoki «taqdim etmoq» ifodasi bo'lib, majburiyatda qatnashuvchi shaxsning muayyan harakatni sodir etishdan to'xtab turishi yoki moddiy baza bilan ta'minlashi kabi harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirish uchun biror ashynoni taqdim etishidir. Albatta, bu tushunchalar Rim davlatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan doimiy ravishda o'zgarib, mazmunan to'dirilib takomillashib borgan.

Keyinchalik esa, Rim yuristlari majburiyat huquqiy munosabatlari bir tarafdan «talab qilish huquqiga» ega bo'lgan shaxsning harakati, ikkinchi tarafdan esa uni «bajarish» majburiyati yotganligini e'tirof etganlar va shunga qarab majburiyat munosabatlarida qatnashuvchi va uni amalga oshiruvchi shaxslarni «qarzdor» va «kreditor» deb ataganlar.

Ular majburiyat tushunchasini har tomonlama talqin qilib, shu muomalada qatnashuvchi sub'yektlarning bir biri bilan bog'liqligini, hatto ilgari «ozod, mustaqil» bo'lib yurgan shaxsning majburiyatga kirishganidan keyin, uning bo'yning zanjir (arqon) bog'langanligini bildirib, endi uning ozod va mustaqil holatida yurishiga yo'l qo'yilmaydi, degan ifodani yoki tushunchani ham ishlatganlar.

«Talab qilish huquqi» bu qat'iy shaxsiy xarakterga ega bo'lib, ko'pincha ishonchga asoslangan harakatlarni ham o'z ichiga olgan, chunki «kredo» so'zining o'zi ham «ishonaman» degan ma'noni anglatgan. Rim yuristlari majburiyat tushunchasini ifodalar ekan, ular «qayerda kreditor va qarzdor bo'lmasa, hech qanday majburiyatning bo'lishi mumkin emas» degan xulosadan kelib chiqqanlar.

Qadimgi Rim huquqi majburiyatni doimo kreditor va qarzdor bilan bog'lab, ular o'rtasidagi mavjud bo'lgan bu huquqiy muomalani ashoviy va shaxsiy da'volar asosida o'rganganlar.

Bu bo'linishlar, ya'ni ashyyoga bo'lgan huquq va talab qilish huquqi doimo ashoviy huquqiy hamda majburiyat huquqiy normalari bilan tartibga solinib, ashoviy da'volarga hamda shaxsiy da'volarga bo'lingan.

Ashoviy da'volar deganda, mutloq munosabatlар e'tiborga olinib, ularni mulk huquqining sub'yeqtiga taalluqli bo'lgan ashyoning yoki servituning boshqa shaxslarga o'tib ketganligini talab qilib olish uchun berilgan da'vo deb tushunilgan. Bu da'vo predmeti ashoviy huquqlardan, ob'yektlardan iborat bo'lgan.

Shaxsiy da'vo nisbiy munosabatlardan tashkil topib, mulk huquqining egasi tomonidan tuzilgan shartnomaga muvosif ikkinchi tarafdan majburiyatni bajarish uchun muayyan harakatni amalga oshirishni yoki biror bir

ekvivalentni berishni (o'tkazishni) talab qiladigan munosabatlarga tushunilgan va bu da'vo faqat qarzdorga qo'llanilgan.

Mashhur yurist Pavel majburiyatlarni tahlil qiliishi natijasida majburiyatning mazmunini ham to'liq asosda yoritib berishga muvaffaq bo'lган.

Majburiyat tushunchasining mazmunini aniqlashda, qarzdar tomonidan «bermoq», «qilmoq» va «taqdim etmoq» degan harakatlarni amalga oshirilishi tushunilgan va ularning muqarrar bo'lishligi majburiy bo'lgan. Mana shu uchala tushuncha yoki elementlar majburiyat tushunchasining mazmunini keltirib chiqargan.

2-§. Majburiyatlarning turlarga bo'linishi

Majburiyat huquqiy munosabatlarining kelib chiqish asoslariga hamda ahamiyatiga qarab Rim yuristlari ularni quyidagi majburiyat turlariga bo'lganlar:

1. XII Jadval qonunlarida va boshqa qonunlar tomonidan e'tirof etilgan fuqarolik majburiyatlariga (Sivil majburiyatları);
2. Pretorlar tomonidan himoya qilinadigan majburiyatlarga (pretorlar majburiyatları);
3. Natural majburiyatlarga.

Rim davlatida, uning ayniqsa fuqarolik huquqida majburiyatlarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarmaslik salbiy oqibatlarni keltirib chiqarib, uni majburiy asosda bajartirilgan hamda keltirilgan zararlar da'vo asosida undirib olingan.

Shuningdek, da'vo himoyasi bilan ta'minlanmagan munosabatlar ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ularni huquqiy tomonidan himoya qilinmaydi, degan ma'nio kelib chiqmaqan.

Majburiyat bo'yicha to'langan ashyojar yoki mulklarni qaytarib olish biroz murakkablikni fashkil etgan. Xuddi shunday huquqiy himoya bilan ta'minlanmagan majburiyatlar hamda majburiyat asosida to'langan ashyojolarni qaytarib olish mumkin bo'lмаган majburiyatlarga natural majburiyatlar deb tushunilgan.

Natural majburiyatlar deb, ko'pchilik holatlarda ota hukmronligi instituti va unga bo'ysunuvchi qullar, farzandlar tomonidan oila boshlig'inining roziligidisiz tuzilgan bitimlarga aytilgan. Chunki ota bütün oilasi tarkibi va ota hukmronligi ostidagi bo'lgan qullar uchun ham javobgar bo'lgan, hamda oila nomidan ota shartnomalarini tuzgan va mulkiy javobgarliklarni o'tagan.

Natural majburiyatlar, asli grek filosoflari tomonidan butun olamda bo'lgan voqe'lklarni ikki qismga, ya'ni tabiat tomonidan berilgan tabiiy huquqlarga hamda insonlarga davlat tomonidan qonunlar asosida beriladigan hukmronlikka, hokimiyatga bo'linishi g'oyasidan kelib chiqqan.

Yustinian Digestlarida ko'rsatilishicha, natural majburiyatlar adolat tamoyillariga asoslanib, u bilan doimo bog'liq bo'lgan.

Natural majburiatlardan tashqari sivil (fuqarolik) majburiyatları hamda pretorlar majburiyatları ham harakatda bo'lgan.

Sivil majburiyatlariga doimo natural majburiyatlarni qarama-qarshi qo'yishlik Rim huquqining o'ziga xos xususiyatidir. Rim huquqshunoslari pretorlarning huquqiy holatini belgilaganda, ularning «faqat da'vo qilish vakolatlari bora» degan tushunchani ilgari surganlar. Ammo pretorlar, pretorlik majburiyatlarini pretorlarning kelishuvlari yoki paktlari deb tushunilmasligi va pretorlar majburiyatlarining keng ma'noga ega ekanligini tasdiqlab bergenlar.

Majburiyat huquqiy munosabatlari bo'linadigan va bo'linmaydigan majburiyat turlaridan va alternativ majburiatlardan ham iborat bo'lgan.

Bo'linishi mumkin bo'lgan majburiatlarga ashyning mohiyati, mazmuni, qiymati buzilmasdan, zarar yetkazilmasdan bo'linadigan tovarlar, ashylar, ekvivalentliklar, valyutalar va qimmatbaho qog'ozlar va shunga o'xhash moddiy qiymatlarni o'zida saqlab qoluvchi narsalardir, deb hisoblaganlar. Masalan, 5 ming so'm pülni to'lash, bu majburiyatni bo'lib-bo'lib to'lash mumkin va bu majburiyat bo'linadigan majburiatlarga kiritilgan, servitut huquqi bilan bog'liq bo'lgan qat'iy belgilangan joydan hayvonlarni haydab o'tish bo'linmaydigan majburiyatlar bo'lib hisoblangan. Alternativ va fakultativ majburiyatlar bir biriga o'xshasa ham, lekin Rim fuqarolik huquqida tuzilgan shartnomaning bajarilishini shartnomada ko'rsatilgan asosda, ya'ni qat'iy belgilangan tovari, ashyni yetkazib berishning o'rniga boshqa ekvivalentni yetkazib berishga ham yo'l qo'yilgan. Bu yerda majburiyat predmeti bitta, ammo qarzdorga imtiyozlar berilib, asosiy yetkazib beriladigan ashyo o'rniga boshqa ashyni berishning o'zi o'sha shartnomani bajarganlik deb hisoblanishiga olib kelgan hamda bu majburiyat fakultativ majburiyat deb atalgan.

Alternativ majburiyatlar fakultativ majburiyatdan biroz bo'lsa ham farq qilgan. Bu majburiyat shartnomada ko'rsatilgan bir necha harakatning birortasini bajarishga tushunilgan. Masalan, ukalarim Olim va Haydar shu xizmatni qilib beradi, qaysi biri tomonidan bu majburiyat bajarilsa, majburiyat lozim darajada bajarilgan deb hisoblangan hamda kim tomonidan bajarilgan bo'lsa ham majburiyat bajarildi, deb topilgan.

3-§. Majburiyat munosbatlarining vujudga kelish asoslari

Qadimgi Rim davlatining qonunlarida majburiyat huquqining rivojlanishiga va yanada takomillashtishligiga muhim e'tiborni qaratganlar. Ayniqsa, tovar pul munosabatlarining yanada taraqqiy etishi natijasida majburiyatlar o'zining ilgari rasmiyatchiliginini yo'qotib, bir tomonlikdan ikki tomonlamalikka aylangan, unda ishtirok etuvchi sub'yektlar ham huquqqa,

ham majburiyatga ega bo'lganlar. Rim fuqarolik huquqi majburiyatlarning vujudga kelish asoslarini ikki qismga bo'lganlar. Ayniqsa, yurist Gay majburiyatlarni kontraktlar asosida vujudga keladigan, hamda deliktlardan (huquqni buzishdan) kelib chiqadigan majburiatlarga bo'lgan. Majburiyatlarni keltirib chiqaradigan muhim yuridik asoslardan biri kontrakt (ya'ni, shartnomalar) deb atalgan. Ayniqsa, shartnomalar institutining rivojlanishi, takomillashishiga Rim davlatining klassik (sinfiy) davri rivojlanishida katta e'tibor qaratilgan.

Shartnomalar fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan biri bo'lib, ular doimo da'volar orqali himoya qilingan. Lekin boshqa asoslaridan kelib chiqishini ham isbotlab bergenlar. Masalan, kvazi kontrakt va kvazi deliktlar asosida ya'ni shartnomalarga o'xshash hamda majburiyatlarini buzishga o'xshash asosda vujudga kelganligini ham isbotlab bergenlar.

Deliktlar - huquqni buzishdan, mulkka zarar yetkazishdan yoki qonun tomonidan ma'n etilgan munosabatlarni amalga oshirish asosida kelib chiqqan. Deliktlar haqida qadimgi Rim huquqining dastlabki rivojlanish davrlarida ham tasavvurga ega bo'lib, ular majburiyatlar bajarilmagan taqdirda jarimlar solish va undirish, umuman fuqarolik huquqiy javobgarliklarining mavjud ekanligini e'tirof etib, o'sha normalarni, qoidalarni majburiyat huquqiy munosabatlariga qo'llaganlar.

Ulardan tashqari shartnomalar va deliktlarning bir biridan yana bir farqini, ya'ni shartnomalar asosida kelib chiqadigan majburiyatlar mero tariqasida merosxo'rлага o'tkazilishi, deliktlar asosida vujudga kelgan majburiyatlar esa bunday vakolatga ega bo'la olmaganliklarini qayd qilganlar. Rim yuristlari majburiyat huquqiy munosabatlari shartnomalar hamda deliktlar asosida vujudga kelishlaridan tashqari bu munosabatlar shartnomalar va delikt bo'lмаган taqdirda ham vujudga kelganliklarini tushunib yetganlar. Ularni yuridik faktlar, paktlar, harakat va hodisalar natijasida ham kelib chiqishini tasavvur qilganlar.

Hatto, yurist Gay majburiyatlarni vujudga keltiruvchi asoslarni turlargacha bo'lishdan voz kechgan bo'lsa ham, lekin Yustinian Digestlariga binoan (bu Digestlarni tuzishlikda Gay Institusiyasi ko'proq e'tiborga olin-gan) majburiyatlarning vujudga kelishi to'rtta asosga bo'lingan. Ular quydagilardan iborat bo'lgan:

1. Kontraktlar asosida (ex contractu - eks kontraktu);
2. Deliktlar (huquqni buzish) asosida (ex delicto - eks delikto);
3. Kontraktlarga o'xshash asosda (qvasi ex contractu - kvazi eks kontraktu);
4. Deliktlarga o'xshash asosda (qvasi ex delicto - kvazi eks delikto).

4-§. Majburiyat predmeti

Mashhur yurist, Yustinian kodifikasiyasining asoschilaridan bir - professor Teofil VI astga kelib to'rtta asosda majburiyat huquqly munosabatlарining vujudga kelishligini qat'iy ravishda isbotlab berdi va bu asoslar bиринчи мэротаба Napoleon Fuqarolik Kodeksida (1804) o'z ifodасини топди, keyinchalik esa barcha burjua davlatlariga tarqalib hozirgi vaqtga qadar to'liq qo'llanib kelinmoqda.

Qadimgi Rim quzdorchilik davlatida majburiyatning mazmunini muayyan harakatlarni analga oshirish bilan bog'laganlar. Ular ko'p hol-larda mol-mulkni (ashyoni) topshirish, ishni bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki muayyan harakatlarni amalga oshirishdan o'zini saqlab turishlik va hokazolardan kelib chiqqan.

Rim huquqshunoslari ko'pchilik holatlarda majburiyatning mazmunini va predmetini bir ma'noda tushunganlar. Lekin majburiyat predmeti o'z mazmunidan farq qiladi. Predmetni aniqlashda, ashylarning ya'ni majburiyat ob'yektining jinsiylariga ega bo'lganligiga va individual aniq bo'lgan xarakterli xususiyatga bog'liqligiga e'tibor qaratilgan.

Jinsiylariga ega bo'lgan ashylarga sariyog', vino, g'all'a, qand va boshqa ashylar kiritilib, ularning yo'qolib ketishligi majburiyatni bajarishdan ozod etmaydi, ya'ni ular o'z tabiatiga ko'ra shartnomalar asosida to'ldirilishi yoki o'z holatiga keltirilishi mumkin, deb hisoblaganlar.

Individual, aniq bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan ashylar yuzasidan majburiyatlarning bajarilishi aynan shartnomada ko'rsatilgan tarzda amalga oshirishligi lozim bo'lgan munosabatlardan kelib chiqqan, uning yo'qolishi, almashtirilishi mumkin bo'lмаган, sinishi yoki dastlabki holatini o'zida saqlab qola olmaganligi tuzilgan shartnomalarga ta'sir etган.

Majburiyatlarning predmetini faqat majburiyatlarni bajarish vaqtidagina aniqlaganlar. Individual xususiyatga ega bo'lgan majburiyatini taraflarning o'zaro kelishmasligi asosida bajarish mumkin bo'lмаган. Majburiyat huquqiy munosa-batlarining predmeti sifatida pullar ko'p qolilanilib, qarzdordan kreditoring talab qilib olish huquqi bilan bog'liq bo'lgan. Pul majburiyat predmeti sifatida majburiyatni bajarish uchun almashtiriladigan ekvivalent va zararlarni qoplash vositasi sifatida qo'llanilgan. Eng qadimgi pul sifatida Rimliklar hayvonlarni tan olishgan. Keyinchalik og'irligi bilan o'lchanadigan mis ishlataligan. Hatto bitimlar tuzish albatta torozibon va mis simobchasi (tayoqchasini) ushlab turgan daliol ishtirokida amalga oshirilgan.

Tovar, ashylardan foydalanganlik hamda pul qarzini o'z vaqtida to'lay olmaganligi, shartnomalarni o'z vaqtida bajara olmaganligi yoki bajarishni kechiktirganligi uchun foizlar undirilgan. Foizlarni to'lash tabaqalar asosida ya'ni yuqori mansabdor shaxs - 4 foiz asosida, savdogar - 8 foiz, dengiz bilan bog'liq bo'lgan qarzlar bo'yicha - 6 foiz miqdorida,

shunuchu olinadigan foiz qo'yilgan kapitaldan oshib ketmasligi lozimligi va
yillik foiz - 12 foizdan oshmasligi ko'satilgan.

Majburiyatlarda «kauza» deganda, xilma xil tushunchalarning
mavjudligini e'tiborga olib, majburiyat huquqiy munosabatlariiga kirishish
uchun lozim bo'lgan moddiy asosga hamda unga erishish uchun ya'ni ma-
jburiyatni bajarishdan kelib chiqadigan maqsadga tushunilgan. «Kauza»
so'zi lotin tilidan olingen bo'lib, sabab yoki shunga o'xshash munosabat-
ning kelib chiqishini anglatadi.

Majburiyatlarda - kauza sub'yektiv motiv bo'lib, majburiyatning
mazmunini aniqlaydigan hamda majburiyatga kirishishdan qanday moddiy
manfaatdorlik kelib chiqishi bilan bog'liq munosabatlarga tushuniladi.
Kauza - qonuniy bo'lishi lozim, ya'ni unda boshqa shaxslarning erkini,
iroda va manfaatini, huquqlarini chegaralamaslik lozim bo'lgan. Majburiyatlarni tuzish uchun, eng avvalo, taraflarning o'zaro roziligi talab qilin-
gan. Taraflar roziligi slavyanlarda qo'lni qo'lga berish, boshni qimirlatish,
jimlik rizolik alomati sifatida hatto qadimdan qolgan an'anaviy harakatlar
orgali ham amalga oshirilgan. Lekin Rim fuqarolik huquqiy munosabat-
larining yanada rivojlanishi va takomillashivi natijasida biror yuridik mu-
nosabat yoki yuridik hujjat orgali bu kelishuvni rasmiylashtirish zarurati
kelib chiqqan. Ana shu yuridik asos consensus (kelishuv) taraflarning hu-
quqiy asosda, o'z erklarini ifoda etgan holda rasmiylashtirish imkoniyatini
vujudga keltirgan va shunday qilib majburiyatlarning yangi turlari ya'ni
konsensual majburiyatlar vujudga keldi.

5-§. Majburiyatlarning vujudga kelishida yuridik faktlar va paktlar tushunchasi

Majburiyat huquqiy munosabatlarining vujudga kelish asoslardan
muhim bir qismini yuridik faktlar va paktlar tashkil etadi. Yuridik faktlar -
hayotiy holatlar asosida vujudga kelib u huquqiy munosabatlarni vujudga
keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan ijtimoiy munosabatlardan
iborat bo'lib, qonunlar tomonidan tartibga solinadigan va davlat organlari
tomonidan himoya qilinadigan munosabatlardir. Fuqarolik huquqiy mu-
nosabatlarini vujudga keltiruvchi asos sifatida yuridik faktlar yuridik
hodisa va yuridik harakatlardan iborat bo'lgan.

Rim huquqshunoslari yuridik faktni fuqarolik huquqiy munosabatlari
hamda huquqiy normalarni bir biri bilan bog'laydigan munosabatdir, deb
tan olganlar. Yuridik faktlarsiz hech qanday huquqiy norma kelib chiqmas-
ligini hamda barcha yuridik faktlarning hammasi ham fuqarolik huquqiy
munosabatlarini keltirib chiqarmasligini to'g'ri tushunib yetganlar. Rim
yuristlari yuridik faktlarning huquqiy normalarni vujudga keltirishidan
hamda ularni o'zgartira olish layoqatiga va bekor qila olish munosabat-
lariga, kuchlariga ega ekanligidan kelib chiqqan holda ularni e'tirof etib -

bu munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirib chiqaruvchi asos deb tushunganlar. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish uchun bitta yuridik faktning namoyon bo'lishi ham yetarli edi, ya'ni oldi-sotdi shartnomasini tuzish uchun o'zaro uning predmeti, bahosini va boshqa asosiy shartlari bo'yicha taraflarning o'zaro kelishishi, ya'ni konsensusning amalga oshirilishining o'zi ham kifoya. Demak, sotib oluvchi va sotuvchi o'tasida tuzilgan shartnomaning o'zi yuridik fakt bo'lib hisoblangan.

Lekin Rim huquqshunoslari ba'zi hollarda fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish uchun bir necha yuridik faktlar yoki murakkab bo'lgan bir nechta harakatlarning namoyon bo'lishini taqozo etishini isbotlab bergenlar va o'zları ham shunga amal qilganlar. Uy-joyni ijaraga olish yoki mahalliy hokimiyatdan uy-joyga bo'lgan orderni olish, u bilan uy-joyda yashaydigan shaxslar o'tasida uy-joydan foydalanish maburiyatini murakkab bo'lgan yuridik tizimini yoki yuridik faktini keltiradigan holatni vujudga keltirgan. Albatta bu murakkab bo'lgan holatdir. Yuqorida qayd etilganidek, Rim yuristlari fuqarolik huquqida yuridik faktlarning vujudga kelishini e'tiborga olib, ularni hodisalarga va harakatlarga bo'lib o'rganganlar.

Hodisalar - insonning onggi, erki va irodasi bilan bog'liq bo'lmaydigan holatlardir. Masalan, tabiat hodisalari, insonning tug'ilishi, uning o'limi, yong'in, yer qimirlashi va shunga o'xshash holatlar. Lekin rimliklar hodisalar faqat inson bilan bog'liq bo'lмаган holatda vujudga keladi deb tushunmasdan, ba'zida uning inson onggi, erki orqali ham vujudga kelishini ham isbotlab bera olganlar.

Qadimgi Rim quldorchilik davlatida fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi asoslardan yana biri bu harakat ekanligini hamda harakatning o'zi huquq yo'l qo'yan «qonuniy harakatga» hamda huquqqa xi洛f yoki zid bo'lgan «noqonuniy harakat»ga bo'linishiga o'zlarining muhim e'tiborini qaratganlar. Harakatlarni Rim huquqshunoslari doimo bir asosda vujudga keladigan munosabat deb, uni doimo huquqiy munosabatda qatnashuvchi sub'yektlar erki, irodasi va manfaati bilan bog'liq holda ko'rganlar.

Noqonuniy harakatlari - huquqbazarliklar hisoblanib, huquqqa zid, xi洛f bo'lgan, qonunga yoki boshqa normativ hujjalarga qarama qarshi asosda amalga oshirilgan munosabatlar deb atalgan. Shuning uchun Rim fuqarolik huquqi bunday harakatlarni qonunga zid, oqilonalik, adolatlilik tamoyillariga to'g'ri kelmaydigan munosabatlar deb, bu harakatlar natijasida keltirilgan zararlarni yangi eramizning I-IV asrlarida to'liq Rim fuqarolik huquqi normalari asosida, keyinchalik esa hatto jinoiy javobgarlikka tortish asosida ham buzilgan huquqlarni dastlabki buzilmagan holatiga keltirish uchun harakatlarni amalga oshirib bordi va buzilgan huquqlarni tikladi.

Qonuniy harakatlar deganda, qonun yoki boshqa normativ hujjatlar asosida yo'l qo'yilgan ixtiyorilik, huquq yo'l qo'yan harakatlarni amalga oshirishlik tushunilgan.

6-§. Majburiyatni bajarish joyi tushunchasi va uning ahamiyati

Qadimgi Rim quidorchilik davlati tomonidan ko'p mamlakatlarning bosib olinishi natijasida va uning jahon bozoriga chiqishi sababli majburiyatlarning bajarilishi joyini belgilash ko'p qiyinchiliklarni, murakkablikni talab etdi. Chunki, yo'l masofasi, tovarlarning bahosi har bir mamlakatda o'zgacha ekanligi, bozor iqtisodiy va huquqiy qoidalarining har xil ekanligi ham majburiyatlarni bajarish joyini aniqlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Majburiyatlarni bajarish joyi doimo shartnomada belgilab qo'yilgan bo'lishi lozim edi. Ammo, bajarish joyini belgilash mumkin bo'lmay qolgan paytlarda uni shu yerda bajarish mumkin degan taxminlar asosida amalga oshirilardi.

Rim fuqarolik huquqida kreditor tomonidan majburiyatni bajarish joyini alternativ usulda ham belgilashga ruxsat berilgan. Bunday vaqtida majburiyatni bajarish joyini qarzdor o'zi tanlash huquqiga ega bo'lgan.

Majburiyatni bajarish joyi umuman belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ko'pchilik hollarda qarzdor yashagan joy yoki ko'chmas mulk turgan joy bajarish joyi deb tushunilardi.

Rim fuqarolik huquqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, majburiyatni bajarish joyi ko'rsatilmagan taqdirda ham Rim davlati bu «Bizning unumiy davlatimiz» degan ma'no asosida majburiyatlarning bajarilishi joyini ko'rsatib berardi.

Majburiyatni bajarish joyining ahamiyati shundan iboratki, bu nizoli predmetning bahosini aniqlashlik bilan bog'liq bo'lgan. Nizoli predmetning bahosini aniqlash, eng avvalo taraflar o'rtaida tuzilgan shartnomada ko'rsatilishi hamda majburiyatning bajarilishi joyidagi mavjud bo'lgan baho bilan belgilangan. Ammo, taraflar o'rtaida kelishuvlar mavjud bo'lgan bo'lmasa, da'vo qo'zg'atilgan joyining qonunlari bilan tartibga solingan.

7-§. Majburiyatni bajarish muddati va uni kechiktirish holatlari

Majburiyatni bajarish muddati, vaqt doimo taraflar o'rtaida tuzilgan shartnoma asosida belgilangan. Majburiyatning shartnomada ko'rsatilgan muddatda yoki vaqtida lozim darajada bajarilishi qonuniy asosda talab etilgan.

Agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa yoxud majburiyatning mohiyatidan anglashilsa, qarzdor esa ijroni to'xtatmasdan har qachon bajarishi shart bo'lgan, kreditor esa har qachon ijroni bajarishni tabab qilish huquqiga ega bo'lgan.

Shartnomaga asosida aniq tarzda majburiyatning bajarilish muddati ko'rsatilmasligi ham uchrab turgan, bunda bajarish mumkin bo'lgan muddatlar amal qilgan va bu munosabatlarda oqilona tarzda, vijdonan harakat qilinishi lozim hisoblangan.

Savdo munosabatlarining yuqori darajada taraqqiy etishi, shartnomaga doirasining kengayishi, shartnomalar to'g'risidagi qat'iy normalarni biroz yumshatish yoki qulaylik tug'dirish maqsadida ko'pchilik hollarda majburiyatlarni bajarish muddatini ko'rsatmasdan ham shartnomalarning tuzilishiga yo'l qo'yilgan. Yoki Rim yuristlarining fikricha, «bugun tuzilgan Rimdag'i shartnomani ertaga Yegipetda bajarish mumkin emas». Bunday tuzilgan shartnomada jumlilik - rizolik asosida shartnomani bajarish muddatining aniqligini o'rnatish qiyinligini e'tiborga olib, muddat o'rnatmaganlar. Bunday holatlarda odilona tarzda ishni hal qilishga ko'proq e'tiborni qaratganlar. Hatto, shartnomani bajarish muddati ko'rsatilmagan hollarda sudga murojaat qilinganda sudya «odilona er» sifatida (ya'ni «sud prosessini odilona asosda olib boruvchi shaxs» degan ma'noni anglatgan) qanday muddat yoki qancha vaqt asosida bu shartnomani bajarishi mumkinligini aniqlash paytida shartnomani bajarish uchun o'zini qynamasdan kechayu-kunduz, tabiat injiqligiga qaramasdan, sovuq va issiqlardan o'zini ayamasdan, yilning faslini, o'zining yoshini, sog'lig'inini, jinsini o'yamasdan tinmay harakat qilishga yo'l qo'yemasdan, oddiy holatda majburiyatni bajarish uchun ketadigan muddatni yuqoridagi xususiyatlarni e'tiborga olib belgilagan. Ana shu muddatni «oqilona asosda» belgilangan muddat deb tushunilgan. Qadimgi Rim qudorchilik davlatida majburiyatlarni muddatidan ilgari bajarishga dastlabki paytlarda yo'l qo'yilmagan. Lekin savdo munosabatlarining taraqqiyoti, bozor iqtisodiy munosabatlarining gurkirab o'sishi, Rim davlati hududining kengayishi, jahon taraqqiyotidagi tutgan o'rni, shartnomalarning ko'plab tuzilishlariga olib keldi va ularni muddatidan ilgari bajarish ikkala tarafning ham manfaatini ko'zlab, o'z oborotining tezroq amalgalashishiga imkoniyat yaratib bergenligi uchun yo'l qo'yildi.

Rim davlatida majburiyatlarning bajarilishini kechiktirish, o'z vaqtida va lozim darajada bajarmaslik oqibatlari shartnomada qatnashuvchi taraflarning intizomsizligini bildirib, ular bilan keyinchalik shartnomaga tuzishda chegaralanish vakolatlarini keltirib chiqargan.

Majburiyatlarning bajarilishini kechiktirish deganda, da'vo talabining joriy etilishi ya'ni da'vo arizasining yozilishi paytidan boshlanadi. Da'vo arizasining yozilishidan oldin qarzdorga majburiyatni bajarish yuzasidan ogohlantirish yuborilishi lozim bo'lgan va undan keyin qarzdorning ustidan da'vo arizasi yozilgan. Qadimgi Rim huquqida majburiyatlarning ba-

janish muddati shartnomada aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, qarzdorning yashash joyiga ogohlantirish yuborilgan, ammo bajarilish muddati shartnomada ko'rsa ilgan bo'lsa, ushbuning o'zi ogohlantirish ham bo'lib hisoblangan. Qarzdor tomonidan o'z qarzini to'lash yoki majburiyatni bajarish uchun qilingan harakatlarini ya'ni ashyolar, pullarni yoki ekvivalentni kreditor qabul qilmasa, bunday holda qarzdor o'z mulkini omonat asosida saqlab turish uchun depozitga qo'yish yo'li bilan ham majburiyatni o'z vaqtida bajarishiga yo'l qo'yilgan.

Rim huquqining o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'lganki, depoziga qo'yish ham kreditor hisobidan amalga oshirilgan. Bunday holda muvkinning tasodifan nobud bo'lishi ijroni qabul qilishni kechiktirgan kreditorga qaratiladi hamda keltirilgan zararlar ham undan undiriladi.

VII bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Majburiyatlarni aniqlash tushunchasiga izoh bering.
2. Majburiyatlarning mazmuni nimalardan iborat?
3. Natural majburiyatlar boshqa majburiyatlardan qanday huquqiy belgilari bilan farq qilgan?
4. Majburiyatlarning kelib chiqish asoslari haqida nimalarni bilasiz?
5. Yuridik faktlar nima?
6. Sharunomalar, yuridik faktlar va paktlar o'rtaсидagi farqni aniqlang.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix institutov i yuridicheskix fakultetov. Pod redaksiyey I.B.Noviskogo i I.S.Pereterskogo. M., 1948.
2. Pereterskiy I.S., Krasnokutskiy V.A., Fleyhis YE.A., Rozental I.S., Noviskiy I.B. Rimskoye chastnoye pravo. M.1948.
3. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M.,1956, 1960, 1972 gg.izd.
4. Omelchenko O.A.Osnovo' rimskogo prava. M.1994.
5. Urazayev.SH.Z. Rimskoye pravo:uchebnoye posobiye. -T.:Akademiya MVD Respublikи Uzbekistan, 2000.
6. Ernazarov O.E., Topildiyev.V.R. Rim Fuqarolik huquqi. Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. 2001.

VIII BO'LIM. Shartnomalarning alohida turlari

- 1-§. Kontraktlar (shartnomalar) va kelishuvlar (racta) pakta tushunchasi va ularning turlarga bo'linishi.**
- 2-§. Shartnomalarga o'xshash harakatlar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari (qvasi ex contractu) kvazi eks kontraktu.**
- 3-§. Huquqni buzish asosida va huquqni buzishlikka o'xshash asosda kelib chiqadigan majburiyatlar (ex delicto va qvasi ex delicto) eks delikto va kvazi eks delikto.**

1-§. Kontraktlar (shartnomalar) va kelishuvlar (racta) tushunchasi va ularning turlarga bo'linishi

Rim huquqida majburiyatlarning vujudga kelishligi uchun eng ko'p qo'llaniladigan asos - shartnomalardir.

Rim huquqi fuqarolarning qonuniy asosda erk'i izhor etilgan harakatlarni bitimlar deb e'tirof etgan, ammo bitimlarning umumiy tushunchasini ishlab chiqsa olmagan va kontrakt asosida tuzilgan alohida shartnomalarni bitimlar deb tushunilgan. Lekin bu shartnomalar munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq bo'lган huquqiy munosabatlardan tashkil topgan bo'lsagina tan olingan.

Bitimlarda bir shaxsning yoki bir tomonning erk'i izhor etilsa, bunday bitimlar bir tomonlama tuzilgan bitimlar deb atalgan. Chunki bunday bitimlarda huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo'yichagini vujudga keladi, o'zgaradi va bekor bo'ladi. Masalan, vasiyat, merosdan voz kechish va shunga o'xshash munosabatlar. Bular uni tuzgan shaxs uchungina majburiyatlar keltirib chiqaradi.

Agar ikki tomonning erkiga muvofiq asosda tuziladigan bitimlar bo'lsa, bu bitimlar ikki tomonlama bitimlar yoki shartnomalar deb ataladi. Bu shartnomalarga oldi-sotdi, mulk ijerasi, pudrat va boshqa shartnomalar kiritilgan.

Rim huquqida shartnomalar tizimi o'zining murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qilib, ular assosan ikki turdag'i shartnomalar tizimidan iborat bo'lib kontraktlarga va paktlarga bo'llingan.

Kontraktlar tizimiga alohida shartnomalar doirasi kiritilgan, lekin istisno tariqasida ismsiz shartnomalarning ba'zi birlari ham kiritilgan.

Kontraktlarga qarama-qarshi o'laroq, paktlarga har xil mazmuniarni qamrab olgan norasmiy kelishuvlar, ahdnomalar kiritilgan va ular da'vo himoyasi bilan ta'minlanilmagan.

Shuningdek, Rim huquqi barcha shartnomalarни ham huquqiy munosabatlarnи vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi, yoki majburiyatлarnи vujudga keltiruvchi asos deb tan olmagan.

Rim huquqida bir-biriga qarama-qarshi turgan tomonlarning o'zaro kelishishi asosida huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish uchun yo'naltirilgan harakatlar amalga oshirilgan bo'lib, ular asosan ikki turga ya'ni contractus (kontraktlar) va racta (ahdlashuv, kelishuv) larga bo'lingan.

Rim huquqining sinfiy davrida esa sivil huquqlari tomonidan tan olingen hamda huquqiy himoya bilan ta'minlangan munosabatgina shartnomasi deb e'tirof etilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, majburiyatlarning vujudga kelish asoslaridan eng ko'p qo'llaniladigan turi bu shartnomadir.

Qadimgi Rim qulorchilik davlatining mashhur yuristi Gayning ta'riflashicha, shartnomalar asosida vujudga keladigan majburiyatlar 4 qismga bo'linadi:

1. Ashyolarni biror shaxsga o'tkazish, berish bilan bog'liq harakatlar natijasida - (Res)-res;
2. Ilgaridan o'rnatilgan yoki lozim bo'lgan so'zlarni og'zaki aytishlik asosida - (Verba) -verba;
3. Taraflar tomonidan yozma hujjatlarni tuzish, yozish usulida - (Literae)-litteraye;
4. Taraflarning o'zaro kelishuvga va bir bitimga kelgan bo'lishligi asosida - (Sonsensus)-konsensus;

Yuqoridagilarga asoslanib kontraktlarni to'rt turga bo'lganlar:

1. Konsensual shartnomalar;
2. Verbal shartnomalar;
3. Literal shartnomalar;
4. Real shartnomalar.

Shartnomalarning eng qadimgi turi norasmiy asosda tuzilgan nexium (neksium)dir.

Lekin o'sha davrning nihoyatda mashhur bo'lgan yuristi Gay bu shartnomaning dastlabki vaqtida mavjud bo'lganligini e'tirof etsa-da, lekin bu shartnomaga tezda o'z mohiyatiini yo'qotib yuborganligi uchun uni o'z klassifikasiyasiga (shartnomalarning alohida, mustaqil turi sifatida) kiritmaydi.

Yurist Labeon esa yangi eramizning I asrlarida yangi «ismsiz» bo'lgan shartnomalarning mavjudligini isbotlab berdi.

Ayniqsa, bu holat Yustinian kodifikasiyasida yanada qonuniy asosda mustahkamlandi. Rim yurislari shartnomalarning har birini farqlash, o'xshash tomonlarini aniqlashlikka katta e'tiborni qaratgan.

Rim davlatining boshqa davlatlar bilan olib borgan savdo munosabatlari rivojlanishi natijasida, ilgaridan qo'llanib kelingan majburiyatlarning to'rt asosda kelib chiqishi asoslari zamon talabiga javob bera olmay

qoldi. Natijada yangi-yangi shartnomalar kelib chiqdi. Bu shartnomalar ismsiz shartnomalardan iboratdir va ularni o'rganishda Yustinian kodifi-kasiyasiga asosan to'rtta harakatga e'tiborni qaratish lozim.

1. Men beraman, sen ham berishing kerak (do ut des);
2. Men beraman, sen harakat qilishing lozim (do ut fasias);
3. Men harakatni amalga oshiraman, sen uni berishing kerak (fasio ut des);
4. Men harakatni sodir etaman, sen hain harakat qilishing kerak (fasio ut fasias).

«Beraman» so'zi mulkni o'tkazaman yoki beraman degan ma'noni, «harakat» so'zi esa «xizmat va harakatlarni» amalga oshirishni ifodalaydi.

Ismsiz shartnomalar ham himoya qilingan. Bulardan tashqari «paktlar» ham shartnomaviy huquqiy munosabatlarni keltirib chiqqargan.

Shartnomalarga qarma-qarshi bo'lgan rasmiy ravishda tuzilgan, ammo himoya qilish huquqlariga ega bo'lмаган shartnomalarning turlari ham mayjud bo'lgan. Ular xuddi konsensual asosda tuziladigan shartnomalarga o'xshab ketgan. Konsensual shartnomalarning turlari konkret belgilangan, ya'ni ular quyidagi shartnomalardan iborat bo'lgan:

1. Oldi-sotdi - emrtio-venditio; (empisio-vendisio).
2. Mulk ijarasi Locatio-conductio; (lokasio-kondiksio).
3. Hamkorlik (o'rtoqlik) shartnomasi - Societas; (sosiyetas).
4. Topshiriq shartnomasi - mandatum; (mandatum).

Qadimgi Rim huquqida olish-sotish shartnomasi tovar ayriboshlash asosida, pulning yoki biror bir ekvivalentning vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan.

XII Jadval qonunlarida ko'rsatilishicha, kredit dastlab oldi-sotdi shartnomalari bo'lib hisoblangan, lekin u vaqtida bu shartnoma konsensual shartnoma deb e'tirof etilmagan va bu shartnoma real shartnomalar tizimiga kiritilgan.

Rim huquqi olish-sotish shartnomasi deganda, bir tomon -sotuvchi (venditor) sotib oluvchiga - ikkinchi tomonga ma'lum bir ashyon, mol-mulkni topshirishga (yetkazib berishlikka-emrator), ikkinchi tomon mol-mulkni, ashyon, tovar (merx)ning bahosini aniqlab, unga ma'lum bahodagi pulni (bahoni) - rretiumni to'lashi shart bo'lgan huquqiy asosdagi kelishuvga tushunilgan.

O'sha paytda shartnomaning eng asosiy elementlari tovar narxi (bahosini aniqlash), tovar sifatida yetkazib berilishi lozim bo'lgan ashyo, mulk, yoki shartnoma predmeti bo'lib hisoblangan.

Bu shartnoma konsensual shartnoma bo'lib hisoblansa-da sinfiy davrda va Yustinian davrida boshqacha ma'noga ega bo'lib bir xil mazmunni anglatmagan.

Oldi-sotdi shartnomasining predmeti bo'lib fuqarolik oborotida qat-nashadigan barcha tovar, ashyo va mulk bo'lib hisoblangan. Ayniqsa, qul-

lar - asosiy ob'yeqt bo'lib tanilgan. Oldi-sotdi shartnomasida tovar bahosini aniqlamasdan shartnomalar tuzilmash edi.

Mulk ijarasi shartnomasi, ashyoviy shartnoma deb ham atalib, uch qisimga bo'lingan.

1. Lokasio - konduksio rerum: (ashyoviy shartnoma);
2. Xizmat ko'rsatish shartnomasi (lokasiya-operarum);
3. Ishlarni bajarishni ijaraga olish (pudrat shartnomasi).

Verbal shartnomalari Rim huquqida ko'p qo'llanilgan shartnomalar tizimiga kiritilgan. Stipulyasiya verbal shartnomada ko'proq qo'llanilib, og'zaki, oldindan belgilangan so'zlarni va formulalarini aniq qilib, buzmanidan, kreditor bilan qarzdorlarning so'zлari, gapi, ma'nosi va mazmuni bir-birga mos kelishi lozim bo'lgan. Dastlabki paytlarda qasam ichishlik ya'ni sakral huquqlar yoki odat normalari asosida bu shartnoma amalga oshirilgan.

Bu shartnomaning zamirida «Men senga 100 qadoq oltin bersam, sen shu ishlarni qilasanmi?», degan so'rov va ishni, xizmatni bajaruvchi shaxs «Albatta, qasam ichib aytamanki, men siz aytgan ishni amalga oshiraman va shuni bajaraman», degan qasamyod yoki chin so'zli va'dalar yotgan.

Rim huquqining sinfiy davriga kelib Stirulatio va sronsio nihoyatda rivojlandi.

Mashhur yurist Ulpiyan fikriga ko'ra, stipulyasiyani amalga oshirishda, hatto, kreditor tomonidan berilgan mablag' asosida qarz oluvchiga shu harakatni (ya'ni u aytgan talabni) bajarasanmi, deb so'rageda, u rozilik alomati sifatida boshini qimirlatishi mumkin edi. Ammo, shartnoma to'liq xaqiqiy bo'lishlik uchun albatta tovush chiqarib ilgaridan belgilangan so'zlarni aytishlik bilan amalga oshirilsa, bu stipulyasiya bo'lib hisoblangan.

Verbal shartnomalar deganda, ilgaridan belgilangan so'zlar va formulalarning og'zaki takrorlanishi lozim bo'lgan hamda bu so'zlar va formulalarni takrorlash shartnoma tuzish uchun asos bo'lishi oqibatida tuziladigan shartnomalarga tushuniladi.

Verbal shartnomalarining asosiy turi - stipulyasiya da'veoni ta'minlash uchun qilingan harakat bo'lib, hatto prosessni yutqazib qo'ysa ham kelib chiqqan harajatlarni qoplash uchun ishlatalidigan moddiy boylik abstrakt asosda tuzilgan shartnoma hisoblanib qat'iy formal asosda bir tomonga huquq va ikkinchi tomonga majburiyat yuklaydi. Sitipulyasiya asosida tuzilgan shartnomaga asosan sotib olingan predmetning bahosini to'lash, qarz shartnomasiga binoan qarzni to'lash, undirish kabi harakatlarni amalga oshirish mumkin edi.

Rim fuqarolik huquqiy munosabatlarini yanada rivojlanishi natijasida murakkab stipulyasiya formulalari vujudga kelib, kreditor safida mustaqil bo'lgan yangi kreditorlar yoki bir necha qarzdorlar kabi majburiyatda qat-

nashuvchi sub'yeqtlnarning vujudga kelishi bilan korreal majburiyatlar hamda topshiriq shartnomalari kabi majburiyatlar kelib chiqdi.

Yozma ravishda tuziladigan shartnomalar (Contractus litteralis, litterarum obligatio) qadimgi rim huquqida imperatorlik davriga kelib tuziladigan yozma shartnomalar bilan bir-biriga yaqin bo'lsa ham, lekin ular o'z mazmun va mohiyati bilan bir-biridan to'liq farq qilgan.

qadimgi Rim huquqida litteral yozma shartnomalar kirim-chiqim daftarlari yozilgan bo'lib, u daftarlari har bir oilada mavjud bo'lgan. Bu daftarlarni yuritish qadimgi Gresiyadan kelib chiqib, Rim davlatini vujudga kelishligi bilan yanada kuchaydi (VI asr).

Kreditor qarzdorni ma'lum summa, ashyo, tovar yoki urug'liklar bilan ta'minlar ekan, uni sarf qilingan yoki qarzga berilgan sahifaga yozib qo'ygan.

Litteral shartnomalarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, taraflarni o'zaro kelishuvi albatta hujjat asosida rasmiylashtirilishi kerak edi.

Qadimgi Rim huquqining sinfiy rivojlanish davrida kirim va chiqim daftarlari o'mniga xirograf (tilxat) va singraflar vujudga keldi, ya'ni ular uchinchi shaxs nomidan tuzilardi.

Bu yozma shartnomalar guvohlar oldida tuzilgan va shartnomaning tuzilganligini guvohlar ham o'z imzolarini qo'yishlik bilan tasdiqlaganlar.

Real kontraktlar (shartnomalar).

Real shartnomalar deb, taraflarning o'zaro kelishuvi va shartnoma predmetining, ko'pincha ashyo(res-res)ning o'zini qo'lidan-qo'lga o'tkazishlikka tushuniladi.

Rim quidorchilik davlatida real shartnomalar tizimiga qarz (mutuum), ssuda (commadatum) va omonat saqlash (derositum) shartnomalari kiritilgan.

Qarz (mutuum) shartnomasi - Rim quidorchilik tizimining asosiy o'rinni egallagan shartnomalaridan biridir.

Rimliklar bu shartnomaga quyidagicha ta'rif berganlar:

Qarz shartnomasiga asosan bir taraf ya'ni qarz beruvchining ikkinchi taraf ya'ni qarz oluvchiga mulk huquqining egaligi asosida ma'lum summalarini (pulni) yoki almashtirilishi mumkin bo'lgan ashylarni shartnomada ko'rsatilgan muddatga yoki talab qilib olish muddati asosida berishi, ikkinchi tarafning ushbu summani yoki jinsiy alomatlarga ega bo'lgan ashynoni kelishilgan muddatda qaytarib berish majburiyatini olishligiga tushunilgan.

Qarz shartnomasida aynan berilgan summa hajmida hamda aniq belgilangan alomatli ashynoni olgan bo'lsa, aynan shuning o'zini qaytarish lozim bo'lgan.

Qarz shartnomasi - tipik asosdagi real ravishda vujudga keladigan shartnoma bo'lib xisoblanib, u consensus ya'ni kelishuv hamda ashyoning

yoki berilayotgan qarz predmetining qo'ldan-qo'lga o'tishligi bilan tuzilgan deb hisoblangan.

O'z zamonasining mashhur yuristlaridan Pavel shunday deydi: «agar ashyo yoki qarz predmeti o'z egasidan boshqa shaxsga o'tmasa, u qarz shartnomasi bo'lib hisoblanmaydi□».

Qadimgi Rim davlatining huquqshunoslari agar consensus (kelishuv) bo'lmasa, shartnoma yo'q deb talqin qilganlar.

Real shartnomalarni tuzishlikda eng avvalo, quyidagi munosabat-jarga asosiy e'tiborni qaratganlar:

a) huquq va majburiyatlarning paydo bo'lishi uchun, taraflarning o'zaro kelishuvlarining mavjud bo'lishligi;

b) shartnomaning rasmiylashtirilishidan qat'iy nazar, shartnoma predmetining o'zi ashyo yoki ekvivalent sifatida topshirilishining talab qilinishi asos bo'lib hisoblanishi.

Ular faqat consensus Q ashyoning topshirilishi Q mulk egasining o'zgarishi formulasini eqlab chiqqanlar.

Qarz shartnomasi Rim huquqining yuqori darajada rivojlanishi natijasida kelib chiqqan. Uning Rim davlatidagi dastlabki shakllari nexum (neksum) va stirulatio (stipulyasiy) bo'lib, ular hatto XII Jadval qonunlarining vujudga kelishligidan ham oldin qo'llanilgan.

Qarz shartnomasining tasodifan nobud bo'lishlik xavf-xatari doimo qarz oluvchida bo'lgan. Unga bo'lgan mulkchilik huquqi qarz predmetining boshqa shaxsga o'tishidan boshlanib, ashyo, mulk kimga o'tsa, u mulk huquqining sub'yekti bo'lib hisoblangan.

Bu shartnoma qat'iy bir tomonlama shartnoma bo'lib, qarz bergen shaxs faqat o'zi bergen ashyoni, predmetni yoki o'sha sonda, kilogramda, metrda yoki og'irlikda talab qilishlikni amalga oshiradi. Qarz olgan shaxsnинг esa bu talablarni bajarishi majburiydir.

Rim quldorchilik davlatida qarz shartnomasini tuzishlikda foizlar olshtlikka ham ruxsat etilgan. Foizlar olish bilan bog'liq shartnomaning eng qadimgisi fenus (fenus) deb atalgan.

Fenus - sinfiy davrda yoki huquqda 1 oyga 1 foiz, Yustinian kodifikasiyasida 1 yilga 6 foiz va savdogarlar uchun 8 foiz o'rnatilgan edi.

Greklar huquqining ta'siri ostida Rim huquqiga yuqorida qayd qiliniganidek, xirograflar (tilxatlar) hujjatini tuzishlik kiritildi. Tilxat - olingan qarz uchun va qarzni olgan shaxsdan berilgan summani, ashyoni undirishda asosiy dalil, isbot bo'lib hisoblangan. U albatta yozma formada amalga oshirilgan.

Greklar huquqining ta'siri ostida «dengiz va kema» deb nomlangan qarz shartnomalari ham mavjud bo'lgan. Bu shartnomalar shartli asosda uzilib, oxirgi tayinlangan joyga ya'nii Moskvadan Londongacha dengizlar orqali shartnoma tuzilsa, u faqat London portlariga yetgandagina, tuzilgan deb hisoblangan.

Yurist Modestinning ta'rificha bu shartnomalar tayinlangan joyga yukning, ashyoning yetib borishligi bilan bog'liq bo'lib, yukning nobud bo'lish xavf-xatari ham qarz beruvchiga yuklatilgan. Bunday vaqtida bir marta borib kelishlik uchun 12 foizgacha sug'urta olingan.

2-§. Shartnomalarga o'xshash harakatlar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari (qvasi ex contractu) kvazi eks kontraktu

Shartnomalarga o'xshash harakatlar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari xuddi shartnomalar asosida kelib chiqadigan majburiyat-larga o'xshasa ham, ammo o'rtada shartnomalar tuzilmasdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlardan iborat bo'lib, o'z mazmuni va xarakteri bilan unchalik bir-biridan farq qilmaydi.

U ko'pgina shartnomasiz, deliksiz (shartnomalarni buzish, bajarmaslik) bir tomonlama bitimlar yoki boshqa faktlar asosida vujudga keladi.

Shartnomalarga o'xshash harakatlar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Negotiorum gestio - negosiorum gestio topshiriqsiz boshqalarning ishini amalga oshirish yoki boshqa shaxslar uchun g'amxo'rlik qilishlik;

2. Bir shaxsning ikkinchi shaxs (boshqalarning) hisobiga asossiz ravishda boyib ketishligi natijasida.

Negosiorum gestio - shartnomalarga o'xshash harakatlar natijasida majburiyatlarning kelib chiqish asoslaridan biri bo'lib, topshiriqsiz bir shaxs tomonidan gestor (gestor) ikkinchi shaxsning nomidan va ikkinchi shaxs hisobiga ma'lum bir harakatlarni bajarishlik yoki uni mulkini boshqarishlikdan iboratdir.

Bu majburiyatlar ko'pincha bir shaxsning o'z mulkini boshqara olmaslik yoki uning uzoq vaqt davomida mulk joylashgan hududda bo'lmaslik oqibatlaridan kelib chiqqan.

Bular asosan, quyidagilar orqali aniqlanilar edi: birinchidan, «boshqalarning ishini boshqarish» ya'ni bir yoki bir necha harakatni boshqa shaxsning manfaati uchun amalga oshirishdan kelib chiqardi. Ikkinchidan, agar biror harakatni bajarmasa ham, faktik holat bilan ham belgilanishi mumkin edi.

Masalan: Biror bir shaxsning qora molini sug'orish, yoki qulining qornini to'yg'azib qo'yishlik harakatlarini amalga oshirish.

Bu harakat haqsiz, topshiriqsiz, boshqa shaxsning hisobiga, shartnomasiz amalga oshirilgan munosabatlar doirasiga kiradi.

Bu harakatlar O'zbekiston Fuqarolik huquqidagi vakolatnomasiz vakilik institutiga ham o'xshaydi. Chunki, bu qilingan harakatni agar ikkinchi tomon qo'llab-quvvatlasa uning harakati baholanib unga ma'lum bir saq to'lanardi.

Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar deganida, qadimgi Rimliklar qonunlarda, shartnomalar yoki bitimlarda belgilangan asoslar bo'lmasdan turib, boshqa shaxslarning hisobidan (puliga pul qo'shilishi, ashyolariga ashyo qo'shilishi yoki talab qilib olinishi lozim bo'lgan huquqning ko'payishi) mulk orttirishlikka yoki boyishlikka tushunilgan.

Cdatda, mulkning ko'payishi, asossiz boyishlik, qarz shartnomasi asosida mulkiga mulk qo'shishlik, oldi-sotdi shartnomalari yoki biron-bir huquqiy oqibatlarning kelib chiqishi natijasida vujudga kelishi mumkin.

Qadiungi Rim huquqida asossiz boylik orttirish natijasida kelib chiqadigan majburiyatlarning asosiy vazifasi (funksiyasi) jabrlanuvchining mulkiy holatlarini o'z joyiga qaytadan tiklash, ya'ni asossiz boylik orttirish natijasida ko'lga kiritilgan mulkni yoki tejalgan mulkni qaytarib berishlikdan iborat bo'lib hisoblangan.

Asossiz boyishlikning natijasida vujudga kelgan majburiatlarda, mulkni qaytarib olishlikda kondiksion da'vo qo'zg'atilgan.

Rim yuristlari da'vo predmetiga qarab asossiz boylik orttirish majburiyatini uch qismga bo'lganlar:

Birinchidan, haq to'lanishi lozim bo'lмаган harakat uchun yanglishish, adashishlik yoki boshqacha tarzda xaq to'lashlikka tushunilgan.

Ikkinchidan, oldindan berib qo'yilgan narsani (ya'ni biror harakatni amalga oshirish yoki harakatdan to'xtab turish uchun mo'ljallangan) qaytarib berishlik majburiyatiga hamda uchinchidan, boshqa asoslar bo'yicha boyib ketganligi natijasida tushgan boyib ketish predmetini ham qaytarib berishlik majburiy bo'lgan.

Bu munosabatlarning amalga oshirilishligi uchun quyidagi asoslar bo'lishi talab etilgan:

- a) summa, pul, ekvivalent, ashyo boshqa shaxsga o'tkazilgan bo'lisligi;
- b) oldindan qarzi bo'lмаган holat mayjud bo'lishi;
- v) adashish, yanglishish, to'g'ri tushunishligi murakkab bo'lgan holatda;
- g) mulkiy manfaatlarning boshqa shaxsga o'tishligi;
- d) maqsad va asos amalga oshirilmay qolishliklari asossiz boylikni keltirib chiqargan. Bu esa majburiyatlarni vujudga keltirib chiqargan.

3-§. Huquqni buzish asosida va huquqni buzishlikka o'x-shash asosda kelib chiqadigan majburiyatlar (ex delicto va quasi ex delicto) eks delikto va kvazi eks delikto

Majburiyatlarning vujudga kelishligida muhim o'rinnlardan birini egallaydigan asoslaridan biri deliktlardir.

Deliktlar - huquqni buzishlik, noqonuniy bo'lgan harakatlarni keltirib chiqaruvchi munosabatlardir.

Rim huquqi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi huquqni buzish asosidagi majburiyatlarni ikki qismga bo'lgan. Ular ommaviy deliktlar va xususiy deliktlardir. (delicta publica va delicta privata).

Ommaviy asosdagagi deliktlar davlat manfaatlari qarshı qaratilgan, badanga og'ir shikast yetkazish, o'lim jazosi bilan bog'liq yoki davlat foydasiga undirilishi lozim bo'lgan muhim va katta hajmdagi mulkiy huquq buzarliklardan kelib chiqqan. Bunday tartibdagagi ishlar alohida jinoyat ishlarini hal qiluvchi sudlarga taalluqli hisoblanib, ular alohida sud ishlarini ko'ruvchi jarayon bilan tartibga solingan.

Xususiy asosdagagi deliktlar esa xususiy shaxslarning manfaatlari bilan bog'langan bo'lib, xususiy da'volar orqali amalga oshirilgan va da'volarning o'zi ham xususiy shaxslarga qaratilgan.

Ko'proq, bu munosabatlar mulkiy jarimalarni o'z ichiga olgan bo'lib, jarblanuvchining foydasiga undirilgan. Qadimgi Rim huquqining dastlabki rivojlanish bosqichlarida hatto badanga shikast yetkazish (ya'ni jinoiy harakat va jinoiy jazo, o'g'irlik bilan bog'liq harakatlar) ham xususiy deliktlar orqali tartibga solingan.

Qadimgi Rim jamiyatida shaxslarga yetkazilgan zarar uchun jabrlanuvchi, uning ota-onalari, qavm-qarindoshlari bilan birligida zarar yetkazuvchidan o'ch olishgan.

Rim davlatining taraqqiy etishi hamda huquqiy munosabatlarining yanada takomillashuvi natijasida ilgarigi xususiy o'ch olishlik instituti o'zining samarasini bermay qoldi. Uning o'rniga jabrlanuvchi va javobgar shaxslarning o'zaro kelishishligi asosida pul jarimasi (shtraf) yoki jabrlanuvchiga yetkazgan zararning hajmiga qarab moddiy taqdirlanish principi qo'llanila boshlandi.

Rim huquqining gurkirab o'sishi oqibatida xususiy huquqbazarlikning o'zigi xos elementlari yoki asosiy komponentlari vujudga keldi.

Eng asosiy elementlaridan biri, bir shaxsning ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararning ob'yektiv mavjudligi, ikkinchi element esa shaxsning zarar yetkazishdagi aybining ochiq-oydin va yaqqol ko'rinish turishligi; (qasddan qilingan aybli yoki ehtiyoitsizlik asosida vujudga kelgan aybli), hamda ob'yektiv tomondan ushbu harakatning huquqni buzuvchi harakat deb tan olinishi kiritilgan.

Xususiy deliktlarning asosiy turlaridan biri Iniuria-(inyuria) deb atalib, huquqqa, qonunlarga zid, qarama-qarshi harakatlarning sodir etilishi deb tushunilgan.

XII Jadval qonunlarida ham shaxsiy kamsitish, xafa qilish yoki insoning nafsoniyatiga tegish, ayniqsa badanga og'ir shikast yetkazish (oyoqni, qo'lni sindirish, ko'r qilib qo'yish) kabi xususiy huquqbuzarliklar dan kelib chiqadigan majburiyat huquqiy normalari ko'rsatilgan.

Eng og'ir bo'lgan huquqbuzarlik - insonning tanasiga, a'zolariga zarar yetkazish bo'lib hisoblanib, ko'pincha talio prinsipi «oko za oko, zub za zub» (jonga jon, qonga qonni qo'llashlikka o'xshab ketadi) qo'llanilgan.

Qullarga yetkazilgan zarar uchun 150 ass (pul birligi), ozod bo'lgan shaxslarga yetkazilgan zarar uchun esa 300 ass to'lattirilgan.

Pretorlik huquqi jismoniy daxlsizlikni butunlay shaxsning shaxsiy huquqlariga, oilaviy, or-nomus, sha'n, qadr-qimmatiga qaratilishini hamda keyinchalik esa uy-joyga zo'rlik asosida kirib olishliklar natijasida kelib chiqadigan majburiyatlar uchun ham javobgarlikni kuchaytirishga katta e'tibor qaratadi.

Xususiy deliktlarning yana bir turi - Furtum (furtum)- o'g'irlik deb atalib, mulk huquqi sub'yektining erkiga qarama-qarshi harakatni sodir etib, o'zi uchun mulkiy manfaatni paydo qilishlik e'tiborga olib qilingan harakatga aytilgan.

Rim huquqi hatto qulning o'z xo'jayinidan qochib ketishlikni ham o'zini-o'zi xo'jayinidan o'g'irladi, deb «o'g'ri» sifatida baholaganlar.

XII Jadval qonunlariga asosan o'g'irlik qilgan shaxs o'g'irlagan mulkining ikki barobari asosida to'lashi majbur bo'lgan. O'g'ri o'g'irlik qilayotgani paytda ushlansa unga tan jazosini qo'llaganlar, agar u ekinlarni (bug'doy, arpa va shunga o'xshash) poymol qilsa va kechasi qo'lga tushsa uni o'ldirish mumkin bo'lgan.

Bulardan tashqari aldash, qo'rqitish, mulkni o'ziga o'tkazib olish, firibgarlik kabi harakatlar ham xususiy deliktlarni keltirib chiqargan.

Majburiylarni buzishlikka o'xshash asosda majburiyatlarning vujudga kelish asoslaridan to'rtinchisi bo'lib, majburiylarni buzishlikka o'xshab ketadigan harakatlar hisoblanadi.

Masalan: Sudyaning fuqarolik prosessini o'tkazishlik uchun kelmay qolishligi natijasida, jabrlanuvchi qancha zararga tushishligi mumkinligini hisobga olib, to'liq asosda jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar bo'yicha sudya javobgar bo'ladi.

Bu huquqlar pretorlar da'volari hamda populyar da'volar asosida himoya qilingan.

VIII bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Rim huquqida shartnomalar va bitimlar tushunchasi hamda ularning farqi nimalardan iborat?
2. Konsensual, verbal, real, litteral shartnomalari bir-biridan qanday huquqiy belgilari asosida farq qiladi?
3. Stipulyasiya nima, uning mazmuni va tuzish tartibini aniqlang.
4. Qarz va ssuda (muttuum va commadatum), saqlash (omonat - depozitum) shartnomalarining bir-biridan farqlarini aniqlang.
5. Mulk ijariasi shartnomasi (locatio-conductio) va uning turlari nimalardan iborat?
6. Topshiriq shartnomasini (mandatum) tushuntirib bering.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rimskoye chastnoye pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix institutov i yuridicheskix fakultetov. Pod redaksiyey I.B.Noviskogo i I.S.Peterskogo. M., 1948.
2. Pereterskiy I.S., Krasnokutskiy V.A., Fleyshis YE.A., Rozental I.S., Noviskiy I.B. Rimskoye chastnoye pravo. M., 1948.
3. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956, 1960, 1972 gg.izd.
4. Omelchenko O.A.Osnovo' rimskogo prava. M.,1994.
5. Urazayev.SH.Z. Rimskoye pravo:uchebnoye posobiye. -T.:Akademiya MVD Respubliki Uzbekistan, 2000.
6. Ernazarov O.E., Topildiyev.V.R. Rim Fuqarolik huquqi Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. 2001.

IX BO'LIM. Rim davlatining meros huquqiga umumiy tavsifnoma (xarakteristika)

- 1-§. Meros huquqi tushunchasi. Vorislik huquqi. Uning turlarga bo'linishi.
- 2-§. XII Jadval qonunlari bo'yicha vorislik.
- 3-§. Pretorlar huquqi bo'yicha vorislik.
- 4-§. Yustinian qonunlari bo'yicha vorislik munosabatlari.
- 5-§. Legatlar va fideikomisslar.

1-§. Meros huquqi tushunchasi. Vorislik huquqi. Uning turlarga bo'linishi

Rim quldorchilik tizimida vorislik huquqiy munosabatlari eng mu-rakkab bo'lgan institutlardan biridir. Bu munosabatlар meros qoldiruvchining o'limidan keyin vujudga keladigan huquqiy munosabatlardir.

Vorislik munosabatlari Rim quldorchilik davlatining dastlabki ya'ni birinchi rivojlanish paytlarida ham ma'lum bo'lgan. Vorislik ham xuddi mulk kabi (iqtisodiy kategoriya) sinflarning, davlat va huquqning vujudga kelishidan avval vujudga kelgan bo'lsa ham, lekin tom ma'nodagi vorislik huquqi jamiyatning sinflarga bo'linishi, davlatning vujudga kelishi bilan, iqtisodda hukmron bo'lgan sinfning erki, irodasi va manfaatini ko'zlagan holda paydo bo'ldi.

Qadimgi Rim quorchilik davlatida vorislik deb vafot etgan shaxsning (marhum shaxs), meros qoldiruvchining o'ziga tegishli bo'lgan mulkning fuqarolik qonunlariga yoki odat normalariga asoslangan holda bir yoki bir nechta shaxslarga - merosxo'r larga o'tkazilishiga tushunilgan.

Rim davlatida har bir fuqaro vafot etganidan so'ng o'ziga tegishli bo'lgan xususiy mulkning taqdirini hal qiluvchi farmoyishni o'zi tirikligida (dastlabki paytda og'zaki, keyinchalik esa yozma asosda) odat normalariga va qonunlarda belgilangan tartibda rasmiylashtirganlar.

2-§. XII Jadval qonunlari bo'yicha vorislik

Vorislik munosabatlari dastlab XII Jadval qonunlarida ko'rsatilib, bu qonunga asosan vorislik munosabatlari ikki qismga bo'lingan:

1. Qonun bo'yicha vorislik;
2. Vasiyat bo'yicha vorislik.

Rim quldorchilik davlatidan oldin vujudga kelgan vorislik huquqini qabul qilish munosabatlari vasiyatnomasiz paydo bo'lgan bo'lsa, bu munosabatlar qonun bo'yicha vorislik deb atalib, uning huquqiy rejimi qonun bo'yicha vorislik asosida hamda ko'proq XII Jadval qonunlari bilan tartibga solingan.

XII Jadval qonunlariga asosan, meros qoldiruvchi shaxs vafot etishidan oldin vasiyatnomalar qoldirmagan bo'lsa, uning birinchi meros oluvchisi agnatlar bo'lib, asosan uning katta o'g'li hisoblangan.

Barcha mulk meros massasi aka-ukalarga, opa-singillarga, o'limidan keyin tug'ilgan farzandiga, umuman agnatlar oilasiga o'tkazilgan.

Qadimgi Rim huquqiy munosabatlarda vorislik huquqi o'zining quyidagi xarakterli xususiyatlariga ega bo'lgan:

1. Merosni qabul qilgan aka-ukalar va agnat qavm-qarindoshlari o'zlarining qullariga (qullar esa mulk bo'lib hisoblangan) ozodlik huquqlarini berish vakolatlariga ham ega bo'lganlar;

2. Merosni qabul qiluvchilar vafot etgan shaxsnинг barcha qarzlarini ham qabul qilganlar hamda o'zaro bu majburiyatlarni bajarishni bo'lib olganlar.

Vorislik huquqiy munosabatlari o'z xarakterli xususiyatlariga qarab sivilni (fuqarolik) vorislikka va pretorlik (yoki pretorlar) huquqlari bo'yicha qismlarga bo'lingan. Eng ko'p qo'llaniladigan vorislik sivilni (fuqarolik) vorisligidir.

Fuqarolik vorislik deb, vafot etayotgan shaxs tomonidan xalq ko'p yig'iladigan forumlarda, kuriat komisiyalarida (ya'ni mahalliy hokimiyat oldida), urush vaqtlarida esa qurollangan saf tortib turgan qo'shinlar oldida, kimga meros qoldirishni og'zaki ravishda vasiyat qilinishiga aytildigan. Bu munosabatni hatto, V-VI asrlarga kelib imperator Yustinian ham qo'llab-quvvatlagan.

Bulardan tashqari, pretorlar hamda imperator oldida qoldirgan vasiyatnomalar ham bo'lgan, lekin bu vasiyatnomalarni yettiha guvoh tasdiqlashi, imzosi qo'yilgan bo'lishi hamda pretor yoki imperator ham tasdiqlashi lozim, ayniqsa kimga meros qoldirayotganligini meros qoldiruvchi o'z qo'li bilan yozishi lozim edi. Bu esa qoldirilgan, ya'ni tuzilgan vasiyatnomaning haqiqiyligini isbotlab bera olish layoqatini keltirib chiqarardi. Vasiyatnomani tuzishda guvohlar sifatida xotin-qizlar, voyaga yetmagan shaxslar, davlat jinoyatchilarining bolalari, karlar, ko'rilar, jismoniylar va ruhiy tomonidan kamchiligi bor shaxslar hamda vasiylikda bo'lgan fuqarolar hisobga olinmagan.

Kim huquqi tomonidan ishlab chiqilgan vorislik huquqiy munosabatlari barcha davlatlar, xalqlar, ayniqsa feodalizm va burjua jamiyatlari tomonidan o'liq qabul qilindi, hatto hozirgi zamон qonunchiligi universal huquqni qabul qiluvchi, ya'ni barcha qoldirilgan meros massasi bilan meros qoldirigan shaxsning qarzlarini, ya'ni majburiyatlarini ham to'liq qabul qilishni va bajarish mas'uliyatini olishlik orqali meros qoldiruvchining huquqiarining yanada davom ettirilayotganligini bildiradi.

Rim huquqi universal huquqni qabul qilish bilan birgalikda singulyar huqaqni qabul qilish institutini ham ishlab chiqdi. Bunga asosan, meros qoldiruvchining yakka iltimoslarini, buyruqlarini bajarish uchun merosning ma'lum qisrnini qabul qilishiga tushuniladi. Bu huquqni qabul qilish, barcha qoldiriigan meros massasi bilan bog'liq emasligi yoki uning qaz va bo'sha majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga olinmasligini bildirgan.

Qadimgi Rim quldorchilik davlatida meros deganda, olamdan o'tmochi bo'lgan shaxs o'z mol-mulkini bir yoki bir nechta shaxslarga bo'lib berish uchun farmoyish berishiga tushunilgan.

Zuning ma'nosi - merosxo'r (merosxo'rlar) biror bir harakat, ruxsat yoki hujjat (vasiyatnomalar) asosida meros qoldiruvchining butun mol-mulkiga bir nechta merosxo'r bo'lgan taqdirda ham, avvalo mol-mulkning ha'nrasiga egalik qilishga kirishishlikka tushunilgan. Demak, merosxo'rga barcha mulk o'tishi bilan marhum qarzlar, majburiyatlar ham o'tgan.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu huquqni qabul qilish universal huquqni qabul qilish deb atalgan. Merosni to'liq asosda qabul qilmaslik yoki merosni qabul qilishdan voz kechish - legatlar yoki fideikomisslar deb atalib, ularni singulyar asosda huquqni qabul qilish deb atalgan. Rim quldorchilik davlatida meros qoldirish juda ko'pchilik hollarda vasiyatnomalar orqali amalga oshirilgan. Rimliklar vasiyatnomalar deb - meros qoldiruvchi tomonidan ixtiyoriy, erkin asosda o'z mulkini bo'lib berishlik hamda merosxo'rning tayinlanishiga aytilgan. Sinfiy huquq bo'yicha bunday tayinlanish vasiyatnomalar orqali amalga oshirilgan hamda dastlabki paytlarda vasiyatnomani tuzish majburiy bo'lgan. Vasiyatnomada ko'rsatilgan meros oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lib hisoblansa, unga vasiy tayinlangan. Vasiylikdan tashqari homiylik instituti ham mavjud bo'lgan.

Homiylid deb, ruhiy yoki jismoniy tomonidan kamchiligi bor shaxslarni hamda o'zi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning huquqiy oqibatini tushuna olmaydigan jismoniy shaxslar ustidan belgilanadigan rahbarlikka tushunilgan, bunda homiylikda bo'lgan shaxsning barcha huquq va majburiyatlarini amalga oshirish uchun belgilangan shaxs homiy

sanaladi. Vasiy va homiylar faqat o'z vasiyligida yoki homiyligida bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilganlar.

Vasiyatnoma bir tomonlama bitim bo'lib hisoblangan, chunki unda meros qoldiruvchining erki ifodalangan xolos, ya'ni vasiyat qiluvchining erkiga binoan huquq va burchlar vujudga kelgan. Vasiyatnoma - meros qoldiruvchining oxirgi o'z erkini izhor qiluvchi hujjatidir. Vasiyatnomaning bir tomonlamaligining xarakteri yana shunda ko'ringanki, uni vasiyat qoldiruvchi istagan vaqtida o'zgartirish yoki bekor qilish huquqlariga ega bo'lgan. Hatto oldingi tuzgan vasiyatnoma o'rniga yangisini tuzib, oldingisining kuchini yo'qotardi.

Vasiyatnomani tuzish uchun maxsus layoqat talab etilgan. Vasiyatnomani tuzish layoqatiga muomalaga layoqatsiz shaxslar ega emas edilar. Vasiyatnomaning shakli uzoq vaqt davomida asta-sekin soddalashtirilib kelingan, lekin shunda ham Yustinian Kodeksida ko'rsatilganidek, baribir bu masalanji hal qilish nihoyatda murakkab bo'lgan. Unga ko'ra vasiyatnomani tuzish paytida 7 nafar guvohning qatnashishi talab etilgan, lekin dastlabki paytlarda yozma shakl majburiy hisoblanmagan. Xususiy asosda vasiyatnomalarini tuzish bilan bir qatorda oilaviy asosda vasiyatnomalarini tuzishga ham ruxsat etilgan, ya'ni bunda davlat organlari qatnashgan, sudning bayonnomasi yoki munisipal magistratning bayonnomasiga kiritish (vasiyatnoma qoldiruvchining roziligi bilan) hamda vasiyatnomani imperator devonxonasiga topshirish orqali ham amalgalashirilgan. Vasiyat qoldiruvchi tomonidan aniq «Persona certa» tayinlanishi kerak bo'lgan. Ayniqsa, merosni qabul qiluvchi shaxsni meros qoldiruvchi o'zi yozma ravishda ko'rsatishi lozim bo'lgan. Har qanday holatlarda ham tayinlanayotgan vorislar, eng avvalo voris (yoki merosxo'r) sifatida tayinlanish layoqatiga ega bo'lishi lozim edi.

Imperator Avgustning «Nikohsizlik va bolasizlikka qarshi kurash to'g'risida»gi qonuniga ko'ra 25-60 yoshdagi bo'ydoq erkaklar va 20-50 yoshdagi turmushga chiqmagan ayollar merosni faqat yaqin qarindoshlari orqali olishlari mumkin edi. Shunda ham, ularning meros olinganidan keyin yuz kun ichida turmushga chiqishi yoki uylanishi talab etilgan.

Merosxo'rni tayinlashga bir qancha shartlarni belgilash asosida ham yo'l qo'yilgan. Bu shartlar suspenziv shartlar vujudga kelguncha to'xtatib turiladigan holatlardan deb atalgan. Shartnomaning shartlariga asosan, taraflar ma'lum yuridik oqibatlarni vujudga keltirishni ma'lum shartlarga, ya'ni «o'lganimdan keyin menga yodgorlik qo'yishlik, mana shu qoldirayotgan mulkim asosida nevaram Abdullaga uy-joy qurib berish yoki doimo mening tug'ilgan kunimni xotirlash» kabi shunga o'xshash shartlar bilan

bog'lagan. Agar meros qoldiruvchi vasiyatni suspenziv shart bilan tuzgan bo'lса, bunday holatda meros qoldiruvchining o'limi bilan emas, balki shu shartning vujudga kelishi bilan ochilgan. Lekin qo'yilgan shartlar qonuniy bo'lishi kerak bo'lgan. Ya'ni masalan: «agarda qizim o'g'il tug'sa, unga katta to'y qilib berasiz» degan shartni qo'yish mumkin bo'lмаган, chunki u o'g'il tug'masdan qiz bola ham tug'ishi mumkin edi.

Merosxo'rni tayinlashda muddatni suspenziv shartning vujudga kelishi bilan ham bog'langan, ya'ni merosxo'r tayinlanilgan, ammo u merosni qabul qilishdan voz kechsa, uning o'miga ikkinchisi, ya'ni bo'lajak voris tayinlangan.

Buning mazmuni shundan iboratki, agarda birinchi o'rinda tayinlangan merosxo'r u yoki bu sababga ko'ra merosdan voz kechsa, uning o'miga albatta qo'shimcha merosxo'r tayinlangan. Qadimgi Rim quldorchilik davlatining dastlabki paytlarida vasiyat qoldiruvchi cheklanmagan huquq va erkinliklarga ega bo'lib, u o'z mulkini hohlaganicha o'z xohishi bo'yicha tasarruf etgan. Bu qoida XII Jadval qonunilarida ham o'z tasdig'ini topgan. Ammo, patriarchal tizimning inqirozga uchrashi natijasida birinchi tarafdan odamlarning nihoyatda soddaligi va qat'iyligini yo'qotishi, ikkinchi-tarafdan vasiyat qoldiruvchining meros qoldirishida cheklanmagan erkinliklarga ega bo'lishi natijasida mol-mulk mutlaqo begona shaxslar, xolis, tasodifiy shaxslarga o'tib ketishiga yoki yaqin qarindoshlariga hech narsa tegmasligiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash lozim bo'lgan. Shuning uchun keyinchalik cheklanmagan huquq va erkinliklar asta-sekin cheklana boshlandi va qonuniy vorislik munosabatlarini vujudga keltirish zaruriyatni ke-lib chiqdi.

XII Jadval qonuniga binoan, marhumning fuqarolik vorislari jumlesi uch navbat asosida tashkil topgan. Birinchi navbatdagi vorislarga marhumning bolalari, eri yoki xotini, vafot etgan bolalaridan qolgan nevaralari, o'g'il yoki qiz farzand qilib olinganlar, otasi yoki onasi tirik bo'lса, ular kiritilgan. Qoldirilgan meros ular o'rtasida bo'lib olingan.

Bu munosabatda «taqdim etilish huquqi» qol'llanilgan. Taqdim etilish huquqi deganda meros ochilgan kunga qadar vafot etgan voris huquqlarining boshqa shaxslarga o'tishi tushunilgan.

Ikkinci navbatdagi vorislarga agar o'zining bolalari, ota-onasi yoki bolalarining bolalari, ya'ni nevaralari va farzandlikka olingan bolalari bo'lмаган taqdirda, agnatlar kiritilgan, ya'ni vafot etgan shaxsning akaukalari, opa-singillari, onasi va yaqinlari, agar ular ham bo'lmasa bunday vaqtida uzoqroq bo'lgan agnat qarindoshlari chaqirilgan.

Uchinchi navbatdagi vorislarga to'liq asosda tushuncha berilmagan va tez orada bu navbatdagi vorislik munosabatlari qo'llanilmay qolgan. Qonun asosidagi vorislik asosan agnatlar oilasiga mo'ljallanilganligi uchun pretorlar o'z ediktleri orqali qon-qarindoshlik munosabatlarini yaqinlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va unga erishishga muvaffaq bo'lib, tez orada agnatlar qavm-qarindoshlari o'rniga qon-qarindoshlik bilan bog'liq bo'lgan kognatlar kirib keldilar.

3-§. Pretorlar huquqi bo'yicha vorislik

Pretorlik huquqining mohiyatidan biri shundan iboratki, ular vorislik munosabatlaridagi agnatlar qavm-qarindoshlarining o'rniga qon-qarindoshlik bilan bog'liq bo'lgan kognatlik vorislik munosabatlarini keltirib chiqardi. Pretorlar o'z ediktlarida vorislik munosabatlarini to'rtta navbatga bo'lib o'rganganlar. Lekin ba'zi adabiyotlarda pretorlik huquqi bo'yicha vorislik yetti navbatga bo'lingan. Umuman yetti qismga bo'lin-gan bo'sada, ammo mazinuni shu to'rtta navbatdagi vorislik bilan tenglashtirilgan.

Birinchi navbatdagi vorislarga vafot etgan shaxsning to'g'ri chiziq bo'yicha bog'liq bo'lgan bolalari, o'z bolalariga tenglashtirilgan barcha shaxslar hamda emansipasiya asosida ozod bo'lgan va farzandlikka beril-gan bolalari, lekin ular vafot etgan shaxsning o'limiga qadar o'z xo'jay-inidan ozod bo'lgan bo'lib hisoblangan bo'salar.

Demak, Rim huquqida birinchi bo'lib agnatlar qavm-qarindoshlari bi-lan kognatlar qavm-qarindoshlarining aralashib ketishi yuzaga keldi.

Ikkinchi navbatdagi vorislar fuqarolik vorislarini to'liq asosda qabul qilib olgan ya'nii asosan agnatlar vorislik munosabatlaridan tashkil topgan.

Uchinchi navbatdagi vorislarga kognatlar yetti pushti (yetti avlodni bilan bog'liq bo'lgan) qavm-qarindoshlari kiritilgan.

To'rtinchi navbatdagi vorislarga asosan patronning oilasi, bolalari hamda keyingi navbatlarda patronning qavm-qarindoshlari ham vorislar (meros oluvchilar) bo'lib hisoblanganlar.

4-§. Yustinian qonunlari bo'yicha vorislik munosabatlari

Imperator Yustinian davriga kelib 543 yilda qabul qilgan 118-tonli Novellasi hamda 548 yildagi 127-tonli Novellasi bilan qonun bo'yicha vorislik tizimini soddalashtirilib, qon-qarindoshlik munosabatlariga ya'nii kognatlar vorisligi tizimiga to'liq o'tdi.

Imperator Yustinian tizimi bo'yicha meros olivchilar navbat ham to'rtga bo'lingan. Birinchi navbatdagi vorislar - to'g'ri chiziq bo'yicha ya'ni vafot etgan shaxsning bolalari va o'lgan bolalarining bolalari ya'ni marhumning nevaralari. Nevaralari otasiga taalluqli bo'lgan hissani olib o'zaro bo'lib olishlari mumkin bo'lgan.

Ikkinci navbatdagi vorislar guruhiga - birinchi navbatdagi vorislar bo'lмаган тақдирда, ўуқори чизиқ асоцидаги ота ва онаси, бува ва буви, вafot etgan shaxsning aka-uka, opa-singillari va ularning bolalari, agar ularning ota-onalari meros ochilishidan oldin o'lib ketgan bo'lsalar, ular Yustinian qonunlari bo'yicha voris bo'ladilar, ular o'zlarining marhum ota-onalariga qonun bo'yicha tegishi lozim bo'lgan meros hissasidan bab-baravar mero oladilar.

Uchinchi navbatdagi vorislar deganda, birinchi va ikkinchi navbatdagi vorislar bo'lмаган тақдирда chaqiriladigan vorislardir. Bular asosan bir ota ikki yoki bir nechta onalardan, yoki bir ona va bir nechta otalardan tug'ilgan farzandlar ham o'gay yoki yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning bolalariga ular o'z ota-onalariga tegishli bo'lgan hissalardan bab-baravar ulush olish huquqlariga ega bo'lganlar.

To'rtinchi navbatdagi vorislar yon tomoni bilan bog'liq bo'lgan eng yaqinlaridan boshlanadi. Bu shaxslar voris bo'lishi uchun yuqorida ko'rsatilgan navbatdagi vorislar bo'lmashligi lozim.

Ammo, vafot etgan shaxsning «kambag'al bevasi» (xotini) haqida Yustinian Novellarida vorislik ko'rsatilmagan. Lekin bu munosabatlar pre-torlar huquqlari bilan amalga oshishi mumkin degan taxminlar mavjud. Ammo, hech qanday o'z mulkiga ega bo'lмаган kambag'al bevalar vorislikning sub'yekti bo'lib, boshqa merosxo'rlardek qolgan merosning 1/4 qismi bo'yicha meros olish huquqiga ega bo'lganlar, lekin olgan meros massasi (hajmi) yuz funt oltindan oshib ketmasligi lozim bo'lgan. Agar hech qanday vorislari bo'lмаган тақдирда mulk egasiz deb topilib, davlat xazinasiga, monastr va cherkov muassasalariga o'tkazilgan.

5-§. Legatlar va fideikomisslar

Legatlar va fideikomisslar Rim huquqida keng qo'llanilib, asosan bu singulyar asosda huquqni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni legatlar merosni qabul qilishdan voz kechishligi yoki marhum tomonidan qoldirilgan mulkdan boshqa shaxsga ma'lum bir summani berib qo'yish to'g'risidagi farmoyish yoki vasiyatnomasi bo'lib hisoblangan.

Legatlar umuman XII Jadval qonunlari asosida vujudga kelgan. Vafot etayotgan shaxs o'zining o'llimidan keyin farzandlarining yashash hayotini e'tiborga olib, vasiyatnomalarda asosida boshqa shaxslarga majburiyatlar yuklagan.

Majburiyatnomada (vasiyatnomada) o'g'il-qizlari yoki xotiniga ro'zg'orni tebratish uchun marhum tomonidan qoldirilgan mulkdan qancha summa berishi kabi munosabatlar ko'rsatilgan.

Rim huquqining dastlabki rivojlanish paytida legatlar kam qo'llanilgan bo'lsa ham, ammo huquqiy munosabatlarning yanada takomillashishi natijasida singulyar asosda huquqni qabul qilish keng qo'llaniladigan bo'ldi. Hatto legat bilan bog'liq munosabatlar bo'yicha ektraordinar prosessi asosida himoya qilinish huquqlariga ham ega bo'ldi.

Rim huquqida, bularidan tashqari, fideikomisslar ham mavjud bo'lib, vafot etmoqchi bo'layotgan shaxsning oxirgi yozma yoki og'zaki ravishda biror bir shaxsdan biror narsani berib qo'yishlik yoki talab qilib olib, boshqa shaxsga berish munosabatlarni amalgaga oshirish kabi iltimoslari vijdonga, chin so'zga va or-nomusga ishongan holda havola qilinib, uni bajarish uchun qilinayotgan oxirgi iltimos bo'lib hisoblangan.

Uzoq vaqtlar davomida bu iltimosni bajarish ma'naviy, ahloqiy vazifa bo'lib hisoblangan, hatto ba'zan majburiy bo'lgan holatlarni keltirib chiqarmagan bo'lsa ham.

Imperator Avgust hukmronlik qilgan paytga kelib, bu majburiy xarakterga ega bo'lib, u konsullarga, pretorlarga yoki ma'muriy mahalliy organlarga murojaat qilishni belgilab uning bajarilishini majburiy holatga keltirdi.

Imperator Yustinian esa 529-531 yillarga kelib uni bajarishni butunlay majburiy qilib qat'iylashtirdi hamda legat va fideikomisslarni birlashtirdi, hamda bu harakatlar albatta beshta guvoh oldida amalgaga oshirish lozimligini ta'kidladi.

IX bo'lim yuzasidan nazorat savollari

1. Meros huquqi tushunchasi va uning turlarini izohlang.
2. Vasiyatnomani tuzish tartibi qanday amalgaga oshirilgan?
3. Qonun bo'yicha vorislik tartibini aniqlang.
4. Agnatlar va kognatlar qavm-qarindoshlik o'rtaсидаги farqni aniqlang.
5. Eri vafot etgan «kambag'al beva»ga qoldiriladigan meros qanday qismlardan iborat bo'lgan?
6. Legatlar va fideikomisslar bir-biridan qanday farqlanadi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Dronnikov V.K. Rimskoye privatnoye pravo. Izd. Kiyevskogo universiteta. 1961.
2. Ioffe O.S., Musin V.A. Osnovo' Rimskogo grajdanskogo pravo. Uchebnoye posobiye dlya studentov. L., 1974.
3. Kask P. Rimskoye pravo i sovremennaya yurisprudensiya. Sovetskoye pravo. 1969. № 1.
4. Kosarev A.I. Rimskoye pravo. M., 1986.
5. Metodicheskiye ukazaniya po kursu osnov rimskogo grajdanskogo prava. Sostavitel(V.A. Ryasensev. M., VYUZI, 1978.
6. Mixail Andreyev. Rimskoye chastnoye pravo. Sofiya. «Nauka i iskusstvo», 1971.
7. Milan Bartoshek. Rimskoye pravo. Ponyatiya, termino', opredeleniya. M., 1989.
8. Nersesyans V.S. Pravoponimaniye rimskix yuristov. Sovetskoye gosudarstvo i pravo. 1980. №2.
9. Noviskiy I.B. Osnovo' rimskogo grajdanskogo prava. M., 1956,1960, 1972 gg. Izd.
10. Noviskiy I.B. Rimskoye chastnoye pravo. M., 1948 .
11. Noviskiy I.B. Rimskoye pravo. M., 1995.

Ilova

- 1.- Yustinian Institusiyasi
Masalan: 1.2.22.1 - Institusiya, 2-kitob, 22-titul, 1-§.
D. - Yustinian Digestlari.
Masalan: D.4.8.9.2 - Digestlar, 4-kitob, 8-titul, 9-fragment, 2-§.
S. - Yustinian Kodeksi.
Masalan: S.4.30.5 - Kodeks, 4-kitob, 30-titul, 5-qonun.
N.- Yustinian Novellalari.
Masalan: 28.N.4.2 - 28-Novella, 4-bob, 2-§.
Gai.3.1 - Gay Institusiyasi, 3-kitob, 1-§.

MUNDARIJA

So'z boshi	4
I BO'LIM. Rim fuqarolik huquqi asoslari fani predmeti	5
1-§. Rim fuqarolik huquqi predmeti	5
2-§. Rim huquqining eksplutasiyaga asoslangan davlatlar huquqining rivojlanishidagi roli.....	8
3-§. Rim fuqarolik huquqi asoslarini o'rganishning O'zbekiston yuristlari uchun ahamiyati	15
I bo'lim yuzasidan nazorat savollari	17
Tavsiya etilgan adabiyotlar	17
II BO'LIM. Rim fuqarolik huquqining manbalari.....	19
1-§. Rim huquqi manbalarining tushunchasi va turlarga bo'linishi	19
2-§. Odat normalari va qonunlar	21
3-§. Magistratlar ediktllari.....	26
4-§. Yuristlar faoliyati.....	29
5-§. Rim huquqlarini kodifikasiyalash.....	32
(bir tizimga keltirish)	32
III BO'LIM. Huquqni himoya qilish shakllari	41
1-§. Huquqni himoya qilish va o'zini-o'zi himoya qilish tushunchasi	41
2-§. Huquqning davlat tomonidan himoya qilinishi	42
3-§. Legisaksion prosessi (jarayoni)	43
4-§. Formulyar prosessi (jarayoni)	46
5-§. Ekstraordinar prosessi (jarayoni)	47
6-§. Interdikt (ta'qiqlash, man etiladigan) ishlarni olib borish.....	48
7-§. Huquqni himoya qilish va amalgam oshirishda vaqtning ta'siri	49
8-§. Da'vo muddati tushunchasi va turlarga bo'linishi.....	50
IV BO'LIM. Rim fuqarolik huquqida shaxslar	52
1-§. Shaxslar tushunchasi	52
2-§. Rim fuqarolarining huquqiy holati.....	55
3-§. Lotinlar va peregrinlarning huquqiy holati	57
4-§. Qullarning huquqiy holati	59
5-§. Ozodlikka qo'yib (chiqarib) yuborilgan shaxslarning huquqiy holati	62
6-§. Kolonlarning huquqiy holati	62
7-§. Yuridik shaxslar	63
V BO'LIM. Oilaviy huquqiy munosabatlari	67
1-§. Rim oilasi tushunchasi (familia), agnatlar va kognatlar qarindoshchiligi	67
2-§. Nikoh tushunchasi	68
3-§. Er-xotining shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatları.....	72
4-§. Ota hukmronligi instituti.....	74
5-§. Vasiylik va homiylik (tutele va cura)	77

VI BO'LIM. 1-bob. Ashyoviy huquqlar haqida umumiylar ta'lilotlar	80
1-§. Ashyolar tushunchasi va turlarga bo'linishi	80
2-§. Ashyolarga bo'lgan huquq turlari	84
3-§. Egallash (possessio-possessio) tushunchasi va turlarga bo'linishi	84
4-§. Egalik qilish va uning tugatilishi. Egallashni himoya qilish	88
5-§. Mulk huquqi tushunchasi va turlarga bo'linishi	89
6-§. Xususiy mulk huquqi tushunchasi va mazmuni	93
7-§. Umumiy mulk huquqi	95
8-§. Sharfnomalar bo'yicha mulk huquqining vujudga kelishi	96
9-§. Mulk huquqini himoya qilish	98
2-bob. Boshqalar (begonalar)ning mulkiga bo'lgan huquq	102
2-§. Servitutlar tushunchasi va turlari	102
3-§. Emfitevzis tushunchasi	106
4-§. Superfisiy tushunchasi	106
5-§. Garov huquqlari	107
VII BO'LIM. Majburiyatlar va sharfnomalar to'g'risidagi umumiylar ta'lilotlar	111
1-§. Majburiyatlar tushunchasi - obligatio (obligasio)	111
2-§. Majburiyatlarning turlarga bo'linishi	113
3-§. Majburiyat munosbatlarining vujudga kelish asoslari	114
4-§. Majburiyat predmeti	116
5-§. Majburiyatlarning vujudga kelishida yuridik faktlar va paktlar tushunchasi	117
6-§. Majburiyatni bajarish joyi tushunchasi va uning ahamiyati	119
7-§. Majburiyatni bajarish muddati va uni kechiktirish holatlari	119
VIII BO'LIM. Sharfnomalarning alohida turlari	122
1-§. Kontraktlar (sharfnomalar) va kelishuvlar (racta) tushunchasi va ularning turlarga bo'linishi	122
2-§. Sharfnomalarga o'xshash harakaflar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari (qvasi ex contractu) kvazi eks kontraktu	128
3-§. Huquqni buzish asosida va huquqni buzishlikka o'xshash asosda kelib chiqadigan majburiyatlar (ex delicto va qvasi ex delicto) eks delikto va kvazi eks delikto	130
IX BO'LIM. Rim davlatining meros huquqiga umumiylar tafsifnomalar (xarakteristikasi)	133
1-§. Meros huquqi tushunchasi. Vorislik huquqi. Uning turlarga bo'linishi	133
2-§. XII Jadval qonunlari bo'yicha vorislik	133
3-§. Pretorlar huquqi bo'yicha vorislik	138
4-§. Yustinian qonunlari bo'yicha vorislik munosabatlari	138
5-§. Legatlar va fidekomisslar	139
Ilova	141

Oral Ernazarov

RIM HUQUQI

Huquqshunoslik institutlari va fakultetlari talabalari uchun darslik.

Muharrir: M. Akmalov.

Texnik muharrir: I. Jumaboyev.

Musahhih: Y. Inamov .

Terishga 2005-yil 27-oktyabrda berildi. Bosishga 2005-yil 1-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84. 1/16. Hajmi 9,0 bosma taboq. Adadi 200 nusxa. Buyurtma №150. Bahosi kelishilgan narxda.

“NAMANGAN” nashriyoti.

Namangan shahri, Navoiy ko’chasi, 3 uy.

“FAXRIZODA” kichik korxonasi.

Namangan shahri, Do’stlik shoh ko’chasi, 2-A uy.

